

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11-son (noyabr 2024)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2024

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangribegan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oipnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 11-son (noyabr 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi (O'zbekiston Milliy universiteti Fizika fakulteti katta o'qituvchisi (PhD); UDK 530.12; E-mail: xudoyberdiyeva94@inbox.ru)
SINGULARLIK BO'LMAGAN QORA TUYNUK ATROFIDAGI ELEKTROMAGNIT MAYDON

Annotatsiya. Qora tuynuklarni matematik jihatdan tavsiflashda ham umumiy nisbiylik nazariyasi doirasidagi va alternativ gravitatsiya nazariyalaridagi turli yechimlar mavjud bo'lib, bunday yechimlarni nazariy jihatdan sinov zarrachalarning qora o'ra atrofidagi harakatida o'zini qanday tutishiga qarab o'rganish mumkin. Bunda masalani fizik realikka yaqinlashtirish maqsadida qora tuynuk atrofida magnit maydon mavjud deb, qolaversa, zarrachalar elektr zaryadiga yoki magnit xususiyatlarga ega deb qarash mumkin. Shu jihatdan bunday jarayonlarni o'rganish gravitatsiya nazariyalarini tekshirishda, xususan, qora tuynuklar tabiatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qora tuynuklar, Kerr-Tauba-NUT, tortishish maydoni, magnit maydonlar.

ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЕ ПОЛЕ ВОКРУГ НЕСИНГУЛЯРНОЙ ЧЕРНОЙ ДЫРЫ

Аннотация. Целью статьи является исследование электромагнитного поля и эффективного потенциала заряженных и тестовых частиц в окрестностях аксиально-симметричных черных дыр, погруженных во внешнее магнитное поле, и выделение энергии в окрестностях аксиально-симметричных черных дыр в спецификации Керр-Тауба-Нута с использованием процесса Пенроуз. До сих пор было очень важно выявить свойства струй, исходящих от компактных объектов (излучение квазаров). В последнее время с помощью процесса Пенроуз несколькими авторами было проведено исследование заряженного движения частиц и процесса извлечения энергии вокруг черных дыр Керра и Керр-Ньюмана. В нашей диссертации мы применяем метод Penrose к пространственному времени Керр-Тауба-Ньюмана и анализируем результаты.

Ключевые слова: черные дыры, Керра-Тауба-НУТ, гравитационное поле, магнитные поля.

THE ELECTROMAGNETIC FIELD AROUND A NON-SINGULARITY BLACK HOLE

Annotation. Given that modern electronics are based entirely on silicon, we can predict an increase in the cost of all electronic devices, gadgets, solar panels and other semiconductor devices in the near future. It is also very important for energy scientists around the world today to find and put into practice the effective elements needed for a new generation of photocells. Therefore, the topic of this master's dissertation is relevant because it is possible to reduce such problems by studying the electrophysical properties of silicon p^+-n-n^+ and p^+-p-n^+ structures.

Key words: black holes, Kerr-Tauba-NUT, gravitational field, magnetic fields.

Kirish. Magnit maydonlar qora o'ralar aylanish kinetik energiyasini ajralib chiqishida va uning elektromagnit to'liqlar hamda zarralarning kinetik energiyasiga aylanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Bunday relativistik jarayonlar, haqiqatan ham, kuzatiladi, lekin ularning paydo bo'lish sohasini kuzatish zamonaviy teleskoplarning imkoniyatlari doirasidan tashqarida qolib ketmoqda. Shuningdek, qora o'ralar atrofidagi yuqori energetik jarayonlar gravitatsion maydonning kvant nazariyasi yordamida tushuntirilishi taxmin qilinmoqda [4].

Kvant gravitatsion nazariyaning yaratilishi hozirgi zamon fizikasining yechilmagan muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. 2009-yili Petr Xorjava tomonidan gravitatsiya nazariyasida kvant sochilishiga ruxsat beruvchi va Lorens-invariantlikni lokal buzilishiga asoslangan yangi alternativ gravitatsion nazariyasi modelini taklif etdi. Xorjava modelidagi qora o'ralar atrofida zarrachalarning tezlashishini tadqiq etishning asosiy sababi standart gravitatsion nazariya doirasidagi qora o'ralar uchun Kerr yechimi Xorjava modelining infraqizil rejimidagi qora o'ralar yechimining xususiy holi bo'lib qolishidir. Shuningdek, Xorjava-Lifshits gravitatsion modeli doirasida aylanuvchi qora o'ralar atrofida zarralarning to'qnashishini tadqiq etish ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Qora o'ra xususiy magnit maydonga ega emas, ammo uni birtorta tashqi magnit maydonda (misol uchun, birtorta neytron yulduz hosil qilayotgan magnit maydonda yoki akretsion diskda harakat qilayotgan zaryadli zarralar oqimi hosil qilayotgan magnit maydonda) joylashgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Magnit maydonlar astrofizik kompakt relativistik neytron yulduzlarning ajralmas qismi bo'lib, juda boy kuzatuv fenomenologiya manbayi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi paytda kuzatuvlar qora o'ralarning hususiy magnit maydoni mavjudligini tasdiqlay olishmayapti. Shunga qaramay, so'nggi paytdagi baholashlar hodisalar gorizonti atrofidagi magnit maydon kuchlanganligi yulduz massasidagi qora o'ralar uchun 10^8 Gs, o'ta massiv qora o'ralar uchun esa 10^4 Gs.ga teng ekanligini ko'rsatyapti [4],[8],[10]. Tashqi magnit maydonda joylashgan qora o'ralar atrofida zar-

ralarning harakati va elektromagnit maydonlarning tadqiqoti bo'yicha jahon miqyosida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: umumiy nisbiylik nazariyasi va modifikatsiyalangan gravitatsiya nazariyalari doirasida aylanuvchi qora o'ralarning soyalari olingan va xossalari o'rganilgan (A.Eynsteyn nomidagi Maks Plank gravitatsion fizika instituti va Frankfurt universiteti, Germaniya; Universitetlararo astronomiya va astrofizika markazi, fizika bo'yicha ilmiy laboratoriya va Tata fundamental tadqiqotlar instituti, Hindiston; Bremendagi amaliy kosmik texnologiyalar markazi, Germaniya, Moskva davlat universiteti, Shternberg nomidagi davlat Astronomiya instituti, Rossiya), aylanuvchi qora o'ralar atrofida elektromagnit maydonlar tuzilishi aniqlandi, tashqi magnit maydonda joylashgan qora o'ra atrofida zaryadlangan zarralarning harakati tadqiq etilgan (Astronomiya instituti, A.Eynsteyn markazi va Opavadagi Sileziya universiteti, Chexiya; Alberta universiteti, Kanada; Universitetlararo astronomiya va astrofizika markazi, Hindiston; Bremendagi amaliy kosmik texnologiyalar markazi va Oldenburg universiteti, Germaniya); umumiy nisbiylik nazariyasi va alternativ gravitatsion nazariyalar doirasida aylanuvchi qora o'ralar atrofida energetik jarayonlar, xususan, Xorjava gravitatsion modelida qora o'ralar atrofida fazo-vaqt strukturasi tadqiq etilgan (Astronomiya instituti, A.Einsteyn markazi va Opavadagi Sileziya universiteti, Chexiya, Alberta universiteti, Kanada, Bremendagi amaliy kosmik texnologiyalar markazi, Germaniya) [4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Qora o'ra atrofida magnit maydon strukturasi Qora o'ra atrofida fazo-vaqt ta'siri ostida o'zgarishini hamda bu o'zgarishning Qora o'ra turli parametrlariga bog'liqligini, elektr va magnit maydonlarni hamda Qora o'ra atrofida energiya ajralish mexanizmlarini, jumladan, Penrose mexanizmi yordamida aksial-simmetrik qora o'ralar vaqt-vazosida-Kerr, Kerr-Taub-NUT va Xorava-Lifshits metrikalari misolida tahlil qilishdan iborat. Qora o'ra atrofida elektromagnit maydonlar hamda bu maydonda sinov zarralar harakati, aksial-simmetrik Qora o'ralar maqola asosiy obyekti hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and result). Biz interval tomonidan tavsiflangan konform tortishish sharoitida singular bo'lmagan qora tuynuk atrofida elektromagnit maydonni o'rganamiz.

$$ds^{*2} = S(r, \theta) ds_{Kerr}^2 \quad (1.1)$$

Bu yerda

$$ds_{Kerr}^2 = g_{\alpha\beta}^K dx^\alpha dx^\beta \quad (1.2)$$

$$g_{00}^K = -\left(1 - \frac{2Mr}{\Sigma}\right) g_{11}^K = \frac{\Sigma}{\Delta} g_{22}^K = \Sigma$$

$$g_{33}^K = \left[(r^2 + a^2) + \frac{2a^2 Mr \sin^2 \theta}{\Sigma} \right] \sin^2 \theta \quad g_{03}^K = -\frac{2Mar \sin^2 \theta}{\Sigma}$$

$$\Delta = rr^2 + a^2 - 2Mr, \Sigma = r^2 + a^2 \cos^2 \theta \quad (1.3)$$

$$S(r, \theta) = \left(1 + \frac{L^2}{\Sigma}\right)^{2N+2} \quad (1.4)$$

Bu yerda: a –umumiy qora tuynukning spin parametri, M –umumiy massa, S –konform mashstabs deb nomlanadi, L va N –konform parametrlari ya'ni konform masshtab bilan bog'liq parametrlar. Penrose diagrammasi va kuzatishlar uvhuni bo'shliqning tuzilishi qora tuynuk yechimining singular bo'lmagan fazo-vaqt Kerr yechimining Penrose diagrammasiga mos keladi, konform konvertatsiya qilish fazo-vaqt tuzilishini o'zgartirmaydi. Ular faqat masofani o'zgartiradi. $r = 0$ da Kerrning singular xususiyati bizning yechimimizdagi egrilikning singular xususiyati emas, chunki skalar egrilik va Kretschmann skalar konformli transformatsiyalarda invariant emas. Konform mashstabdanda so'ng, katta zarralar $r = 0$ nuqtasiga erishishi uchun cheksiz vaqtni talab qiladi.

Massasiz zarralar $r = 0$ nuqtasiga erishish uchun ularning yaqin parametrlarining cheksiz qiymatini talab qiladi. Demak, $r = 0$ nuqtasida geodeziya harakati ma'nosida endi singular emas. Shunday qilib, S konform masshtab $r = 0$ da singularlikni bartaraf etishga imkon beradi. S , shuningdek, $r = 0$ da yagona hisoblanadi va bu $r = 0$ da Kerr yechimining singularligini bilish uchun juda muhimdir. $N \geq 1$ uchun konform koeffitsienti $r = 0$ da Kerr metrikasining singularligini bartaraf etishi mumkin, kamroq qiymat bilan S xususiyati Kerr metrikasining singularligini bartaraf etish uchun yetarlicha kuchli emas. Batafsil ma'lumotni ushbu yechimni o'z ichiga olgan maqolada berilgan.[8] Tashqi, asimptotik bir jinsli bo'lgan magnit maydonga joylashtirilgan, fazo-vaqtning simmetriya o'qi yo'nalishi bo'ylab yo'naltirilgan, singulyar bo'lmagan qora tuynuk atrofida elektromagnit maydonni ko'rib chiqaylik. Elektromagnit maydonning energiya momentining tenzori kichik, fazo-vaqt metrikani o'zgartirmaydi va quyidagi qiymat tartibiga ega:

$$\frac{B^2 r^3}{8\pi m c^2} \simeq \frac{3}{400} \left(\frac{B}{10^3 G} \right)^2 \left(\frac{M_\odot}{M} \right) \left(\frac{r}{1.5 \text{ km}} \right)^3 \quad (1.5)$$

Qora tuynukning fazo-vaqt geometriyasining simmetriyasi uchun kerak bo'lgan ξ^μ Killing vektori-dan foydalanib, tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\xi_{\alpha;\beta} + \xi_{\beta;\alpha} = 0 \quad (1.6)$$

(1.6) ifodalar quyidagi tenglamani olish uchun ishlatilishi mumkin:

$$\xi_{\alpha;\beta;\gamma} - \xi_{\alpha;\gamma;\beta} = -\xi^\lambda R_{\lambda\alpha\beta\gamma} \quad (1.7)$$

Rimanning $R_{\lambda\alpha\beta\gamma}$ egrilik tenzori Ricciga quyidagi tarzda aylantirilishi mumkin:

$$\xi^{\alpha;\beta}{}_{;\beta} = \xi^\gamma R_{\gamma\beta}{}^{\alpha\beta} = R^\alpha{}_\gamma \xi^\gamma \quad (1.8)$$

Konform tortishuvda aylanadigan qora tuynukning singularligidan ozod bo'lgan fazo-vaqt uchun tenglamaning o'ng qismi (1.8) $R^\alpha{}_\gamma \xi^\gamma = \eta^\alpha$ sifatida tanlanishi mumkin. Keyin Maxwell tenglamalarini quyidagi shaklda ifodalanishi mumkin:

$$F^{\alpha\beta}{}_{;\beta} = -2\xi^{\alpha;\beta}{}_{;\beta} + 2\eta^\alpha = 0 \quad (1.9)$$

Bu yerda $F_{\alpha\beta}$ elektromagnit maydon tenzoridir va quyidagi kabi tanlanishi mumkin:

$$F_{\alpha\beta} = C_0 \xi_{[\beta;\alpha]} + f_{\alpha\beta} = -2C_0 (\xi_{\alpha;\beta}) + a_{[\beta,\alpha]} \quad (1.10)$$

Bu yerda: C_0 – doimiy integral, 4-vektor a^α Ricci fazo-vaqtning tengsizligi uchun kerak bo'lgan konformli tortishish parametrlari mavjudligi dababli potensialga o'zgartirish. 4-vektorni $a^\alpha = \eta^\alpha$ tenglamasidan topish mumkin. Keyin elektromagnit potensial ikki hadlar yig'indisi miqdori sifatida yozilishi mumkin:

$$A^\alpha + \tilde{A}^\alpha + a^\alpha \quad (1.11)$$

Bu yerda \tilde{A}^α Killing vektorlariga proporsional potensialdir. \tilde{A}^α yechim topish uchun, $\tilde{A}^\alpha = C_1 \xi_{(t)}^\alpha + C_2 \xi_{(\varphi)}^\alpha$ shaklida Lorentz kalibrovka elektromagnit maydon \tilde{A}^α vector potensial uchun ansatzdan foydalanish mumkin. Berilgan $C_2 = \frac{B}{2}$ konstanta bu yerda tortishish manbai aylanish o'qiga parallel ravishda bir xil B magnit maydonga kiritiladi. Qolgan o'zgarish qiymat $C_1 = a B$ asimptotik cheksizlik uchun fazo-vaqtning asimptotik xususiyatlaridan (1.2) osongina hisoblanishi mumkin.

Elektromagnit maydon vector potensialining ikkinchi qismi a^α konformal tortishish hisobiga hosil bo'ladi va $a^\alpha = \{kBL^2/r, 0, 0, 0\}$ yechimga ega, k –konstanta fazo-vaqtning cheksizlikdagi xossalardan topiladi. Biroq konformli tirtishishning ta'siri uzoq masofalarda juda kam, $k \rightarrow 0$ ga intilayotgan ushbu qismni chiqarib tashlash va Kerr kabi 4-vektorli potensial uchun an'anaviy kontravariant ifodadan foydalanishi mumkin. Nihoyat, A_α ning 4-vektroli potensialning tarkibiy qismlari elektromagnit maydon ko'rinishini oladi:

$$A_0 = \frac{aB(L^2 + \Sigma)^4 (2Mr - \Sigma - mr \sin^2 \theta)}{\Sigma^5} \quad (1.12)$$

$$A_1 = 0 \quad (1.13)$$

$$A_2 = 0 \quad (1.14)$$

$$A_3 = \frac{B \sin^2 \theta (L^2 + \Sigma)^4}{2\Sigma^5} \times (2a^2 Mr \sin^2 \theta + a^2 (\Sigma - 4Mr) + r^2 \Sigma) \quad (1.15)$$

$N = 1$ ni qabul qilamiz. u_α to'rtinchi tezligida harakatlanadigan ramkada elektr va magnit maydonlarining tarkibiy qismlari yoziladi:

$$E_\alpha = F_{\alpha\beta} u^\beta \quad (1.16)$$

$$B^\alpha = \frac{1}{2} \eta^{\alpha\beta\sigma\mu} F_{\beta\sigma} u_\mu \quad (1.17)$$

Elektromagnit maydon tenzori, $F_{\alpha\beta}$, 4-potensial orqali quyidagicha ifodalinishi mumkin:


$$F_{\alpha\beta} = A_{\beta,\alpha} - A_{\alpha,\beta} \quad (1.18)$$

Yuqorida keltirilgan ifodalarni 4-tezlik komponenti bilan nol impuls moment kuzatuvchilari (ZAMO) uchun ishlatiladi:

$$(u^\alpha)_{ZAMO} \equiv \sqrt{-g^{00}} \left(1, 0, 0, \frac{g^{03}}{g^{00}} \right) (u_\alpha)_{ZAMO} \equiv \frac{-1}{\sqrt{-g^{00}}} (1, 0, 0, 0) \quad (1.19)$$


(1.6)-(1.8)dagi ifodalar yordamida elektromagnit sohaning komponentalarini ko'rish mumkin (1;19-b.) ko'rinishiga ega bo'lgan to'rt tezlikli tezlikda nol impuls momentiga ega kuzatuvchilar tomonidan o'lchanadigan elektromagnit maydonning yo'qolmaydigan ortonormal komponentalari ifodalari va chiqiziqli

yaqinlashuvi bilan berilgan konformal tortishish parametri L^2 1.1–rasmda θ burchakning turli qiymatlari vakonformal tortishish parametri L^2 ning elektromagnit maydonlar komponentalariga radial bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



1-rasm. θ ning turli qiymatlari uchun elektr va magnit maydonlarning radial bog‘liqligi. Barcha grafiklar $B = 1$ va $M = 1$ holatlarda chizilgan. Qora qalin chiziqlar $L^2 = 0$ gamos keladi, uzlukli qizil va ko‘k chiziqlar $L^2 = 0, 2$ va $L^2 = 0, 4$ ga mos keladi.

ZAMO tizimidagi qora yutnuk atrofidagi elektromagnit maydonlarning tuzilishini 1-rasmda ko‘rish mumkin. Sekin aylanish ($\alpha \ll M$) va uzoq masofa ($\frac{M}{r} \ll 1$), ifodalar.



2-rasm. Qora yutnuk atrofidagi magnit va elektr maydonlarning tuzilishi. Ko‘k va qizil chiziqlar mos ravishda magnit va elektr maydonlariga mos keladi.

$$E^{\hat{r}} = -\frac{aB}{r^2} \left[\frac{8L^2}{r} + M(2 + \sin^2 \theta) \right] \quad (1.20)$$


$$E^{\hat{\theta}} = -\frac{2aBM}{r^2} \left[1 + \frac{M}{r} \right] \sin^2 \theta \quad (1.21)$$

$$B^{\hat{r}} = B \cos \theta \quad (1.22)$$

$$B^{\hat{\theta}} = B \sin \theta \times \left[1 - \frac{M}{r} - \frac{8L^2 + M^2}{2r^2} - \frac{M^3 - 8ML^2}{2r^3} \right] \quad (1.23)$$

(1.20)–(1.23) ifodalardan ma'lum bo'ladiki, bunday chegaralar doirasida conform gravitatsiya faqat $E^{\hat{r}}$ va $B^{\hat{\theta}}$ tarkibiy qismlarga ta'sir qiladi, boshqa komponentlar ($E^{\hat{\theta}}$ va $B^{\hat{r}}$) esa L^2 ga hech qanday hissa qo'shmaydi.

Ikkinchisi, ayniqsa, q.q-rasmda $E^{\hat{\theta}}$ aniq ko'rinadi. Fazo-vaqt yaqinlashuvchi, ya'ni $\frac{M}{r} \rightarrow 0, Ma/r^2 \rightarrow 0$ va $L^2/r^2 \rightarrow 0$ ifodasi quyidagi ifoda cheklovini beradi: $B^{\hat{r}} = B \cos \theta, E^{\hat{r}} = E^{\hat{\theta}} = 0$, Nyuton chegarasidagi bir xil magnit maydonning yechimlariga muvofiq, fazo-vaqtdir. 3-rasmda spin va conform parametrlarining turli qiymatlari uchun qora tuynuklar atrofidagi magnit maydonlarning ko'rinishi tasvirlangan. O'ng yuqori va pastki chizmalarda conform parametri parallel maydon chizig'ini dipol strukturasi ega bo'lishi olib keladi. Nihoyat, pastki chizmalar qora tuynukning conform va spin parametrlarini solishtirish imkonini beradi.



3-rasm. $x - z$ tekisligidagi qora tuynuk atrofidagi magnit maydon chiziqchilari a aylanish parametrlarining turli qiymatlari va L conform parametrlari uchun. $M = 1$ bo'lgan o'lchov birligida...

Tahlil va natijalar (Analysis and result). Ushbu maqolada asimptotik bir jinsli magnit maydonga joylashtirilgan conform gravitatsiya sharoitida singular bo'lmagan qora tuynuklar atrofidagi elektromagnit maydon va zaryadlangan zarralarning dinamikasi ko'rib chiqildi. Birinchidan, conform tortishish sharoitida aylanadigan singular bo'lmagan qora tuynuklar atrofida elektromagnit maydon tenglamasining analitik yechimlarini olindi. Biz elektr va magnit maydonlarining radial qismlari qora tuynuk yechimining L va N parametrlarini oshirish bilan ortishini kuzatamiz. Ikkinchidan, biz zaryadlangan zarrachalarning dinamikasini o'rganamiz. L va N parametr qiymatlarini oshirish magnit maydon eng ichki barqaror aylanma orbitalar (ISCO) radiusining pasayishiga olib keladi va magnit bog'lanish parametri $N=3$ ga teng bo'lgan bir xil ISCO radiusini ta'minlab, conform tortishish effektini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Javlon Rayimbaev, Pulat Tadjimuratov, Ahmadjon Abdujabbarov, Bobomurat Ahmedov, Malika Khudoyberdieva. Dynamics of test particles and twin peaks QPOs around regular black holes in modified gravity. Galaxies 9(4), id: 75 (2021) (№ 1. Web of Science: IF=2.05).

- (2). Javlon Rayimbaev, Ahmadjon Abdujabbarov, Mubasher Jamil Wen-Biao Han, Malika Khudoyberdieva, Dynamics of test particles around charged black holes in Einstein-Æther gravity. *Modern Physics Letters A*. World Scientific (Singapore), vol.37, Iss: 33, Article: 2250220 (2022), 31 pages, (№ 1. Web of Science: IF=2.066).
- (3). Xudoyberdiyeva Malika, Jurayeva Nozima. Tarkibida kompakt obyektlar bo'lgan tor qo'shaloq sistema-larning elektromagnit nurlanishi. *Scientific journal of Samarkand State University*. 2020, №5(141) (01.00.00. №2).
- (4). Xudoyberdiyeva Malika. Elektromagnit maydonda qora o'ra atrofidagi zaryadlangan zarralar. *Scientific journal of Namangan State University*. 2021, №10(22) (01.00.00. №14).
- (5). Xudoyberdiyeva Malika. Qora o'ralar atrofidagi elektromagnit maydon. *Scientific journal of Urgench State University*. 2021, №10(17) (01.00.00. №12).
- (6). Xudoyberdiyeva Malika, Jurayeva Nozima. Qora o'ra atrofida energiya olish mexanizmlari. *Scientific journal of Namangan State University*. 2020, №12(20) (01.00.00. №14).
- (7). Malika, X. (2021, March). The penrose process of kerr-taub-nut spacetime. In *E-Conference Globe* (pp. 240–241).
- (8). Toshmatov, B., Abdujabbarov, A., Ahmedov, B., & Stuchlik, Z. (2015). Motion and high energy collision of magnetized particles around a Hořava-Lifshitz black hole. *Astrophysics and Space Science*, 360 (1), 19.
- (9). Karas, V., Kopacek, O., Kunneriath, D., & Hamersky, J. (2014). Oblique magnetic fields and the role of frame dragging near rotating black hole. *arXiv preprint arXiv:1408.2452*.
- (10). Frolov, V. (2002). Particles and fields near black holes. *The Galactic Black Hole*, 125.
- (11). Atamurotov, F., Shaymatov, S., Sheoran, P., & Siwach, S. (2021). Charged black hole in 4D Einstein-Gauss-Bonnet gravity: particle motion, plasma effect on weak gravitational lensing and centre-of-mass energy. *Journal of Cosmology and Astroparticle Physics*, 2021(08), 045.

Egamberdiyeva Ozoda Shuhrat qizi (Qarshi DU tayanch doktoranti)
FIZIKANING TADQIQOT METODLARINI GUMANITAR FANLARDA QO'LLASH

***Annotatsiya.** Maqolada umumlashtirish bilangina fizikaning tadqiqot metodlarini gumanitar fanlar-ga qo'llashning ilmiy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, nazariy umumlashtirish–tushuncha, qonun va dalil kabilarning o'zaro bog'lash xususiyatiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shu munosabat bilan, sotsio-logiya, fizika va matematikaning birlashishidan kelib chiqqan fanlararo bog'lanishning natijasi bo'lib, ke-lajakda fizikani gumanitarlashtirishning asosiy aspektlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** umumlashtirish, tabiat va jamiyat, termodinamika, sotsiologiya, sinergetika, ketma-ketlik, fundamental qonunlar, energiya, materiya, entropiya, termodinamik ehtimolyat, sistema, tushuncha, modellar, qonunlar, integratsiya.*

Эгамбердиева Озода (докторант Каршинского государственного университета)
ПРИМЕНЕНИЕ В ГУМАНИТАРНЫХ НАУКАХ ФИЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ
ИССЛЕДОВАНИЯ

***Аннотация.** В статье освещены научные основы применения исследовательских методов физики в гуманитарных науках. Показано также, что теоретическое обобщение имеет свойство связывать понятия, законы и доказательства. В связи с этим выделены основные аспекты гумани-зации физики в будущем, которая является результатом междисциплинарности, возникающей в результате объединения социологии, физики и математики.*

***Ключевые слова:** обобщение, природа и общество, термодинамика, социология, синергетика, последовательность, фундаментальные законы, энергия, материя, энтропия, термодинамическая вероятность, система, понятие, модели, законы, интеграция.*

Egamberdieva Ozoda (Doctoral student of Karshi State University)
METHODS OF RESEARCH IN PHYSICS APPLICATION IN THE HUMANITIES

***Annotation.** The article highlights the scientific foundations of the application of research methods of physics in the humanities. It is also shown that theoretical generalization has the property of linking con-cepts, laws and evidence. In this regard, the main aspects of the humanization of physics in the future are highlighted, which is the result of interdisciplinarity arising from the unification of sociology, physics and mathematics.*

***Key words:** generalization, nature and society, thermodynamics, sociology, synergetics, sequence, fundamental laws, energy, matter, entropy, thermodynamic probability, system, concept, models, laws, inte-gration.*

Kirish. XXI asrga kelib, bilim sarhadlarini egallash uchun ularni umumlashtirish bilangina amalga oshirish zarurati yaqqol namoyon bo'la boshladi. Buning natijasida hozirgi vaqtda tabiat va jamiyatning birligi masalasi uyg'unlashdi. Hozirgi kunga kelib, ta'lim tezligi va sifatini ko'p marta oshirish imkonini

beradigan texnik imkoniyatlar yuzaga keldi. Ulardan samarali foydalanish zarurligi bundan 50–60-yillar oldin ham, qayta-qayta e'tirof etilgan. Zero, tabiat, o'z navbatida, yagona, butun bo'lib, jonsiz, jonli va aql-idrok kabi qismlardan, jamiyat esa tabiat evolusiyasining mahsuli bo'lib, uning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham jamiyatda ro'y beradigan jarayonlar asosida tabiatning fundamental qonunlari yotadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bunday qonunlardan biri XIX asrda aniqlangan termodinamika qonunlari va XX asr oxirida kashf qilingan materiyaning o'z-o'zicha rivojlanish (sinergetika) qonunlaridir. Bu qonunlarning jonsiz va jonli aql-idrok uchun umumiyligi isbotlandi. Shu munosabat bilan, sofi-zmatika – sotsiologiya, fizika matematikaning birlashishidan kelib chiqqan fanlararo bog'lanishning natijasi bo'lib, bunday yondashuv uchta aksiomatik tamoyilni o'z ichiga oladi [1].

1. Jamiyatda ham fundamental fizik qonunlar – termodinamika va sinergetika qonunlari ham harakat qiladi. Ular tabiatga ham, jamiyatga ham bir xil qo'llanishga ega, faqat uni qo'llash metodi bilan farq qiladi.

2. Tabiat va jamiyat N.Viner bo'yicha umumiy boshqarish (yoki kibernetika) qonunlarga bo'ysunadi.

3. Matematika universal instrument bo'lib, tabiat va jamiyatdagi barcha holatlar va jarayonlarni fundamental fizik caqlanish va qonunlari bilan moslashgan holda tasvirlashga xizmat qiladi [2].

Miya yuzasining 50 foizi ko'z bilan ko'riladigan axborotni qayta ishlashga mo'ljallangan. Bir necha yil avval o'tkazilgan tajribada inson 10 sekund davomida 2500 ga yaqin tasvirni eslab qolishga qodir ekanligi aniqlangandi. Yana ham ajablanarlisi, bu 10 sekund davomida ko'rilgan tasvirlarning 63 foizini kishilar bir yil o'tgandan keyin ham yaxshi eslashdi. E'tibor bering, ularga 10 sekundda 2500 surat namoyish etilgandi.

Axborotni xotiraga saqlash bo'yicha vizual ketma-ketlik matn va og'zaki tushuntirishga nisbatan olamshumul farqqa–effektivlikka egaligi ma'lum bo'ldi. Odam 72 soatdan keyin og'zaki yetkaziladigan ma'lumotning 10 foizini eslasa, tasvir orqali yetkazilgan ma'lumotning 65 foizini eslaydi.

Boshqacha qilib aytganda, bosh miya o'z quvvatining yarmini ko'zlar qabul qiladigan axborotni tahlil qilishga sarflasa, qolgan quvvatini tananing boshqa qismlariga taqsimlar ekan. Miya, hatto matnni angliayotganda ham tasvirni tez anglash qobiliyatini ishga solar, ya'ni, harf va so'zlarni tasviriy ramzlar sifatida qabul qilishni odatga aylantirib olar ekan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Fundamental qonunlar jumlasiga XIX va XX asrda ochilgan termodinamika qonunlari kiradi. Klassik termodinamikaning birinchi qonuni–energiyaning saqlanish qonuni bo'lib, materiyaning abadiyligi va uning yo'qolmasligini ifodalaydi. Bu qonunning matematik ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$\delta Q = dU + \delta A \quad (1)$$

Bu yerda: sistemaga berilgan yoki undan olingan elementar issiqlik miqdori; dU – ichki energiya bo'lib, u holat funksiyasidir; –sistema ustida bajarilgan elementar ish. (1) ifodani amaliy maqsadlarda qo'llash uchun quyidagicha yozish mumkin [4]:

$$dU = \delta Q - \delta A \quad (2)$$

Termodinamikaning ikkinchisi–yopiq sistemalarda entropiyaning uzluksiz oshib borish qonunidir. Nemis fizigi Klauzius 1865-yilda entropiya o'zgarishini formula bilan ifodalagan edi:

$$dS = \frac{\delta Q}{T} \quad (3)$$

Bu yerda: S –entropiya bo'lib, u holatning funksiyasidir, shuning uchun u to'la differensial ko'rinishda yoziladi, T –absolut temperatura. (3) ifodani yana quyidagicha yozish mumkin:

$$\delta Q = T \cdot dS \quad (4)$$

Tahlil va natijalar. Yuzaga kelayotgan misli ko'rilmagan imkoniyatlar yordamida bola qisqa vaqt mobaynida ko'p bilimni o'zlashtirishi mumkin. Bunday samara axborotning bir emas, bir nechta o'lchamlarda, qiziqarli, dinamik tasvirlar shaklida bolaga yetkazilishi bilan, jarayon maroqli o'tishi bilan ta'minlanadi. Demak, qisqa vaqt mobaynida ko'p bilim olish uchun bilishning nazariy pag'onasidan foydalab, har qanday ilmiy dalillarni, ilmiy tushunchalarni, modellarni, fizik qonuniyatlarni va nazariyalarni gumanitarlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [5].

Bizga ma'lumki, sistemaga berilgan issiqlik miqdori to'la ishga o'tmas ekan, ya'ni energiya isrofligi yoki qadrsizlanishi mumkin ekan. Ana shu qadrsizlanish va isroflikni ifodalash uchun entropiya tushunchasi kiritilgan. (3) ifoda termodinamikaga 1865-yilda nemis fizigi Klauzius tomonidan kiritilgan edi. Klauzius

bo'yicha entropiyaning o'zgarishi yopiq sistemada hamma vaqt oshishga intiladi. Entropiyaning fizik ma'nosini mashhur fizik L.Bolsman tushuntirdi va u quyidagi formulani kashf qildi:

$$S = k \ln W . \quad (5)$$

Bu yerda: S –entropiya, k –Bolsman doimiysi, W –termodinamik ehtimolyat. (5) formula makrofizika bilan mikrofizikani bir-biriga bog'ladi, ya'ni, bir-biridan juda uzoq bo'lgan fizik kattalik – entropiyani matematik kattalik ehtimoliyat bilan bog'ladi, ehtimoliyatga fizik talqin berdi.

Bu qonun bo'yicha sistemaning entropiyasi ehtimoliyati kichik bo'lgan holatdan entropiyasi yuqori bo'lgan holatga o'tishga intiladi. Klauzius va Bolsman tomonidan ochilgan bu qonun 150 yil davomida juda ko'p fizikaviy, kimyoviy, biologik, kosmologik va boshqa masalalarni yechishda muhim rol o'ynadi. M. Plank bu qonundan foydalanib, nurlanish qonunlarining energiya zichligini, A.Eynshteyn qattiq jismning entropiyasini, Endryu qora tuynukning entropiyasi va temperaturasini, Shennon axborot entropiyasini, E. Shredinger hayot entropiyasini, V.Gibbs kimyoviy termodinamikaga asos soldi.

Statistik fazoda $\ln W$ kattalik o'rniga asosiy kattalik sifatida statistik summa olinadi:

$$Z = \sum e^{-\frac{E_i}{kT}} . \quad (6)$$

k –Bolsman doimiysi, E_i –sistemaning i holatdagi energiyasi. Barcha fizik kattaliklarni $\ln Z$ orqali ifodalash mumkin:

$$S = k(\ln Z + \frac{E}{kT}) . \quad (7)$$

Bu esa (5) ifodaning o'zginasi:

$$\frac{dH}{dt} \leq 0 . \quad (8)$$

$\frac{dH}{dt} = 0$ bo'lsa sistema muvozanat holatda bo'ladi. H kattalik ikkinchi qonunidan ishora bilan farq qiladi. Entropiya oshsa, H kamayadi.

Keyinchalik, fizika va boshqa fanlarning rivojlanishi termodinamika qonunlarini yanada takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. 1977-yilda I.Prigojin klassik termodinamika qonunlarini qaytmas, nochiqli, muvozanatsiz holatga qo'llash bo'yicha muhim ishga yakun yasadi. Bu ish uchun unga Nobel mukofoti berildi. U ko'rsatdiki, termodinamika qonunlarida faqat entropiyaning o'sishi yetarli emas ekan, uning hosil bo'lish manbai, quvvati va uning o'sish tezligini bilish kerak ekan. U Klauziusning (3) qonunni quyidagicha umumlashtirdi [6]:

$$dS = d_i S + d_e S \quad (9)$$

bu yerda: birinchi had – sistema ichki holatining entropiyasining o'zgarishini bildiradi, unga entropiya ishlab chiqarish deb ham ataladi, ikkinchi had esa tashqi muhit hisobidan hosil bo'ladigan energiya oqimini bildiradi.

I. Prigojin ko'rsatdiki, $d_i S \geq 0$ bo'ladi. Qaytar jarayonlar uchun $d_i S = 0$, qaytmas jarayonlar uchun $d_i S \leq 0$. (9) ifodani entropiyaning vaqt bo'yicha va birlik hajmda o'zgarishini hisobga olgan holda quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d_i S}{dt} = \int \sigma[S] dV \geq 0 \quad (10)$$

$$\frac{d_e S}{dt} = \Phi[S] = \int \psi_n d\Omega . \quad (11)$$

Endi entropiyaning turli xil fanlarda qo'llanilishiga doir misollar keltiramiz:

$$S = k \log P_i \quad (12)$$

Entropiya va axborotning o'zaro bog'lanishini Shennon ko'rsatdiki, P_i –cistema i –holatda topilish ehtimoliyati. S –bu bizning bilimimizning to'la emasligini o'lchovidir.

•Keyingi vaqtda entropiya tushunchasini termodinamik yondoshuvni gravitatsiya nazariyasini qo'llash umumiy nisbiylik nazariyasini termodinamika bilan birlashtirishga yordam beradigan kashfiyotlarga

olib keldi. Qora tuynukning o'zgarishi uning gorizont sirti yuzasining oshish yo'nalishiga qarab o'zgaradi. Bu qonuniyat entropiya uchun quyidagi munosabatni olishga olib keldi:

$$S = \frac{kc^3 A}{4\pi \cdot G} \quad (13)$$

• A—gorizont sirtining yuzi. Massasi Quyosh massasiga teng bo'lgan qora tuynuk uchun entropiya $10^{60} \frac{Erg}{C}$; agar uni Quyosh entropiyasi uchun hisoblasak, $10^{42} \frac{Erg}{C}$ ga tengligi kelib chiqadi. Qora tuynuk temperaturasi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{\hbar g}{k\pi \cdot c} \quad (14)$$

Entropiya va issiqlik mashinalari:

$$\eta = \frac{Q_1 dS - Q_2 dS}{Q_1 dS} = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (15)$$

• Issiqlik nurlanish entropiyasi.

• Plank (1900) termodinamik tasavvurlardan foydalanib, issiqlik nurlanishi energiyasining spektral zichligini va temperaturasini hisobladi. Bu nazariya asosida ham Bolsmaning (5) ifodasi o'rinli ekanligini ko'rish mumkin.

• Entropiya va biologiya.

• Mashhur fizik Shredenger hayotning entropiyasi manfiy ekanligini ko'rsatdi va uning entropiya deb atadi. Bu bilan u biologik termodinamikaga asos soldi.

$$N = -S \quad (16)$$

Termodinamika qonunlarini entropiyaning kimyoda qo'llanilishi bo'yicha mashhur fizik U.Gibbs (1839–1903) ish olib borish kimyoviy termodinamikaga asos soldi.

Endi termodinamika qonunlarini iqtisodiyotga qo'llanilishiga o'taylik. Termodinamikaning birinchi qonunini (1) iqtisodiyot uchun quyidagi yozish mumkin:

$$dB = \delta q - \delta A \quad (17)$$

Bu yerda: dB —balansning o'zgarishi, δq —kredit, δA —debit.

• Iqtisodiyot entropiyasi.

• Entropiyani kapitalning valutaga nisbatan inflyatsiyasining yoki uning qadrsizlanish.

• "Ta'lim" entropiyasi:

$$dS = \frac{Dg}{\Phi} \quad (18)$$

• Bu yerda: dG —ta'lim tizimining kamchiligi yoki foydaga teskari bo'lgan kattalik, Φ —ta'limga ajratilgan moliya resursi.

Xulosa va takliflar. Tabiat qonunlarini sotsial mazmun bilan to'ldirish yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga olib keladi. Bunday dunyoqarash jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlarning mohiyatini tushunishga yordam beradi, u jamiyatda hozirgi vaqtda subyektiv hal qilinayotgan muhim sotsial voqealarni tabiatning obyektiv qonunlari bilan moslab olib borish va shu yo'l bilan jamiyat rivojlanishida ro'y beradigan keraksiz holatlardan qutilishga yordam beradi. Shunday qilib, sotsial jarayonlar va hodisalar fizikasi vujudga keldi. Xuddi shunday jarayon tarixda ham mavjud ekanligi isbot bo'lmoqda. Tarix matematika va fizika bilan birga qo'shilib ketmoqda. Masalan, topilgan arxeologik qazilma yoki tangani fizik tahlil qilib, uning qaysi davrga tegishli ekanini juda aniqlik bilan aytish mumkin. Keyingi yillarda termodinamika va statistik fizika qonunlarini iqtisodiyotga qo'llanilishi bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, fizika qonunlarining umumiyligi, uning fazo va vaqt bo'yicha o'zgarimasligi tabiat, jamiyat va aql-idrokning ham bir-biri bilan uzviy bog'langanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Турсунов Қ.Ш. Табиий-илмий фанлар интеграцияси асосида янги фанларнинг пайдо бўлиш методологияси. Тошкент, "Замонавий таълим", № 3, 2022, 10–16-бетлар.

(2). Винер Н. Кибернетика, или управление и связь в животном и машине. 2-е изд., М., гос. изд-во физико-математической лит., 1968.

(3). Винер Н. Творец и Будущее. М., гос. изд-во физико-математической лит., 2003.

(4). Tursunov Q.Sh., Egamberdiyeva O.Sh. Biofizikadan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, O'quv qo'llanma, Qarshi, "Intellekt" nashriyoti, 2024.

(5). Tursunov Q.Sh. Uzluksiz fizika ta'limida nazariy umumlashtirishlar asosida statistik qonuniyatlarni o'rganish. Toshkent, "Fizika, matematika va informatika", № 3, 2023, 145–153-betlar.

(6). Пригожин И. Р. Молекулярная теория растворов. Москва, "Металлургия", 1990, 358 с.

Жарақов Азамат Икромбайевич, Маткаримова Шоира Умидбековна, Давлетов Икрам Юсубович
(Urganch davlat universiteti, 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14, O'zbekiston; azamat@urdu.uz)
YENGIL GAZ ATOMLARINING KO'P ZARYADLI PLAZMA IONLARINING HOSIL
BO'LISHIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH

Annotatsiya. Yengil gaz atomlarining ko'p zaryadli plazma ionlarining hosil bo'lishiga ta'siri lazer massa spektrometriyasi yordamida tadqiq qilindi. Lazer nurlanishining quvvat zirligini o'zgarishiga qarab, yengil gaz kiritilgan nishon poletilin $(CH_2)_n$ da hosil bo'lgan ko'p komponentli plazmaning massa spektrlari olindi. $(CH_2)_n$ - dan hosil bo'lgan ikki elementli plazmadagi vodorod ionlari sonining lazer quvvat zichligi orasidagi bog'liqlik aniqlandi.

Kalit so'zlari: lazer plazmasi, ko'p zaryadli ionlar, mass-spektrometr, rekombinatsiya jarayonlari.
Жапаков Азамат Икромбайевич, Маткаримова Шоира Умидбековна, Давлетов Икрам Юсубович
(Ургенчский государственный университет, 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, 14, Узбекистан;
azamat@urdu.uz)

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ АТОМОВ ЛЕГКИХ ГАЗОВ НА ОБРАЗОВАНИЕ
МНОГОЗАРЯДНЫХ ИОНОВ ПЛАЗМЫ

Аннотация. Влияние атомов легких газов на образование многозарядных ионов плазмы изучено с помощью лазерной масс-спектрометрии. В зависимости от изменения плотности мощности лазерного излучения получены масс-спектры многокомпонентной плазмы, формируемой на мишенном полиэтилене $(CH_2)_n$ легким газом. Определена связь между количеством ионов водорода в двух-элементной плазме, образующейся из $(CH_2)_n$ - и плотностью мощности лазера.

Ключевые слова: лазерная плазма, многозарядные ионы, масс-спектрометр, рекомбинационные процессы.

Жаракон Азамат Икромбайевич, Маткаримова Шоира Умидбековна, Давлетов Икрам Юсубович
(Urgench State University, 220100, Urgench city., 14 Kh. Olimjon St., Uzbekistan. *azamat@urdu.uz)
STUDY OF THE INFLUENCE OF LIGHT GAS ATOMS ON THE FORMATION OF MULTI-
CHARGED PLASMA IONS

Annotation. The effect of light gas atoms on the formation of multi-charged plasma ions was studied using laser mass spectrometry. Depending on the change in the power density of the laser radiation, the mass spectra of the multi-component plasma formed on the target polyethylene $(CH_2)_n$ with light gas was obtained. The relationship between the number of hydrogen ions in the two-element plasma formed from $(CH_2)_n$ - and the laser power density was determined.

Key words: laser plasma, multi-charged ions, mass spectrometer, recombination processes.

Kirish. Bugungi kunda ikki elementli lazer plazmasini hosil bo'lishi va kengayish bosqichlarida sodir bo'ladigan ko'p zaryadli ionlarning ionlashuvi, rekombinatsiyasi va tezlashuvining fizik jarayonlarini nishonning tarkibiga bog'liqligini o'rganish juda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj, ko'p zaryadli ionlarning hosil bo'lishi va inersial kengayishining ushbu fizik jarayonlarining samaradorligi ko'p zaryadli ionlarning chiqishi, zaryadi, energiyasi va fazoviy taqsimotini aniqlaydi. Tadqiqotda olingan natijalar ikki elementli lazer plazmasida ion oqimining hosil bo'lish jarayonlarini tushuntirish imkoniyatini beradi [1]. Impulslilazer nurlanishi sohasida ikki elementli lazer plazmasining ko'p zaryadli ionlari xususiyatlarining hosil bo'lish mexanizmlari va qonuniyatlarini eksperimental hamda nazariy jihatdan ko'rib chiqish zarur. Bunday tadqiqotlar, ikki elementli lazer plazmasida ko'p zaryadli ionlarining sonini, zaryad tarkibini va energiya diapazonlarini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratadi [2].


Ikki elementli lazer plazmasida ko'p zaryadli ionlarning xususiyatlarini shakllantirish va ularning inersial kengayishini sezilarli darajada oshirish bosqichlarida sodir bo'ladigan turli xil fizik jarayonlarning (ionizatsiya, tezlashuv, rekombinatsiya va boshqalar) samaradorligini fundamental tadqiqotlar o'tkazishning zarurati, Cu [H], Al_2O_3 , Zr[H], Ti[H], $(CH_2)_n$, Ho_2O_3 kabi ikki komponentli nishonlarning hozirgi vaqtda lazer plazmasi uchun eng yaxshisi deb e'tirof etilganligi bilan bog'liq [3].

Ushbu ishda ikki elementli lazer plazmalarining ko'p zaryadli ionlarining (vodorod) zaryadi, energiyasi

yasi va fazoviy xususiyatlari lazer massa spektrometriya usuli yordamida o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot tajribalari $dm/m=100$ TOF masofasi $L=100$ sm bo'lgan statistik massa spektrometrida o'tkazildi. Nd:YAG lazer nurlari nishon yuzasiga perpendikulyar yo'naltirilgan bo'lib to'liq uzunligi 1,06 mkm, impuls davomiyligi 50 ns, quvvat zichligi $q=10^8-10^{12}$ Vt/sm² har bir impuls uchun energiya 5 J va bitta impuls rejimida ishlatildi [4]. Lazer nurlari fokuslovchi linzalari orqali 10^{-6} Torr bosim ostidagi vakuum kamerasi ichiga joylashtirilgan nishonga yo'naltilgan. Fokuslangan nurning o'lchami 10^{-4} sm² ni tashkil qiladi. Ikki elementli plazma tarkibidagi yengil gaz ionlarining hosil bo'lishi va kengayish jarayonlariga nishonning elementar tarkibining ta'sirini o'rganish uchun polietilen (CH₂)_n nishon sifatida tanlangan. Nishon qalinligi $d=2$ mm va radiusi $R=0,5$ sm o'lchamda tayyorlangan. Nishonni vakuumli kamera ichida vertikal ravishda siljitish mumkin, shunda kraterlar hosil bo'lishi oldini olish uchun har bir lazer zarbasi yangi sirtga yo'naltiriladi. Ionlarning massa-zaryad spektrini o'lchashda xatolik 10% ni tashkil qiladi.


Tahlil va natijalar. Eksperimental ravishda, lazer nurlanishining quvvat zichligini o'zgarishiga qarab, yengil gaz kiritilgan nishon poletelin (CH₂)_nda hosil bo'lgan ko'p komponentli plazmaning massa spektrlari o'rganildi. Aniqlanishicha, (CH₂)_n holatida H ionlarining nurlanish intensivligi doimo lazer nurlanishining quvvat zichligiga proporsional bo'ladi (1-rasm). Eng maqbul energiya oralig'i (50–80 V) olindi, bunda H ionlari va ko'rib chiqilayotgan nishonga kiritilgan elementning ionlarini bir vaqtning o'zida qayd qilish mumkin. Ushbu tadqiqotda [5] Al₂O₃, Ti[H] elementlarida elektrostatik analizatorning yuqori maydon holatida vodorod ionlari dastasining maksimal cho'qqilari yo'qoladi va faqat og'irroq elementning ionlar dastasi cho'qqilari kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu holda og'ir ionlarning detektorga kelish vaqti ham kamayadi. Massa spektridagi vodorod ionlari dastasining maksimal cho'qqilari intensivligi lazer nurlanishining q ga ham bog'liq ekanligi eksperimental tarzda aniqlandi. Lazer nurlanishining quvvat zichligi qiymati $3 \cdot 10^{11}$ Vt/sm² dan oshganda H ionlarining hosil bo'lish effektivligi kamayadi: lazer nurlanishining q qiymati qanchalik katta bo'lsa, ionlarning chiqishi shunchalik past bo'ladi. 10^{11} Vt/sm² dan yuqori gazli obyektlarga ta'sir qiluvchi lazer nurlanishining q ortishi bilan og'ir plazma komponentining yuqori zaryadlangan ionlarini olish va aniqlash mumkin, ammo yuqori energiyali vodorod ionlari yo'qoladi. Biroq tajribada, (CH₂)_ndan nishon sifatida foydalanilganda, lazer nurlanishining quvvat zichligi ortishi bilan H ionlarining yo'qolishi kuzatilmadi. Bunda lazer nurlanishining quvvat zichligi 10^9 dan 10^{11} Vt/sm² gacha ortishi bilan H ionlarining chiqishi ham ortadi (1-rasm).



1-rasm. (CH₂)_n - dan hosil bo'lgan ko'p elementli plazmadagi vodorod ionlari sonining lazer quvvat zichligiga bog'liqligi.

Nishondagi H tarkibiga qarab energiya spektrlarini o'rganish natijalarini birgalikda tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, uning nishonga kirish shaklidan (bog'langan yoki kiritilgan) qat'i nazar, H konsentratsiyasining ortishi bilan, uning ionlari energetik spektri kengayadi va yuqori energiyalar tomon siljiydi. 2-rasmda lazer nurlanishining quvvat zichligiga va nishonga qarab, ko'p komponentli plazmada H ionlarining bir-biridan ajralib turadigan o'ziga xos energetik spektrlari ko'rsatilgan. Ulardan ko'rinib turibdiki, uning spektrining kengligi lazer nurlanishining q ga, nishon tarkibiga, shuningdek, birgalikda kengayib borayotgan ionning massasiga bog'liq.

Polietilendan hosil bo'lgan H ionida lazer nurlanishining q ortishi bilan spektrning kam energiyali qismida siljish sodir bo'ladi va uning kengligi ortadi. Bu H ionlarining energetik spektri hali to'liq rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, $q > 10^{10}$ Vt/sm²da sodir bo'ladigan energetik spektrning yuqori energiyaga nisbatan kuchli kengayishi ko'proq zaryadlangan H ionlarining rekombinatsiyasi tufayli sodir bo'lmaydi. Chunki bunda katta energiyaga ega bo'lgan ionlarning mavjudligi sababli berilgan element ioni faqat $Z=1$ ga teng bo'lishi mumkin.



2-rasm. Gazli nishon poletilinga $(CH_2)_n$ turli quvvat zichlikli lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish orqali olingan H ionlarining energiya spektrlari.

Gaz kiritilgan nishondan hosil bo'lgan H ionlarining energetik spektrlarini o'rganib, shuni ta'kidlash mumkinki, bu holda, birinchidan, H ionlari polietilendan olingan H ionlariga qaraganda ancha past energiyaga ega, ikkinchidan, lazer nurlanishining q ortishi bilan $3 \cdot 10^{10}$ Vt/sm²gacha maksimal intensivligi oshadi, uchinchidan, $q > 3 \cdot 10^{10}$ Vt/sm²da intensivligi pasayadi va berilgan ionning energetik spektri torayib, past energiyalar tomon siljiydi: lazer nurlanishi q qanchalik katta bo'lsa, uning kengligi shunchalik kamayadi, energetik spektri va spektrning past energiyali tomonga siljishi keskinlashadi.

Xulosa va takliflar. Yengil gaz atomlarining ko'p zaryadli plazma ionlarining hosil bo'lishiga ta'siri lazer massa spektrometriyasi usuli yordamida o'rganildi. Poletilinga $(CH_2)_n$ turli quvvat zichlikli lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish orqali H ionlarining energiya spektrlari qurildi. Og'ir ionlarning parametrlariga namunadagi gaz atomlarining mavjudligi ham ta'sir qiladi. Masalan, ionlarning maksimal energiyasi, zaryad karraligi sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. D.Wu, X. Mao, G.C.-Y.Chan, R.E.Russo, V.Zorba and H.Ding. Dynamic characteristics of multicharged ions emitted from nanosecond laser produced molybdenum plasmas. J. Anal. At. Spectrom., vol. 35, № 4, pp. 767–775, 2020, doi: 10.1039/C9JA00411D.
- [2]. M.H.A.Shaim, F.G.Wilson and H.E.Elsayed-Ali. Aluminum multicharged ion generation from femtosecond laser plasma. J.Appl. Phys., vol. 121, № 18, p. 185901, May 2017, doi: 10.1063/1.4983008.
- [3]. A.I.Japakov, M.E.Vapaev, R.M.Bedilov, Z.T.Azamatov and I.Y.Davletov. Spectra of Multiply Charged Ions in Laser Plasma Formed from Gas-Containing Targets. East Eur. J. Phys., № 3, pp. 490–494, Sep. 2023, doi: 10.26565/2312-4334-2023-3-55.
- [4]. A.Matnazarov, I.Davletov, and A.Japakov. Upgraded Experimental Apparatus for the Detection and Investigation of Multiply Charged Ions of a Laser Plasma. Bull. Sci. Pract., vol. 6, № 9, pp. 198–203, Sep. 2020, doi: 10.33619/2414-2948/58/19.
- [5]. M.R.Bedilov, R.T.Khaidarov and I.Y.Davletov. Spectra of ions in a four-element laser plasma. Quantum Electron., vol. 25, № 6, pp. 567–568, Jun. 1995, doi: 10.1070/QE1995v025n06ABEH000415.

Jumaniyozov Sardor Pirnazarovich (Urganch davlat universiteti dotsenti v.b. (PhD), Urganch, 220100, O'zbekiston; e-mail: sardor7709@mail.ru)

YEROSTI UYURMASIZ SUV OQIMI MASALASINI SONLI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada yerosti suv oqimining har bir potensial chiziqlardagi piezometrik bosimlarini hisoblash jarayoniga doir masalalarni chekli elementlar usulida yechishning hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan va natijalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sizot suvlar, piezometrik bosim, chekli elementlar usuli.

Жуманиязов Сардор Пирназарович (и.о. доцента (PhD) Ургенчского государственного университета, Ургенч, 220100, Узбекистан; e-mail: sardor7709@mail.ru)

ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЗАДАЧИ БЕЗВИХРЕВОГО ПОДЗЕМНОГО ВОДОТОКА

Аннотация. В статье разработаны вычислительные алгоритмы и программное обеспечение для решения задач, связанных с процессом расчета пьезометрического напора в каждой потенциальной линии потока подземных вод на основе метода конечных элементов и проанализированы результаты расчетов.

Ключевые слова: грунтовые воды, пьезометрический напор, метод конечных элементов.

NUMERICAL MODELING OF THE PROBLEM OF A VORTEXLESS UNDERGROUND WATER FLOW

Annotation. The paper develops computational algorithms and software for solving problems related to the piezometric pressure calculation process in each potential line of groundwater flow based on the finite element method and analyzes the results of the calculations.

Key words: groundwater, piezometric pressure, finite element method.

Long-term heat treatment helps to reduce porosity and increase the density of the material, which has a positive effect on its conductivity.

Longer heat treatment allows for recombination and removal of some defects that can capture charge carriers, thereby reducing the specific resistance.




Fig. 2. Dependence of the specific resistance of PC plates on the duration of heat treatment at $T=1200\text{ }^{\circ}\text{C}$; 1 – $d=1\text{ mm}$; $d=2.5\text{ mm}$.

Thinner wafers have higher rates of heat and impurity diffusion, which can lead to a faster attainment of equilibrium during heat treatment. This can cause the resistivity to decrease faster than thicker wafers (Fig. 2).

For thicker wafers, the process of attaining equilibrium can be slower, leading to a gradual change in resistivity during long-term heat treatment.

Doping a semiconductor with impurities changes the carrier concentration. For example, adding a donor increases the electron concentration, while adding an acceptor increases the hole concentration. Doping can also change the carrier mobility.

Defects and grain boundaries can reduce carrier mobility by trapping them or causing additional scattering. Increasing the number of defects can reduce mobility even if the carrier concentration is high.

Changes in crystal structure, such as grain growth during heat treatment, can improve mobility, but the carrier concentration can be affected by doping and other factors.

In semiconductors, charge carrier mobility is often modeled using an equation that takes into account the influence of carrier concentration and their interaction with defects and phonons:

$$\mu = \frac{\mu_0}{1 + \frac{n}{N_0}}$$

where: μ is the mobility of charge carriers, μ_0 is the mobility at low carrier concentration, n is the concentration of charge carriers, N_0 is the critical concentration at which the mobility begins to decrease noticeably.




Fig. 3. Dependence of Carrier Mobility on Carries Concentration.

At low carrier concentrations, the mobility is high and approaches the maximum value μ_0 . As the carrier concentration increases, the mobility begins to decrease, especially when the concentration approaches the critical value (Fig.3). At concentrations exceeding the critical value N_0 , the mobility stabilizes at a lower level.

In the technology of producing polycrystalline silicon using powder technology, the mobility of charge carriers significantly depends on the sintering temperature.

The dependence of the mobility of charge carriers on the sintering temperature, which can be described by the formula:

$$\mu(T) = \mu_0 \cdot \left(1 - e^{-\alpha(T-T_{opt})^2}\right)$$

where: $\mu(T)$ is the mobility of charge carriers at the sintering temperature T , μ_0 is the maximum mobility at the optimal sintering temperature T_{opt} , α is the coefficient that determines the rate of change in mobility with temperature, T_{opt} is the optimal sintering temperature.

At low temperatures (below 800 °C) of sintering, silicon powders do not bind well to each other. The structure of the material turns out to be porous with a large number of defects at the grain boundaries and inside the grains themselves. The mobility of charge carriers is significantly limited due to the high level of recombination and scattering on defects. The grains have poor contact, which creates additional potential barriers for charge carriers. As a result, the mobility of charge carriers is low.

At moderate sintering temperatures (800–1000 °C), the density and quality of the bond between grains improve. The number of defects decreases, and the structure of the material becomes denser. The mobility of charge carriers increases, since the amount of scattering on defects decreases. Grains begin to form more uniform and less defective boundaries, which reduces the height of potential barriers.

At high sintering temperatures (over 1000 °C), a higher degree of crystallization of the material is achieved, defects in the structure are minimized, and a more monolithic structure with good conductivity is formed. The mobility of charge carriers reaches a maximum, since grain boundaries become less active

in terms of carrier capture and scattering. The number of defects and voids in the structure of the material is significantly reduced, which improves conductivity (Fig. 4).




Fig.4. Dependence of Carrier Mobility on Sintering Temperature of Polycrystalline Silicon.

To achieve maximum carrier mobility, it is necessary to optimize the sintering temperature and time. An important factor is the control of grain size, material purity and impurity distribution.

Polycrystalline silicon consists of many small crystallites (or grains). At the grain boundaries, charge carriers can be trapped by various defects or impurities. These defects can create local energy levels that trap free charge carriers, leading to the formation of charged regions and, as a result, potential barriers. These barriers play an important role in the electrical properties of the material.

Potential barriers at grain boundaries in polycrystalline silicon can be described using various models depending on the mechanism that causes the formation of barriers. One of the common models is based on the charge state of defects at grain boundaries and their effect on charge carriers [11].

For a simplified model where charge carriers accumulate at the grain boundary, the potential barrier V_b can be estimated as:

$$V_b = \frac{eN_t}{2\epsilon}$$

where: e is the electron charge, N_t is the density of surface states at the grain boundary (the number of defects per unit area), ϵ is the dielectric constant of the semiconductor.

For a more accurate description, the Poisson equation can be used in conjunction with the charge carrier distribution law. Let us consider the case where charge carriers accumulate at the grain boundary, creating space charge regions. In this case, the potential barrier V_b at the grain boundary can be expressed through the Poisson equation:

$$\frac{d^2\psi(x)}{dx^2} = -\frac{\rho(x)}{\epsilon}$$

where: $\psi(x)$ is the electric potential, $\rho(x)$ is the charge density, x is the coordinate perpendicular to the grain boundary, ϵ is the permittivity of the material. By integrating this equation taking into account the boundary conditions, one can obtain the potential barrier profile. However, an analytical solution can only be obtained for simplified cases. Usually numerical methods are used to solve this problem.

The potential barrier also depends on temperature, since the thermal energy of the charge carriers can change their distribution and, therefore, the barrier height. In thermal equilibrium, the barrier height can be reduced by thermally excited charge carriers, which is expressed by the formula:

$$V_b(T) = V_b(0) - \frac{k_B T}{e} \ln\left(\frac{N_i}{n}\right)$$

where: $V_b(0)$ is the barrier height at zero temperature, k_B is the Boltzmann constant, T is the temperature, N_i is the concentration of charge carriers in the volume of the semiconductor, n is the

concentration of free charge carriers. These equations provide basic approaches to describing potential barriers at grain boundaries in polycrystalline silicon. For practical applications, more complex modeling is often required, taking into account various defects and their distribution.

Conclusion. Grain growth in polycrystalline silicon during heat treatment has a significant impact on its physical and electrical properties. Understanding the dependence of grain growth on temperature and time allows optimizing the heat treatment process to achieve the desired material characteristics. The dependence of charge carrier mobility on the sintering temperature of polycrystalline silicon is a complex function that depends on many factors. The dependence of the resistivity of polycrystalline silicon wafers on the duration of heat treatment and the initial resistance values is a key factor. Optimization of this process allows improving the electrical properties of the material and expanding its application in various fields of electronics and energy.

References:

- (1). C.Becker and others. Polycrystalline silicon thin-film solar cells: Status and perspectives. *Solar Energy Materials and Solar Cells*. Volume 119, December 2018, p. 112–123// <https://doi.org/10.1016/j.solmat.2013.05.043>
- (2). Nekrasov A.V., Naumov A.V. Prospects of the Polycrystalline Silicon Market. *News of Universities. Materials of Electronic Engineering*. 2019, Vol. 17, № 4, p. 233–239 (In Russ.).
- (3). J.J.G'ulomov, R.Aliev, N.A.Mirzaalimov, B.D.Rashidov, J.Aliyeva. Study of Mono- and Polycrystalline Silicon Solar Cells with Various Shapes for Photovoltaic Devices in 3D Format: Experiment and Simulation. *Journal of Nano- and Electronic Physics*, 2022, Volume 14, Issue 5, 05012(1–8 pp.), DOI: [doi. org/10.21272/jnep. 14\(5\). 05012](https://doi.org/10.21272/jnep.14(5).05012)
- (4). G'ulomov, J., & Aliev, R. Study of the Temperature Coefficient of the Main Photoelectric Parameters of Silicon Solar Cells with Various Nanoparticles. *Journal of Nano-and Electronic Physics*, 2021, 13(4), 04033.
- (5). Kritskaya T.V., Shvartsman L.Y., Nemchinova N.V. Industrial methods of obtaining and properties of silicon for photovoltaics. *News of universities. Applied chemistry and biotechnology*, 2014, № 4 (9).
- (6). Discussing the future of electronics. *Sbras.info*, 21/09/2016. <http://www.sib-science.info/ru/conferences/obsuzhdaya-budushee-elek-21092016>
- (7). Dostanko A.P., Vasilevich V.P., Kaidov O.L. Trends and Prospects for the Development of Polycrystalline Silicon Production Technology for Photovoltaic Converters. *BSUIR Reports*. 2020. (In Russ).
- (8). Dheeraj Sah and others. Growth and analysis of polycrystalline silicon ingots using recycled silicon from waste solar module. *Solar Energy Materials and Solar Cells*. Volume 261, 1 October 2023// <https://doi.org/10.1016/j.solmat.2023.112524>
- (9). Aliev R, Abdurahmanov B.M, Olimov L, Mukhtarov E. (2005) Technology of obtaining and electrophysical properties of polycrystalline silicon wafers for solar cells. *Applied Solar Energy* 3, p. 79–82.
- (10). Aliev R., Mukhtarov E. Influence of Technological Modes of Obtaining of Silicon Wafers on their Electro Physical Properties. *Aspects Min Miner Sci*. 12(3). AMMS. 000787. 2024. DOI: 10.31031/AMMS.2024.12.000787
- (11). Wolfgang Nolting. *Theoretical Physics: Quantum Mechanics – Methods and Applications*. Springer International Publishing, AG 2017. DOI: 10.1007/978-3-319-63324-4.

Toshbekova Mohira Xasanovna (A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar” metodikasi kafedrasida dotsent)

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLAR SHAXSINI TARBIYALASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy oilaning asosiy omillari sifatida oila institutini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish, yoshlarni tarbiyalash va oilaga tayyorlash, ota-onalarning oila tarbiyasi sohasidagi savodxonlik darajasini oshirish masalalari keltirilgan. Zamonaviy oila omillariga oid zarur tavsiyalar berilgan. Mazkur maqolada zamonaviy oilalarda yoshlarni milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalashning psixologik omillari, oilada farzand tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlar, ota-onalarning farzand tarbiyasi metodlarini bilish darajasi kabi masalalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** oila, zamonaviy oila, oila omillari, yoshlarni oilaga tayyorlash, oila tarbiyasi, milliy tarbiya, fazilat, xususiyat, axloq, illat, tahdid, ma‘naviyat, ma‘rifat, milliy qadriyat.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬЕ

***Аннотация.** Данная статья посвящена основным факторам современной семьи. Приведены такие факторы, как научно-практическое изучение института семьи, подготовка молодёжи к семье и усиление грамотности родителей в сфере семейного воспитания. Предложены необходимые рекомендации для развития факторов современной семьи. В этой статье вы можете познакомиться с исследованиями психологических факторов воспитания молодежи в современных семьях через национальные ценности, отношение к воспитанию детей в семье, уровень знаний родителей о методах воспитания.*

***Ключевые слова:** семья, современная семья, факторы семьи, подготовка молодёжи к семье, национальное воспитание, добродетель, характер, мораль, пороки, угроза, духовность, просвещение, национальные ценности.*

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FACTORS UPBRINGING PERSONALITY OF YOUNG PEOPLE IN MODERN FAMILIES

***Annotation.** The article provides information on the need to influence the human psyche through family relations, the need to ensure the balance of morality, customs, intelligence and intelligence in young people. The psychological foundations of teaching young people family relations are scientifically highly-ghted. In this article you can get acquainted with the research of psychological factors in the upbringing of young people in modern families through national values, attitudes towards raising children in a family, the level of parents' knowledge of upbringing methods.*

***Keywords:** family, modern family, family factors, preparing young people for a family, family education, national education, virtue, character, morality, vices, threat, spirituality, enlightenment, national values.*

Kirish. O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta‘lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat‘iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta‘lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma‘naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta‘lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta‘limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina, odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma‘naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta‘lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas‘uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda, uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning

ushbu fazilatlar haqidagi soʻzlari bilan amallari orasida tafovut namoyon boʻlmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda oʻz oʻrinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim oʻquvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, oʻzini-oʻzi oʻqishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi taʼlim sifatiga ham zarar koʻrsatmoqda. Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va maʼnaviy tarbiya sohasida oʻqituvchilarning faoliyatini metodik taʼminlovchi oʻquv materiallari, shu jumladan, milliy va maʼnaviy tarbiya sohasiga oid metodik qoʻllanmalar, oʻquvchilar uchun zarur darsliklar etarli emasligini koʻrsatmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi globallashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish orqali oilada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarini shakllantirish, mazkur fazilatlariga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, koʻrsatish, oʻrgatish, namuna boʻlish kabi taʼsirchan usullarni isloh qilish va shu orqali maʼnaviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Oilada milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda, beixtiyor taniqli maʼrifatparvar Abdulla Avloniyaning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [1], degan chuqur maʼnoli soʻzlari inson eʼtiborini tortadi. Koʻplab olimlar oʻz tadqiqotlarida maʼnaviy tanazzulning asosiy omillari boʻyicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy maʼlumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda eʼtiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, yaʼni oilada farzand tarbiyasiga eʼtiborsizlik illati millatning maʼnaviy tanazzulining asosi desak, hecham mubolagʻa boʻlmaydi.

Xoʻsh, nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga eʼtiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shugʻullanishga qanday omillar toʻsqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qoʻymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli boʻlishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga eʼtiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oilada farzand tarbiyasiga eʼtiborsizlik illati bir qator qarorlarda, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160- [2], 2019-yil 3-maydagi PQ-4307- [3], 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-qarorlari [4] va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-qarorida [5] ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi pedagogik, psixologik omillar boʻyicha tadqiqotlar olib borish, mazkur tahdidlarga nisbatan psixologik oʻyaviy kurash olib borish vazifasi qoʻyildi.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asrda barkamol farzand tarbiyasining negizi sifatida oila (ota-ona), maktab (pedagog), mahalla (qoʻni-qoʻshni, nuroniyalar, mahala faollari), ijtimoiy muhit (tengqurlari, atrof-dagi insonlar) oʻz mavqeyini saqlab qolaveradi. Shaxsni tarbiyalash quyidagi manbalar asosida amalga oshirilishi mumkin: muayyan tizimli, uzluksiz milliy tarbiyaviy, dasturiy taʼsir orqali; ideal, namuna timsolida oʻz-oʻzini tarbiyalash, takomillashtirish; ijtimoiy muhitdagi shaxslararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fikrlash malakalarini egallash, ajdodlarimiz yaratgan badiiy, falsafy, sanʼat asarlarini oʻzlashtirish orqali yangi xislatlarni oʻzlashtirish kabilar. Bugun har bir ota-ona pedagog boʻlishi lozim, tarbiya metodlarini puxta oʻzlashtirmogʻi lozim, chunki farzand taʼlim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng yaxshi sarmoyadir. Pedagogika fanlari doktori, professor M. Quronov [6] oʻzining “Bugungi har bir ota-ona pedagog boʻlishi kerak” deb nomlangan maqolasida bugungi ota-onalarning farzand tarbiyalashdagi taʼsirchan metodlar toʻgʻrisida quyidagi qarashlarini ilgari suradi. Jumladan, olimning taʼkidlashicha farzand tarbiyasidagi eng taʼsirchan metod – bu oʻrgatish metodi. Chunki uning ichida tushuntirish ham bor, suhbat ham bor, koʻrsatish ham bor, aytish ham bor, namuna ham bor. Shuni unutmashimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday boʻlishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday taʼlim va tarbiya olishiga bogʻliqdir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni koʻrishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, unib-oʻsib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega boʻlgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish taʼlim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi boʻlishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Zamonaviy oila hayotda sogʻlom turmush tarzi, yuksak madaniyati, kasb darajasi va ijtimoiy faoliyati bilan aholi oʻrtasida namuna koʻrsatadigan oiladir.

Har bir jamiyatning dastlabki ilk ijtimoiy boʻgʻini hisoblangan oila shaxs shakllanishida eng asosiy maskandir. Shaxs kamoloti, oʻz navbatida, oilaviy munosabatlar bilan bevosita bogʻliqdir. Jamiyat oiladan boshlanadi. Oilaning sogʻlomligi va oilaviy muhitning qanday darajada boʻlishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shuning uchun ham oilani

mustahkamlash, uni sogʻlomlashtirish muammolari jamoatchilikning eʼtiboridagi muhim muammolardan-dir. Zamonaviy oila qurishning asosiy omillari orasida oila institutini ilmiy-amaliy jihatdan oʻrganish masala-si muhim hisoblanadi, chunki aynan bu omil oilani mustahkamlashga zamin yaratadi. Qadim zamondan mutafakkir va oilashunos olimlar tomonidan ushbu muammolar muayyan darajada oʻrganilgan. Jumladan, oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois oʻt-mish mutafakkirlaridan tortib, to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarni hal etish masalalariga oʻz eʼtiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgʻariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin va boshqalar oilaviy munosabatlarning shaxsga taʼsirini uqdirib oʻtganlar. Xorij olimlaridan D.Adams, A.Gary, A.King, A.Lynda, W.Daniellar to-monidan oila muhitining inson hayoti va faoliyatiga taʼsiri empirik jihatdan oʻrganilgan. Oilasi bilan ya-shaydigan 163 nafar ishchi-xodimlarda oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, ularning hayotdan qoniqishi, xizmat sohasida mavqeyining ortishi, oiladagi rollarini toʻgʻri bajarishida uning oilasidagi munosabatlar taʼsir koʻrsatadi. Yaxshi munosabatlar taʼsirida shaxsning oilasida his etadigan emotsional dalda omili shu oilaning mustahkam boʻlishi bilan oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatdi. Psixologiya fanlari doktori, professor Gʻ.Shoumarovning ilmiy maqola, risola va uslubiy ishlarida, xususan, “Oila psixologiyasi” darsligida oila psi-xologiyasining umumiy asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikohning mustahkamligiga taʼsiri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlari, oʻzbek oilasining oʻziga xos psixologik jihatlari koʻrsatib berilgan. Bizning fkri-mizcha, oʻzbek oilasiga xos psixologik xususiyatlarning ijobiy tomonlarini zamonaviy oila modelini shakl-lantirish ishida qoʻllash maqsadlidir.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova tadqiqotlarida oʻzbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon boʻlishi empirik jihatdan tadqiq etilgan va oila toʻgʻrisidagi ijtimoiy tasavvurlarning nazariy modeli asosida oila aʼzolari orasidagi munosabatlarning oila mustahkamli-giga taʼsiri, shart-sharoitlari va sotsial-psixologik omillari yoritilgan. Bu nazariy model asosida zamonaviy oilani yaratish va oilani rivojlantirish mumkin.

Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova “Oila manaviyati – milliy gʻurur” ilmiy qoʻl-lanmasida oilaning muqaddasligi uning jamiyat hayotidagi oʻrni, oilada sogʻlom turmush tarzini shakllan-tirish bilan bogʻliq muammolar etarlicha oʻrganilgan, bu orqali zamonaviy oilada oilaning yashash shart-sharoitiga, tarbiyaviy, maʼnaviy, tibbiy omillariga eʼtibor koʻrsatish muhim ekanligini inobatga olish zarur ekanligini koʻramiz. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Mahmudova “Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi” mavzusidagi ilmiy ishida mamlakatimizning kelajagi oilalarda kamol topayotgan yoshlar tarbiyasiga bogʻliqligi ilmiy va ishonchli dalillar asosida yo-ritib berilgan. Bizning nazarimizda, bu borada yoshlarning oila qurish muammosiga jiddiy qarash kelajakda ular oilasining namunali, mustahkam boʻlishiga asos yaratadi. Pedagog olimi M.Inomova “Oilada bolalarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari” mavzusidagi il-miy izlanishida oilada bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari ye-tarlicha yoritib berilgan. Pedagog olimi A.Muxsiyeva “Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asos-lari” mavzusidagi ishida oilada farzandlarni tarbiyalashda milliy tarbiyaning oʻrni va ahamiyatini hamda milliy tarbiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan.

Darhaqiqat, barcha davrlarda olimlar oilaning jamiyatdagi oʻrniga katta ahamiyat berganlar. Chunki jamiyatning eng katta boyligi oiladir. Oila sogʻlom va mustahkam boʻlsa, jamiyatda tinchlik va farovonlik hukm suradi. Demak, zamonaviy oilani rivojlantirish, yaratishda asosiy omillardan biri sifatida yuqoridagi ilmiyamaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadli boʻladi. Bizning nazarimizda, navbatdagi omil – yoshlarni tarbiyalash va oilaga tayyorlash hisoblanadi.

Zamonaviy va mustahkam oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlarni ha-yotga tayyorlashda ularda nikoh hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins oʻrtasidagi munosabatlar mohi-yati borasida toʻgʻri tushunchalar hosil boʻlishiga yordam berish lozim, bu esa ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlaydi, yoshlarda nikohga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish borasida amaliy koʻnikma va malakalarni shakllantiradi.

Tahlil va natijalar. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda esa zamonaviy oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasida bir qator muammolar mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iboratdir: birinchidan, ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida toʻla maʼlumotga ega

emasliklari, ikkinchidan, ota-onalarning o'z farzandlari bilan ma'lum masalalarda ochiq-oydin muloqotda bo'la olmasliklari, uchinchidan, ota-onalar tomonidan yoshlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi, to'rtinchidan, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yangi (kelin oyi)lari, yigitning oshnalari zimmasiga yuklash an'analarning mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to'la tushunmasliklariga sabab ekanligini inkor eta olmaymiz. Buning uchun esa oila quruvchi yoshlar quyidagi tavsiyalarga alohida e'tiborlarini qaratsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Birinchidan, yoshlar oila qurishdan oldin har bir millatning o'ziga xos milliy mentaliteti va turmush tarzi o'rtasida ichki aloqadorlik mavjudligini yaxshi o'rganishlari lozim. Chunki ayrim turli millat vakillarining faqatgina sevgi-muhabbat asosida oila qurishlari, keyinchalik, oilaning barbod bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, oilada ota-ona farzandiga milliy turmush tarzini chuqur singdirishi, ularni oila qurishga tayyorligiga ishonch hosil qilib, to'y qilishlari lozim. Vaholangki, ayrim oilalarda moddiylik birinchi o'ringa chiqishi yangi oilalarning kelishmovchiliklar asosida ajralishiga olib keladi.

Uchinchidan, yoshlarni jismonan va ruhan, ya'ni har tomonlama, sog'lom qilib voyaga etkazish kerak. Chunki oilaning ma'naviy asoslarini sog'lomlashtirishda ko'proq yoshi kattalarning nasihatlari va qonunlarga amal qilish mexanizmlari joylarda to'liq joriy etilmayapti.

To'rtinchidan, farzandlarning ongiga yoshligidan boshlab estetik va axloqiy tarbiya berishda xalqning urf-odatlarini, an'analari, kishilarning fikrlash tarzini singdirish kerak.

Beshinchidan, O'zbekistonning bugungi globallashuv jarayonlarida geosiyosiy mavqeyidan kelib chiqib, farzandlarni xorijiy davlatlar fuqarolari bilan turmush qurishidagi aloqalarni ham chuqur mushohada qilish, farzandning baxti farovon bo'lishi omillarini o'ylash lozim.

Oltinchidan, davlatimiz tomonidan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan joylarda doimiy ravishda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish kerak.

Yoshlarni oila va oila munosabatlariga tayyorlab borish, ota-ona, jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bolalik davridan o'smirlilik davriga o'tgunga qadar axloqiy va sotsial qadriyatlar bilan bola tarbiya qilib bormog'i lozim. Mana shu o'tish davrida bola shaxs sifatida takomillashib boradi, bola o'tish davri boshlanganda o'zini balog'atga etganligini sezmasdan, balki oilada bolalik davrida asta-sekin balog'atga etilishini sezib boradi. Jinsiy tarbiyaga alohida e'tibor berish milliy maktablar, o'zbek oilalari uchun dolzarb masalalardandir.

Binobarin, yosh avlodni axloqiy, jismoniy, estetik va ma'naviy jihatdan voyaga yetkazishda jinsiy tarbiya katta ahamiyatga ega. Biroq, bu sohada samara beradigan barcha tarbiyaviy norma va tadbirlarni ishga solmasdan turib mavaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. O'spirinlik davrida yuzaga keladigan his-tuyg'ularni to'g'ri idora etish, sevgi, muhabbat, rashk munosabatlarining naqadar nozik bo'lishi, bo'lajak oilaning baxti uchun g'amxo'rlik qilish haqidagi tushunchalarni ular ongiga singdirish, yaxshi natija beradi, deb o'ylaymiz.

Har bir oilaning ma'naviy sog'lom, baxtli va xotirjam hayot kechirishi oila muhitida tarbiyalanayotgan farzandlarning komil inson sifatida voyaga yetishiga, davlatning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadi. Zero, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan, uning mustahkam bo'lishi, davlat va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishi, shubhasiz. Shu jihatdan jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Yosh avlodning sog'lig'i, axloqi, e'tiqodi kelajakda uning o'z oilasiga nisbatan munosabati ko'p jihatdan oilada olib boriladigan tarbiyaga bog'liq. Bugungi kunda zamonaviy oilaning asosiy omillaridan biri sifatida farzandlarning ma'nan va jismonan barkamol insonlar bo'lib yetishishi, ya'ni, ota-onalarning tarbiya sohasidagi savodxonlik darajasi masalasi ham muhim ekanligi ahamiyatlidir. Shuning uchun bizing fikrimizcha, ota-onalarning ma'naviy, psixologik, huquqiy, tibbiy-biologik va iqtisodiy savodxonligiga e'tiborni kuchaytirish, ularni mazkur bilimlarni egallashlari uchun turli usul va metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yoshlarning oila tarbiyasini amalga oshirishda psixologlar, pedagoglar, shifokorlar, oila va jamoatchilikning faol ishtirok etishlari talab qilinadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi – oila baxti, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'y-harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq

ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga e'tiborli bo'laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma'nan, ruhan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sib unishining asosidir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan zamonaviy oila omillari jamiyat oilalarining rivojlanishi va yuksalishiga xizmat qiladi. Zero, sog'lom oiladan sog'lom jamiyat barpo etiladi. O'zligimizni anglash muhim bo'lgan hozirgi davrda oiladagi yoshlarni axloqiy shakllantirishda, ularga bisotimizdagi mavjud bo'lgan odob-axloq qoidalarini, sharqona udumlarimizni o'rgatishimiz zarur. Bola tarbiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lmoq va ajdodlarimiz qoldirgan manbalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. <https://kun.uz/news/2019/08/23>
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-qarori. <https://lex.uz/docs/3360950>
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-qarori. <https://lex.uz/docs/4320700>
- (4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-qarori. <https://lex.uz/docs/5344692>
- (5). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-qarori
- (6). Quronov M. "Har bir ota-ona pedagog bo'lish kerak". Maqola. <http://www.adolatnashr.uz/>
- (7). Akramova F.A. "Oilada sog'lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari". O'quv qo'llanma, Toshkent, 2014.
- (8). Amir Temur. Tuzuki Temuriy. 7-8-betlar.
- (9). Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. "Huquq va burch", 5-son, Toshkent, 2007, 31-bet.
- (10). Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixol. fan. nom. dis., Toshkent, 2007, 36-bet.

Tuychiyev Zafar Nardonqulovich (Halima Xudoyberdiyeva nomidagi Ijod maktabi tarix fani o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi; E-mail: tuychievzafar1984@gmail.com)
SO'FIYLIKDA MA'NAVY KAMOLOTGA ERISHISH YO'LLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada so'fiylik g'oyasi orqali insoni ma'naviy kamolotga erishish yollari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, uning falsafiy va axloqiy tamoyillari xalqning ma'naviy hayotida va milliy madaniyatida chuqur o'rin olganligiga munosabat bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:** kamtarinlik, sadoqat, zohidlik, tariqat, tasavvuf, zikr, komillik, ta'limot, ma'rifat, fiqh.*
Туйчиев Зафар Нардонкулович (учитель истории творческой школы имени Халимы Худойбердиевой, научный сотрудник Ферганского государственного университета; tuychievzafar1984@gmail.com)

ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВА В СУФИЗМЕ

***Аннотация.** В данной статье представлены мнения о способах достижения духовной зрелости посредством идеи суфизма. Высказывалось также, что его философско-нравственные принципы имеют глубокое место в духовной жизни и национальной культуре народа.*

***Ключевые слова:** смирение, преданность, аскетизм, секта, мистика, зикр, совершенство, учение, просвещение, юриспруденция.*

Tuychiev Zafar Nardonkulovich (History teacher at the creative school named after Halima Khudoiberdieva, Researcher at Fergana State University; Email: tuychievzafar1984@gmail.com)

WAYS TO ACHIEVE SPIRITUAL PERFECTION IN SUFISM

***Annotation.** This article presents opinions on ways to achieve spiritual maturity through the idea of Sufism. It was also stated that his philosophical and moral principles have a deep place in the spiritual life and national culture of the people.*

***Key words:** humility, devotion, asceticism, sect, mysticism, dhikr, perfection, teaching, enlightenment, jurisprudence.*

Kirish (Introduction). So'fiylikning markaziy falsafiy g'oyalaridan biri – bu tanavvur (onglilik) va tafakkur orqali insonning Alloh bilan yaqinlikka intilishi. So'fiylarning asosiy maqsadi insonning ichki ola-

mi orqali yaratuvchi Allohni anglashga intilishidir. Bu yo‘lda inson jismoniy va ruhiy rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tib, ruhiy kamolotga erishishga harakat qiladi. «Tasavvufning g‘oyasi ham axloqning kamol martabasiga erishmoq uchun har sohada Rasululloh (s.a.v.) ko‘rsatgan yo‘ldan yurib, botiniy va zohiriy yetuklik jihatidan uning haqiqiy vorisi bo‘lmoq yo‘lini ko‘rsatishdir. Tasavvufning g‘oyasi – janobi Haqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab, go‘zal axloq egasi bo‘lishga intilmoq, ya‘ni Alloh va Rasulining xulqi bilan axloqlanishdir» [1;19-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbekiston sharoitida bu g‘oya Naqshbandiya tariqati orqali keng tarqalgan. Naqshbandiya tartib-qoidalariga ko‘ra, so‘fiylar dunyoviy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib, ichki olamlari orqali Alloh bilan muloqotda bo‘ladilar. Bu holatda «xalvat dar and-juan» (jamiyat ichida bo‘lib, ruhiy huzurda) tushunchasi o‘z aksini topadi. Bunday yondashuv so‘fiylarning jamiyatdagi o‘rnini belgilab, ularning ma‘naviy faoliyatini jamiyat bilan uzviy bog‘liq qilib qo‘yadi.

So‘fiylikning ma‘naviy tamoyillari insonning nafsdan voz kechishi, kamtarinlik va sadoqatga asoslanadi. Bu narsalar O‘zbekistondagi so‘fiylik maktablari, jumladan, Naqshbandiya va Yassaviya tariqatlari orqali keng tarqalgan. Asketizm (zohidlik) asosiy nuqtayi nazarlardan biri bo‘lib, uning orqali inson dunyoviy nafslarni yengib, ma‘naviy kamolotga intiladi. Bu asketizm, shuningdek, Ibn al-Arabi kabi taniqli so‘fiylar tomonidan ham ma‘naviy huzurga yetishning asosiy yo‘li sifatida ta‘riflangan. «Tasavvuf – insonning kamolga, Haqqa yetishishi yo‘llari, usullari majmuasidir. Uning poklanish maktabi ham deyish mumkin» [2;18-b.].

Ma‘naviy yaqinlik va kamolotga yetishda nafaqat ichki uyg‘onish, balki jamiyat bilan aloqada bo‘lish ham muhim ahamiyat kasb etadi. So‘fiylar doimo jamiyat foydasiga xizmat qilishga chaqirganlar, shu bilan birga, ularning o‘zlari ham ma‘naviy yetakchilar bo‘lganlar. So‘fiylik falsafasi shaxsiy ma‘naviyatni jamiyat manfaati uchun foydalanishga urg‘u beradi. So‘fiylikning ba‘zi jihatlari ortodoksal islom bilan qarama-qarshi keladi, jumladan, mistitsizm, ya‘ni, Alloh bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ruhiy bog‘liqlikka intilish va panteistik g‘oyalar. So‘fiylar tansoqinlar, muzikali rituallar orqali yoki boshqa mistik amaliyotlar orqali Allohga yaqinlashishga ishonadi. Bu g‘oyalar ortodoksal Islomdagi qat‘iy qoidalar bilan hamisha ham muvofiq kelmaydi, biroq O‘zbekistonda bu so‘fiylik an‘analari xalq tomonidan keng qabul qilingan va ijtimoiy hayotning bir qismiga aylangan.

So‘fiylikning O‘zbekiston jamiyatidagi o‘rni nafaqat diniy, balki ijtimoiy rivojlanishda ham namoyon bo‘lgan. So‘fiylarning o‘zlari jamiyatdagi ma‘naviy yetakchilar sifatida xizmat qilganlar, ular madaniy va ma‘naviy merosni saqlashda katta ahamiyatga ega bo‘lganlar. So‘fiylik tariqatlari orqali faqat diniy qadriyatlar emas, balki axloqiy va ma‘naviy o‘gitlar ham tarqatilgan. So‘fiylar dunyodagi ishlardan uzilmasdan, Allohga yaqinlashishni ta‘lim berganlar, bu esa O‘zbekistondagi diniy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga katta ta‘sir qilgan. So‘fiylik O‘zbekistondagi ma‘naviy hayotning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning falsafiy va axloqiy tamoyillari xalqning ma‘naviy hayotida va milliy madaniyatida chuqur o‘rin olgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). So‘fiylikning O‘zbekiston tarixidagi roli va ta‘siri uning ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy asoslarini chuqurroq anglashga yordam beradi. So‘fiylik nafaqat dindorlikning ifodasi, balki insonning ichki ruhiy holatlari va ijtimoiy hayotining umumiy sistemasi sifatida, ma‘naviy beqarorlikka qarshi turish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etgan.

So‘fiylikning falsafiy va ma‘naviy tamoyillari, jumladan, ichki «men»ni takomillashtirish, nafsni tarbiyalash, xudoga yaqinlikka intilish kabi tushunchalarga asoslanadi. Bu jarayonlarda inson ichki hayoti, uning tuyg‘ulari va ruhiy holatlari o‘z markazini egallaydi. So‘fiylik nafaqat tashqi ibodat va odatlarga urg‘u beradi, balki insonning ichki dunyosi, uning ruhiy va axloqiy kamolotiga ham katta ahamiyat qaratadi. Masalan, nafsni poklash va ma‘naviy taraqqiyotga erishish yo‘lidagi makom (ruhiy bosqich)lar insonning ilmiy va axloqiy rivojlanishini qamrab oladi. Shuning bilan birga, so‘fiylik insonni tashqi dunyo bilan muvozanatda yashashga o‘rgatadi, ya‘ni, faqat o‘z ichki dunyosini rivojlantirish emas, balki ijtimoiy hayotda ham ma‘naviy kamolga erishishga undaladi. So‘fiylikning gumanistik va ozodliksevarligi insoniyatning ma‘naviy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta‘sir o‘tkazgan. So‘fiylar insonning o‘ziga xosligi va undagi ruhiy kamolga yetish potensialini ta‘kidlaydilar, inson kamolotga yetishi uchun nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ma‘naviy o‘zaro aloqalar ham muhim ekanligini anglashadi. Hoji Bektoshi Valining yozishicha, «Shariat yo‘lida mukammal bo‘lmagan kishiga tariqat, ma‘rifat va haqiqat martabalari ham nasib etmas...». Bejiz emaski, hazrat payg‘ambarimiz ham «Shariat – bir daraxtdur; tariqat – mevalari. Daraxt bo‘lmasa, novda ham, yaproq ham, meva ham bo‘lmaydi, deya ta‘lim berganlar. Shuning uchun so‘fiylar shariatni tamal, ya‘ni, poydevor, tariqat, ma‘rifat va haqiqatni shu poydevor ustida yuksalgan uch qavatli bir

imorat shaklida tasavvur qilganlar va «Imoratsiz poydevor bo'lur, ammo poydevorsiz imorat bo'lmas» degan tushunchada sobit turganlar» [3;123-b].

O'zbekistondagi so'fiylik madaniy meros va ijtimoiy rivojlanishning bir qismi sifatida falsafiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, u ko'p asrlar davomida insonning shaxsiy va ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Bu ma'naviy ta'limotlarning dolzarbligi shu kunlarda ham davom etadi, chunki ular insonning ma'naviy hayotini qayta qurish va zamonaviy ijtimoiy voqelik bilan munosabatlarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun so'fiylikning O'zbekiston sharoitidagi falsafiy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarini o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb, chunki ular zamonaviy dunyoda ma'naviy va axloqiy me'yorlarni saqlab qolishga ko'mak beradi.

So'fiylikning asosiy falsafiy va ma'naviy-axloqiy tamoyillari nafaqat insonning ruhiy holati, balki jamiyat bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni ham qamrab oladi. So'fiylik insonning ruhiy ma'rifatga erishishga bo'lgan intilishlarini ilgari surgan holda, uning ijtimoiy va ma'naviy holati bilan birlashishini, ijtimoiy hayotdagi muammolarni falsafiy nuqtayi nazardan tushunishga yordam beruvchi konsepsiya sifatida ko'rib chiqadi. Bu yo'nalishda so'fiylikning bir necha asosiy g'oyalarini tahlil qilish mumkin.

So'fiylar insonning ruhiy bahramandligiga alohida urg'u beradilar, bu bahramandlik insonning Xudo bilan birlashishi orqali amalga oshadi. Bu holat ijtimoiy hayotdagi adolatga intilish bilan chambarchas bog'liq, chunki insonning adolatli jamiyat qurishga bo'lgan intilishi u yo'qolishidan qo'rqish tufayli kuchayadi. Shu bois so'fiylarning ijtimoiy falsafasi adolatga intilish bilan qo'rquvning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. «Va yana tasavvuf insonni poklikka eltuvchi vasila hisoblanadi. Mutasavvifning qalbi musaffo, oynadek top-toza bo'ladi. Ha, tasavvuf ta'limoti ana shunday nazoratni yo'lga qo'yadi. U soflik, pokizalik, shaffoflik va bu kabi butun go'zalliklarni o'zida mujassam etadi, ayni chog'da, u dinimiz chirkin va noxush deb bilgan ma'naviy kasallik va kirlardan xalos bo'lishga chorlovchi hayotbaxsh manbadir. Buni hayotga tatbiq etgan kishi esa mutasavvif hisoblanadi. Tasavvuf qoidalari rioya qilgan, tasavvufiy asoslarga ko'ra hayotini ma'lum nizomga solgan kimsalarga tasavvuf axli deyiladi»[4; 46-b].

So'fiylar insonni "kichik mikrokosm" sifatida ko'rishadi va insonning ruhiy va jismoniy qirralarining doimiy kurashini tasvirlaydilar. Bu kurash nafaqat shaxsiy ma'rifatga, balki jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida so'fiylar jamiyatdagi shaxsiy va ijtimoiy burilishlarga ruhiy tartib berishga harakat qiladilar.

So'fiylikning markaziy g'oyalaridan biri qo'rquvning ijtimoiy-metafizik mohiyatidir. Bu qo'rquv nafaqat shaxsiy xatolardan qo'rqish, balki ijtimoiy adolatni yo'qotishdan qo'rqishdir. So'fiylikda bu qo'rquv insonning ruhiy kuchlarini ishga solishga sabab bo'ladi, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy tartib va adolatni qo'llab-quvvatlashga intilishni kuchaytiradi. So'fiylikda ishq – bu insonni ruhiy va ma'naviy dunyoga yetaklovchi kuchdir. Ishq insonni ijtimoiy me'yorlar va qoidalardan ozod qilib, uni o'z shaxsini qayta yaratishga yo'naltiradi. So'fiylarda ishq yordamida inson ichki dunyosini boyitib, o'z ma'naviy yuksalishi bilan birga jamiyatning ma'naviy yuksalishiga ham hissa qo'shadi. So'fiylikning ijtimoiy axloqi insonni nafaqat odilona hayot tarziga, balki jamiyatdagi adolatli hayot tartiblarini anglashga va ularni mustahkamlashga undaydi. So'fiylar jamiyatning boy ma'naviy hayotini uning asosiy boyligi sifatida ko'radilar va bu boylilik insonlarning ruhiy kuchlari va yordam berishga bo'lgan imkoniyatlari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Bu nuqtai nazarlardan kelib chiqib, so'fiylik falsafasi ijtimoiy hayotning ma'naviy va axloqiy asoslarini chuqur anglashga yordam beradi.

O'rta asrlarning muhim ma'naviy oqimi bo'lgan so'fiylik ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy beqarorlikka, islom dinining konservativ tendensiyalariga munosabat sifatida vujudga kelgan. Uning falsafiy asosi insonning ma'naviy olamiga chuqur kirib borish, yuksak qadriyatlarini, muhabbat va ma'naviy go'zallikni anglashga intilishda yotadi. So'fiylar ma'naviy qayta tug'ilishni shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi ichki tinchlikka erishish yo'li deb qaraganlar. So'fiylikda inson ijtimoiy adolatsizlik sharoitida ma'naviy qo'llab-quvvatlanadi va asosiy e'tibor ichki ma'naviy o'zgarishlarga qaratiladi.

Tasavvuf insonning ichki dunyosiga qaratilgan bo'lib, Xudoga va haqiqatga yo'l introspeksiya va ma'naviy kamolotdan o'tishini ta'kidlaydi. Bu borada so'fiylik insoniy tuyg'ularga, ishq, sog'inch, shodlik kabi ichki holatlarga e'tibor beradi. Oliy voqelik va ilohiy go'zallikni anglash nafaqat bilimni, balki ma'lum tasavvufiy bosqichlardan o'tishni ham talab qiladi, bu esa ma'naviy yo'lning ahamiyatini oshiradi. So'fiy zo'hdligi, asosan, adolatsizlik sharoitida eskirib qolgan konservativ ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga munosabatdir. So'fiylik, ko'pincha, tana lazzatlari va moddiy ne'matlarni rad etgan bo'lsa-da, tashqi ijtimoiy me'yorlar har doim ham haqiqiy baxt va ma'naviy uyg'unlikka olib kelmasligini ko'rsatishga intilgan. So'fiylar jamiyatning ma'naviy qashshoqligining ko'rinishi sifatida moddiy narsalarga haddan tashqari berilib ketishni rad etib, hayotning axloqiy asoslari muhimligini ko'rsatdilar.

Tasavvufdagi ishq va go‘zallik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik bu fazilatlarining nafaqat individual, balki jamiyat miqyosida ham muhimligini ta’kidlaydi. Ma’naviy kategoriya sifatida tushunilgan sevgi inson mavjudligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarqoqlik va an’anaviy ijtimoiy qadriyatlarining yemirilishi sharoitida ijtimoiylik va insoniylikni saqlashga yordam beradi. Tasavvuf jamiyatning axloqiy qadriyatlari va ma’naviy salomatligini ijtimoiy borliqning markaziy kategoriyalari sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Ma’naviy boylik moddiy ta’minotdan farqli o‘laroq, barqaror ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy shartidir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy jarayonlar ma’naviy o‘zgarishlar va oliy axloqiy ideallarni izlash prizmasi orqali qaraladi. So‘fiylarning dunyo haqidagi tushunchasi, ko‘pincha, ruh va tanani ajratish asosida qurilgan bo‘lib, bu moddiy va ma’naviy o‘rtasidagi keskinlikni keltirib chiqargan. Bu qarama-qarshilikda, so‘fiylarning fikricha, oliy ilohiy bilimga yo‘l yotadi, garchi bu moddiy hayotdan va tabiatdan ajralishga olib kelgan. So‘fiylik yo‘li zohidlik va botiniy yuksalish orqali ma’naviy kamolotga erishish imkonini yaratgan zohiriydan voz kechib, botiniy tomonga burilishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, so‘fiylik nafaqat ma’naviy hodisa, balki ma’naviy qadriyatlarini idrok etish orqali jamiyatni o‘zgartirishga intiladigan ijtimoiy falsafa sifatida ham harakat qiladi. Xudoga va inson borligiga botiniy yo‘l haqidagi so‘fiylik g‘oyalari dunyo yangi muammolarga duch kelgan, axloqiy va ma’naviy asoslarni tiklash zarurati tug‘ilgan bugungi kunda dolzarbdir.

So‘fiylikning asosiy tamoyillaridan biri tazkiya, ya’ni nafsni poklashdir. Bu tamoyil insonning o‘z nafsini ustidan nazorat o‘rnatib, uni ilohiy qadriyatlar bilan tarbiyalashga qaratilgan. So‘fiylar buni o‘z-o‘zini takomillashtirishning muhim qismi sifatida ko‘rishadi. Uning asosi Qur’oni karim va hadislarda yotgan bo‘lib, “Safo” va “Tazkiya” so‘zlari bilan bog‘lanadi, bu esa ruhiy poklikni anglatadi.

So‘fiylik falsafasida inson Allohga mutlaq ishonch va tavakkul qilishi kerak. Ya’ni, inson Allohning irodasiga taslim bo‘lib, o‘zini uning marhamatlari bilan tinchlantirishga intilgan holda ish tutishi lozim. Tavozelik ham ushbu tamoyilning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, dunyoviy sha’n-u shondan voz kechish va faqat Allohga xizmat qilishga bag‘ishlangan hayotni anglatadi. So‘fiylik amaliyotida zikr, ya’ni, Allohni yodda saqlash va Unga shukronalik bildirish, ruhiy poklanishning asosiy yo‘li hisoblanadi. So‘fiylar zikr orqali Alloh bilan bog‘lanishni maqsad qilishadi, bu ruhiy ravishda Allohning doimiy huzurida bo‘lish holatiga erishishning yo‘li deb hisoblanadi. So‘fiylar komil inson (al-Inson al-Komil) g‘oyasiga katta ahamiyat berishadi. Bu g‘oya Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning namunaviy shaxs ekanligiga asoslanadi va uning hayotidagi g‘oyalar, odob-axloqi va e’tiqodi har bir so‘fiy uchun ulgudur. So‘fiylar fikricha, inson komillikka intilib, Allohga yaqinlashishi lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). So‘fiylar dunyoviy lazozatlar va nafs hirsalaridan uzoqlashishga intilishadi. Ular jun kiyim kiyish va sodda hayot tarzini kechirish orqali dunyoviy hayotdan voz kechganlar. Bu so‘fiylarning dunyodan ko‘ngil sovitgan va faqat Allohning roziligi uchun yashash tamoyilini aks ettiradi. So‘fiylik ta’limotida ruhiy sayr (sayr va suluk) insonning nafsiga qarshi kurashishi, ichki dunyosidagi to‘siqlarni yengib o‘tishi va Allohga yaqinlashishni ifodalaydi. Bu sayr bir necha bosqichli bo‘lib, uning maqsadi insonni komillikka yetaklashdir. So‘fiylikda ustoz-shogird (shayx va murid) aloqasi muhim ahamiyatga ega. So‘fiy shayxlar yoki pirlar o‘z shogirdlariga ruhiy tarbiya berish orqali ularga nafs-ga qarshi kurashish, o‘zini tozalash, va Allohga eng yaqin yo‘llarni o‘rgatishadi. So‘fiylik falsafasi va ma’naviy-axloqiy tamoyillari insonning ruhiy komillikka erishishi, nafsni tarbiyalash va Allohga yaqinlashishga asoslangan. Uning asosiy tamoyillari islomning botiniy qirralarini chuqurroq anglash, nafsni poklash, tavakkul va tavozelik kabi xususiyatlardir. So‘fiylar o‘zlarining ma’naviy amallari bilan insoniyatni axloqiy va ruhiy poklanish yo‘liga boshlashni maqsad qilishadi. «Fiqh – inson amalning tashqi qiyofasigagina aloqador. U amalning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilishinigina belgilab bera oladi. Dilning holatiga ahamiyat bermaydi. Dilga aloqador bo‘lgan, uning holatini belgilaydigan omil esa tasavvufdir. Aytaylik, fiqh tahoratning qonunga muvofiq yoki nomuvofiq holda olinganini, nomozning masjidul harom tarafga yuzlanib yoki yuzlanmasdan o‘qilganini, uning barcha ruknlari bajarilgani yoki bajarilmaganini tekshiradi. Agar nomozning barcha turkumlarini to‘la ado etsangiz, nomozingiz fiqh jihatidan komil bo‘ladi. Tasavvuf dilingizning nomoz paytidagi holatini tekshiradi» [5;90-b.].

So‘fiylik – islom dinining asl ma’naviy-axloqiy va falsafiy tomonlaridan biri bo‘lib, u insonni Allohga yaqinlashishga va axloqiy barkamollikka erishishga yo‘naltiradi. So‘fiylikning falsafiy tamoyillari, eng avvalo, insonning o‘zi, uning ichki dunyosi va Alloh bilan munosabatini ifodalaydi. So‘fiylar uchun ma’naviy hayotning markazida, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini tarbiya qilish, ya’ni nafsni tiyish va axloqiy poklikka erishish yotadi. Allohga yaqinlashish va uning borligini to‘g‘ridan to‘g‘ri anglash: so‘fiylikdagi asosiy g‘oyalardan biri Allohga yaqinlashishdir. So‘fiylar nazarida, inson Alloh bilan bevosita aloqa qilishga qodir, buning uchun jamiyatdagi arachilardan voz kechib, o‘zining ichki dunyosini tozalash kerak. So‘fiylik ta’-

limoti bo'yicha insonning ruhiy kamolotga erishish yo'li "tariqat" deb ataladi. U shaxsiy ichki tarbiya, ma'naviy ma'rifiy tozalik, qalb tozaligiga erishish orqali Allohga yaqinlashish yo'lidir. Al-Gazoliyning ta'kidlashicha, so'fiylik insoniy nafsni tiyishga, shaxsiy nafsdan voz kechishga va komil axloqli inson bo'lishga qaratilgan.

So'fiylikda nafsga qarshi kurash, tiyqlik va axloqli bo'lish so'fiylarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ular nafaqat o'zlari, balki kambag'allarga yordam berish, ularning manfaatlarini himoya qilishni ham maqsad qiladilar. So'fiylikda inson nafaqat hayotining muayyan bosqichlarida emas, balki kundalik turmushida ham axloqiy mukammallikka intilishi lozim. So'fiylar nafsni tiyib, Alloh bilan bevosita aloqa o'rnatish orqali o'zi va olam haqida chuqur ruhiy tafakkurga ega bo'ladilar. So'fiylar, ko'pincha, inson ruhiyatini tozalash va nafsni tarbiyalash uchun uzidagi maxfiylikka va ich-ichiga chuqur kirib borishga yondashadilar. Ular uchun ma'naviy tafakkur olam haqida chuqur ruhiy qarashlarni ochib berishdir.

So'fiylar uchun jismoniy lazzat va dunyoviy boyliklardan voz kechish sukun va ma'naviy tozalikka erishishning asosiy vositasidir. So'fiylar qalb tozaligi va ichki sukunga erishish uchun ko'p yotish, gapirish va ovqatlanishdan tiyilishadi. So'fiylikning ijtimoiy hayotga ta'siri juda katta bo'lgan. U tarixan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda muhim o'rin tutib, adolat, kambag'allarni himoya qilish va ijtimoiy adolat uchun harakat qilgan. Naqshbandiylik kabi so'fiylik tarikatlari ko'plab joylarda diniy, siyosiy va madaniy hayotga ta'sir ko'rsatgan. So'fiylar tariqatlari faqat shaxsiy ruhiy kamolotga erishishni emas, balki jamiyatda adolat o'rnatishni ham maqsad qilib qo'ygan. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, diniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida insonlarning o'zini tutushiga va jamiyatning axloqiy asoslari mustahkamlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. So'fiylik diniy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishni targ'ib qiluvchi tizim sifatida jamiyat barqarorligiga katta hissa qo'shadi.

Tasavvufning asosiy falsafiy tamoyillari olam va insonni ma'rifat qilishga, ya'ni insonning ruhiy va axloqiy kamolotiga qaratilgan. So'fiylikda bu kamolot Xudoni tan olish va Unga yondashish orqali amalga oshadi, bu esa insonning ichki dunyosi, axloqiy rivojlanishi va uning tashqi ijtimoiy hayoti bilan bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida tasavvuf xalqning diniy, axloqiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. So'fiylik tariqatlari mamlakatdagi insonlarning hayotida ijtimoiy adolat, to'g'rilik va halollik kabi tamoyillarni shakllantirishda muhim o'rin tutdi. So'fiylik jamiyatda ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni ilgari surish, axloqiy barqarorlikni mustahkamlash va insonning o'zini anglash yo'lidagi harakatlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tasavvufning falsafiy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarini O'zbekiston sharoitida tahlil qilganda, uning quyidagi yo'nalishlari ahamiyatlidir:

So'fiylik insonni ichki ma'naviy rivojlanishga, o'z-o'zini anglashga va Yaratgan bilan birlikka intilishga chaqiruvchi ta'limot. So'fiylar inson qalbini tozalash, axloqiy fazilatlar orqali uni oliy maqsadga yetkazishni targ'ib qilganlar. So'fiylarning ta'limotlari O'zbekistondagi madaniyat va an'analarga katta ta'sir o'tkazib, insonlarning fe'l-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. So'fiylar orasida adolat va tenglikka urg'u berilgan. Ular ijtimoiy befarqlikka qarshi chiqib, faqirlar va kambag'allarni himoya qilganlar. Bu g'oyalar O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy hayotida adolatli munosabatlarni qo'llab-quvvatlagan. So'fiylar insonning ruhiy dunyosini mustahkamlash va o'zini anglash yo'lidagi ma'naviy tadqiqotlarga katta e'tibor berganlar. Bu jarayon insonning o'z-o'zini ruhiy tozalash va ma'naviy oliylikka intilish orqali Yaratganga yaqinlashishni nazarda tutadi. So'fiylik ta'limotida axloqiy tamoyillar katta ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar insonning hayotdagi muvaffaqiyatlarini belgilashda muhim omil sifatida talqin etilgan. So'fiylarning sabr, qanoat va ruhiy kuch kabi fazilatlar O'zbekiston madaniyatida axloqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shuningdek, so'fiylik an'analari O'zbekiston tarixida ilm va ma'rifatning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shgan. So'fiylar insonlarning axloqiy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularni ilm va bilimga intilishga da'vat qilganlar. Bu esa ma'naviy boylik va ilmni inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qarashga asos bo'ldi. Shunday qilib, O'zbekistonda so'fiylikning asosiy falsafiy va ma'naviy-axloqiy tamoyillari insonning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy adolat va axloqiy to'g'rilikka qaratilgan bo'lib, bu qadriyatlar jamiyatdagi barqarorlik va ma'naviy kamolotga asosiy hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. Тошкент, "Истиклол", 1999, 19-бет.
- (2). Воҳидов Р., Неъматов Х., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. Тошкент, "Ёзувчи", 2001, 18-бет.
- (3). Тасаввур луғати. "Тафаккур", 1997, 3-сон, 123-бет.
- (4). Умар Фаррух Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. Тошкент, 2001, 46-бет.
- (5). Ислом асослари. Тошкент, "Ёзувчи", 1991, 90-бет.

Adilov Zafar Yunusovich (Ma'mun universiteti "Falsafa" kafedrasini mudiri, dotsent, f.f.d. (PhD);
ORCID:0009-0003-1363-2904; Zafaradilov68@gmail.com)

MAHMUD ZAMAXSHARIY ILMIIY MEROSIDA "RABI' UL-ABROR" ASARINING O'RNI

Annatsiya. Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariy qalamiga mansub bo'lgan, yozilishi jihatdan juda nodir asar hisoblagan "Rabi' ul-abror" shu davr madaniyati va insonlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi, shu bilan birgalikda, jamiyatning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy tomonlarini ochib berish bilan birgalikda, shu davr xususiyatlaridan kelib chiqib, Xorazm o'lkasining rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Shu bilan birgalikda, Mahmud az-Zamaxshariyning ilm olamida tutgan o'rni, ilm insonni ulug'lashi va komillik darajasiga ko'tarishi mumkinligi haqidagi qarashlari tahliliy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson, falsafiy, irfoniy, diniy, dunyoviy, ilm, bilim, musulmon tana, ruh, tinchlik, farovonlik, notiqlik, rivoyat va umir.

Адиллов Зафар Юнусович (заведующий кафедрой философии университета Мамуна, доцент, кандидат философских наук (PhD); ORCID:0009-0003-1363-2904; Zafaradilov68@gmail.com)

МЕСТО РАБОТЫ "РАБИ УЛЬ-АБРАР" В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ

Аннотация. В данной статье «Рабии уль-Аброр», считающийся очень редким произведением, написанным Махмудом аз-Замахшари, раскрываются культура и социально-духовный облик людей этого периода, а также социально-философские, экономико-политические аспекты жизни общества, а также дающие, исходя из особенностей этого периода, раскрываются особенности развития Хорезмской области. При этом на основе анализа раскрывается значение личности Махмуда аз-Замахшари в научном сообществе, его взгляды на способность науки прославить человека и поднять его на уровень совершенства.

Ключевые слова: человеческое, философское, мистическое, религиозное, мирское, наука, знание, мусульманское тело, дух, мир, мудрость, красноречие, сказание и жизнь.

Adilov Zafar Yunusovich (Head of the Department of Philosophy, Mamun University, Associate Professor (PhD); ORCID:0009-0003-1363-2904; Zafaradilov68@gmail.com)

THE PLACE OF THE WORK OF "RABI' UL-ABROR" IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF MAHMUD ZAMAXSHARI

Annotation. In this article, "Rabi' ul-abror", which is considered a very rare work written by Mahmud az-Zamakhshari, reveals the culture and social-spiritual image of people of this period, as well as the social-philosophical, economic-political aspects of society. together with giving, based on the characteristics of this period, the characteristics of the development of the Khorezm region are revealed. At the same time, Mahmud al-Zamakhshari's place in the world of science, his views that science can glorify man and raise him to the level of perfection are revealed on the basis of analysis.

Key words: human, philosophical, mystical, religious, worldly, science, knowledge, muslim body, spirit, peace, wisdom, eloquence, narration and life.

Kirish (Introduction). Arab tili va adabiyotining tengi yo'q mutaxassisi, Qur'oni karim ma'nolarini naqliy, aqliy, ilmiy va filologik jihatdan tafsir qilgan tafsirchi, ilmi kalom yo'nalishida buyuk alloma O'rta Osiyodagi so'nggi yirik vakili Mahmud az-Zamaxshariy al-Xorazmiy o'rta asrlarning buyuk daholari qatorida jahon ilm-fan xazinasiga katta ilmiy meros qoldirdi.

Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad 1075-yilda Xorazmning Zamaxshar shahrida dunyoga keldi. Dastlabki ta'limni o'zi tug'ilgan shahrida olgach, keyinchalik, chuqur ilm olish maqsadida zamonasining ilm o'choqlaridan hisoblangan Buxoro shahriga boradi. U o'z davrining ilm-u irfonida yetuk olimlaridan hisoblangan Abu Mudar ibn Jarir Ad-Dabbiy al-Isfahoniydan til, lug'at, adabiyot kabi sohalarni, Abu Bakr Abdulloh ibn Talha ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabariy al-Andalusiyan grammatika va fiqh ilmini, Abu al-Xattob ibn Batar va Abu Saad ash-Shaffoniydan hadis ilmini o'rgandi. Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli jabhalarida samarali ijod qilib, ellikka yaqin asarlar yozdi. Asarlari, asosan, diniy ilmlar va ulamolalar, lug'atshunoslik, grammatika, aruz, adabiyot, mantiq kabi va fanlarga tegishli bo'lib, ulardan eng mashhur va tanilganlari "Al-Kashshof" ("Ochuvchi"), "Muqaddamat ul-adab" ("Adabiyotga kirish"), "Rabi' ul-abror" ("Ezgular bahori"), "Asos ul-balog'a" ("Balog'at asoslari")dir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). A.Rustamovning "Mahmud Zamaxshariy", Mirzo Muhammad Boqir al-Musaviy al-Xavonsorining Mahmud Zamaxshariy haqidagi risolalari, Usmon ibn Zahabiy. "Oliyjanob shaxslarning tarjimai holi", Muhammad Abd al-Hay al-Laknaviyning

“Hanafiy tarjimayi hollarida al-bahiyyaning foydalari”, Yoqut bin Abdulloh al-Hamaviyning “Yozuvchilar lug‘ati”, Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning “Nozik iboralar”, Rashid al-Din al-Vattning “Xabarlar guruhi” va Allomaning o‘zining “Rabi’ ul-abror” asarining qo‘lyozma nusxalari ijtimoiy-falsafiy tomondan tahliliy o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, retrospektiv, tizimli funksional tahlil, kompleks yondashuv, dialektik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mahmud az-Zamaxshariyning yozgan asarlari ichida o‘ziga xos o‘ringa ega “Rabi’ ul-abror” asari o‘sha davir madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti to‘g‘risida ma‘lumotlar keltiradi. Muallif ushbu kitobning kirish qismida kitobning yozilishiga sabab bo‘lgan omilni shunday ta‘riflaydi: “Men ushbu kitobni “Al-Kashshof an haqiq at-tanziyl” tafsirini mutolaa qilgan muxlislarning fikrlarini jamlash, shuningdek, kitobni mutolaa qilish jaroyanida ko‘p fikr qilib, tafsirdagi nozik iboralarni va asrorlarini kashf etishga urinib, behol bo‘lgan chog‘ida ma‘naviy rohat berishni hamda ularning ko‘ngillariga orom bag‘ishlashni umid qilganman... Qaysi bir inson u bilan oshno bo‘lsa, yo‘qsinlik ko‘rmaydi, qaysi bir shaxs u bilan do‘stlashsa, unga o‘zga do‘stning keragi yo‘q” [1;16-b.].

Allomaning “Rabi’ ul-abror” asari boshqa asarlarga o‘xshamagan alohida bir tartibda bitilganligini ko‘ramiz, albatta, u boshqa manbalardan o‘ziga xos uslub metodlari bilan farq qiladi.

Ushbu asar musulmon adab ilmidan bo‘lgan o‘n ikki ilmning biri “Rabi’ ul-abror” – “ilmi muhozarot” (ilmi notiqlik) metodida yozilgan asar qatoriga kiritish mumkin. Albatta, bu “Muhozara” uslubda yozilgan asarlar jahon ilm-fanida o‘z mavqeyiga egadir. Bulardan Abu Mansur Saolibiyning “At-Tamsil va al-Muhozara”, “Munis al-Vohid va nuzhat al-mustafid fi al-muhozarot”, “Hilyat al-muhozara”, Ibn al-Marvon ad-Dinovariyning “Al-Mujalizi va Javohir al-ilm”, Muhiddin ibn Arabiyning “Muhozarot al-abror va musomirat al-axyor”, Ibn Hoja al-Hamaviyning “Simirat al-avroq fi al-muhozarot” nomli asarlari shular qatoridandir.

Falsafa ilmida o‘rta asrlarda hamda bugungi kunda muhim va dolzarb masala hisoblangan notiqlik san‘ati Mahmud az-Zamaxshariyni ham chetlab o‘tmagan. “So‘nggi davrda har xil sabablarga ko‘ra, so‘zlash, bahslashish, og‘zaki tarzda munozara qilish «san‘ati» yana birinchi o‘ringa chiqmoqda. Natijada ritorikaga qiziqish tiklanmoqda, yangi og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. An‘anaviy ritorika nutq orqali muloqot qilish modeli sifatida qayerda, qachon, nimani va qanday so‘zlash lozimligini belgilovchi ancha izchil tizim (notiqlik san‘ati nazariyasi)dir. Ritorika sohasidagi hozirgi tadqiqotlar bunday tor talqin doirasiga sig‘maydi va samarali muloqot shartlari, shakllari, qoidalari va tamoyillari nazariyasini tashkil etadi” [2;500-b.].

Mazkur masalalalar bahs yuritish, notiqlik san‘ati va notiqlik san‘ti hisoblangan ritorika ilmining mohiyatini o‘rganish jarayonida, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o‘z-o‘zini va o‘zini qurshagan dunyoni anglab yetishida qanday rol o‘ynashini tushuna boshlaymiz. Shu bois falsafa va falsafiy ilmlar tizimida notiqlik san‘ati haqida ko‘plab nazariya va qarashlar mavjud. Alloma Mahmud az-Zamaxshariy bu asari ham aynan falsafiy ilmlar kaliti desak bo‘ladi.

Shunisi e‘tiborliki, Mahmud az-Zamaxshariy o‘z asarini qaysi uslubda yozganligi to‘g‘risida hech qanday yozma ma‘lumot qoldirmagan. Bu asar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgam olimlarning bu asar va shunga o‘xshash boshqa manbalarning tadqiqot natijalarini o‘rganish hulosalariga binoan, “Rabi’ ul-abror” asari notiqlik ilmi metodida yozilgan, degan xulosa berilgan. Notiqlik ilmida bitta mavzu tanlanib shu mavzuni atroflicha tinglovchilarga yetkazib berish uchun boshqa shaxslarning shu mavzuga taalluqli fikrlari, so‘zlari va yozgan ma‘lumotlaridan samarali foydalanish maqsad qilinadi. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, manbada olamni yaratilishidan tortib, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar ulug‘ mutafakkir yashagan vaqtga qadar bo‘lgan voqeliklar batafsil yoritib berilgan. Chunki asarda uzoq tarixdan tortib, ammo yashagan zamonga qadar bo‘lgan ilmlarning barchasini o‘z ichiga olgan. Bular ilohiy, ham ijtimoiy masalalarga oid havolalar sifatida berilgan. Bu havolalarning bob va bo‘limlariga oid tarixiy dalillar o‘z o‘nida keltirib o‘tilgan. Bo‘lgan voqeiklarni, asosan, nasihat, aforizm, muloqot, esse, rivoyat va she‘rlar asnosida bitilgan. Shuningdek, asarda arabiy, forsiy, hind, slavyan va turkiy aholining nomdor insonlaridan, shu millatning va xalqning bosib o‘tgan shonli tarix yo‘li, madaniy hayoti, urf-odatlar, tabiyatiyu ob-havosi, atrof-muhitiga doir aniq dalillar to‘plangan. Ulug‘ alloma asarni yozayotgan vaqtida misollarning tushunarlisini, kichik hajimli har bir tabaqa kishilari anglab yetadigan so‘zlardan foydalangan.

“Rabi’ ul-abror” kitobining e‘tiborli jihati shundan iboratki, uning nomini turli shakllarda kelishidir. Uning nomi turli qo‘lyozma manbalarda, kitoblarda va qo‘lyozma kataloglarida turli shakllarda berilgan.

Bugungi kunda 9 ta qo'lyozma, 4 ta katalog hamda Mahmud az-Zamaxshariy ma'naviy merosi bilan bog'liq 16 ta monografiya "Rabi' ul-abror" nomi bilan bogliqligini ko'rishimiz mumkin.

Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin. O'zbekistonda, Leylin universitetida, Fransiya milliy kutubxonasidagi qo'lyozmalarda bir xil momda kelgan ("Rabi' ul-abror") ko'rinishda kelgan. Germaniya-ning Leypsig universiteti islom qo'lyozmalari fondidagi nusxada kitob nomi "Rabi' ul-abror fimo yasir al-xavotir va al-afkor" deb keltirilgan.

Kitobning "Rabi' ul-abror" deb nomlanishi jahon kitob fondlari kataloglarida har xil suratda keltirilgan, masalan, Britaniya muzeyidagi arab qo'lyozmalari katalogida "Rabi' ul-abror", Chester Bitti kutubxonasi qo'lyozmalar katalogida [6;16 p.] "Rabi' ul-abror fima yasurr al-khawotir wa'l-afkar", Berlinda nashr etilgan Berlin qirolligi kutubxonasi arab qo'lyozmalari katalogida [7;333 p.] "Kitabu Rabi' ul-abror", O'zbekiston RFA Sharq qo'lyozmalari to'plamining II tomida [8;398-402-b.] "Rabi' ul-abror" nomi bilan yozilgan.

Ushbu kitobning nomi Sharq allomalarining arab tilidagi asarlarida ham ma'lumotlar keltiriladi, xususan, iroqlik nahvshunos olim Abu Barokot al-Anbariyning "Nuzhat al-alibboi' fi tabaqot al-udaboi'" ("Adiblar tabaqalarida donolar sayohati") [9;11-b.], Mirzo Muhammad Boqir "Ravzot al-jannot fiy ahvol al-ulamoi' va as-saodat" [10;119-b.] va tarixchi Usmon az-Zahabiyning "Siyaru a'lom an-nubaloi'" [11; 151-b.], hindistonlik tarixchi Abdulhay al-Laknaviyning "Al-favoid al-bahiyya fi tarajum al-hanafiyya" [12;209-b.] kitoblarida asar muxtasar shaklda ("Rabi' ul-abror") deb yozilsa, Qomusiy olim Yoqut al-Hamaviyning "Mu'jam al-udaboi'" ("Adiblar qomusi") [13;19-b.] va tarixchi, adib Ibn al-Qiftiy "Inbox ar-ruvat' ala anbox an-nuhot" ("Rivoyat qiluvchilarning nahv ulamolari to'g'risidagi xabarlariga bo'lgan e'tiborlari") asarlarida "Rabi' ul-abror" asarining nomi ("Rabi' ul-abror fi al-adab va al-muhozarot") ("Adab va ma'ruzalarda yaxshilar bahori") deb keltiriladi.

O'zbekistonlik sharqshunos olimlar akademik A.Rustamovning "Mahmud az-Zamaxshariy" va U. Uvatovning "Nozik iboralar" [14;32-b.] asarlarida kitob nomi "Rabi' ul-abror va nusus ul-axyar" deb keltirgan.

Ushbu asarda Mahmud az-Zamaxshariy yashagan davirda Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy jarayonlar, allomaning "Rabi' ul-abror" kitobining nima uchun yozilgani, uning o'ziga xos jihatlari, kitobga qo'yigan nomining turli ko'rinishlari, kitobda keltirilgan manbalar va boblarining shakllanish jihatlari atroflicha yoritilgan. O'rta asrlarda yaratilgan ko'plab manbalarda Xorazm haqida juda yaxshi xabarlar keltiriladi. Misol uchun, Rashiddin Vatvotning "Ar-Raso'il" asarida quyidagi so'zlarga duch kelamiz: "Xorazm hamisha allomalar va ahli donishlarning sayr qiladigan makoni bo'lgan" [15;1-b.].

Mahmud az-Zamaxshariy "Rabi' ul-abror" kitobida Xorazm to'g'risida shunday ta'rif keltiradi: "Xorazmning yaxshi tarafi, o'ziga xosligi, u adolat va tavhid sohiblari yo'li bo'lgan to'g'ri yo'ldan ketmoqda" [16;33-b.]. Alloma mazkur asarda adib Ibn Samarqandiyning Xorazm to'g'risidagi so'zlarini ham keltiradi: "Xorazm, bamisoli boshqa yurtlarda topilmaydigan jihatlarga juda boy, qala'lar orasida, undan o'zgasida uchramaydigan maqtov hamda ta'riflarga egadir. U musulmon dunyosining peshqadam shaharlaridan biridir" [1;32-33-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xorazm va dunyo ilm-fanining yuksalishida Mahmud az-Zamaxshariy ma'naviy merosining maqomi nihoyatda yuksakligi to'g'risida ko'plab olimlar o'z asarlarida ta'rif berishganining guvohi bo'lamiz. Ulug' olim ibn Qiftiyning ta'riflashicha: "...Az-Zamaxshariy ilm ul-adab, nahv va lug'at borasida boshqalarga o'rnak bo'ladigan ulug' olimdir. Alloma o'z umir faoliyatida ko'plab benazir ilm egalari, fazilatli shayxlar huzurida bo'lib, tafsir, hadis, nahv va boshqa sohalar bo'yicha bir qancha kitoblar yozgan. Shuni e'tirof etish joizki, u o'zi xorazimlik bo'lib, arab tilida ijod qilgan ajamliklarning eng ulug'idir" [17;23-b.]. Ulug' alloma ibn Xallikon esa: "Zamaxshariy tafsir, hadis, nahv, lug'at va ilm-ul-bayonda, barcha imomlarning peshqadamidir. Hech qanday shubhasiz, ushbu ilmlarda u o'z zamonasining afzali, behisob benazir kitoblar yozuvchisi edi", deb yozgan. Dunyo allomalari Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosi hamda uning insoniylik fazilatlariga bergan ta'riflari, allo-maning birgina o'z yurtida emas, balki butun Sharq davlatlari tarixida ham yuksakligi ta'rif etiladi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384, 436-варақ.
- (2). Шермухамедова Н. Фалсафа. Ўқув-услубий мажмуа, Тошкент, «Noshir», 2012, 1216-бет.
- (3). Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008, 176-бет.
- (4). Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бу гунги куннинг устувор вазифасидир. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. Т., «Ўзбекистон», 2006, 1219-бет.

- (5). Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, "O'zbekiston", 2021, 440-бет.
- (6). Arthur J., Arberry. A. Handlist of the Arabic Manuscripts. Dublin, 1962, p. 249.
- (7). Wilhelm Ahlwardt. Arabischen Handschriften. Berlin, 1895, p. 814.
- (8). Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Том II. Под редакцией и при участии докт. ист. наук, проф. А.Семенова, Т., издательство академии наук УзССР, 1954, с. 600.
- (9). Рустамов А. Махмуд Замахшарий. Т., «Фан», 1971, 138-бет.
- (10). Mirzo Muhammad Boqir al-Musaviy al-Xavonsori. С. 119.
- (11). Usmon ibn Zahabiy. Oliyjanob shaxslarning tarjimai holi. 151-bet.
- (12). Muhammad Abd al-Hay al-Laknaviy. Hanafiy tarjimai hollarida al-bahiyuning foydalari. Baxt matbuoti. 209-bet.
- (13). Yoqut bin Abdulloh al-Hamaviy. Yozuvchilar lug'ati. Nashriyotchi Issa Al-Babi Al-Halabiy. 134-bet.
- (14). Абу-л-Қосим Махмуд аз-Замахшарий. «Нозик иборалар». У.Уватов таржимаси. Т., «Камалак», 1992, 32-бет.
- (14). 1315-hijriy. Rashid al-Din al-Vatt. Xabarlar guruhi. Misr, с. 66.
- (15). "Рабиъ ул-аброр" кўлёмаси. ЎЗР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. Кўлёмма № 2384, 51-варак.
- (16). Абул Қосим Махмуд Замахшарий. Нозик иборалар. Т., "Камалак", 1992, 80-бет.

Зульфугаров Вусал Рахман оглы (доктор философии по философии, Институт философии и социологии Национальной академии наук Азербайджана; e-mail: vzulfugarov@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0004-7491-3520>) UDC: 1.16.165.3

ВЛИЯНИЕ НОВЕЙШИХ НАУЧНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ НА СОВРЕМЕННОЕ НАУЧНОЕ ПОЗНАНИЕ: ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД

Аннотация. В статье проводится философское исследование ряда новых научных направлений, стремительно развивающихся в XXI веке. Анализируются их гносеологические и методологические особенности. Изучены философско-гносеологические особенности возможного воздействия новейших научных направлений на современное научное познание. Показано, что особенности формирования новейших научных направлений определяют их влияние на научное восприятие в целом. Необходимо учитывать когнитивные, социальные, культурные и технологические факторы. При этом важную роль играет взаимосвязь теоретических и практически-прикладных аспектов. В статье предлагается синтез нескольких эпистемологических концепций по исследуемой научной проблеме. Это «расширенное познание» (extended cognition), «распределенное познание» (distributed cognition), профессиональная научная коммуникация в междисциплинарных исследованиях и общенаучная коммуникация. В качестве методологии используется междисциплинарный подход. Для этого отдается предпочтение методологическим принципам нелинейности, интерсубъективности, сложности, системной динамики и динамического формирования. В соответствии с выбранной методологией в статье в качестве метода используется системный подход. Научная новизна статьи связана с концептуально-методологическим анализом новейших научных направлений через призму единого подхода и теоретико-методологических особенностей его воздействия на современное научное познание. В частности, для проведения исследований в этом направлении выдвигается тезис о синтезе эпистемологий «расширенного познания», «распределенного познания» и концепций профессиональной научной коммуникации и общенаучной коммуникации в междисциплинарных исследованиях.

Ключевые слова: эпистемология, расширенное познание, распределенное познание, научная коммуникация, профессиональная коммуникация в науке, синтетическая биология, искусственный интеллект, соңоцитология, сеттелеретика.

Zulfugarov Vusal Rahmon o'g'li (falsafa fanlari doktori, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining Falsafa va sotsiologiya instituti; e-mail: vzulfugarov@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0004-7491-3520>)

SO'NGGI ILMIIY YO'NALISHLARNING ZAMONAVIY ILMIIY BILISHGA TA'SIRI: FALSAFIY YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada XXI asrda jadal rivojlanayotgan bir qator yangi ilmiy yo'nalishlar falsafiy tadqiq qilinadi. Ularning gnoseologik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Eng yangi ilmiy yo'nalishlarning zamonaviy ilmiy tushunchaga mumkin bo'lgan ta'sirining falsafiy va gnoseologik xususiyatlari o'rganiladi. Ko'rsatilgandek, eng yangi ilmiy yo'nalishlarning shakllanishi xususiyatlari ularning ilmiy idrokka ta'sirini aniqlaydi. Kognitiv, ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarni hisobga olish kerak. Shu bilan birga, nazariy va amaliy-amaliy jihatlarning o'zaro bog'liqligi muhim rol o'ynaydi. Maqolada o'rganilayotgan

ilmiy muammo bo'yicha bir nechta gnoseologik tushunchalarni sintez qilish taklif etiladi. Bular "kengaytirilgan bilish", "tarqalgan bilish", fanlararo tadqiqotda professional ilmiy aloqa va umumiy ilmiy aloqadir. Metodologiya sifatida fanlararo yondashuv qo'llaniladi. Buning uchun chiziqli bo'lmaganlik, intersubektivlik, murakkablik, tizimli dinamika va dinamik shakllanishning uslubiy tamoyillariga ustunlik beriladi. Tanlangan metodologiyaga muvofiq maqolada tizimli tadqiqot metodi sifatida foydalaniladi. Maqolaning ilmiy innovatsiyasi eng yangi ilmiy yo'nalishlarni yagona yondashuv prizmasida konseptual va uslubiy tahlil qilish va uning zamonaviy ilmiy tushunchaga ta'sirining nazariy-uslubiy xususiyatlari bilan bog'liq. Xususan, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida fanlararo tadqiqotlarda "kengaytirilgan bilish", "tarqalgan bilish" gnoseologiyalari va kasbiy ilmiy aloqa va umumiy ilmiy aloqa tushunchalari sintezi tezislari ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: epistemologiya, kengaytirilgan idrok, taqsimlangan idrok, ilmiy aloqa, fandagi professional aloqa, sintetik biologiya, sun'iy intellekt, sonositologiya, setteleetika.

Vusal Zulfugarov Rahman oglu (PhD in philosophy, The Institute of Philosophy and Sociology of Azerbaijan National Academy of Sciences; e-mail: vzulfugarov@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0004-7491-3520>)

EFFECTS OF THE LATEST SCIENTIFIC TRENDS ON MODERN SCIENTIFIC COGNITION: A PHILOSOPHICAL APPROACH

Annotation. In the article, a philosophical study of a number of new scientific trends that are rapidly developing in the 21st century is conducted. Their epistemological and methodological features are analyzed. Philosophical and epistemological features of the possible effects of the newest scientific directions on modern scientific understanding are studied. It is shown that the characteristics of the formation of the newest scientific directions determine their effects on scientific perception as a whole. It is necessary to take into account cognitive, social, cultural and technological factors. At the same time, the interrelationship of theoretical and practical-applied aspects plays an important role. Synthesis of several epistemological concepts on the researched scientific problem is proposed in the article. They are "extended cognition", "distributed cognition", professional scientific communication in interdisciplinary research and general scientific communication. An interdisciplinary approach is used as a methodology. For this, the methodological principles of non-linearity, intersubjectivity, complexity, systemic dynamics and dynamic formation are preferred. In accordance with the chosen methodology, the article uses systematic research as a method. The scientific innovation of the article is related to the conceptual and methodological analysis of the newest scientific directions in the prism of a unified approach and the theoretical-methodological features of its effects on modern scientific understanding. Specifically, in order to carry out research in this direction, the thesis of the synthesis of "expanded cognition", "distributed cognition" epistemologies and the concepts of professional scientific communication and general scientific communication in interdisciplinary research is put forward.

Key words: epistemology, extended cognition, distributed cognition, scientific communication, professional communication in science, synthetic biology, artificial intelligence, sonosytology, setteleethics.

Введение. Философская рефлексия динамики развития новых направлений науки XXI века рассматривается как одна из актуальных проблем. Этот процесс изучается философами и методологами в контексте эволюции научного познания и его прогрессирующих особенностей. Вопрос заключается в том, что быстро развивающиеся новейшие области науки XXI века фактически создают возможности для понимания как современного облика науки, так и философской сущности научного прогресса в целом.

В настоящее время можно встретить различные классификации новейших научных направлений. Но среди них больше внимания уделяется примерно 11–12 направлениям. В настоящее время они уделяют особое внимание таким направлениям научных исследований, как синтетическая биология, нанонаука, бионика, нутригеномы и нутригенетика, меметика, нейроэкономика, соноцитология, сеттелеретика, геотология, гоминология, квантовая биология, нейропаразитология [11;90–93-с.].

В ряде исследований также учитываются направления, связанные с искусственным интеллектом и исследованием Космоса, рассматривая их с более общей позиции. В любом случае новейшие научные направления в основном связаны с биологией, нано наукой, космическими исследованиями и изучением искусственного интеллекта. В исследованиях в этих областях главными аспектами являются наномасштаб, изучение искусственного интеллекта в различных аспектах, космический масштаб и исследование человеческого гена.

Мы видим, что общая теоретическая и методологическая особенность заключается в том, что на различных организационных уровнях (микро, макро и космическом) доминирует понимание человека в самых различных аспектах. Например, проводятся исследования, начиная от изучения звуков человеческих клеток и заканчивая созданием новейшей эпистемологии на основе понятия «космотехника» в широком когнитивном и социокультурно-техническом контексте [14;8 с.].

Среди них выделяется исследование искусственного интеллекта как одной из прорывных технологий XXI века. Например, существуют программы искусственного интеллекта, которые с помощью них могут моделировать различные ситуации. Или, в современном программировании, есть возможности для быстрого развития творческого инженерного мышления [21].

В свете последних научных новаций философское значение новых смысловых оттенков в аспектах интеграции и своеобразия междисциплинарных отношений представляется весьма актуальным. Философски один из главных вопросов можно сформулировать так: как новейшие научные тенденции влияют на междисциплинарные отношения? В данной статье в призме этого вопроса мы сможем рассмотреть лишь ограниченное количество моментов. Потому что сама проблема очень широка и многогранна.

В статье мы будем использовать междисциплинарный подход для достижения поставленной научной цели. При этом мы отдаем предпочтение методологическим принципам таким как нелинейность, интерсубъективность, сложность, системная динамика и принципы динамического формирования. В качестве метода мы будем опираться на системный подход.

Анализ литературы. В 1998 году А.Кларк и Д.Чалмерс ввели в философскую литературу понятие «расширенное познание». Это понятие в общем плане означает, что в современное время субъект попадает в когнитивные рамки окружающей среды независимо от себя и зависит от нее в понимании. То есть, например, субъект, широко использующий интернет-пространство, не может выйти за пределы созданной этой средой когнитивной среды, он становится от нее зависимым. В этом смысле его когнитивные возможности расширяются за счет цифровых технологий [6;7–17 с.; 7;44–65 с.].

Предполагается, что расширение познания в понимании А.Кларка и Д.Чалмерса означает расширение возможностей человеческого понимания самостоятельно посредством современных технологий (искусственный интеллект, Интернет, новейшие информационные и коммуникационные технологии). Философы в целом согласны с этим определением. Однако в это время возникают эпистемологические проблемы. В частности, становится актуальным поиск ответов на вопросы, связанные с тем, может ли субъект, чье познание расширяется, поддерживать это расширение, полезно ли оно для общества и определять направления расширения в целом, и другие проблемы.

Здесь позиции расходятся. Например, группа философов виртуалистской эпистемологии утверждает, что расширение познания не нуждается в доказательствах, а, скорее, важны авторитет и доверие к исследователю. Согласно их подходу, истинное знание может дать личное убеждение исследователя, а не логические доказательства. Дункан Притчард – один из сторонников этой позиции [12;633–645 с.].

В рамках эпистемологии добродетели есть те, кто объясняет расширение познания личными добродетельными качествами исследователя. Они считают, что научная истина не может быть полностью объяснена достоверной познавательной деятельностью исследователя. Здесь рассуждения следует рассматривать шире. В том числе, следует учитывать личностные качества исследователя и взаимодействие окружающей его социальной среды. В этом отношении, например, мудрость исследователя и доброжелательность его мышления позволяют прийти до истины [3;196–218 с.; 1].

Проблеме функционалистского подхода сторонник Дж.А.Картер выдвигает тезис о том, что степень полезности когнитивного расширения может быть различной. То есть он выражает мнение, что считать расширенное познание безусловно полезным и дающим истинные научные знания – рискованно [5;421–430 с.].

На фоне интенсивного развития цифровых технологий в исследовании научной проблемы, которую мы рассматриваем, началась новая стадия. Исследователи пытаются философски осмыслить расширенное познание в более широком и фундаментальном аспекте. Например, С.Я.Шевченко рассматривает расширенное познание в тесной связи с эпистемологической ответственностью и пытается определить критерии, которые могут быть общими для них [17;209 с.].

Мы могли бы сделать обсуждение расширенного познания немного более всеобъемлющим. Однако выделенные моменты выражают основные черты философского отражения проблемы. Кро-

ме того, можно сослаться на статьи, опубликованные М.Альфано и др. в Стэнфордской энциклопедии [1].

Существует внутренняя логическая и когнитивная функциональная связь между эпистемологией «распределенного познания» и эпистемологией «расширенного познания». Термин «распределенное познание» был введен Э.Хатчинсом исходя из коллективного, интересубъектного характера научного познания (1995–2000). Здесь, когда мы имеем в виду распространение познания, учитывается, что помимо познавательных особенностей коллективного творческого субъекта в любом научном понимании участвует и социальная среда. То есть итоговые знания формируются в результате взаимодействия множества различных факторов на коллективном уровне.

Этим «распределенное познание» отличается от «распределенного знания», основанного на коллективизме научного творчества, взаимодействии воспринимающего субъекта и окружающей среды. Каждый элемент коллектива выполняет свою функцию, и в этом смысле познание распределяется внутри одного коллектива. Л.В.Шиповалова пишет, что, по мнению Э.Хатчинса, «только сочетание совместных усилий и координации различных познавательных задач дает надежный результат» [18;57 с.].

Однако в контексте нашей рассматриваемой проблемы важный момент проявляется. Этот момент связан с сущностью, природой и целью коммуникации в науке в целом. Философы различают научную коммуникацию и профессиональную коммуникацию в науке [18;57с.; 20;146–156 с.].

Для нас важна взаимосвязь понятий научной коммуникации и профессиональной коммуникации в науке. Это связано с тем, что в рамках эпистемологии распределенного познания существует необходимость в отношениях между этими двумя аспектами. Причину этого мы объясним далее.

Таким образом, основываясь на общем содержании понятий «расширенное познание» и «распределенное познание» и их различных объяснениях, мы можем провести философский анализ влияния новейших научных направлений на современное научное познание. Для этого необходимо исследовать научную проблему, поставленную в статье, через призму основных гносеологических отношений между расширенным и распределенным познанием.

Методология исследования. Научно-теоретической основой статьи являются эпистемология «расширенного разума» или «расширенного познания» и концепция «распределенного познания», которые считаются вариантами исследовательской методологии, называемой «новая эпистемология». «Расширенное познание» исследуется в контексте идей Д.Притчарта [12;632–642 с.], Х. Баттали [3;196–219 с.], Дж.А.Картерф [5;420–433 с.], С.Ю.Шевченко [17;209–227 с.] и других философов.

А по концепции «распределенного познания» мы ссылаемся на работы Э.Хатчинса [9], В.А. Шапошникова [16], Л.А.Шиповаловой [18] и других. На основе этой научно-теоретической базы и в контексте научной цели статьи определили методологию исследования.

Прежде всего, отметим, что подход «расширенного познания» выражает необходимость расширения гносеологических и методологических границ философского и научного познания для адекватного философского отражения новейших научных направлений. «Распределенное познание» в этом смысле отражает то, что расширенное познание следует принимать во внимание в аспекте коллективных действий. При этом понятие «распределенное познание» не следует путать с понятием «распределенное знание». Распределенное знание показывает распределение полученных знаний между разными субъектами, а распределенное познание показывает коллективный характер творчества [10;259–260 с.; 18;57 с.].

В рамках такого подхода используемые нами принципы нелинейности, интересубъективности, сложности, системной динамики и динамического формирования работают в пределах синергетического понимания и его методологических границ. Таким образом, нелинейность представляется как сумма частей современного знания, включая новейшие научные направления.

Интерсубъективность фиксирует коллективный характер познания в рамках одного принципа.

Сложность указывает на то, что существующие объяснительные механизмы процессов, происходящих в современной науке, выходят за свои пределы с эпистемологической точки зрения.

Системная динамика демонстрирует, что междисциплинарные отношения подчиняются определенному гностическому порядку. Динамическое формирование выражает процесс, который на любом этапе междисциплинарных связей не является статическим завершением, а динамически обновляющимся. Все эти методологические принципы позволяют рассмотреть тему в ее комплексной форме посредством единого и общего метода системного подхода.

Также следует подчеркнуть, что «новая эпистемология» не ограничивается значением, предложенным Юк Хуэй [8], а представляет собой общее название новых эпистемологических подходов, развиваемых и используемых в современной философии и научном познании в различных аспектах XXI века. При этом также учитываются поиски новой эпистемологии в рамках понятия «космотехника» Ю.Хуэй. Под «одинаковой эпистемологией» Ю.Хуэй подразумевает создание различной эпистемологии научного познания на основе понятия «космотехника». Для этого Ю.Хуэй в качестве основы этой гносеологической концепции видит понятия «рекурсивность» и «случайность» [8]. Это означает рассмотрение «технологического» пространства внутри универсальных и несколько расплывчатых когнитивных принципов.

Анализ проблемы. Прежде всего отметим, что под «новейшими научными направлениями» мы понимаем направления исследований, которые начали формироваться в том числе с 60-х годов прошлого века, но основную динамику развития достигли в XXI веке и возникли на стыке различных наук. Здесь речь идет не о полном перечне новых научных направлений, а о концептуальных, методологических и мировоззренческих новациях, привнесенных этими научными направлениями в современное философско-научное мышление как феномен научного познания. В основном новые научные направления учитываются в области биологии, нанонауки и искусственного интеллекта. Такой выбор обусловлен тем, что данные научные направления весьма актуальны для XXI века. Полный философский анализ новейших научных тенденций является предметом обширных исследований.

Таким образом, давайте рассмотрим, какие новые понятия привнесли новейшие научные направления в современное научное познание. Понятие «синтетическая биология» само по себе является новым. Это понятие подразумевает создание новых геномов в рамках генетической инженерии. Хотя термин «геном» был введен в научный оборот в 1920 году, его реальные практические функциональные особенности становятся актуальными только в XXI веке. Геном представляет собой совокупность наследственного материала в человеческой клетке. Он содержит биологическую информацию, необходимую для построения и существования человеческого организма. В этом контексте понятие «геном» в синтетической биологии относится к способности человека искусственно создавать геномы. Таким образом, наука фактически получила возможность проникать в нанобласть, в самые мелкие уровни. Синтетическая биология охватывает исследования как по созданию новых искусственных организмов, так и по восстановлению ранее исчезнувших живых существ в природе, то есть по их «воскрешению».

Многие новые концепции возникли в рамках синтетических биологических исследований. Например, «изолятор», «репликация», «начало репликации», «сайт рестрикции» и т.д. Инсулятор – изолирующий биологический материал, который опосредует внутри-хромосомные и меж-хромосомные взаимодействия и связывает белки. Репликация означает размножение генома. Инициал репликации – это последовательность в геноме, которая стимулирует репликацию. Понятие «ограничение» заимствовано из экономики и относится к ограничению производства генома. Сеть рестрикции – это сеть-система, ограничивающая воспроизведение генома [15; 2–15 с.; 11; 90 с.; 13].

Мы не случайно выбрали эти понятия из синтетической биологии. Они относятся к самоорганизации организма на клеточном уровне. Похоже, что биологи уже проявили конкретные характеристики этих нано-процессов и механизмы самоорганизации как процесса. В этом контексте можно говорить о значительном влиянии концептуального аппарата синтетической биологии на другие новые научные направления, такие как синергетика. В результате этих влияний появляется возможность более конкретного научного изучения переходов от хаоса к самоорганизации и самовозрождению на универсальном уровне.

Необходимо учитывать, что для новейших научных направлений недостаточно рассматривать только синтетическую биологию. Прежде всего, в научной области, обычно называемой «нано наукой», сформировались новые понятия. Например, «нанокран», «наночип», «нанопсихология» и другие. Эти понятия позволяют ученым исследовать процессы на наноуровне с различных аспектов. Фактически, в современной науке уже сформировалась картина «наномира». В этом направлении наноисследования проводятся в тесной связи с био-, инфо-, когнито- и соционаправлениями. На этой основе ученые ввели понятие «NBICS-технологии» и активно его исследуют. NBICS-технологии серьезно влияют на современное научное познание [4; 25–33 с.; 19]. Основное влияние здесь связано с расширением возможностей научного познания человека благодаря нано-исследованиям. Следует отметить, что в данной статье именно этот аспект выбран в качестве главной научной цели.

Концептуальный аппарат, формирующийся в других новейших научных направлениях, также оказывает аналогичное влияние на современное научное познание, как и в синтетической биологии. В этом контексте особенно важно уделить внимание исследованиям, связанным с искусственным интеллектом. Искусственный интеллект в настоящее время является одним из самых интенсивно развиваемых исследовательских направлений. В его рамках быстро появляются новые понятия, которые, как правило, связаны с различными сферами человеческой жизни. Здесь проявляется синтез когнитивного аспекта с социокультурными и практическими аспектами. Например, «робоэтика», «этика искусственного интеллекта», «искусственное сознание», «искусственное существо», «симбиотический субъект» (субъект, который может возникнуть из синтеза человека и искусственного интеллекта) и десятки других уникальных понятий. Все эти понятия объединяют общие когнитивные моменты. Каждое из них как по отдельности, так и в комплексе способствует расширению горизонтов познания человека.

Здесь очевидны две особенности. Во-первых, искусственный интеллект развивается на стыке науки и технологий. Фактически это появление понятия «технонаука» вместе с «нанонаукой». Эти две концепции играют значительную роль в динамике современного научного понимания. Второе — «космизация» научного понимания, образно говоря, средствами искусственного интеллекта. Принимая это во внимание, Ю.Хуэй включил понятие «космотехника», что фактически означает, что научное понимание проникает в космические масштабы и смотрит на него «сквозь призму духа техники и новых технологий» [8].

Выделенные положения позволяют высказать тезис по гносеологическому вопросу. Новейшие научные направления создают особую гносеологическую ситуацию в современном научном понимании. Это обусловлено главным образом их концептуальным, гносеологическим и методологическим взаимодействием с научными направлениями (синергетика, аутопоэзис и др.), сформировавшимися во второй половине прошлого века и считающимися новыми. Ведущую роль в этой связи играют такие направления, как синтетическая биология и искусственный интеллект.

С эпистемологической точки зрения это делает подходы «дополненного познания» и «распределенного познания» очень актуальными. Актуально и интересно философски осмыслить современную научную познавательную ситуацию в свете этих гносеологических подходов.

Результаты. Рассмотрение влияния новейших научных тенденций на научное понимание только в когнитивном контексте неадекватно современным научным требованиям. В настоящее время в философии и методологии науки считают более целесообразным подход к научной деятельности и формированию знаний с чисто познавательным аспектом, в единстве социокультурного и технологического аспектов. Это включает в себя широкий спектр деятельности от наноуровня до космического масштаба. Речь идет о создании философии трансформации этого поля в «когнитивное поле». В этом контексте возникает необходимость создания синтеза различных эпистемологических подходов. В данной статье мы исследуем возможности синтеза эпистемологий «расширенного познания» и «распределенного познания» в коммуникативном аспекте.

Главная сторона вопроса связана с гносеологическим мировоззрением и методологическими особенностями новейших научных направлений. Конкретно, новейшие научные направления формируются в тесной связи с новыми технологиями и практическими аспектами. Они таким образом содержат в себе имманентные познавательные, социальные, технологические и коммуникативные аспекты. Следовательно, при рассмотрении влияний этих научных направлений на научное познание в целом необходимо гармонично учитывать обозначенные аспекты (когнитивный, социальный, культурный, практический и коммуникативный).

Здесь в качестве основных тезисов принимаются «объединение совместных усилий и координация различных познавательных задач» (Э.Хатчинз) и «научная коммуникация (science communication)+профессиональное общение в науке (communication in science)». Оба тезиса согласуются с эпистемологическими, логическими и методологическими особенностями расширенной когнитивной и распределенной когнитивной эпистемологии.

Расширенное познание подразумевает расширение когнитивных возможностей научного познания через социально-культурные и технологические факторы, что позволяет исследовать свойства новейших научных направлений в контексте расширения научного познания. Дело в том, что, исходя из проведенного анализа новейших научных направлений, видно, что здесь когнитивные, социальные, культурные и новые технологические (в основном, цифровые) факторы участвуют в единстве. Например, если рассмотреть понятия синтетической биологии и методы, подходы и ре-

зультаты проведенных исследований, мы можем ясно увидеть этот акцент. Для исследования «голосо клетки» (синозоология) или полного переноса человеческого интеллекта в искусственный интеллект (сеттелетика) необходимо расширение познания. Для этого требуется взаимодействие не только когнитивных факторов, но и социальных, культурных и новых цифровых технологических факторов.

Следовательно, гносеологическое решение проблемы может быть решено в гносеологических рамках «расширенного познания». В то же время влияние новейших научных направлений на научное познание требует выяснения механизмов понимания на общеметодологическом уровне. Для этого мы можем обратиться к эпистемологии «распределенного познания». Концепция распределенного познания объясняет основной эпистемологический механизм приобретения знаний в новейших научных направлениях. Здесь исследуются теоретические, гносеологические и методологические аспекты деятельности творческого коллектива, относящегося к разным областям науки, как единого коллектива. При этом анализируется коммуникативный аспект обмена знаниями внутри этого коллектива.

Согласно эпистемологии «распределенного познания», различные аспекты научной проблемы в междисциплинарной области изучаются разными учеными, работающими как команда, и здесь крайне важно учитывать существующую социальную среду, рабочую обстановку, технологическое обеспечение и практические возможности. Основным моментом научного знания в такой деятельности связан с обозначенной познавательной ситуацией или процессом творчества. Научное знание определяется через взаимодействие этих аспектов, что приводит к созданию нового знания. Таким образом, для новейших научных направлений актуализируется еще одно научное требование. Оно связано с организацией и характером научно-информационной коммуникационной работы в рамках единой творческой команды. Это требование, по нашему мнению, можно удовлетворить через синтез концепций научной коммуникации и профессиональной коммуникации в науке.

Профессиональная коммуникация в науке регулирует творческое взаимодействие в команде в рамках норм, определенных критериями научности знания. В этом отношении коммуникация должна соответствовать установленным требованиям. В то же время, поскольку один из аспектов новейших научных направлений связан с социокультурными и технологическими факторами, необходимо расширять коммуникацию в науке.

По этой причине становится актуальной организация обмена идеями между научными кругами и общественностью. Это можно сделать путем оценки различных экспертных групп или проведения мониторинга. Механизмом ее реализации является концепция научной коммуникации.

Таким образом, можно прийти к выводу, что изучить влияние новейших научных направлений на современное научное познание можно в синтезе подходов «расширенной» эпистемологии, «распределенной эпистемологии», «научной коммуникации» и внутринаучного профессионального коммуникативного подхода.

Из положений, выделенных в статье, можно сделать несколько общих выводов.

Заключение. Формирование новейших научных направлений связано с процессом конкретизации постнеклассической рациональности на новом этапе. Здесь явно ощущается влияние социокультурных и технологических инноваций XXI века.

Новейшие научные направления влияют на предшествующие синтетические научные подходы (синергетика, аутопоэзис, теория нечетких множеств и др.) в концептуальном, гносеологическом и методологическом аспектах. В результате происходят изменения как в организации научной деятельности, так и в механизмах получения новых знаний.

На современном этапе возникла необходимость в формировании подхода для философского и эпистемологического изучения влияния новейших научных направлений на научное познание. Для этого в статье предлагается синтез нескольких эпистемологических подходов. Они включают в себя:

- эпистемология «расширенного познания»;
- эпистемология «распределенного познания»;
- профессиональная коммуникация в науке;
- научная коммуникация.

Рекомендация. Для адекватного прогнозирования перспектив современного научного познания необходимо философски осмыслить влияние новейших научных направлений на современное научное познание.

Список использованных литератур:

- (1). Alfano M., et. all. (Eds). M.Alfano, K.Colin, J.de Ridder. Social Virtue Epistemology. New York, Routledge, 2022, 636 pp.
- (2). Alfano M., et all. Virtue Epistemology. Substantive revision Tue Oct 26, 2021 [Electronic resource]. M. Alfano, J.Greco, J.Turri. Stanford. “Stanford Encyclopedia of Philosophy”. URL: <https://plato.stanford.edu/entries/epistemology-virtue/>.
- (3). Battaly H. Extending Epistemic Virtue. Extended Cognition Meets Virtue-Responsibilism”. Oksford. In J.A.Carter, A.Clark, J.Kallestrup, O.Palermos, D.Pritchard, eds. Extending Epistemology. Oxford University Press, 2018, pp.195–220.
- (4). Буданов В.Г. Концептуальная модель социоантропологических проекций конвергирующих NBICS-технологий. Социо-антропологические ресурсы трансдисциплинарных исследований в контексте инновационной цивилизации. Сборник статей международного научного вебинара. Ответственный редактор: Асеева И.А. Издательство «Университетская книга». Курск, 2015, с. 24–34.
- (5). Carter J.A. “Virtue Epistemology and Extended Cognition”. Abingdon. In: H Battaly (ed.) Routledge Handbook of Virtue Epistemology. Routledge, 2018, pp. 420–433.
- (6). Clark A., Chalmers D.J. The Extended Mind. Oksford. Analysis, 1998, №. 58 (1), pp. 7–19.
- (7). Clark A. Memento’s Revenge: The Extended Mind, Extended. Cambridge. In: R.Menary (ed.) The Extended Mind. Cambridge, MA: MIT Press, 2010, pp. 43–66.
- (8). Hui Y. Recursivity and Contingency. Y.Hui. London–New York, Rowman & Littlefield International Ltd. 2019, 319 p.
- (9). Hutchins E. Distributed Cognition: [Electronic resource]. Amsterdam: International Encyclopedia of the Social and Behavioral Sciences. Elsevier. 2000, pp. 2068–2072. URL: <http://comphacker.org/pdfs/631/DistributedCognition.pdf>.
- (10). Perry M. “Distributed Cognition”. Thousand Oaks, CA. In: H. Paschler (ed.), Encyclopedia of the Mind: SAGE Publications, 2013, pp. 258–260.
- (11). Площук Н.Г. Новейшие направления современной биологической науки. Нальчик. Журнал «Научные известия», 2019, № 16, с. 89–93.
- (12). Pritchard D. “Extended Virtue Epistemology”. Oxfordshire. Inquiry, Routledge. Taylor & Francis. 2018, vol. 61, №. 5–6, pp. 632–647.
- (13). Sanchez S. Synthetic Biology in a Nutshell [Electronic resource]. Medium, 2020. URL: <https://sofiasbio.medium.com/synthetic-biology-in-a-nutshell-a7fc507859b7>.
- (14). Skotis G.D. Sonocytology: dynamic acoustic manipulation of particles and cells. 2018. Glasgow. University of Glasgow. PhD thesis, 166 pp.
- (15). Synthetic Biology: An Introduction. 2011. European Academies Science Advisory Council, 16 pp.
- (16). Шапошников В.А. Распределенное знание и математическая практика в цифровом обществе: от формализации доказательства к пересмотру оснований. Москва. Эпистемология и философия науки. 2018, т. 55, № 4, с. 160–173.
- (17). Шевченко С.Ю. Расширенный разум и эпистемическая ответственность в цифровом обществе. Москва. Эпистемология и философия науки, 2021, т. 58, № 4, с. 209–227.
- (18). Шиповалова Л.А. Распределенное познание и его границы в контексте публичной научной коммуникации. Москва, “Социология науки и технологий”, 2019, т. 10, № 3, с. 56–71.
- (19). The latest research in modern science: experience, traditions and innovations: Collected scientific articles of the XV International scientific conference on January, 23–24, Morrisville, NC, USA, 2023, Lulu Press, Morrisville, NC, USA, 2023, 123 p.
- (20). Watts E., et all. Climate Science Can’t be Trumped: a Look at How to Translate Empirical Data into Political Action. E.Watts, U.Hoßfeld, G.S.Levit. Sankt-Peterburg. Vestnik of Saint Petersburg University. Philosophy and Conflict Studies, 2019, vol. 35, № 1, pp. 145–158.
- (21). 10 самых прорывных технологий 21 века [Электронный ресурс], Dzen.ru. 2024. URL: <https://dzen.ru/a/ZhEPVhGXbYr3MTG>.

Karimova Diloromxon Shavkat qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti “Amaliy xorijiy tillar” kafedrası, f.f.f.d. (PhD); e-mail: karimovadilorom15@gmail.com)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPTNING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tilshunoslikda konseptning o‘rni va ahamiyati, uning insonlar hayotidagi talqini aks etgan bo‘lib, o‘lim konseptining musulmon davlatlarida konseptga bog‘langan holda qanday aks ettirilishi yoritilgan. Islomda va muqaddas Qur‘on kitobi amallarida o‘lim konseptining ingliz va o‘zbek madaniyatida aks etishi o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Barzax, sur chalish, konsept, qiyomat, mahshar, amal kitobi, hisob-kitob, mezon, ta‘ziya, oxirat, maydon.

Karimova Diloromxon Shavkat qizi (Андижанский государственный педагогический институт Кафедра прикладных иностранных языков, ф.ф.ф.д. (PhD); karimovadilorom15@gmail.com)

РОЛЬ КОНЦЕПТА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В данной научной статье отражены роль и значение концепта в лингвистике, его трактовка в жизни людей, а также то, как концепт смерти отражается в мусульманских странах в связи с этим концептом. Отражение концепции смерти в английской и узбекской культуре в исламе и в деяниях священной книги Корана.

Ключевые слова: Барза, труба, концепция, конец света, махшар, книга дел, расчет, критерий, соболезнование, загробная жизнь, поле.

Karimova Diloromxon Shavkat qizi (Andijan State Pedagogical Institute Department of Applied Foreign Languages f.f.f.d. (PhD); e-mail: karimovadilorom15@gmail.com)

THE ROLE OF THE CONCEPT IN MODERN LINGUISTICS

Annotation. This scientific article reflects the role and importance of the concept in linguistics, its interpretation in people's lives, and how the concept of death is reflected in Muslim countries in connection with the concept. The reflection of the concept of death in the English and Uzbek culture in Islam and in the deeds of the holy book of the Qur'an.

Key words: Barzah, trumpet, concept, doomsday, mahshar, book of deeds, calculation, criterion, condolence, afterlife, field.

Kirish. Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan muammo – bu konsept. Chunki kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini o‘tgan asrning 90-yillaridan beri tilshunoslikda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Konseptlarning o‘rganilishi bo‘yicha eng atoqli tilshunoslari-dan biri S.A.Askoldov hisoblanadi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”, deb izoh bergan. D.S.Lixachev o‘zining «Концептосфера русского языка» ilmiy ishida konseptni so‘zning lug‘at ma‘nosi va insonning o‘z milliy qarashlari bilan to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan fikrlash jarayonining mahsuli deb ta‘riflaydi. Y.Komarov o‘zining nomzodlik ishida konseptning mazmun strukturasi ko‘ra, leksik ma‘nodan katta ekanligini alohida ta‘kidlaydi. Buning sababi sifatida konseptning mental hodisa ekanligi bilan izohlaydi. N.Arutyunova esa konseptni ham mental birlik, ham tafakkur elementi sifatida talqin etib, uning olam va odam o‘rtasidagi madaniy unsur ekanligini izohlaydi. Y.S.Kubryakova konseptni “mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko‘rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi” ekanini ta‘kidlaydi [1]. Y.Shvedova “Konsept – bu tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini” qayd etadi. O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega.

Tahlil va natijalar. Inson bu dunyoda yashar ekan, ko‘pincha, u o‘zining ajalini, o‘limi keladigan vaqtni juda uzoq deb o‘ylaydi. Orzu-umidlari ko‘pligidan ham u shunday fikrga boradi. Ajali esa unga kutilmaganda keladi. O‘lim farishtasi uning ruhini qabz qilish uchun keladi. Jon berish achchig‘i, azobi uning butun badan a‘zolariga tarqaladi. Boshining uchidan oyog‘ining ostigacha o‘lim mastligiga g‘arq bo‘ladi.

O‘limning lug‘atda ikki xil ma‘nosi bor:

1. Hayotning ziddi qilib yaratilgan vujudiy sifat.
2. Yo'qlik.

O'lim ikki hayot – bu dunyo hayoti va oxirat abadiy hayoti o'rtasidagi ko'prik deb qaraladi [1;110–116-b.]. Vafot etish – to'la ma'noda yo'q bo'lish degani emas, balki u ruh bilan tana muloqotining uzilishi hamda ularning bir-biridan uzoqda va xoli bo'lishi, holatning o'zgarishi, shuningdek, bir diyordan boshqa bir diyorga ko'chishdir. O'lim ruhning badandan ajralishidir [2;445-b.]. O'lim qalbdagi o'chmas iz qoldiradi. Uni esga olish ko'ngilni yumshatadi va Alloh taolaga tavba bilan yuzlanishga chorlaydi. Shu boisdan Qur'oni karimda o'lim qayta-qayta zikr etilgan. Undagi oyatlar kofir va osiylarni o'lim ro'baro' kelgandagi azob bilan qo'rqitsa, o'limga hozirlik ko'rib, amallarini u keladigan kunga taxt qilib qo'ygan mo'min kishilarga quvonchli xushxabar beradi. O'limni eslatuvchi oyatlar Qur'oni karimda juda ko'p zikr qilingan. Alloh taolo aytadi:

«Har bir jon o'limni totguvchidir» (*Oli Imron surasi, 185-oyat*).

«(Ey, Muhammad!) **Ayting: «Agar sizlar o'lishdan yo o'ldirilishdan qochsaniz, bu qochish sizlarga sira foyda bermas»** (*Ahzob surasi, 16-oyat*).

Inson o'limdan omon qolmaydi. Qaysi joy, qaysi vaqt bo'lmasin, o'lim uni izlab topadi. Shularni bayon qilib, Alloh subhanahu va taolo bunday deydi: **«Qayerda bo'lsangiz, hatto mustahkam qal'alar ichida bo'lsangiz ham, o'lim sizlarni topib olur»** (*Niso surasi, 78-oyat*).

«Alloh jonlarni o'lgan vaqtida, o'lmaganlarni esa uxlayotgan paytlarida olur. Bas, O'zi o'limga hukm qilgan jonlarni (qaytarmasdan) ushlab qolur, boshqalarini esa belgilangan bir muddatgacha (ajallari yetguncha) qo'yib yuborur. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavm uchun alomatlar bordir» (*Zumar surasi, 42-oyat*) [3]. Insonda “katta o'lim” va “kichik o'lim” bo'ladi. Kattasi – ajal yetganda ruhning tanadan chiqib ketishi. Kichik o'lim – bu, uyqu. Uxlagan odam o'likka o'xshatiladi. Chunki o'lik kabi u ham beshta sezgi a'zosi va aqldan vaqtincha bo'lsa ham, xoli hisoblanadi. Qur'oni karimda “vafot” so'zining o'zagidan olingan va “uyqu” ma'nosini ifoda etadigan iboralar kelgan [4;420-b.]. O'lim kishi boshiga uyg'oqligida ham, uyqusida ham kelib qolishi mumkin. Demak, uyqu insondan o'limni daf qila olmaydi. Umuman olganda, biror holat, vaqt va yo biror joy, narsa yo'qki, insonni o'limdan saqlab, asrab qololsa. Shularni o'ylagan oqil odam o'lim har lahzada kelib qolishidan hushyor bo'lishi, ezgu amallarni bajarishi, savol-javob qilinadigan kun kelmasidan avval o'zini hisob-kitobga tutishi, tarozi uning foydasi yo zarariga tortilmasdan burun amallarini o'lchab ko'rishi lozim. Alloh taolo insonni ogohlantirar ekan, unga bu dunyo oxirattan voz kechishiga arzimlasligini, chunki uning noz-ne'matlari oz, vaqti qisqa, oxirat esa doimiy qarorgoh va haqiqiy maskan ekanini ta'kidlaydi:

«Ularga ayting: «Dunyo matosi ozginadir» (*Niso surasi, 77-oyat*).

«Oxirat diyorigina (haqiqiy) hayot (joyi)dir» (*Ankabut surasi, 64-oyat*).

Dunyoga mukkasidan ketgan, uning aldovlariga ishonib, shahvatlar og'ushida qolgan kishining qalbi, shubhasiz, o'limni eslash amalidan g'ofil, bu ne'matdan bebahrdir. Bunday odam o'limni esga olishni yoqtirmaydi, bundan qochadi. Alloh taolo deydi:

«Ayting: «Sizlar qochayotgan o'lim, albatta, sizlarga yo'liqquvchidir! So'ngra sizlar yashirin va oshkora narsalarni biluvchi Zotga (Allohga) qaytarilursiz. Bas, (U) Zot sizlarga qilib o'tgan amallaringizning xabarini berur!» (*Jum'a surasi, 8-oyat*) [7;404-b.].

Demak, odamlar uch xil bo'ladi:

- dunyoga mukkasidan ketganlar;
- tavba yo'liga kirganlar;
- kamolga yetgan oriflar.

Dunyoga mukkasidan ketgan kishi o'limni eslamaydi. Eslagan taqdirda ham dunyosi qolib ketayotganiga afsus qilib, bunga o'lim sababchi bo'lyapti, degan bema'ni xayolga boradi. O'limni bu tarzda eslash Allohga yaqinlik vujudga kelishiga emas, balki Allohdan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Tavba yo'liga kirgan kishi o'limni ko'p eslaydi. Eslagani sayin qalbi qo'rqinchu istig'farga, vujudi xushu' va xuzu'ga limmolim to'lib boradi. To'g'ri, u ba'zan o'lim qo'qqis kelib, tavba tamomiga yetmay, oxirat ozig'i g'amlanmay qolishidan cho'chib, o'limni xohlamaydi. Lekin uning bu holati uzrli. Shuning uchun ham u Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning quyidagi hadisida aytilgan kishilar jumlasiga kirmaydi. Balki o'zining qusur va nuqsonlari sabab Alloh diydoriga yetish kabi buyuk ne'matni boy berib qo'yishdan xavfsiraydi. Go'yo u suyaklisini xushnud etadigan uchrashuvga tayyorlanish bilan mashg'ul bo'lib, visolga kechikishdan cho'chiyotgan kishiga o'xshaydi. Visolga kechikishdan cho'chish esa visolni xohlamaslik emas. Orif kishi o'limni uzluksiz eslaydi. Negaki, u yaxshi biladi: o'lim suyakli Zot huzuriga ilk qadam, diydorlashuv, va'dalashilgan manzil. Habib mahbubining visol va'dasini aslo unutmaydi. Ko'pincha, orif zot osiylar uyi

bo'lmish ushbu isyonli dunyodan batamom qutulib, butun olamlar Parvardigoriga yaqin bo'lish uchun o'limning kelishini intazorlik bilan kutadi. O'limni eslash, unga tayyorgarlik ko'rish har bir kishiga mustahabdir. O'limga tayyorgarlik ko'rish gunohlardan tiyilish, toat-ibodatga kirishish bilan bo'ladi [6;446]. Alloh taolo bunday degan: «**Bas, kimki Parvardigori bilan muloqotda bo'lishdan umidvor bo'lsa, u holda ezgu amal qilsin va Parvardigoriga ibodat qilishda hech kimni (Unga) sherik qilmasin!**» (*Kahf surasi, 110-oyat*) [7].

Turli tizimli tillar madaniyatlarida o'limning bir necha qiyofalari mavjud bo'lib, *qora plash, o'roq, skelet tabassumi* va qadimgi jamiyatlarda o'limni turli yo'llar bilan Yunonlar mifologiyasida qanotli gipper Tanatos bilan, Skandinaviya mifologiyasida yolg'iz va g'amgin Xel qiyofasida, hindlarda bo'lsa urf-odatlariga ko'ra, vahshiyona bezatilgan qirol timsollari bilan insonlar go'yoki o'limni ko'rganlar [8].

Madaniyatlararo va dinlararo o'lim qo'rquvini va undan keyingi hayotga ishonishni o'rganishda hind olimlari Parsuram va Sharma (1992) ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Hindistondagi 3 din vakillari: hindular, nasroniylar va musulmon xalqlari solishtirilganda, hindlarning o'limga nisbatan bo'lgan tashvishlari eng past darajada ekanligi aniqlangan. Ular hamma xalq vakillaridan ham ko'proq o'limga, qayta tirilishga, keyingi hayotga ishonishlarini ko'rsatgan. Ulardan keyingi ko'rsatkichni musulmonlar jamiyati vakillari ko'rsatgan. O'limga nisbatan eng ko'p qo'rquv nasroniylarda bo'lishi aniqlangan [10;10–12-b.].

V.Fon Gumboltning fikricha, har bir til qandaydir aniq dunyoqarashni aks ettiradi. Binobarin, “shaxsning idroki va faoliyati qanchalik uning qarashlariga bog'liq bo'lsa”, insonning “obyektlar”ga munosabati to'liq til bilan belgilanadi. C.Geyertz “madaniyat” tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: “Tarixiy ko'chirilgan model tomonidan ifodalangan meros tushunchalar tizimi sifatida belgilarga kiritilgan tushunchalar ramzlar vositalari, ular orqali odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi va asoslanadi bunda ularning hayot haqidagi bilimlari va munosabatlari shakllanadi”.

O'lim barcha tirik jonzoqlar uchun, albatta, sodir bo'ladigan hodisadir. O'lim ikki hayot – bu dunyo hayoti va oxirat abadiy hayoti o'rtasidagi ko'prikdir. Uni hammamiz birdek tasavvur etamiz va ishonamiz. O'limni bilmagan, esga olmagan inson yo'q. Shunday bo'lsa-da, o'limga bog'liq narsalar tamomila g'aroyibotlar jumlasiga kiradi. Ularni inson to boshidan kechirmagunicha ko'rib ham, his qilib ham, boshqa narsalarga solishtirib ham bo'lmaydi.

Shu o'rinda Chikago universiteti tilshunos olimi Bridjit M.Rouz (2002) o'zining ilmiy tadqiqot ishida shunday yozadi: “Insonlar o'limdan keyingi hayotga ishonar ekanlar, ularni o'lim tashvishi va o'limning qo'rquvi kamroq bezovta qiladi. Sababi insonlar toki hammasi bir kuni kelib o'lishlariga ishonib hayotdan zavqlanadilar va o'lim uchun ham tayyorgarlik qilib boradilar. Bu ularning o'limdan keyingi hayot haqidagi e'tiqodlarini mustahkamlaydi, diniy ta'limotlardan o'zlariga tasalli oladilar”, deb, ta'kidlaydi [11;230-b.].

Bizning diniy va dunyoviy qarashimizda o'lim bu so'ramasdan, insonni ogohlantirmasdan sodir bo'ladigan jarayon deyiladi.

Luqmoni Hakimning o'g'liga: “O'g'lim! O'limning qachon kelishini bilmaysan. Bas, to'satdan senga yo'liqishidan oldin o'limga hozir tur” [12] deb qilgan nasihatidaga jumlar insonni bir daqiqiga larzaga soladi. Bu borada dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karimda ham juda ko'plab zikrlar keltirilgan. Alloh taolo aytadi: “Har bir jon o'limni totguvchidir” [13].

Islom butun insoniyatga yuborilgan so'nggi haq din, lekin Nasroniy dini ham jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Tarqqiy etgan davlatlarning asosiy qismi xristian diniga mansub kishilarni o'z ichiga oladi. Nasroniylik dinining Eski va Yangi Ahd kitoblarida o'lim va boqiylik haqida alohida ta'limotlar mavjud bo'lib, unda qilingan gunohlar uchun “o'lim” jazodir va Iso barcha odamzot uchun o'lib tirilgandir. Masalan: “Qachonki mo'minga o'lim hozir bo'lsa, Iso Masih doimo hayot, o'limga qarshilik ko'rsating” (Eski Ahd, 24) [12;15-b.]. Yevropada *memento mori* mashhur iborasi mavjud bo'lib, ushbu ibora doimo o'limni eslashga, uni kutilmaganda kelishini aks ettirib, shaxsni o'ylanishga va doimo bu haqda fikrlashga undaydi. *O'limni anglash* iborasi esa insonni o'zini o'limga tayyorlashi va uni tabiiy qabul qilishiga ishora bo'lgan. Falsafiy nuqtai nazardan o'limni tasvirlash va uni insonlar ongiga singdirish turli yo'llar bilan muhokama qilingan va tushuntirilgan. Masalan, faylasuv olim Aflotun “o'lim”ning o'lmas ekanligi inson ruhi u o'lganidan so'ng ham insonlar oldida qolishi mumkinligini ta'kidlaydi. Lekin o'limga hayotning yutug'i sifati qarash kerakligiga ishonadi. Olim Epikur esa buning aksini tushuntiradi: “O'lim–ruh o'lgan va tana halokatiga uchraganda sodir bo'ladi”, deb ta'riflaydi. Odatda, insonlar balog'at yoshida va o'rta ba-log'atga yetganlarida o'limni hali kelmaydi deb hisoblasalar, yoshlari kattaroq bo'lgani sari uning tobora yaqinlashib borayotganini anglaydilar. Lekin ushbu kattalik (qarilik) davrida insonlarda “o'lim” qo'rquvi ko'proq kuzaatiladi [5;29-b.]. Kastebaumning fikricha, “O'lim qo'rquvi bizning barcha ongimizdagi qo'rquvlarning

ildizidir. Sivilizatsiya bizning o'lim qo'rquvimizni nazorat ostida ushlab turishga qaratilgan umidsiz urinishdir" deb ta'riflaydi [14;].

Polyak xalqi o'lim, "ko'pincha, oq libos kiygan oddiy ayol" suratida aks ettirilgan ekan va Pol. Ğmierü matula (onam o'limi); babusia Ğmierü (buvam o'limi); kuma ğmierü (ona Xudoning yoki Bibi Mar'yamning o'limi) kabi so'zlar bilan ifodalaydilar.

Dastlab, Hindistonda Manu qonunlari she'riy tarzda yozilgan bo'lib, ular 12 bob 2685 ta maqola va ikki misralik she'rlar shaklida ifodalangan. Manu qonunlarida har qanday kishi uchun o'lim jazosini davlatga qarshi suiqasd yoki ijtimoiy tartibni buzish, bundan tashqari, rejalashtirilgan qotillik, er-xotinning har qanday xiyonati, uchinchi marta qilingan o'g'irlik uchun, hatto ayollar ham o'lim jazosiga hukm qilingan. Masalan, 231-moddada "Yong'in paytida o'g'irlik qilgan jinoyatchiga o'ziga mos yong'in o'rnatiladi va shu tarzda uning ruhi Yauma xudosa yuboriladi" [15].

Qadimgi Xitoyda o'lim jazosi keng tarqalgan va shafqatsiz shakllardan biri bo'lgan. Hatto soliq to'lashdan bosh tortganlar ham o'limga hukm qilingan. Qadimda Xitoy davlatida o'lim jazosini amalga oshirish kuz yoki qishda bo'lganligi sababli ko'plab badiiy asarlarda ushbu hodisa o'z aksini topgan. Konfutsiyning fikricha, bahor va yozda tirik mavjudotni o'ldirish, tabiat uyg'onganda, uni buzish bilan barobardir. Xan sulolasiga mansub, konfutsiylik maktabi vakili Sima Syan (206-yil. eramizdan oldin – 220-yil) [16] o'zining "Shi tsi" ("Tarixiy yozuvlar") asarida "Odamlar xuddi yashil maysadek, shamol qay tarafga essa, maysa ham shu tarafga egilar" deb e'tirof etgan. "Maysa" yoshlikni hali ko'p narsani tushunmaslikni ifodalasa, "shamol" uni tarbiyalash mumkinligini aks ettirgan.

Qadimgi Rimda "Hayotda munosib yashash uchun o'lim qo'rquvini yengish kerak" degan so'zlar keng tarqalgan bo'lib, odamlar o'limni tabiiy qabul qilishlari va undan qo'rqmasliklari o'sha davrning tanikli shoiri Petroniyning "So'nggi harakat" she'riy to'plamida aks etgan. Masalan, "Do'stlarimga so'zladim o'limimni va qalbimning o'lmasligini, ular esa kuylashar va hazil she'rlar o'qishar". Qadimgi Rimda ko'plab faylasuflar o'lim bilan bog'liq qarashlarni chuqur anglab yetishmagan, shuning uchun o'lim tushunchasi ko'plab asarlarda afsonalar shaklida ifodalangan. Muqaddas kitob "Injil"da odamlarning o'limdan so'ng qayta tirilishi bilan bog'liq bir nechta aniq misollar keltirilgan bo'lib, "Ilyos payg'amardan bashorat qilinishicha, Xudo faqatgina yosh bolalarni bevaqt o'limlari sababli qayta tiriltiradi, deb ta'kidlaydilar". Yana Injilda aytilishicha, Masihlar va Solihlar, albatta, Alloh huzurida qayta tiriladilar. O'lganlarning qayta tirilishiga va u dunyoning borligiga ishonishlari ularning dini dastlabki paydo bo'lgan davrdan qolgan e'tiqod bo'lib, ularda, odatda, o'tgan inson bomdod vaqtida dafn qilingan. Birinchi Pravoslav cherkovlari paydo bo'lgan vaqtlarda o'lgandan so'ng insonlarning qayta tirilishiga ishonish boshlangan. Hanuzgacha nasroniy cherkovlarida insonlarning o'lganlaridan so'ng qayta tirilishi haqidagi fikrlarga qattiq ishonadilar va shunga jismni tayyorlaydilar [17]. Islom dinida esa o'limdan keyingi hayot atamasiga Alloh taolo o'lgan insonni faqat o'ziga tiriltiradi deb ishoniladi. O'lgan inson jasadi to'qiyomat kuniga qadar (ya'ni, ularning hayotda qanday yashashlariga qarab hukm qiladigan kun) qabrda qoladi deb qaraladi. O'sha kuni inson qabrdan ko'tarilib, hayoti davomida qilgan ishlari uchun hukm qilinadi. Alloh huzuriga keltiriladi. Ushbu jarayon tananing tirilishi deb ataladi. Islom ta'limotida o'lim hayotning tugashi va keyingi hayotning boshlanishidir. Muqaddas kitob Qur'oni karimda aytilishicha, "Hech bir jon Allohning iznisiz o'lmas. Bu, yozilgan ajaldir" (Qur'on, 3:145). Islom ta'limotida yaxshi amallar qilgan insonlarga jannatga kiradilar, yomon amallar qilganlar esa do'zax azobida yonadilar deb ishoniladi. Lekin Alloh mehribon ekani va yomon inson ham umri mobaynida afsus qilib yaxshi amallar qilib yashasa, kechirilishi aytilgan. Qur'oni karimda yana shunday jumlar bor: "Yaxshilik qilsalar, hargiz inkor etilmaslar. Alloh taqvorlarni yaxshi biluvchi Zotdir. Albatta, kufr keltirganlardan mollari ham, bolalari ham hargiz Alloh azobidan hech narsani qaytara olmaslar", deb ta'riflanadi (Qur'on, 3:115,116).

Bizga ma'lumki, ta'ziya jarayoni ham o'lim bilan bog'liq bo'lib, unda ham madaniyat bilan bog'liq o'ziga xosliklar mavjud. Qo'llaniladigan ibora va so'zlar har bir xalqda o'zlikni ifoda etadi. Vafot etgan inson dafn qilingandan so'ng o'tkaziladigan marosimlarni motam va ta'ziya marosimlari deb ataymiz. Alloh taolo Islom dinini juda mukammal qilib nozil qilgan. Insonlarning har bir holatlari haqida bu dinda mukammal ko'rsatmalar borki, hatto bu foni dunyoda so'nggi manzilga tomon borish marosimlari, undagi amallar haqida ham farzlar, sunnatlar belgilangan. Xalqimizdagi odat va marosimlari, o'z navbatida, me'yorlar o'z ifodasini topadi. Insoniylikda aza bu ayrilish, yaqin insonini yo'qotish, abadiy va boqiy dunyoga kuzatish marosimi hisoblanadi. Inson boshiga tushadigan sinovlardan biri atrofidagi kishilarning vafot etishidir. Inson musibat kelganda: "Inna lillahi va inna ilayhi roji'un" – Albatta, biz Allohnikimiz va, albatta, biz Unga qaytuvchimiz (Baqara surasi, 156-oyat) deb unga sabr qilmog'i darkor.

Yevropaning Sharqiy qismidagi davlatlar va xalqlarda esa dafn marosimlari Provaslov cherkovining nasroniy e'tiqodlariga asoslangan. Sharqiy Yevropada o'lganlar uchun motam tutish juda muhim hisoblanadi, ular 9 kunda ruh tanani tark etadi, 3 kunda jon tanani tark etadi, 40 kundan so'ng esa butun tana o'z faoliyatini tamomila yakunlaydi, deb qattiq ishonadilar.

Ruslar o'limni "yaxshi" va "yomon" deb ikkiga bo'lib qabul qiladilar. Yaxshi o'lim – bu keksalikdagi farzandlari va yaqinlari mehr-muhabbatlarini anglagan holda, xudoning irodasi bilan o'lish bo'lsa, yomon o'lim esa qotillik, o'z joniga qasd qilish yoki kasallik va baxtsiz hodisalar natijasida umrning zavol topishi deb hisoblaydilar. Ular keyingi hayotni "boshqa dunyo, xudo bilan uchrashuv", deb atashadi.

Ruminiyaliklar esa o'zlarini 80% Sharqiy Provaslov nasroniylari deb ataydilar. Ular o'lgan odamni "sof va oq sayohatchi" deb ataydilar, chunki oq libosda dafn etilgan jasad 40 kun mobaynida sayohat qilib, so'ngra tangri huzuriga yetib boradi, deb ishonadilar. Ularda o'liklar uchun maxsus kuylanadigan qo'shiqlarni aytish uchun yollanma kuychilar chaqiriladi, kun davomida kuylab ruhni o'z joyiga kuzatadilar. Aks holda, ruh qaytib kelib, tiriklarni bezovta qiladi, deb o'ylashadi.

Bulardan mustasno tarzda ukrainaliklar esa o'zlarining qadimiy dafn marosimlariga juda sodiqlik bilan qaraydilar. O'limdan so'ng uchinchi, to'qqizinchi va qirquinchi kunlari yaqinlariga ziyofat berish yaxshi an'analaridan biri hisoblanadi. Ularda "Provodiy" deb nomlangan o'lganlarni xotirlash bayrami ham bor. Ushbu bayramda ular butun yaqinlari bidlan o'lganlar qabri atrofiga yig'ilishadi, bu esa marhumning ruhini tinchlantiradi, deb ishonishadi.

Janubiy Amerikaning aksariyat davlatlarida o'lgan kuni nishonlash milliy bayramlar qatoriga kiradi. Braziliyada o'lganlar kuni "Dia De Finados" deb ataladi. Ushbu bayram 2-noyabrda o'tkaziladigan milliy bayram hisoblanadi. Odamlar oila a'zolari bilan yaqin bo'lmagan, birga yashamagan yaqinlarini ziyorat qilish uchun shahar bo'ylab yuradilar. Boshqa bayramlari bilan solishtirilgan bu bayram tinch va o'ychanlik bilan o'tkaziladi. Marhumlar qabrlari boshiga gullar va sovg'alar olib boriladi. Kolumbiyada esa Lotin Amerikasi kabi, 2-noyabrda bayram qilinadi, o'lganlar xotirlanadi yangi marhumni kuzatgan oila vakillari yaqinlarini mehmon qilishadi, o'lganlarni eslab, nomiga duolar qilishadi. Ular, asosan, katolik bo'lgani uchun o'sha kuni an'anaviy bayramga boradilar. Meksika an'alariga ko'ra, oilalar vafot etgan yaqinlari xotiralarini, imkon boricha, uzoqroq saqlashga majburdirlar. Ushbu bayramda odamlar ko'chalarda o'likni tasvirlovchi bosh suyagini har xil jismlardan yasab olib ko'tarib yoki boshiga kiyib olib shahar ko'chalari bo'ylab yuradilar. Shu tariqa, qabristonga boradilar, u joyni tozalaydilar, gullar ekadilar.

Xulosa qilib aytganda, o'limni qay davlat vakillari qanday nishonlamasin, baribir, ularning ongida insonlar tug'ilgach, bir kun o'lishlari kerakligi doimo shakllanib ham ruhan, ham jismonan o'zlarini shunga tayyorlab borishlarini ushbu ilmiy tahlillar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ularning bir-birlaridan farqi shundaki, faqatgina ular o'zlari e'tiqod qiladigan din vakillari, ulamolari chiqargan qonun-qoidalar va fatvolarga tayangan holda amalga oshiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Muhammad ibn Ali Haskafiy. «Durrul-muxtor». Bayrut, "Dorul-kutubil-ilmiya", 2002, 116-bet.
- (2). Vahba Zuhayliy. «Al-Fiqhul-islamiy va adillatuhu». Damashq, «Dorul-fikr», 1980, 2-juz, 445-bet.
- (3). James Gire Virginia Military Institute, "How Death Imitates Life, Cultural Influences on Conceptions of Death and Dying" (8–10) 12-1-2014.
- (4). James Gire Virginia Military Institute, "How Death Imitates Life, Cultural Influences on Conceptions of Death and Dying" (10–11) 12-1-2014.
- (5) <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/buyuk-faylasuflar-turkumidan-epikur/>
- (7). Oli Imron surasi, 185-oyat.
- (8). Eski Ahd. Muqaddas kitob "Tavrot", 24.1.15
- (9). The Apology of Socrates, by Plato, is a Socratic dialogue in three parts that cover the Trial of Socrates (399 BC).
- (10). Naragon, S. "Letter to Herodotus" (PDF). manchester.edu. Manchester University, Indiana. Retrieved 13 June 2021.
- (11). Levinson, Stephen C. 1992. Space in Australian languages questionnaire. In Stephen C. Levinson (ed.), Space stimuli kit 1.2, November 1992, 29–40 p.
- (12). Kastenbaum 1972, 137, Becker, 1962.
- (13). Qur'on, Mu'min (G'ofir) surasi, 17-oyat.
- (14). <https://zamzam.com/blog/life-after-death-in-islam>
- (15) Laws of Manu. Translation of Elmanovich S.D., Ilyin G. F., M., 1961.
- (16) Sima TSYan (206 y. eramizdan oldin — 220 y.)
- (17) "Justin Martyr on the Resurrection". Retrieved 26 March 2013

**Tursunov Akmal Raxmatullaevich (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti;
akmal_tursunov_1971@mail.ru)**

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISONIY DERIVATSIYA VA TRANSPOZITSIYA MUNOSABATLARI

***Annotatsiya.** Bu usulning voqelanishi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar bilan birga konversiya orqali o‘z ifodasini topishi qayd etiladi. Til birliklarning funksional-semantik qiyosi esa asos forma, transpozitor va traspozit o‘rtasidagi munosabat orqali amalga oshiriladi. Transpozitsiyani leksik derivatsiya bilan bog‘laydigan asosiy vosita so‘z yasovchi formant hisoblanadi. Leksik derivatsiya jarayoni va transpozitsiyaning o‘ziga xos munosabati qo‘shma so‘zlarda ham aks etadi. Biroq semantik derivatsiya hodisasi natijasida ham formal-semantik jihatdan mustaqil bo‘lgan yasama so‘zlar vujudga keladi.*

***Kalit so‘zlar:** funksional, derivatsiya, forma, semantik, leksik, so‘zlar, hodisa, yasama.*

Акмаль Турсунов Рахматуллаевич (Навоийский государственный горно-технологический университет; доцент akmal_tursunov_1971@mail.ru)

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ДЕРИВАЦИЯ И ТРАНСПОЗИЦИОННЫЕ ОТНОШЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

***Аннотация.** Отмечается, что реализация этого метода находит свое выражение через конверсию наряду с такими явлениями, как метафора, метонимия, синекдоха, ассоциация задач. Функционально-семантическое сравнение языковых единиц осуществляется через связь между базовой формой и транспозитором. Основным средством, связывающим транспозицию с лексической деривацией, является словообразовательным формантом. Специфическая связь между процессом лексической деривацией и транспозиции находит свое отражение и в сложных словах. Однако в результате явления семантической деривации создаются формально-семантически независимые искусственные слова.*

***Ключевые слова:** функциональный, деривация, форма, семантика, лексика, слова, событие, творчество.*

**Akmal Tursunov Rakhmatullaevich (Navoi State University of Mining and Technology, Associate professor;
akmal_tursunov_1971@mail.ru)**

LINGUISTIC PRODUCTION AND TRANSPPOSITIONAL RELATIONS IN UZBEK LINGUISTICS

***Annotation.** It is noted that the realization of this method finds its expression through conversion along with phenomena such as metaphor, metonymy, synecdoche, task-relatedness. The functional-semantic comparison of linguistic units is carried out through the relationship between the base form, transpositor and transpositor. The main tool connecting transposition with lexical derivation is the word-forming formant. The process of lexical derivation and the specific relationship of transposition is also reflected in compound words. However, as a result of the phenomenon of semantic derivation, formal-semantically independent artificial words are created.*

***Keywords:** functionality, derivation, form, semantics, vocabulary, words, event, word formation.*

Kirish (Introduction). Ma'lumki, so‘z yasalishi bahsida semantik siljish, ko‘chish bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar semantik usul doirasida birlashtiriladi. Bu usulning voqelanishi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar bilan birga konversiya orqali o‘z ifodasini topishi qayd etiladi.

Darhaqiqat, ma‘no yasalishi har doim so‘z yasalishiga olib kelmaganidek, uning voqelanishini tilning ichki qonuniyatlari bilan ham bog‘lab bo‘lmaydi. Chunki bu hodisaning muayyan bir qismi ekstralin-gvistik omillar ta‘sirida sodir bo‘lsa, boshqa bir qismi nutq – til munosabatini o‘zida aks ettiruvchi sintaktik qonuniyatlar talabi bilan bog‘lanadi. Ana shu xususiyatlar transpozitsiyani leksik derivatsiyaga nisbatan semantik derivatsiyaga yaqinroq turishidan dalolat beradi.

A.Hojiyevning o‘zbek tili so‘z yasalishiga doir manbada qayd etilishicha, transpozitsiya (lotincha so‘zdan olingshan bo‘lib, transposition) termini til birliklarining “o‘rnini almashtirish, boshqa joyga ko‘chirish” kabi ma‘nosini ifodalaydi [1;29-b.]. Xususan, sintaktik transpozitsiyada asos strukturaning turkumlilik belgisi o‘zgarmay, unga xos sintaktik funksiyaning o‘zgarishi orqali o‘z ifodasini topadi. Morfologik transpozitsiya ta‘siriga tushgan birlik esa o‘zining turkumlilik belgisini o‘zgartirgani holda yangi so‘zga aylanadi. Morfologik transpozitsiyaning vujudga kelishida so‘z yasovchi affikslar hamda konversiya hodisasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shuning bilan bir qatorda, transpozitsiya keng ma'noda, har qanday lingvistik formasining (zamon, mayl, tuslanish va jumalarning) ko'chishi, funksional o'zgarishi orqali ham sodir bo'ladi. Ushbu ma'nosiga ko'ra, transpozitsiya metafora, metonimiya kabi hodisalarni ham o'z ichiga oladi. Transpozitsiyaning voqelanishi til birliklarining semantik yoki funksional qiyosiga asoslanadi. Til birliklarning funksional-semantik qiyosi esa asos forma, transpozitor va transpozit o'rtasidagi munosabat orqali amalga oshiriladi.

Derivatsiya jarayonida bo'lganidek, transpozitsiyaga xos bu modelning qanday lingvistik sharoitda va qaysi til birliklarining ishtirokida sodir bo'lishiga ko'ra, uning ichki guruhlari farqlanadi.

Transpozitsiyaning to'liq yoki morfologik shakli til birliklarining sifat o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u to'liq transpozitsiya deb ataladi. Chunki morfologik transpozitsiya sintaktik tipdan farqli ravishda til birliklarining jumla tarkibidagi funksional o'zgarishi bilangina chegaralanmaydi, balki semantik jihatdan yangilanish, o'zgarish ham sodir bo'ladi. Transpozitsiyaning bu turdagi ko'chish jarayoni bevosita komponentlar o'rtasidagi semantik-sintaktik aloqadorlikka tayaniladi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, transpozitsiyaning konversiv tipida predikat va uning argumentlari o'rtasidagi o'zaro mantiqiy bog'lanishlar e'tiborga olinadi. Transpozitsiya hodisasi faqat turkumlararo ko'chish orqaligina emas, balki muayyan bir turkumga mansub so'zning ichki ko'chishini ham o'z ichiga oladi. Uning metafora, metonimiya kabi hodisalarni ham o'zida birlashtirish ana shundan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) .Shunday qilib, keltirilgan izohga tayanilgan holda transpozitsiya va tilga xos derivatsiya o'rtasidagi munosabatni quyidagi omillar bilan bog'liq ekanini qayd etish mumkin: 1) asos strukturaga xos turkumlilik belgisining so'z yasovchi affiks ta'sirida o'zgarishi; 2) til birliklarining konversiv ko'chishi orqali yangilanishi; 3) leksik birliklarining metafora, metonimiya kabi ma'no ko'chish usullar asosida yangilanadi. Transpozitsiyani leksik derivatsiya bilan bog'laydigan asosiy vosita so'z yasovchi formant bo'lib hisoblanadi. Chunki asos strukturaning funksional-semantik o'zgarishi aynan ana shu vosita ta'sirida sodir bo'ladi. Xususan, so'z yasovchi asos derivatsiya jarayonni voqelanishida lug'aviy manba bo'lib xizmat qiladi. So'z yasovchi formant esa asos tomonidan taqdim etiladigan semantik komponentlarga tayangan holda nominativ vaziyatni aniq ifoda topishi uchun xizmat qiladigan birlikdir.

Xuddi shunday xususiyat o'zbek tilida ham uchraydi. Masalan, ishchi, bog'bon kabi yasamalarda -chi, -bon qo'shimchalar asosida sodir bo'lishini ta'minlovchi vosita sifatida ishtirok etgan bo'lsa, ishla, ishchan yasamalaridagi -la, -chan narsa, belgi va harakat kategoriyalariga mansub bo'lgan asoslarni o'zaro kesishuvi, ya'ni transpozitsiyasi uchun qulay sharoit yaratuvchi azifasini bajaradi. Xususan, o'zbek tilshunosligida bu farq "tashqi va ichki yasaliş" terminlar asosida belgilanadi. Shuningdeka, ayrim ishlarda sintaktik derivatsiya termini o'rnida "derivatsion transpozitsiya", "konversiya" kabi terminlarga ham tayaniladi.

Asos va formant munosabati orqali o'z ifodasini topadigan kategorial o'zgarishlarga baho berishda, ko'p hollarda, grammatik nuqtai nazardan yondashish yetakchilik qiladi. Masalan, A.G'ulomov tomonida berilgan izohda, ot turkumida kuzatiladigan tashqi yasaliş "ot bo'lmagan so'zlardan yasaliş", ichki yasaliş esa "ot turkumiga mansub so'zlardan yasaliş" tarzida ta'riflanadi. Shu xususiyatiga ko'ra, bu terminlar Y.Kurilovich va uning izdoshlari tomonidan qo'llab kelinayotgan "leksik va sintaktik derivatsiya" terminlari bilan bir xillikka mansubdir [2;28-30-b.].

Mazkur terminlar o'rtasidagi nisbiy farq esa, birinchi holatda, ya'ni, tashqi va ichki yasalişda, formant ta'sirida asos strukturada sodir bo'ladigan funksional-semantik o'zgarishning grammatik kategoriya e'tiboriga belgilanishi, ikkinchi holda, ya'ni leksik va sintaktik derivatsiya holatida, bunday o'zgarishga asos strukturadagi sintaktik funksiyaning o'zgarish-o'zgarmasligi nuqtayi nazardan baho berilishi orqali ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham leksik derivatsiya jarayonida asos strukturaning kategorial o'zgarishini ifodalovchi maxsus termin transpozitsiya termini tatbiq etilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xuddi shuningdek, leksik derivatsiya jarayonida asos strukturaning kategorial o'zgarishi orqali kuzatiladigan lingvistik jarayonni "tashqi yasaliş" deb yuritish ham so'z yuritilayotgan masala mohiyatini bir yoqlama yoritishga olib keladi. Shu bois uning yordamida lisoniy derivatsiya orqali o'z ifodasini topadigan barcha turdagi funksional-semantik o'zgarish va ko'chishlarni to'laqonli idrok etib bo'lmaydi. Ana shular lisoniy derivatsiya orqali o'z ifodaning asos strukturaning funksional-semantik o'zgarishi bilan bog'liq hodisalarni transpozitsion qonuniyatlar bilan bog'liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi [3;12-16-b.].

E.S.Kubryakova transpozitsiya hodisasining an'anaviy talqiniga tanqidiy baho bergani holda, bu hodisani asos strukturaga xos kategorial belgilarning o'zgarishi yoki o'zgarmasligi bilan bog'liq ko'rsatkich-

lar asosida tadqiq etish orqali biror natijani qo'lg'a kiritib bo'lmashligini qayd etadi [4;147 c.]. Uning fikriga ko'ra, har bir so'z o'zining referensial maydoniga ega bo'ladi. Derivatsiya jarayoni esa ana shu referensial maydonlar bazasida voqelanuvchi hodisa hisoblanadi. Derivatsiya jarayoni orqali ana shu mental maydonlarga xos bo'lgan semantik komponentlarning nisbiy o'zlashtirilishi, ya'ni transpozitsiyasi o'z aksini topadi.

Lisoniy derivatsiya jarayonida sodir bo'ladigan har qanday funksional-semantik yangilanish zamirida muayyan nominativ vaziyatning yechimini topish maqsadi yotadi. O'z navbatida, bu maqsadning ijrosi E.S.Kubryakova e'tirof etgan, muqaddam jamg'arilgan bilimlar bazasida yangisini vujudga keltirish bilan bog'liq murakkab lingvokognitiv mexanizmlarga tayanilgan holda amalga oshiriladi [5;120–121 c.].

Leksik derivatsiya jarayoni va transpozitsiyaning o'ziga xos munosabati qo'shma so'zlarda ham aks etadi. Biroq qo'shma so'zlarning yasalishida sodda yasama so'zlardan farqli ravishda transpozitsiya ikki bosqichli hisoblanadi. Xususan, birinchi bosqichda muayyan bir obyektни nomlash maqsadida leksik birliklarning sintaktik derivatsiyasi asosida nutqiy erkin birikma hosil qilinadi. Ikkinchi bosqichda esa ushbu erkin birikma muayyan struktural o'zgarishlar asosida leksik tizimga ko'chiriladi. Leksik derivatsiyadan ko'zlanadigan asosiy maqsad biror-bir nominativ vaziyat obyektini ham formal, ham semantik jihatdan mustaqil bo'lgan yasama so'z vositasida belgilab qo'yish qayd etish hisoblanadi.

Biroq semantik derivatsiya hodisasi natijasida ham formal-semantik jihatdan mustaqil bo'lgan yasama so'zlar vujudga keladi. Shuning uchun ham so'z yasalishi bahsida ma'noviy siljish, ko'chish bilan bog'liq bu hodisalar semantik usul sifatida talqin etib kelingan. Bu usulning voqelanishi metafora, metonimiya, sinikdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar bilan birga konversiya orqali o'z ifodasini topishi qayd etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umuman olganda, semantik derivatsiya natijasida yasama so'zlarning vujudga kelishi bu hodisa talqinida ikkilamchi ahamiyatli jarayon ekanligi ma'lum bo'ladi. Buning o'ziga xos dalilini semantik derivatsiyaning ma'no yasash mexanizmlariga asoslanishi va leksik derivatsiyada bo'lgani kabi, bir yo'la yasama so'z maqomidagi birlikni vujudga kelishiga olib kelmasligi misolida ham kuzatish mumkin. Shuning uchun ham A.Hojiyev o'zining keyingi ishida so'z yasalishidan ko'zlanadigan asosiy maqsad asos+formant modelida "so'z yasash" ekanligini e'tirof etilgani holda, yasalishning boshqa turlarini so'z yasalishi doirasida o'rganib bo'lmashligini e'tirof etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. T., O'qituvchi, 1989, 29-bet.
- (2). Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990.
- (3). G'ulomov A. Sodda so'zlar. O'zbek tili grammatikasi. T., 1975, 30-bet; Mirzaqulov Sh.O'. O'zbek tilida so'z yasalish ma'nosi va paradigmasi. NDA, Samarqand, 1995, 16-bet.
- (4). Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. М.,1981, с. 147.
- (5). Кубрякова С.Е. Характер семантических сдвигов при словообразований. Аспекты семантических исследований. М., 1980, с. 120–121.
- (7). M.Muhammadiyev. "Tillarda taranspozitsiya hodisasi". Bitiruv malakaviy ish, Sam., 2013, 15–18-betlar.
- (8). Ganiyev. N.U. (2021). Research of the methodology of linguistic toponymy. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 228–230 p..

Maxammadjonov Ne'matillo Dilshodbek o'g'li (Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti;

Email: muhammadjonov1999@mail.ru

KONSEPTUAL TAHLIL METODIKASI

***Annotatsiya.** Hozirda kognitiv tilshunoslik zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Hech bir tadqiqot ishini tadqiqot metodologiyasidan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli konseptual tahlil metodikasini to'g'ri tanlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada konseptual tahlil uslublari ko'rsatib o'tilgan. Tahlil usullaridan kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda foydalanish mumkin.*

***Kalit so'zlar:** konsept, sfera, definitson tahlil, parameologik tahlil, periferiya.*

Махаммаджонов Неъматилло Дилшодбек угли (Базовый докторант Андижанского государственного университета)

МЕТОДОЛОГИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА

***Аннотация.** Не секрет, что когнитивная лингвистика стала одним из основных направлений современных исследований. Ни одна исследовательская работа немыслима без исследовательской*

методологии. Поэтому правильный выбор методологии концептуального анализа имеет актуальное значение. В данной статье описаны методы концептуального анализа. Аналитические методы могут быть использованы в исследованиях когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: концепт, сфера, дефиниционный анализ, парамеологический анализ, периферия.

Makhammadjonov Nematillo Dilshodbek ugli (Base doctorate of Andijan State University)

METHODOLOGY OF CONCEPTUAL ANALYSIS

Annotation. *It is no secret that cognitive linguistics has become one of the main directions of modern research. No research work can be imagined without research methodology. Therefore, the right choice of the conceptual analysis methodology is of urgent importance. This article describes the methods of conceptual analysis. Analytical methods can be used in cognitive linguistics research.*

Key words: *concept, sphere, definitional analysis, parameological analysis, periphery.*

Kirish (Introduction). Badiiy matnlardagi konseptual strukturalarni o'rganish va tahlil qilish bevosita muallif lisoniy dunyoqarashiga bog'liq. Bunday konseptosferalar ko'p qirrali bo'lib, badiiy asar muallifining so'z qo'llash mahorati va ijodiy rejalariga bog'langan. Tadqiqotchi N.S.Bolotnova muallifning individual g'oyalarni tahlil qilishda assotsiativ-semantik maydon tahlil usulidan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [1]. Muallif badiiy konseptosferasi hamda uning assotsiantlari va semantik korellatsiyalar badiiy matni assotsiativ-semantik maydon usulida tahlil qilishning tarkibiy qismlari sanaladi. Shunday qilib, semantik korellatsiyalar badiiy matni mental jihatdan shakllantirishda muhim konseptual birlik bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy matn konseptosferasi haqida gapirganda, uning ikki xil tabiatga egaligini aytib o'tish lozim, uni tahlil qilishda ham ikki xil mezonga tayaniladi: badiiy matn doirasida zohir bo'lgan olam lisoniy manzarasining tarkibiy qismi (obraz) va konseptual sfera tarkibiga kiruvchi asosiy konsept (matn konsepsiyasi). Muallif o'z lisoniy dunyoqarashini yaxlit matn orqali ifodalaydi.

Tadqiqotchi L.G.Babenko nuqtayi nazari bo'yicha badiiy matni quyidagi rejalar asosida konseptual tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Kontekst, ma'lum bir semantik qismga oid predikativ birliklar, matndagi konseptual ahamiyatga ega fe'llar, hollar, ism guruhiga mansub so'zlarni tahlil qilish.

2. Konseptning reprezentantlarini tahlil qilish.

3. Lirik subyektning o'rganilayotgan obyekt bilan oppozitsiyasini aniqlash.

Konseptual tahlilda tadqiqotchi tahlil jarayonida o'rganilgan konseptning barcha tarkibiy qismlarini umumiy konseptual maydonga birlashtiradi.

Tadqiqotchi L.G.Babenko ta'kidlashicha, tahlil natijasida olingan konseptning barcha komponentlari konseptual maydon, yadroga – birlashadi. Yaqin periferiyaga – konseptning yadroviy ma'nosiga yaqin ma'nolar kiradi. Uzoq periferiya konseptning qo'shimcha subyektiv-modal ma'nolaridan tarkib topadi. Yuqorida fikr yuritilgan maydon o'zining individual va unikal xarakteriga ega ekanligi bilan boshqa bir mualliflarning konseptosferasidan farq qiladi [2].

Ilmiy tadqiqotning boshqa jihatlarini ham umumlashtirib, L.G.Babenko quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Matndagi kalit so'zlarning umumiy tahlili.

2. Tahlil qilinayotgan kalit so'zlar bilan ifodalangan konseptual maydonning umumiy tavsifi.

3. Tahlil qilinayotgan konseptual maydonning asosiy konsepti (konseptlari) ta'rifi [2].

Konseptosferaning asosiy xususiyatlarini ochib berish uchun yakunda barcha kontekstual ma'nolarni umumlashtirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotchi Y.V.Zyuba konsept ma'nolari izchil rivojlanishining algoritmik tahlilini taklif etadi:

1) tushunchalarning ma'nolarini aniqlashtirish va umulashtirish;

2) qo'shimcha ottenkalar hisobiga konsept ma'nosining tilda kengayishi;

3) tushunchalarning obyektiv ma'nolarini tahlil qilish;

4) konseptlarni sferalarga ajratish;

5) konseptning obyektiv ma'nolarini aniqlashtirish;

6) tahlil qilinayotgan konseptning ma'noli qismlari strukturasini tuzish;

7) konseptni aksiologik qismlarga ajratish [3].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Konseptning ma'noli qismlari tahlili konseptual maydonga birlashtiriladi (yadro – konseptning obyektiv ma'nosi, yaqin periferiya – muallifning individual kiritgan ma'nolari, uzoq periferiya – konseptning obrazli reprezentantlari).

V.A.Maslova fikricha, konseptning tadqiqot usulini belgilashda uning turi, o'sha millat yashayotgan madaniy muhit, uning murakkabligi tadqiqotchining ilgari surgan maqsad va vazifalari e'tiborga olinishi kerak. Konseptlarni madaniy jihatdan tahlil qilishda keyingi tadqiqot usuli bugungi kunda keng qo'llanilmoqda:

1. O'rganilayotgan konseptga tegishli vaziyatni tahlil qilish (badiiy asarlar misolida).
2. Millat lisoniy dunyoqarashida konseptning o'rnini aniqlash, ensiklopedik va izohli lug'atlarga murojaat qilish.
3. Etimologik manbalardagi ma'lumotlarga murojaat qilish.
4. Kontekstni umumlashtirish: maqol va matallar, badiiy, ilmiy, publitsistik va boshqa jihatlarni sharhlash.
5. Kalit so'zlarning matnni oldingi qismida amalga oshirilgan tahlil bilan assotsiativ aloqasi bo'lishi kerak.
6. Agar konsept o'zida madaniy qadriyatlarni jamlagan bo'lsa, u holda ekstralingvistik – haykaltaroshlik, rassomchilik, arxitektura kabi madaniy qatlamlarga ham murojaat qilish tavsiya etiladi.

Tadqiqotchi S.G.Vorkachev fikricha, konseptlarning tadqiqot metodikasi uning 3 ta asosiy qismini tahlil qilishga quriladi: konseptning semantik xususiyatlarini tahlil qilish, definitson (boshqa yaqin ma'noli konseptlardan ajratish); implikativ va ensiklopedik [4].

Tadqiqotchi V.I.Krasik konseptologik tadqiqot usullariga quyidagilarni kiritadi:

1. Definitson tahlil.
2. Konstekstual tahlil.
3. Etimologik tahlil.
4. Parameologik tahlil.
5. Sharhlash bosqichi.

Tadqiqotchi O.A.Fashenko boshqa tilshunoslar tomonidan qo'llanilgan tadqiqot metodlarini yondashuviga ko'ra, ikki guruhga ajratadi:

1. Sistemali yondashuv – "kalit so'zlar"ning leksik tavsifi (o'rganilayotgan konseptning), kalit so'zlarni kontekst bilan aloqasini tekshirish. Tadqiqotchilar Z.D.Popova, I.A.Sternin, O.A.Fashenko konseptlarning quyidagi tahlil usullarni ajratib ko'rsatadi:

- A) Lug'atlar asosida kalit so'zlarning ma'nolarini aniqlash, sharhlash.
- B) Ko'pma'noli so'zlarni diaxronik aspekt asosida o'rganish.
- C) Konseptga aloqador bo'lgan frazeologik va parameologik birliklarni sharhlash.
- D) Psixolingvistik tajribalar o'tkazish (assotsiativ metod asosida).

2. Matnli yondashuv – quyidagi vazifalar asosida konseptni badiiy matn doirasida tahlil qilish:

- A) Kalit so'zlarning o'zaro bog'lanish imkoniyatlarini aniqlash.
- B) Muallifning individual konseptlarini aniqlash va ularni sharhlash.
- C) Konsept realizatsiyasiga sabab bo'luvchi semantik matn maydonini tuzish.
- D) Konsept reprezentantlarining semantik tahlili [5].

Badiiy matnning konseptual tahlil usullarini konseptning 3 ta tarkibiy qismi bilan ko'rib chiqamiz:

1. Tushuncha – etimologik manbalarning tahlili.
2. Obraz – kalit so'zlarni ajratish orqali kognitiv metaforalarni o'rganish, ularning leksik valentligi va muhim xususiyatlari doirasini aniqlash, kontekstni qismlarga ajratish.
3. Madaniy – turli vaziyatlardagi aksiologik parametrlarni ochib berish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, badiiy matn tarkibida qo'llanilgan konseptlarni milliy-madaniy xususiyatlari bilan birga muallifning shaxsiy o'ziga xosligi jihatidan tahlil qilish va tasniflash ma'qul.

Konseptlarning reprezentant birliklarini ham ma'lum bir hududdan kelib chiqqan holda, xalqning milliy va madaniy xususiyatlarini hisobga olib tahlil qilish samarali natijalarga olib keladi. Chunki individ o'zi mansub bo'lgan lisoniy-madaniy muhitdan chetga chiqib fikrlay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Болотнова Н.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. Томск, изд-во Томского гос. пед. ун-та, 1994, 210 с.

(2). Бабенко Л.Г. Филологический анализ текста. Основы теории, принципы и аспекты анализа. Учебник для вузов, М., Академ. проект, Екатеринбург, “Деловая книга”, 2004, 464 с.

(3). Дзюба Е.В. Концепт «ум» в русской лингвокультуре. Монография, Екатеринбург, Урал. гос. пед. ун-т., 2011, 224 с.

(4). Воркачев С.Г., Воркачева Е.А. Концепт счастья в английском языке: значимостная составляющая // Массовая культура на рубеже XX–XI веков: Человек и его дискурс. М., «Азбуковник», 2003, с. 263–275.

(5). Фещенко О.А. Концепт ДОМ в художественной картине мира М.И.Цветаевой (на материале прозаических текстов). Автореф. дис. ...канд. филол. наук, Новосибирск, 2005, 28 с.

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna (Farg‘ona davlat universiteti “Ingliz tili amaliy kursi”

kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD; E-mail: jasurbekdilmura@gmail.com)

MULOQOTDA XUSHMUOMALALIKNI IFODALOVCHI BIRLIKLARGA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK YONDASHUV

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada muayyan jamiyatda qabul qilingan so‘zlashuv tamoyili va qoidalari-ga mos ravishda amalga oshiriladigan, maqsadga yo‘naltirilgan pragmatik shart-sharoit doirasida ko‘rib chiqiladigan birliklar haqida ma‘lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatik tuzilishi va turlar, performativ fe‘llar, illokutiv kuch, kommunikativ-pragmatika.*

Адамбоева Нафиса Кадирберггановна (Ферганский государственный университет, кафедры практического курса английского языка, старший преподаватель, PhD; jasurbekdilmura@gmail.com)

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЕДИНИЦАМ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ В ОБЩЕНИИ

***Аннотация.** В данной статье представлена информация о единицах, рассматриваемых в контексте целевых прагматических условий, которые реализуются в соответствии с принципами и правилами речи, принятыми в конкретном обществе.*

***Ключевые слова:** прагматическая структура и типы, перформативные глаголы, иллокутивная сила, коммуникативно-прагматика.*

Adamboeva Nafisa Qodirberganovna (Fergana State University, Senior teacher, PhD,

Department of Practical English Course; E-mail: jasurbekdilmura@gmail.com)

COMMUNICATIVE-PRAGMATIC APPROACH TO UNITS EXPRESSING POLITENESS IN COMMUNICATION

***Annotation.** This article provides information about units considered within the context of goal-oriented pragmatic conditions, which are implemented in accordance with the principles and rules of speech accepted in a particular society.*

***Key words:** pragmatic structure and types, performative verbs, illocutionary force, communicative-pragmatics.*

Kirish (Introduction). So‘zlovchi suhbatdoshning diqqat-e‘tiborini tortish, ularga kommunikativ ta‘sir o‘tkazish, suhbatga qiziqtirish, fikrini jalb qilish, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlantirish, ishon-tirish, aldash, qo‘rqitish kabi maqsadlarini amalga oshirishda so‘zning, so‘z birikmasining ekspressiv-emo-tional baholovchi konnotativ ma‘nosini, ya‘ni, kommunikativ-pragmatik ma‘nosini qo‘llash ehtiyoji vujud-ga keladi. Adresatga murojaat qilish o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik ahamiyatga ega. Murojaatlar nutqda faoliyat yuritib, matnning pragmatik ko‘rsatmasini kuchaytirishi yoxud to‘la yo‘lga qo‘yishi mum-kin bo‘ladi. Ular so‘zlovchi maqsadini namoyish qiluvchi illokutiv kuchga ega. Bu retsipiyentga ta‘sir qi-luvchi kuchli vosita, chunki unda, “avval boshdanoq, pragmatik funksiyalar mavjud” [3;14-b.]. Shu bois tilni keng qamrovli kommunikativ kontekstda hamda nutqiy etiketning asosiy komponentlaridan biri bo‘l-gan murojaatni kommunikativ-pragmatik yo‘nalishda o‘rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tilshunos Sh.Safarov ta‘kidlaganidek, “nutq jarayoni, insonning faoliyati uning ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma‘naviy, madaniy kabi ijtimoiy va tabiiy fa-oliyati bo‘lganligidan, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o‘nlab qirralari bilan bog‘-liqlikda o‘rganiladi” [1;19-b.].

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangi shakllangan, insonning nutq faoliyatini o‘rganishga, bun-day faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og‘zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o‘rnini, kommunikativ ta‘sirini, so‘zlovchi va ting-lovchi nutqidagi turlicha munosabatning lisoniy belgida ifodalanishini o‘rganuvchi fan tarmog‘i. Nutq ja-

rayoni nutq faoliyatining ma'lum turi o'laroq, namoyon bo'ladi. Har qanday inson faoliyati motivatsion, maqsadli va ijro etuvchi tomonlarga ega. Bu jihatlar yagona faoliyat aktini tashkil etadi. "Pragmatika" atamasi birinchi marta faylasuf Charlz Morris tomonidan qo'llangan. U pragmatikani semantika va sintaksis bilan taqqoslaydi. Pragmatika insonning til bilan bog'liq bo'lgan har qanday faoliyati va bu faoliyatida til foydalanuvchilarining kontekst va nutqiy vaziyatlarga munosib til birliklarini qo'llashi. Masalan, kundalik hayotimizda biz, odatda, ko'p rollarni o'ynaymiz – talaba, do'st, qiz, o'g'il, rahbar, mijoz va h.k. Ushbu turli rollarni ijro etishda ba'zan nutqimiz o'ziga xos o'zgarishni taqozo etadi. O'z o'rnida, nutqiy birliklarimizni maqsadlarimiz amali uchun vosita o'laroq qo'llaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pragmalingvistika pragmatik tadqiqotlar konseptual tizimini tashkil qiluvchi tushunchalarga asoslanadi: 1) pragmatik o'zgaruvchan tushunchalar, ya'ni, so'zlovchi, tinglovchi, makon, zamon, so'zlovchi va tinglovchining ko'rish doirasidagi ashyolar, muayyan olam koordinatalari; 2) nutq akti muloqotning asosiy birligi o'laroq, namoyon bo'lishi, uning pragmatik tuzilishi va turlari; 3) so'zlovchining kommunikativ maqsadini ifodalash uchun maxsus til vositasi o'laroq, qo'llanuvchi performativ fe'llar; 4) til muloqotiga xos maksimallar; 5) lisoniy muloqotning implitsit ma'no-lari kabi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kommunikativ-pragmatik jihatdan ko'rib chiqiladigan nutqiy etiket birliklari muloqotda uning omili o'laroq, amalga oshiriladi: "Nutq akti – muayyan jamiyatda qabul qilingan so'zlashuv tamoyili va qoidalariga mos ravishda amalga oshiriladigan, maqsadga yo'naltirilgan pragmatik shart-sharoit doirasida ko'rib chiqiladigan birlik" [4;683-b.].

Agar so'zlovchi nimanidir mazmunli tushuntirsa va o'z o'rnida tinglovchi ham tushunsa, aytish mumkinki, so'zlovchi zarur xatti-harakatni amalga oshiradi va aynan o'sha harakat nutqiy akt deb ataladi. Nutq aktlari pragmatikaning asosiy nazariyalaridan biridir. Bu nazariya ingliz faylasufi Jon Ostin tomonidan Garvard universitetida 1955–1962-yillar oralig'ida bir qator ma'ruzalari davomida izohlab o'tilgan [5]. J.Ostin uch komponentli muloqot: lokutor, interlokutor va muloqot kontenti (locutor, the interlocutor, the content of communication) ekanligini tushuntirdi. Lokutor – bu so'zlovchi, interlokutor – suhbatdosh va muloqot kontenti – ular olib borayotgan suhbat mazmuni deb qaralgan. Keyinchalik, bu nazariya Strosen va Dj.Serl tadqiqot ishlarida uning g'oyalari davomi o'laroq rivojlantirilgan [6;151-b.].

Ular muloqotning tarkibiy tuzilishini quyidagicha ifodalashgan:

1-jadval

Nutq akti		
Illokutsiya	Lokutsiya	Perlokutsiya
So'zlovchining maqsadi	Ifoda qilinishi	Tinglovchiga nisbatan nutqiy ta'sir natijasi

Demak, yuqorida keltirilgan 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, nutq akti uch darajali tarkibga ega. Nutq nazariyasining asosiy g'oyasi – illokutsiya. Maqsadga nisbatan va amalga oshirilish shart-sharoitlariga ko'ra nutq akti illokutiv akt o'laroq belgilanadi. Tilshunos olim Y.D.Apresyan ifodaning illokutiv vazifasini "so'zlovchining adresat ifodani qanday tushunishi borasidagi ko'rsatmasi..." o'laroq, atashni taklif qiladi [2;138-b.].

Ifodaning illokutiv funksiyasi tarkibida bir necha qism mavjud, bular: illokutiv maqsad, illokutiv maqsadga erishish usuli, illokutiv kuchning shiddati, nutq akti muvaffaqiyatining sharti. Nutqiy faoliyat nutq vositalarining qo'llanishiga nisbatan lokutiv akt o'laroq belgilanadi. Oxir-oqibat, o'z natijalariga nisbatan nutq akti perlokutiv akt o'laroq belgilanadi. Masalan, o'zbek tili misolida: – Kaminadin tag'in ne tilaysiz, ustod? (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi). Yuqorida berilgan gap (Kaminadin tag'in ne tilaysiz, ustod?)da illokutiv akt va uning barcha funksiyalari amalga oshirilgan, ya'ni, gapda illokutiv maqsad – suhbatdoshning xohish-istagini oshkor ettirish; illokutiv maqsadga erishish usuli – ustod murojaat shaklidan foydalanilgan holda maqsadga erishilgan; illokutiv kuchning shiddati – tinglovchidan darhol javob olganligi; nutq akti muvaffaqiyatining sharti – nutqiy etiketning xushmuomalalik tamoyiliga asoslanganligi. Mazkur gapda lokutsiya – xushmuomalalik bilan ifodalangan murojaat shaklini qo'llanishi. Perlokutsiya esa so'zlovchi suhbatdoshdan tezda va kerakli javobni olganligi. Nutqdagi ushbu hodisalarni ingliz tili misolida ham ko'rib chiqamiz: – Good-night, uncle. – Hey! You've been gadding abroad all day – visiting, dining out, and what not (Ch.Brontyo. Shirley). Ingliz tilidagi bu dialogda ham nutqiy aktning illokutiv, lokutiv hamda perlokutiv turlari amalga oshirilgan: Good-night, uncle – salomlashish va muloqotga kirishishni maqsad qilgan illokutiv akt, uncle murojaatini qo'llanishi lokutiv akt, suhbatdoshdan darhol javob olinishi (– Hey! You've been gadding abroad all day – visiting, dining out, and what not) esa perlokutiv akt.

Muloqotda so'zlovchining kommunikativ maqsadiga mos ravishda muayyan tarzda tinglovchiga ta'sir qilish niyatida u yoki bu til vositalarning tanlanishi – illokutiv aktning muhim bosqichi hisoblangan nut-

qiy faoliyat asosi o'laroq o'ziga xos qiymati yuzasidan lingvopragmatik tadqiqotlarda nutq aktlarning, ko'pincha, illokutiv hodisaga tenglashtiriladi va illokutiv belgilariga ko'ra tasnif qilinadi.

Har bir konkret kommunikativ-pragmatik holatdagi "nutqiy vaziyat"da jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy (shu bilan birga, nutqiy) standartlashtirilgan xatti-harakat qoidalari, ijtimoiy mavqelar, suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlari, muloqot sharoitining rasmiy-norasmiyligi kabi ekstralingvistik omillar majmuasi orqali belgilanadi. Sanab o'tilgan omillar N.I.Formanovskaya tomonidan quyidagi formulaga solingan: kim – kimga – nima haqida – qayerda – qachon – nima sababdan – nima maqsadda [7;32-b.]. Yuqorida keltirilgan o'zbek va ingliz tillaridagi misollarga qaytsak: – *Kaminadin tag'in ne tilaysiz, ustod?* Mirzo Ulug'bekning ko'zlari qisilib, chehrasida o'ychanlik aralash shiddatli bir ifoda paydo bo'ldi: – *Bor tilagimni boya aytdim, man o'zimning chin boyligim deb, toj-u taxtni emas, ilm-ma'rifat yo'lida qilgan xizmatlarimni, bitgan asarlarim, to'plagan ilm hazinasini bilurmen* (O.Ёкубов. Улуғбек хазинаси); – *Good-night, uncle. – Hey! You've been gadding abroad all day – visiting, dining out, and what not* (Ch.Brontë. Shirley).

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham xushmuomalalikni anglatuvchi nutqiy etiketning bir qancha status vaziyatida (salomlashish, uzr so'rash, tanishish, xayrlashish, kechirim so'rash, ma'qullash kabi) muloqotni olib borish uchun muhim til birliklaridandir. Nutqiy muloqot – murakkab ijtimoiy va psixologik jarayon. Avval, kommunikantlar kommunikativ akti amalga oshiradi, kommunikativ vaziyat yaratiladi va perseptual tizimda sensomotorli (sensorimotor) sintez ro'y bera boshlaydi. Nutqda xushmuomalalikni amalga oshirilishini kommunikativ-pragmatik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin: 1) afsus yoki achinishni ifodalash birligi: – *O mother, you must have suffered!* (Ch.Brontë. Shirley); – *Attang, attang, – dedi "shayx-ulislom", – barvaqtroq kelmabsizda, bachcha, akun hamma hujralarga joy yo'q* (A.Қодирий. Мехробдан чаён); 2) ijozat berish nutqiy etiket birligi: – *All right, my dear, said Mrs. Hurstwood. Don't be gone long.* (Th.Dreiser. Sister Carrie); – *O'tiringiz, singlim, – dedi.* (A.Қодирий. Ўткан кунлар); 3) *iltimos qilish nutqiy etiket birligi: – Please, ma'am, said Sarah, opening the door, the preserves that you told me to boil in treacle – the confiters, as you call them – is all burnt to the pan.* (Ch.Brontë. Shirley) – *jon xolajon, bugun onamdan xafa bo'lmang, – dedi* (H.Норматов. Кўзгудаги икковлон); 4) *xayrlashish nutqiy etiket birligi: – Thank you, and good-bye to you, friends, said Shirley, as she closed the gates on a quiet court* (Ch.Brontë. Shirley); – *Yaxshi boring, opoq oyi!* (A.Қодирий. Ўткан кунлар); 5) xursandchilikni ifodalash nutqiy etiket birligi: – *Gee, Ma! I'm glad you've come* (Th.Dreiser. American tragedy); – *Suyunchi bering, bek buvi, kelinoyim keldila!* (A.Қодирий. Ўткан кунлар).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, nutq birligi o'laroq, murojaatni o'rganishda kommunikativ-pragmatik aspekt muhim. Uning bu aspektidagi tadqiqi murojaatning quyidagi xususiyatini aniqlab berdi: murojaat nutqiy akt o'laroq, so'zlovchi maqsadiga yo'naltirilishi mumkin; adresat nafaqat diqqatni jalb qilish vositasi o'laroq, balki adresatga ta'sir etish vositasi o'laroq ham turli murojaat shakllaridan foydalanadi, chog'ishtirilayotgan ikkala tilda ham murojaat nutqiy akt vazifasida keladi. Murojaatning bu kabi xususiyatlari, uning funksional tuzilishini ham chuqurroq tadqiq qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsio-pragmatik tahlili asoslari. Samarqand, SamDCHTI nashri, 2007, 19-bet.
- (2). Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. Коннотации как часть прагматики слова. Избранные труды в 2 т, т. 2, интегральное описание языка и системная лексикография, Языки русской культуры, Москва, 1995, с. 138.
- (3). Леонович Е.О. Прагматический аспект обращения (на материале английского языка). Автореф. канд. дисс., Пятигорск, 1999, с. 14.
- (4). Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярсева. 2-е изд., доп., Большая Рос. энцикл., Москва, 2002, с. 683.
- (5). Остин Дж.Л. Слова как действие. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.17, Москва, 1986,с.27–130.
- (6). Серл Дж. Что такое речевой акт? Новое в зарубежной лингвистике. Вып.17, Москва,1986,с.151–169.
- (7). Формановская Н.И. Употребление русского речевого этикета. Русский язык, Москва, 1984, с. 32.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Karimov Nodirbek Shuhrat o'g'li (TDSHU Koreyashunoslik oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi;
e-mail: nodirbekkarimov1995@gmail.com)

MUALLIF BIOGRAFIYASINING BADIY TASVIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan adib Li Munyol qalamiga mansub asarlarda muallif biografiyasining badiiy tasviri masalalari ko'rib chiqilgan. Muallifning "Qaddi bukik qahramonimiz" hikoyasida bolalik, "Yosh yigit portreti" hikoyasida o'smirlik yillari g'aybatlanadi. Kichik janrga katta muammo – davr haqiqatini sig'dira olgan adib "Qahramonlar asri" qissasida hayotiy iztiroblari sirini ochadi. Davr, muhit va muammo uyg'unlikda aks etgan qissa va hikoyalar adibning mazkur davrga bergan bahosidir.

Kalit so'zlar: hikoya, qissa, qahramon, muhit, bolalik, o'smirlik, portret, xiyonat, avtobiografiya, badiiy vosita.

Karimov Nodirbek Шухратович (Высшая школа Корееведения, свободный соискатель;
e-mail: nodirbekkarimov1995@gmail.com)

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ БИОГРАФИИ АВТОРА

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественные аспекты биографии Ли Мун Ея, в созданных им произведениях второй половины XX века. В повести «Наши сломленный герой» автор делится воспоминаниями о своем детстве, тогда как в «Портрете юноши» он описывает годы юношества. В произведении «Век героев» писатель, стойко преодолевший жизненные невзгоды, открывает перед читателем свою жизнь. Литературное наследие Ли Мун Ея отражает дух времени, окружающую действительность и проблемы, характерные для эпохи, в которой жил и творил автор.

Ключевые слова: рассказ, повесть, герой, атмосфера, детство, юношество, портрет, предательство, автобиография, художественный прием.

Karimov Nodirbek (Graduate School of Korean Studies, independent researcher;
e-mail: nodirbekkarimov1995@gmail.com)

ARTISTIC DESCRIPTION OF THE AUTHOR'S BIOGRAPHY

Annotation. This article deals with the issues of artistic description of the author's biography in the works of writer Lee Mun Yeol written in the second half of the XX century. In the story "Our twisted hero" the writer tells about his childhood, and in the story "Portrait of a young man" – about his youth. In the story "The age of heroes" the writer, who managed to resist the reality of that time, will reveal his entire life. In novels and stories, the writer reflects the era, environment and problems of that period.

Key words: story, novel, hero, atmosphere, childhood, juvenility, portrait, betrayal, autobiography, artistic tool.

Kirish (Introduction). XX asr ikkinchi yarmi tarixi va taraqqiyoti, o'lmas qadriyatlarini, muhit va zamon masalalari koreys adibi Li Munyol hayotida yorqin ko'zga tashlanadi. Adib hayotining badiiy ifodasi bizga millat qiyofasini tasavvur qilishga imkon beradi. Yozuvchining bolaligi fuqarolar urushi, o'smirlik yillari mamlakatdagi kaos (bo'shliq) davriga to'g'ri keldi. Fuqarolar urushi davrida mamlakat aholisining ikki xil mafkura ostida bo'linishi hamda otasining Shimoliy Koreya mafkurasi qarashlari ta'siriga tushib, qochib ketganligi oqibatida oila bir umr davlat milliy xavfsizlik xodimlari nazorati ostiga olindi. Bu, albatta, yosh Li Munyolga ruhiy zarba bo'ldi. Oiladagi moddiy yetishmovchik ham ma'nau xastalik bo'lajak adibning maktabda tahsil olishiga to'sqinlik qildi. Natijada u bir necha marotaba tahsil olayotgan maktabini almashtirishga majbur bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). "Inson o'z bolalik va o'smirlikini umri davomida unutilmasligi oddiy haqiqat. Bu yoshdagi eng yorqin xotiralarni bir umrga eslab qolish uchun kamida ikki jihat zarur bo'ladi: birinchisi – xotira muallifi noyob qobiliyat egasi bo'lib, bolalikdanoq har bir voqea detalini aniq-tiniq eslay olishi hamda bularni noyob durdona yanglig' qalbida saqlay bilishi, ikkinchisi esa muallifni yillar davomida bezovta qilib kelgan ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy hayotidagi ruhiy iztiroblari, qiyinchiliklarining unutilmas saboqlari [1;232-b.].

Muallifning 1987-yili yozilgan "Qaddi bukik qahramonimiz" hikoyasi buyuk adabiyotshunos, yozuvchi Li San (koreys modernizmining yorqin namoyandaligidan biri, qisqa umri davomida sermavzu ijod qilgan. Adabiyotshunos olimlar e'tirofiga ko'ra, rus yozuvchisi Lermontovni yodga soladi) nomidagi adabiy mukofotni qo'lga kiritdi. Hikoya ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida taraqqiyot bosqichiga kirgan ko-

reys nasri namunasi hisoblanadi. “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasi 1987-yili Janubiy Koreyada demokratiya uchun harakatlar ayni avj nuqtasiga chiqqan paytda nashr qilindi.

Bolalik yillari mashaqqatlarini “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasi zamirida bergan yozuvchi, o’smirlik, yigitlik hamda talabalik yillarida “xiyonatkor ota” sabab boshidan o’tkazgan iztiroblari, nohaqliklarini “Yosh yigit portreti” hikoyasida tasvirladi. Bu xuddi avvalgi hikoyaning davomiga o’xshash taassurot uyg’otadi, avval bolalik, keyin o’smirlik yillarida voqelik va mafkurani idrok etishi, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlari, dunyoni anglash, o’zi va oilasi duch kelgan hayotiy to’siqlarning ildizini izlashi kabi masalalar bosqichma-bosqich ikkita hikoyaga kiritiladi.

Ijtimoiy ziddiyat, fikrlar qarama-qarshiligi, tarixiy haqiqat yozuvchining yangi asari uchun asosiy manba bo’ldi. Adibning tarixiy jarayonlarni o’z ichiga olgan, uning davrga bergan bahosi hamda tafakkur olamini aks ettiruvchi “Qahramonlar asri” qissasida Shimoliy Koreyaga qochib ketgan otaning hayoti obrazli tarzda tasvirlanadi. Muallif tasavvurida kommunistik mafkura asosiga qurilgan mamlakatdagi ota hayoti Chxve Inxunning “Maydon” romanidagi bosh qahramon hayotiga qiyoslanadi. Koreya yapon anneksiyasidan ozod qilingan kundan boshlab Shimoliy Koreya hududiga ko’chib o’tgan, yangi mafkuraga asoslangan davlat uchun qon kechgan ota olamdan o’tadi. Otaning yolg’iz yodgori – o’g’li kommunistik ruhda tarbiya topadi, Janubiy Koreya haqida salbiy fikrlaydi. Shimoliy Koreya jamiyatini eng gumanitar tuzum, deb bilgan o’g’ilning bir kuni to’satdan so’roqqa tortilishi, aybsiz aybdorga aylanishi uning butun hayotiga nuqta qo’yadi.

Li Munyolning “Uyga qayta olmaysan” (1980) to’plami 16 ta hikoyadan iborat bo’lib, hikoyalarda qo’yilgan asosiy masala birin-ketin bir-biriga bog’lanib ketadi. Natijada 16 ta hikoya yaxlit bir asar kabi tasavvur uyg’otadi. Hikoyalarda adib o’zi tug’ilib o’sgan shahar hayotining har bir aspektini alohida yoritadi, bir hikoyadan ikkinchi hikoyaga o’tish jarayonida ma’naviy bo’shliq chuqurlashib boradi, so’nggi hikoyada esa u izsiz yo’qoladi. Ma’naviy bo’shliq deganda adib qadrsizlanib borayotgan inson, uning hayoti, sha’nini nazarda tutadi, hamisha hadiksirab, qo’rquvda yashashiga urg’u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida Koreya tarixida o’chmas iz qoldirgan turli tashqi tazyiq hamda ichki to’qnashuvlar girdobidagi inson taqdiri, adibning oilasi boshiga tushgan kulfatlar maktab hayoti orqali bayon qilinadi. 50 yil davomida mustabid zulmi ostida yashagan hamda hayotda qochib bo’lmas zo’ravonlik va tahdid muammosiga duch kelgan xalq ahvolini obyektiv tasvirlash hikoyaning asosiy g’oyasi hisoblanadi. Zo’ravonlik mavzusi Li Munyolning qator hikoyalarda uchraydi, “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida esa bu masala oila, jamiyat va maktabda sodir bo’lishi bilan ajralib turadi.

Yozuvchi xotirasida mustahkam o’rnashib qolgan voqealar qaydlar tarzida emas, balki badiiy asar tarzida bayon qilinadi. Maktab hayoti bolalik dunyoqarash orqali samimiy tasvirlansa, maktab o’qituvchilarining xatti-harakati real voqelikka asoslanadi. Bu o’z o’rnida rus xalqi hayoti, oddiy qashshoq hayotga mahkum mujiklar, mol-dunyo uchun kurashlarning aka-uka va ota-bolalar orasidagi munosabatni buzishini ochiq-oydin ko’rsatgan M.Gorkiyning “Bolalik” qissasini yodga soladi. Rus adibidan farqli o’laroq, koreys yozuvchisi bolalik va o’smirlik yillarini katta hajmli bir qissa ichiga emas, bir-birini mantiqan to’ldiruvchi hikoyalar zamiriga joylashtiradi.

Koreya urushi, 1960-yil aprel oyida bo’lib o’tgan namoyishlar, 1961-yil may oyidagi to’ntarishlar oqibatida mafkuraviy bo’linishning xalq ongiga ta’siri muammosi mamlakatda kambag’alilik, ochlik va o’limning ko’payishida yanada chuqurlashdi. Mafkuraviy bo’linish fojiasi hamda uning mudhish oqibatlarini boshidan kechirgan mohir nasrnavis Li Munyol o’zining “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida madaniy qatlamda turfa fikrlilikning paydo bo’lishini mohirona ko’rsata oldi [2;14-b.].

Adibning mazkur hikoyasida uni yillar davomida bezovta qilib kelgan ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy hayotidagi ruhiy iztiroblari, qiyinchiliklari tarixiy saboq kabi yangraydi. Hikoyada Li Munyol xotiralarida qolgan qaydlar – hayotning achchiq haqiqatlari real bayon qilingan. 1987-yil mamlakatda harbiy boshqaruvga qarshi xalq kurashi bilan tarixda o’chmas iz qoldirdi, xalq orzulari ushaldi: u istagan islohotlar o’tkazildi: “O’sha yili, mart oylarining o’rtalarida, Liberal partiya tomonidan ta’sis etilgan hukumat, hokimiyat tepasida so’nggi nafasini olmoqda edi” [3;2–39 p.].

Muallif 1987-yil iyun voqealari boshlanishidan oldin hokimiyat yuritayotgan siyosatning umri tugab borayotganini olis qishloq maktab hayoti tasvirida ko’rsatdi. Bir qarashda, hikoya – maktab o’quvchilari va o’qituvchilar, o’quvchilarning o’zaro munosabatlari haqidagi oddiy tarixiy voqeaga o’xshaydi. Aslida, bu voqea zamiriga gohida inson aqli yetmaydigan, aql bovar qilmaydigan fikr joylashtirilgan. Hikoyada fuqarolar urushidan keyingi xaos davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, mafkuraviy bo’linish sababli otasining gunohi uchun aybdor o’g’il masalalari tasvirlanadi. Hikoyada siyosiy tuzum voqealari badiiy jihatdan yuk-

sak ifodalangan. Davrdagi jiddiy muammolar maktab o'quvchilari ko'zi orqali beriladi. Shu o'rinda olim Q.Yo'ldoshning: "Alohida bir odam va uning hayot yo'liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alohida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg'onayotganidan belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo'nalishdagi bitiklarning ko'payishi o'sha yerda odam shaxsiga e'tibor orta boshlaganidan dalolatdir", degan fikrlari o'z tasdig'ini topadi (4;10-b.).

Xan Pyon Te – "hayotda ko'pni ko'rmagan" quyi maktab o'quvchisi haqiqat uchun kurashadi, aynan bosh qahramonning bu xarakteri muallif uchun muhimlik kasb etadi. Bosh qahramonning bolalarcha samimiy va haqiqatni tiklash uchun sabotli ishonchi kitobxonni befarq qoldirmaydi. U yangi maktabda, yangi sinfdoshlar orasida o'z o'rnini topa olmasa-da, bir vaqtning o'zida maktabda o'rnatilgan tartib hamda loqaydlikka toqat qila olmaydi: "...men faxrlanib qatnab yurgan Seuldagi eng zo'r maktabni tashlab, provin-siyaning kichik shaharchasida joylashgan bechorahol maktabga o'tishimga to'g'ri keldi. Davlat xizmatida ishlaydigan otam ishxonasida fitnalarga aralashib qolgani bois oilamiz u yerga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi" [3;2–39 p.].

Hikoyadan keltirilgan parchada muallifning bolalik xotiralari bo'y ko'rsatadi: fuqarolar urushi davri-da otasi siyosiy fitnalar sabab yashash joyini janubdan shimolga ko'chirishga majbur bo'lgan edi. Otasi shimolda bo'lgan muallif juda ham ko'p to'siqlardan o'tishga, hatto atrofdagilarning nafratli munosabatini yengishga, og'ir turmush tarzini kechirishga mahkum edi. Shuning uchun ham Li Munyol badiiy niyatini o'z ixtiyorisiz yangi, notanish hamda ko'ngilsiz o'rta tushib qolgan o'n ikki yoshli bola obrazida ko'rsata oldi, uning hissiyotlarini ishonchli tasvirladi.

Umuman olganda, jamiyatdagi turli to'qnashuvlar, fuqarolar urushidan keyingi tartibsizliklar ayni o'quv dargohlari, ta'lim tizimi bilan bog'liq vaziyatlarda tasvirlanishi Li Munyolning zamondoshi Chon Sang Guk ijodida ham uchraydi. Adib o'zining "Butning ko'zyoshi" hikoyasida kollej hayoti misolida 2-bosqich o'quvchilari obrazida o'smir ruhiyatidagi zo'riqishlarni tasvirlaydi. Guruhning yangi rahbari iqtidorli o'quvchi ta'sirida kursdan kursga qoldirib kelingan zo'ravon o'quvchini tarbiyalashga kirishadi. Aslida, hikoyadagi zo'ravon bola obrazida jamiyatdagi loqaydlik, ota-onaning nochor ahvoli, maktablarda o'qishning qiyinligi, moddiy yetishmovchilik kabi masalalar bo'rtib ko'zga tashlanadi.

Hayotiy qiyinchiliklar hamda to'siqlar Li Munyolning bilim olishiga monelik qila olmadi. O'z davri va hozirgi kunda oliy muassasalar reytingida yuqori ko'rsatkichga ega Seul universiteti talabasi sharafiga erishgan adib 1970-yili universitetni tamomlasa-da, afsus, o'tgan yillar soyasi, ya'ni, otasining boshqa mafkura ta'sirida Shimoliy Koreyaga qochib ketishi sabablarga ko'ra, unga universitetni tamomlaganlik haqida hujjat – diplom berilmadi. Bolalik yillari mashaqqatlarini "Qaddi bukik qahramonimiz" hikoyasi zamirida bergan yozuvchi, o'smirlik, yigitlik hamda talabalik yillarida "xiyonatkor ota" sabab boshidan o'tkazgan iztiroblari, nohaqliklarini "Yosh yigit portreti" hikoyasida tasvirladi. Adib o'zining bir shaxs sifatida shakllanish jarayonida aybsiz aybdorlik sabablarini aniqlashga, o'zini doimiy ta'qib qilgan qo'rquv va noma'lum vaziyatlarni idrok etishga intilib yashadi. Bu haqida adibning o'zi shunday yozadi: "Men ta'qib ostida yashashga majbur bo'ldim. Maktablarni tez-tez o'zgartirdim, mashaqqatli hayot va qashshoqlik meni o'zligimni anglashga turtki berdi...o'qishni tashlab ketmadim, sarson-sargardon bo'lsam-da, imtihonlarga tayyorgarchilik ko'rdim..., xullas, bu mashaqqatlar meni zohidlik yo'liga kirita olmadi" (8;26.1p.).

Har ikki hikoya mazmunida muallifning shaxs sifatida shakllanib, yetuklik pallasiga kirib kelishi anglashiladi. Bolalik haqidagi xotiralar biroz samimiy yoritilgan bo'lsa, o'smirlik davriga kelib, ichki tug'yon tashqi dunyo – jamiyatdagi voqe-hodisalarga, insoniy munosabatlarning davr taqozosiga ko'ra, nosamimiyligiga baho bera boshladi. Kamolotga yetgan muallif obrazi uchun bu yashashga bo'lgan ishtiyoqning kuchayishi, ichki ziddiyatlar bilan kurashish, muammolarni hal qilishdagi to'g'ri tanlov edi.

Li Munyol otasi haqida yaratgan qissasida o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan tuprog'idan voz kechgan, muqaddas oilasini asrab qolmagan, ayoli va farzandlarini himoya qila olmagan, xiyonatkor otaning qismati, albatta, fojiali yakunlanishiga, tabiiy hol kabi qaraydi. Ammo, shu bilan bir vaqtda, u o'z xotiralarida shunday yozadi: "Hukmron tabaqa ta'siri ostidagi otamning tanlovi tarixiy zaruriyat edi, xolos" [8; 26.1 p.].

Li Munyol ijodida o'ziga xos taraqqiyot va izlanishlar bosqichini bosib o'tgan, koreys adiblari uchun an'anaga aylangan hikoya janri o'zining butun qirralari bilan namoyon bo'ldi, hikoyalari unga mashhurlik olib keldi, uning qalamiga mansub barcha hikoyalar nafaqat tanqidchilar, balki keng kitobxonlar auditoriyasi tomonidan ham iliq kutib olindi. Li Munyol ijodi milliy adabiyot taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Li Munyol asarlarining muvaffaqiyati uning ijodkor sifatidagi o'ziga xos uslubi, betakror badiiy mahoratidir. Zero, "Yozuvchi o'zi mansub bo'lgan xalqning milliy mavqeyida mustahkam tursa, tasvirla-

nayotgan voqea-hodisalarga o'z xalqining ilg'or farzandi nuqtai nazaridan qarasa va kelajakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg'ular umumbashariylik tusini oladi. Adabiyotning bunday xislatlarini esa kitobxon, birinchi galda, qahramon siyomosida, uning faoliyatida, xatti-harakatlarida, qiliq-odalarida, axloq va odobida ko'radi. Badiiy adabiyotdagi milliylik faqat shakl hodisasigina emas, ayni chog'ida, mazmun masalasi hamdir. Chunki badiiy asarda millatning iqtisodiy-siyosiy turmushi, xalq dunyoqarashining ichki murakkab mazmuni ham aks etadi" [7;108–131-b.].

Yozuvchi ijodining gullagan davri 1980-yillarga to'g'ri keladi. 1980-yillar adabiyot olamida, nasriy asarlar mualliflari orasida Li Munyol bilan tenglasha oladigan ijod ahli barmoq bilan sanarli bo'ldi. Adib o'zi yaratgan har bir asarga bugungi kun nuqtai nazaridan yondashishi hamda prizmasidan o'tgan hayotiy voqealarni badiiy voqealikka aylantira olish mahorati unga nafaqat ijodiy mashhurlik, balki tijorat ishlarida moliyaviy samaradorlikka erishish kalitiga aylandi.

Bu davrda yaratilgan hikoyalarda ijtimoiy tengsizlik, jamiyat va inson, tabiat va inson, fuqarolar urush fojialari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari qismati, Janubiy Koreya armiyasi safida xizmat qilgan yoshlarning taqdiri, davr muhitining ayol va erkak munosabatlariga ta'siri, o'rta yoshdagi bo'ydoq insonlar duchor bo'lgan inqiroz, insonlar o'rtasidagi "begonalashuv" va yolg'izlik kabi masalalar o'z aksini topdi. Shu bilan birga, muallif asarlarida nafaqat milliy, balki umumbashariy muammolar ham ko'tarildi.

Li Munyol ijodiy merosi XX asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotining yorqin sahifalariga aylandi, nasrda, ayniqsa, hikoya janrida davr va muhit ko'zgusi bo'ldi. Adibning qator asarlari xorijiy tillarga tarjima qilindi, shu sababli u xorijiy muxlislar auditoriyasiga ham ega bo'ldi.

Ijodining ilk sahifalaridan boshlab u koreys milliy adabiyotiga yangi hayotiy kuch bag'ishladi, kitobxonni chuqur mulohaza qilishga o'rgatdi. Uning ijodkor sifatida boyligi harbiy mavzudagi asarlardan tortib diniy-falsafiy qarashlar, an'ana va novatorlik aks etgan, turli xil janrdagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi nasriy asarlari bilan o'lchanadi. Li Munyol nasrning barcha turlari – hikoya, qissa, roman, drama, spektaklda shoh asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). O'z davrining eng peshqadam vakillaridan biri Li Munyol iste'dodli yozuvchi, adabiyotshunos olim sifatida koreys xalqiga boy ma'naviy meros qoldirdi. Bugungi kunda Li Munyol ijodini yangi tamoyillar asosida o'rganish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki koreys adabiyotshunos olimi aytdanlaridek: "Li Munyolning badiiy ijodi bugungi kunga qadar dolzarbligini yo'qotmadi. Harbiy boshqaruv davridagi qiyinchiliklarga qaramay, Li Munyol qahramonlar xarakterini diktatura vaziyatidagi maishiy, hayotiy, jamiyatdagi holatlar fonida ikkinchi darajali personajlar bilan munosabatlarda ochib bera olgan nasrnavisdir" [9;26 p.].

Rus adabiyotshunos olimasi M.V.Soldatova ham Li Munyolning serqirra ijodini yuksak baholaydi. Olima "Проблемы популяризации корейской литературы в мире: к вопросу о специфичности национального культурного кода" maqolasida koreys adabiyotining jahon adabiyoti kontekstida o'rganilishi masalalariga to'xtaladi, faqat koreys pop-musiqasi, kino va ko'p metrajli filmlarning Nobel mukofotiga sazovor bo'lganini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, koreys adabiyotining, xususan, Li Munyol ijodining xorijda kam o'rganilganligi, shu sababli adib yaratgan asarlarning Nobel mukofotiga hali-hanuz tavsiya etilmaganligini afsus bilan qayd etadi [5;3–792 c.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'zgarayotgan dunyoda hayot va san'at o'rtasidagi qarama-qarshilikni to'g'ri anglagan adib mamlakatidagi real sharoitni, mafkuraviy bo'linish qurbonlari, kaos (bo'shliq) davri ta'lim sohasidagi beboshliklar, oila a'zolari uchun jazolangan insonlar, yozuvchi va shoirlar duch kelgan senzura, ijodkor erkinligi haqida yozdi. Yoshlarning, ayniqsa, jamiyat ziyoli qatlamining yolg'izlanish, begonalashish sabablarini san'atning so'z qudratida ifoda etdi. Harbiy boshqaruv davriga moslashayotgan insonning milliy qadriyatlarning unutilayotganidan chekkan aziyatlari, ichki ruhiy iztirob, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyat adib tomonidan keskin tanqid ostiga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Жамилова Б. Автобиографик-дилогик киссаларнинг бадий-композицион, синкретик хусусиятлари. Академик Наим Фотиҳович Каримовнинг 90 йиллигига бағишланган "Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари" мавзудаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, "FIRDAVS-SHOH", 2022, 143-бет.

(2). Камилова С.Э. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожини. Филол. фанл. докт. дисс. автореф., Тошкент, 2018, 92-бет.

(3). Park Pilsun. A Study on the Violence in LeeMun-yeol's Novels, The dissertation of the master's degree, 2011, 129 p.

- (4). Қозокбой Йўлдош. Ўзлик сари йўл. Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджон таваллудига 70 йил. Тошкент, 152-бет.
- (5). Солдатова М.В. “Проблемы популяризации корейской литературы в мире: к вопросу о специфичности национального культурного кода”. Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 3 (792), 2018, 166 с.
- (6). Улугбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляги. Тошкент, «Адиб» нашриёти, 2012, 304-бет.
- (7). Фоййбов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат., 1970, 108-бет. Downloads. PDF. Published. 2023-11-27. Issue. Vol. 1.
- (8). 이지현 – 한-영-힌 중역에 나타난 문화소 번역 양상 분석 – 이문열의 소설 우리들의 일그러진 영웅을 중심으로 – 아시아연구 26 (1) 2023.
- (9). 이정숙. 한국현대소설연구. – 서울: 깊은샘, 1999. – 344-p.

**Azilova Zuhra Gulmon qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi assistenti;
e-mail: azilovazuhra@gmail.com)
SHE’RIY TARJIMADA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farrux va Axiy haqidagi hikoyat qoraqalpoq tilidagi tarjimasi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tarjimada shakl va mazmun birligi, obrazlar, badiiy detallar, o‘xshatishlar, qofiya va radiflarning qayta ifodalanishi kabi masalalari yoritilgan. Yaqin tillardan tarjima qilishdagi qulayliklar va qiyinchiliklar misollar bilan izohlangan. O‘zbek tilidan qoraqalpoq tiliga bevosita tarjima qilish lozimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, qiyosiy tahlil, ekvivalent, shakl va mazmun, badiiy detal, o‘xshatish.

Азилова Зухра Гульман кизи (ассистент кафедры узбекской литературы Нукусского государственного педагогического института; e-mail: azilovazuhra@gmail.com)

ЕДИНСТВО СОДЕРЖАНИЯ И ФОРМЫ В ПЕРЕВОДЕ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье рассказ о Фаррухе и Ахии сопоставлен с его переводом на каракалпакский язык. В переводе освещаются вопросы сохранения единства формы и содержания, переосмысления образов, художественных деталей, сравнений, рифм и радифов. Удобства и трудности перевода с близкородственных языков объясняются примерами. Подчеркивается необходимость прямого перевода с узбекского языка на каракалпакский.

Ключевые слова: художественный перевод, сопоставительный анализ, эквивалентность форма и содержание, художественная деталь, сравнение.

Azilova Zuhra Gulman kizi (Nukus State Pedagogical Institute, assistant of the Department of Uzbek literature; e-mail: azilovazuhra@gmail.com)

UNITY OF CONTENT AND FORM IN POETRY TRANSLATION

Annotation. In this article, the story of Farrukh and Akhiy is compared with its translation into the Karakalpak language. The translation highlights issues related to preserving the unity of form and content, re-expressing images, artistic details, similes, rhymes, and radifs. The convenience and difficulties in translating from nearby languages are explained by examples. It is noted that direct translation from Uzbek into Karakalpak is necessary.

Key words: artistic translation, comparative analysis, equivalence, unity of form and content, artistic detail, simile.

Kirish (Introduction). Badiiy tarjima ikki xalqni bir-biriga yaqinlashtirib, mushtarak g‘oyalar paydo bo‘lishida, adabiy til va madaniyatni boyitishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada V.G. Belinskiy: “Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish ularning o‘zaro yaqinlashishlariga, bir-birlariga g‘oyalar almashishiga asos bo‘ladi, ana shundan yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi” degan fikr bildirgan edi [1;11-b.]. Shu ma’noda, bugungi kunda badiiy tarjima va tarjimashunoslik sohasiga e’tibor kuchaymoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tarjimada shakl va mazmun birligi saqlanishi yuzasidan tarjimashunos olimlar: G‘.Salomov, N.Komilov, E.Ochilov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida nazariy qarashlar bayon qilinadi. Qolaversa, o‘zbek-qoraqalpoq adabiyotida ham tajimachlikda bir qator ishlar amalga oshirilgan. Lekin mavjud tadqiqotlarning hech birida “Sab’ayi sayyor” dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasi maxsus o‘rganilmagan. Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostoni M.Matnazarov ta’monidan qardosh qoraqalpoq tiliga she’riy yo‘lda tarjima qilingan. Mazkur tarjima 1968-yilda „Qaraqalpaqstan“ nashriyotida „Jeti iqlim“ nomi bilan kitob holda bosmadan chiqarilib, kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Sab’ayi sayyor” dostonining birinchi hikoyati, ya’ni, Farrux va Axiy haqidagi hikoyat tarjimasini asliyat tili bilan qiyosan o’rganishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tarjimashunos olim N.Komilov “Shohnoma” tarjimasiga bag’ishlab yozgan tadqiqotida: “Katta kemaga katta safar munosib deydilar. Eng avvalo, bu ishga qo’l uradigan shoirning yuragida bardam, baquvvat ishonch, iste’dodning oltin kaliti – jasoratga chorlovchi jur’at nurlanib turmog’i lozim. Bir necha yillar davom etadigan bu ishda mutarjim mudom Firdavsiyning she’riy olamida yashaydi, uning havosidan nafas olib turadi. Pog’onama-pog’ona chuqurlasha borib, har bir baytning nozik qirralariga qadar idrok etib, qalbiga joylab oladi. Ana o’shanda sehrlil misralarning zamonamiz o’quvchilariga manzur bo’ladigan o’zbekcha variantlari tug’ila boshlaydi – tarjima jarayoni boshlanadi” deganlaridek [2;92-b.], Navoiy asarlari tarjimasiga kirishgan tarjimon yuksak ichonch, ijodiy mahorat va qobiliyat sohibi bo’lishi bilan birga, Navoiyning ruhiy olamida yashashi, izlanishi, o’rganishi zarur.

Hikoyat tarjimasida ba’zi o’rinlarda asliyat bilan tarjima o’rtasida bir qator farqlar uchraydi. Xususan, tarjimada quyidagi voqealar aks etmagan. Asliyatda Farrux tushida bir parivashni ko’rib, hushidan ayiriladi. Hushiga kelgach, atrofdan bu yer Quddusdir, degan ovoza eshitiladi. Shu sababli u, dastlab, Quddusga yo’l oladi. Tarjimada esa Quddus haqida, umuman, gap bormaydi. Faqat Farrux bir kuni tushida “peri” ko’radi, atrofdan hech qanday ovoza eshitilmaydi. Ya’ni, tarjimada Farrux qayerga safar qilishi noma’lum bo’lib qolgan. Asliyatda esa Farruxning Quddusga borishi aniq edi. Asliyatda 66–69-baytlarda aytilishicha, u zamonlarda kimki haj qilmoqchi bo’lsa, oldin Quddusni tavof etishi lozim edi. Haj qilish vaqti bo’lganligidan yuz minglab odamlar tavof qilish niyati bilan Quddusga boradilar. Farrux ham Quddusga borib, shaharni ziyorat qilib, yuz umid va iltijo bilan yuzini tuproqqa surtib, yig’laydi. Bir necha kun shu zaylda o’tadi. Lekin izlagan parivashni uchratmaydi. Bir kuni kechasi tushida bir odam unga Xalabga borishini aytadi. Tarjimada Farrux Quddusda emas, yo’lda tush ko’radi. Tushida shunday ovoza keladi:

*Ne joqladın? Jetpek bolsan tilekke,
Jatpa bunda, atlan jildan Xalebke. [3;41-b.]*

Bu yerda Farruxni Quddusga olib bormay, tush epizodi o’rni o’zgartirilgan.

Asliyatda tushda ko’rgan pari taxtiravoni osmon gumbaziga, parivash “sharq quyoshi”ga o’xshatiladi. Tarjimada osmon gumbazi o’xshatishi aks etmagan. “sharq quyoshi” tashbehi aynan berilmasa ham, unga mos bo’lgan “ta’niñ shuǵlası” o’xshatishi topib qo’llanilgan.

Navoiy o’ta sinchkov bo’lib, har bir voqea-hodisaning sababi, mohiyatini ochiq-oydin tasvirlab beradi. Tarjimada lo’nda-lo’nda voqealar tarjima qilinib, sujet chizig’i buzilmaydi. Voqealar izchillikda bayon etiladi. Dostondagi Xalab yo’lidagi voqeaga diqqatni qaratamiz. Xalab xalqi juda ko’p, Xalab yo’lida esa suv oz tanqisligi sababli Farrux lashkarlarini Hindistonga qaytarib yuboradi. Tarjimada esa faqat askarlarni qaytarganligi keltirilib, suv tanqisligi haqida aytilmaydi. Sababi, mohiyat ochiq-oydin ko’rsatilmaydi. Shu sababli baytlar soni kamayib ketgan. Asar tarjimasida shu kabi sujet chizig’idan chiqmagan, lekin qisqartirilgan mazmun berilib boriladi. Keyingi bayt ham tarjimon tomonidan qo’shilgan, asliyatda yo’q:

*Jiqpay dostıñ qupiya aqıl-iqlasın,
Kiyip aldi shahzadalıq lipasın.*

Asliyatda shahzodalik libosini kiyib oldi deb keltirilmaydi. “She’r tarjima qilinar ekan, osonlikcha, o’z-o’zidan amalga oshmaydi. U bir yerdan ikkinchi yerga ko’chirilgan niholday narsa emas. U qayta yaratiladi, demak, bu go’yo imoratni buzib, o’sha usulda, lekin boshqa material bilan yangidan tiklashga o’xshagan gap. Tarjima asarni yangi til materiali asosida yangidan tiklash san’atidir. Butun mahorat ijodiylik ana shunda namoyon bo’ladi” [4;39-b.]. Asliyatda Farrux dardini hamrohlariga bildirmaslikka urinadi. Tarjimada esa “láškerlerge” va “malayǵa” bildirib qo’ymaslik uchun sir saqlar edi, deb keltiradi. “Malay” so’zida salbiylik bo’yog’i kuchli. Ayniqsa, muallif tilidan bu so’zni qo’llash noo’rindek tuyuladi. Malay so’zi “qullikshi, cho’ri” ma’nolarini beradi. Shu sababli “malay” so’zi o’rniga qoraqalpoq tilida mavjud bo’lgan “xizmetker” yoki “xızmetshi” ekvivalentini qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Asar tarjimasini sinchiklab o’rganish jarayonida shunday qiziqarli holatga duch keldik. Asliyatda Navoiy Farruxga shunday ta’rif-tavsif beradi.

*Lek shahzoda bor edi behol,
Eltibon hardam oni o’ziga xayol [5;131-b.].*

Tarjimada esa:

*Heshkim bilmes dártilidegi jarani,
Al ol jilli súreylenip qaradi.*

“Jilli” deb asliyatda ta’rif berilmaydi. “Behol, hardam xayol” deb keltiradi. “Jilli” so’zi qoraqalpoq tilining izohli lug’atida “Jinli” deb beriladi. Bu so’zning ma’nosi: “Aqil-esin joytqan, aqildan ayrilgan” ma’nolarida ishlatiladi [6;361-b.]. Tarjimon shu ma’nolarni anglatuvchi og’zaki so’zlashuv uslubidagi “jilli” so’zidan foydalanadi.

Navoiy asarida shahzoda Farrux ishq tufayli, g’am-qayg’uda ezilib, qora rangli palos kiyib, darbadar kezishini va hamomga borib, ustiga qora palos yopinganini tasvirlaydi. 124-baytda diqqatni qora palosga qaratadi, ya’ni, Farrux qora rangdagi palos kiyadi. Tarjimada esa “darveshke” kiyimini kiyadi. Keyingi baytda tarjimada tunday qora kiyim turini yashirib turardi, deb keltirilgan. Bu bilan qora rangli darvesh kiyimini kiyganligini tushunamiz. Lekin palos detali aynan keltirilmagan. Asliyatda 126–130-baytlarda tasvirlanishicha, Farrux hammomga borib, ustiga qora palos yopib uxlaydi. Garchi u o’txonaning kuli ustiga yotgan bo’lsa ham, joni go’yo do’zax o’tida edi. Farruxning holatini ichki kechinmalarini tasvirlovchi bu iztirobli baytlar tarjimada tushib qolgan. Asliyatda Farrux shundan so’ng ko’p vaqt ochlikda shaharni sargardon kezib, bir vayronaga borib, baxtsizlik palosni yopinib yotadi. Tarjimada esa mazkur voqealar aks etmay, faqatgina “g’one tamga” borib, “g’one palas” yopingani tasvirlanadi. Tarjimada hammomga borib tushishi tasviri yo’q. 133–135-baytlar mazmuni qo’shilib, bir bayt qilib tarjima etilgan. 134-bayt tarjima qilinmagan. Bu baytda Farruxning odamlari uni topolmay qiynalganliklari tasvirlangan. Tarjimada 137-baytda Farruxni topolmagan amaldorlar holatini tasvirlab, shunday o’xshatish keltiriladi:

*Uyasinan gayip bolgan qusim dep,
Biraq hamme kop uzamay tusindi.*

“Uyasinan gayip bolgan qusim” degan o’xshatish asliyatda yo’q. Bu esa tarjimonning tarjimaga ijodiy yondashganligini ko’rsatadi. Tarjimada 138-baytdan keyin ikki bayt qo’shilgan. Quyidagi ikki bayt asliyatda yo’q bo’lib, tarjimada muallif tilidan keltirilgan:

*Qaydan bilsin onuh arttan telmirip,
Elge salem jollaganin eljirep.
Qaldi jigit armani at basinday,
Ishqi oti or tep misli jasinday.*

Asliyatda voqealar salgina boshqacharoq tasvirlanadi. Farrux odamlari o’z yurtiga qaytib ketganliklarini ulardan hech qanday darak bo’lmagach, fahmlab oladi. Yuqoridagi tarjimada esa orqasidan termilib, elga salom yo’llab qoldi, deb keltiriladi. 161-baytda Farruxning holatini tasvirlab, har qanday jism oziq-ovqatdan quvvat olmagach, suvdan ajralgan baliqning o’zi bo’lib qolishi tabiiy deb obrazli ifoda keltiradi. Bu bayt tarjimada aks etmagan. Asliyatdagi 178-bayt tarjimada Axiydan qo’shnilari, ozgina boylar nomus qiladi, lekin ko’pchilik maqtar edi, deb keltiriladi. Asliyatda esa Axiydan shahar ahli minnatdor bo’lib, uning karami hammani banda qilgan edi, deya tasvirlanadi. Asliyatdagi 299-baytda Axiy ayolini Farruxni shuncha maqtasa ham Farrux bilan nikohlanishga ko’nmagach, unga tig’ o’qtalib qo’rqitadi:

*Husnini dog’i qildi ko’p ta’rif,
Tig’ birla ham etti ko’p taxvif.*

Tarjimada:

*Oz qonagin maqtasa ol qanshama,
Yar juregin qanjar tildi sonshama.*

Ya’ni, tig’ bilan qo’rqitdi, deb emas, yor yuragini xanjar tildi deb boshqacha tarjima qilingan.

Asliyatda 340-baytda Farrux Axiy unga o’z ayolini nikohlab berganini bilgach, ayolga ikki jahonda sen menga singil bo’lasan, deydi. Tarjimada esa singil emas “qarindas” deb o’girilgan. 370-baytda Axiyning dushmanlari Axiyni Xalab hukumdoriga yamonlagach, Axiyni o’ldirish haqida farmon beradi. Shu bayt tarjimada yo’q. Faqat qamoqqa olganligi aytilgan. Axiy zindondan qochgandan keyin 273–375-baytlarda u hamom go’laxida gulxan yoqib kulga ag’anab, o’zini devonalikka solib yotadi. Tarjimada esa “oshaqqa” kirib yotdi, deyiladi. Qayerdagi, qanday o’choqligi noma’lum bo’lib qolgan. O’z mamlakatida xotirjam yashayolmay, Hind mamlakatiga ketishga majbur bo’ladi. Ana shu uch baytdagi voqealar bir bayt qilib tarjima qilingan. Hikoya oxirida Axiy bilan uning ayoli uchrashgach, hushlaridan ketib qolishadi. O’ziga kelgach, yig’lab, yana hushidan ayriladi. Biroz o’ziga kelgach, Axiy haytarlanib, ayolidan nima bo’lganligini so’raydi. Ayoli shohning muruvvatini aytadi va hushini yo’qotadi. Bu holat bir necha kun davom etadi. Tarjimada esa bu hushidan ketish tasvirlari to’liq berilmay, qisqartirilib ifodalangan.

Asliyatda XX bob 482 baytdan iborat bo’lib, 103 bayt mudarrafi, ya’ni radifli bayt hisoblanadi. Tarjimada 371 bayt, shundan 19 bayti muraddafdir. Doston masnaviyda, aruzning hafif bahrida yozilgan. Tarjima esa masnaviyda 11 bo’g’inli barmoq vaznida o’girilgan. G’.Salomov va N.Komilovlar ta’kidlaganlaridek, she’r “tarjima uchun yozilmaydi, lekin tarjima qilinadi. Boshqa millat kitobxonlari ham undan lazzat

olishga muayassar bo'lsinlar deb tarjima qilinadi" [4;33-b]. Shunday ekan, she'riy asar tarjimasida asliyatdagi butun jozibadorlik, ohang, vazn qayta yaratilmog'i lozim. Binobarin, tarjima asliyatni aynan takrorlash san'ati emas. U "qayta tiklash", "qayta yaratish" (G'.Salomov) san'atidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumiy olib qaraganda, tarjimada mazmun-mohiyat aks etgan. Mazmunda unchalik katta tafovut yo'q. Obrazlar, voqealar ketma-ketligi buzilmagan. Yuqorida keltirilgan o'zgachaliklar esa tarjima asar bilvosita rus tilidan tarjima qilinganligi sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan asl nusxa tilidan tarjima qilish lozim. Original asarning shakl va mazmunini o'zga til-da to'liq yaratish uchun noyob iste'dodli shoir-tarjimon bo'lish kerak. Tarjimadagi hikoyat bilan tanishar ekanmiz, she'riy tarjimada hikoyaning mazmuni, g'oyasi, sujeti to'la ochib berilganligini ko'ramiz. Tarjimada qofiyadoshlik ta'minlangan, birorta obraz, badiiy detal tushib qolmagan. Asliyatga yaqin. Biz faqatgina asl nusxa bilan tarjima o'rntasidagi o'zgachaliklarga to'xtaldik. Sababi, muvaffaqiyatli tarjima qilingan baytlar shundoq ham ko'rinib turibdi. Mazkur tarjimani o'qib, qoraqalpoq kitobxonlari Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostoni bilan yaqindan tanishishlari, undagi ma'no-mazmundan to'liq bahramand bo'lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Salomov F. Tanlangan asarlar. Toshkent, 560-bet.
- (2). Tarjima san'ati. 5-kitob, Toshkent, Faqur Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 304-бет.
- (3). Na'ayay A. Jetti ықлым. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1968, 220-бет.
- (4). Salomov F. Комилов Н. Дўстлик кўприклари (поэзия ва таржима). Toshkent, Faqur Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979, 224-бет.
- (5). Navoiy A. Sab'ayi sayyor. T., Faqur Fulom nomiдаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991, 397-бет.
- (6). Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. III том, Нөкис, "Қарақалпақстан", 2023, 400-бет.

**Muslimova Shahnoza Sunnatovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti erkin tadqiqotchisi;
e-mail: shahnozamuslimova@gmail.com)**

YOM SANSOPNING "QORONG'I TUN" HIKOYASIDA TARIXIY SHAROITNING BADIY TALQINI

Annotatsiya. XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan koreys yozuvchisi Yom Sansop hikoyalari da uslub va shaklning yangiligi muallifning koreys jamiyatida kechayotgan voqelik, o'z vatanidagi ishlarning holatidan uzoqligi bilan izohlanadi. Bu yozuvchining tarjimai holi bilan uzviy bog'liqdir, chunki uning o'smirlik yillari Yaponiyada kechgan. U o'n besh yoshida Yaponiyaga ketadi va Kioto shahrida 8 yil yashaydi. Ayni shu davrda u o'z adabiy faoliyatini boshlaydi. Yem San Sop o'z vataniga 1923-yili qaytib keldi.

Kalit so'zlar: shakl, mazmun, mart harakatlari, tarjimai hol, varrak, bolakay, chusok.

**Муслимова Шахноза Суннатовна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь;
e-mail: shahnozamuslimova@gmail.com)**

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРЕДПОСЫЛОК В РАССКАЗЕ ЕМ САН СОПА «ТЕМНАЯ НОЧЬ»

Аннотация. Новизна стиля и формы в рассказах корейского писателя Ём Сан Соп, который занимался творчеством в первой половине XX века, объясняется отстранённостью автора от реальности корейского общества и положения дел на родине. Это неразрывно связано с биографией писателя, ведь его юношеские годы прошли в Японии. Он уехал в Японию в возрасте пятнадцати лет и прожил в Киото 8 лет. Именно в этот период началась его литературная деятельность. Ём Сан Соп вернулся на родину в 1923 году.

Ключевые слова: форма, содержание, мартовские движения, биография, бумажный змей, мальчуган, Чхусок.

**Muslimova Shahnoza Sunnatovna (Graduate School of Korean Studies, Freelance researcher;
e-mail: shahnozamuslimova@gmail.com)**

ARTISTIC INTERPRETATION OF HISTORICAL CONDITIONS IN YOM SANSOP'S STORY "DARK NIGHT"

Annotation. The novelty of the style and form in the stories of the Korean writer Yom Sansop, who created in the first half of the 20th century, is explained by the author's distance from the reality of Korean society and the state of affairs in his homeland. This is inextricably linked with the biography of the writer, because his teenage years were spent in Japan. He went to Japan at the age of fifteen and lived in Kyoto

for 8 years. It was during this period that he began his literary career. Em San Sop returned to his homeland in 1923.

Keywords: form, content, March actions, biography, sheet, boy, chusok.

Kirish (Introduction). XX asrning ikkinchi o'nyilligida zamonaviy koreys adabiyotiga g'arb adabiyoti, madaniyati va san'ati ta'siri kuchaydi, nasriy va nazmiy janrlarda ifoda usullari, qarashlar o'zgardi, estetik tafakkur yangilana boshladi. Siyosiy mafkuralar o'zgargan bir paytda ijod ahli tomonidan turli maktab va yo'nalishlarga, adabiy guruhlariga asos solindi. Qator adabiy guruhlar esa G'arb mamlakatlari, Yaponiya, Rossiyada mavjud maktab va yo'nalishlar asosida tashkil etildi. Ba'zi guruhlar nomi aynan faoliyat yuritayotgan adabiy guruhlar nomi bilan ataldi, xususan, Rossiyadagi "Oq qayin" guruhi Yaponiyada "Sirakaba", Koreyada esa "Oq to'lqin" nomi ostida faoliyat olib bordi. Yaponiyadagi "Sirakaba" guruhi kabi Koreyadagi "Oq qayin" guruhi faoliyatining 1923-yili to'xtatilishi bildirilgan fikrni dalillaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning birinchi o'nyilligida Tokio maktabi bitiruvchilari asos solgan "Oq qayin" ("Sirakaba" guruhi a'zolari shu nom ostida jurnal ham chop ettirishdi. Jurnal sahifalarida yapon kitobxonini g'arb madaniyati va san'ati bilan tanishtirish ishlari faol olib borildi. Jumladan, yapon kitobxonini Vinsent Van Gog, Pol Gogen, Ogyust Renuar, Ogyust Roden, Pol Sezann kabi ijodkorlar yaratgan asarlar, Genrik Ibsen, Moris Meterlinke, Fridrix Nisshe, Romen Rollan, Lev Tolstoy kabi mashhur yozuvchilar haqida materiallar bilan tanishishga muvaffaq bo'lishdi. Afsus, jurnal uzoq vaqt davomida chop ettirilmadi, Kanto zilzilasidan so'ng, u o'z faoliyatini to'xtatdi. Taniqli adabiyotshunos olim Xond Syugo fikriga ko'ra, "Oq qayin" ("Sirakaba") guruhi a'zolari ijodida ikki xil qarash mavjud edi:

1. Kamolotga erishish (o'zimdagi barcha narsalarni o'zim yarataman).

2. Inson faoliyatining umumiy xarakteri muhimligi) adabiy guruhi nomi rus adabiyoti, xususan, Lev Tolstoy ijodi bilan bog'liq. Bo'lajak yozuvchi Yaponiyada tahsil olish paytida rus yozuvchisi Lev Tolstoy falsafasidan qattiq ta'sirlangan, "Oq qayin" adabiy guruhi a'zosi, taniqli yapon yozuvchisi Takeo Arisima ijodini chuqur o'rgandi. Takeo Arisima XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'z asarlari hamda siyosiy faoliyati bilan ommaning diqqatini o'ziga tortgan adib. Yapon adibi ijodi va faoliyati ijtimoiy kelib chiqishi ma'lum ma'noda yaqin bo'lgan Yom Sansop e'tiborini o'ziga tortgani bejiz emas. Buni koreys adabiyotshunos olimi, tanqidchi Kim Yunsikning fikrlari ham tasdiqlaydi. Olimning fikricha, Yom Sansop yapon yozuvchisi Arisimaning 1918-yili chop etilgan "Azobning tug'ilishi" hamda "Tosh bosgan yulg'un" romanlari koreys yozuvchisi hikoyalarining mazmuni, ayniqsa, poetika va ichki shakliga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Olim ichki shakl deganda tavba-tazarru, jumladan, epistolyar va ichki monologni nazarda tutadi. Bu shakl shaxsning o'z-o'zligini anglab yetishi, uni kashf etishi bilan belgilanadi.

Arisima romanlarida qahramonlar turli ruhiy holatlarda tasvirlanadi, muallif ularning ichki olamini mohirona ochib beradi. Yom Sansop esa o'z hikoyalarida shaxsning ruhiy olamini ishonarli tasvirlashda qahramonlarning ichki monologiga alohida e'tibor qaratadi. Zero: "...badiiy psixologizm mazmun bo'lsa, dialog, monolog... kabilar shu mazmunning yozuvchi tomonidan voqealantirilgan shakllaridir" [3;11-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yom Sansop Yaponiyada yashagan davrida, ya'ni, 1919-yili yozgan "Qorong'i tun" hikoyasida inson psixologiyasi yorqin aks ettirilgan. Hikoyada bosh qahramon o'zi yashagan muhitdan ancha yiroqlashgan (muallifning Koreyadan ketib, Yaponiyada yashagan davrlari nazarda tutiladi) – endi u (mamlakatida) avvalgi hayotga qayta olmaydi, ammo shu bilan birga, yangi muhitga ham moslasha olmaydi: "Adolatparvarlar, deb ataluvchilar". Sening noming naqadar ulug', vazifang naqadar tantanavor. Umring uzaytirilganda ham komillikni anglolmagan sening ruhing, obro'ying naqadar jasoratli, naqadar hayajonli. Biroq nima uchun izlanish kerak? Izlanishda ma'no bormi, izlanmaslik ma'nosizlikmi? Izlanmaslik ahamiyatli bo'lishi bilan birga, izlanish yanada ahamiyatsizlik emasmi?

Bunday xohishi yo'q odam, istiqboli so'ngan odam, muhabbat hissini yo'qotgan odam, faqat qalb iztiroblari qolgan odam... bunda qandaydir ma'no va kuch bormi, nega u go'zal va ulug'vor..." [4;71-b.].

Mana shu ruhiy holat bosh qahramonning ko'p tamaki chekishi va ichimlikka berilishiga sabab bo'ldi. Hikoyadagi har bir detal ruhiy zo'riqishning kuchayishiga xizmat qiladi. Tushkun, norozilik kayfiyati shu darajada chuqur tasvirlanadiki, natijada u o'zini hayvonot bog'ida "qafasda o'tirgan qora ayiq"qa o'xshatadi. Chetdan kuzatgan inson oyoqlarini uzatib, devorga suyangan holda, chuqur o'yga tolib o'tirgan bosh qahramonni sevgidan iztirob chekayapdi, deb o'ylaydi. Ammo tosh qotgan qahramon iztiroblardan batamom behush holdagi asirni yodga soladi. Bu hayot mashaqqatlari, jadal rivojlanishiga yuz tutgan ijtimoiy murakkabliklarning ko'zgudagi aksi edi.

XX asrning boshlarida yangi taraqqiyot sari dadil qadam tashlagan koreys jamiyati turli to'siqlarga duch keldi. Feodal qoloqlik qobig'ini yorib chiqqan mamlakat bir tomondan yapon mustamlakasiga duch kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelgan g'arb sivilizatsiyasi bilan

to'qnashdi. Natijada mamlakat ziyoli qatlami ikki guruhga ajralib ketdi: an'anaviy tuzum va boshqaruvni qo'llab-quvvatlovchi arxaistlar, yangilik tarafdorlari ma'rifatparvarlar. Har ikki muhim omil – mamlakatdagi tartibsizliklar o'zagini tashkil etdi. Milliy qadriyatlar inqirozga uchradi, xalq halokat yoqasiga kelib qoldi.

Jamiyatni bezovta qilgan muammolar ijod ahli qalamini yanada charxladi. Mana shunday adiblardan biri Yom Sansop Yaponiyada tahsil olish davrida millat dardi bilan yashadi, vatanidagi istilo qiluvchilarning noto'g'ri siyosati sabab behush asir holidagi xalq qahramonlari obrazini yaratdi. A.Rasulov asosli ta'kidlaganidek: "...badiiy asar – yozuvchining botiniy holati ko'zguisi. Badiiy asarni anglash, talqin qilish, baholashda yozuvchi tarjimayi holi beqiyos ahamiyatga ega. Haqqoniy yozilgan tarjimayi hol badiiy matn ruhini, mohiyatini ochishda bebaho manba"dir [2;71-b.].

Yom Sansop yashagan muhit, davr yoshlari, xususan, uning mamlakatdagi holatga munosabatini ko'rsatuvchi ayrim xususiyatlar "Qorong'i tun" hamda "Tajribaxonadagi qurbaqa" hikoyalarida bo'rtib namoyon bo'ladi. "Qorong'i tun" hikoyasi bosh qahramoni (hikoyada bosh qahramon X tarzida, qolgan qahramonlar ismi esa bosh harflarda beriladi)ning yolg'izlik bilan yuzma-yuz qolishga intilishida bu yanada oydinlashadi: "U xayol surgancha, g'azabini jilovlash uchun lablarini mahkam tishladi, telbalardek pichirlar ekan, o'ng tarafda soyga olib chiqadigan sokin yo'l borligini esladi. Katta yo'lni kesib o'tib, har ikki tarafdan karton bilan to'sib qo'yilgan tor ko'chaga qarab yurdi. Albatta, bu borishi kerak manzil emas. U odamlar soyasi ham bo'lmagan yo'ldan yolg'iz ketmoqchi edi. Bu yo'l umrbod davom etsaydi, deb xayol surgancha birdan harakatni keskin to'xtadi. Bir zum qayerga ketayotganini anglamasdan, ikkilanib turib qoldi, uyga ham borgisi kelmayotganini his qildi. A.ni borib ko'rishga qaror qilib, ko'prikdan o'tdi..." [4;79-b.].

Mamlakatda erki poymol qilingan, yashab turgan muhitga norozilik yoshlar o'rtasida avj oldi. Erkka tashna, ammo tuzum poymol qilayotgan hurlik yoshlarni "katta yo'ldan" "tor ko'chaga" o'tishga majbur qildi. Shuning uchun ham hikoya bosh qahramoni "Bu yo'l umrbod davom etsaydi..." deb orzu qiladi. O'zga yurtda panohtopmagan, boshqa madaniyat va urf-odatlardan ko'ngli suv ichmagan yoshlar ona vatani, qadrdon uyiga ham qaytgisi kelmaydi. Bunday toifadagi yoshlar orasida adibning o'zi ham bor bo'lib, vatanidagi haqsizlikka qarshi kurashda boshialar kabi yolg'iz edi.

Jamiyat to'qnash kelgan tolesizlik, ijtimoiy muhitning asl qiyofasi, insonlarning ruhiy holatini ko'rsatish uchun adib varrak detalidan unumli foydalanadi. Detal Chusok (kuz oylarida o'tkaziladi. Hosil bayramiga to'g'ri keladi) bayrami tafsilotlari bilan birga beriladi. Koreys xalqi urf-odatlariga ko'ra, Chusok bayramida barcha yig'ilib, kuzgi hosilni sarhisob qilishadi, yetishtirilgan hosilni bir-biriga ulashadi, turli taomlar tayyorlanadi: "Chusok bayramini qarshi olganiga deyarli ko'p vaqt o'tmagan bo'lib, osmon ko'm-ko'k tiniq va bulutsiz edi. Yolg'iz darada, ko'chening u betidagi yalanglikda kimchi uchun quritilayotgan qalampir dalasi chekkasida bolakay bekor o'tirardi. U orqa hovlida yashaydigan oqsoq bola edi. Unga ko'zlari tushgan bolakay kimsasiz orolda inson hidini tuygandek, noqulay ahvolda oyoqlariga tayanib zo'rg'a turidda, yarim bukilib ta'zim bajo keltirdi. U ham biroz jilmayib, salomga alik oldi, bola o'tirgan joydagi g'altakka ishora qilib, dedi:

– Sen halitdan varrak uchiryapsanmi?

– Albatta, Chusok bayrami o'tdi-ku! dedi-da, bola tabassum bilan g'altakni aylantira boshladi.

– Varrak sherik bo'lganda uchadi, sen bir o'zing uchirmoqchimisan?" [4;72-b.].

Bir qarashda, osmon musaffoligi ko'ngilga taskin beradi, ammo shunday ochiq havoda, dalada hech kim ko'rinmaydi. Bolakay yolg'iz, shuning uchun ham unga ko'zi tushganida, avval, noqulaylik hissi, keyin, esa kimsasiz orolda o'zidan boshqa odam ham borligidan xursand bo'lishi tabiiy chizilgan. Bolakay bu so'zlardan jahli qichib, varrakni uchirish maqsadida g'altakni qayta-qayta aylantirdi. Bolakayning varrakni uchirish uchun qilgan harakatini quyidagi tartibda izohlash mumkin:

1. Bir o'zi varrak uchirayotgan bolakay o'zini biroz kamsitilgandek his qildi. Shu sababli u yalanglikda oqsoqlana-oqsoqlana yolg'izligini bildirmaslik uchun shoshqaloqlik bilan tepadan pastga qarab yugurish asnosida varrakni uchirishga harakat qildi. Dastlab, aylanma uchish kuchi ta'sirida varrak biroz uchgandek bo'ldi-yu, tap etib yerga tushdi [4;73-b.]. Varrak detalida ma'naviy olamini yo'qotgan, qaddi egilgan xalqning chorasizligi ko'rsatiladi. Ma'rifatparvarlik sari intilayotgan omma an'anaviy tuzumni qo'llab-quvvatlayotgan millatdoshining qarshiligiga uchradi.

2. Bolakay bir zum orqaga chekindi, muvaffaqiyatsiz harakat sabab qovog'i uyuldi. Bu safar varrak biroz balandroq ko'tarildi, ammo shu onda yerga teskari tomon bilan tushdi. Bolakay noqulay ahvolda qoldi, ammo jilmayishga harakat qildi" [4;73-b.]. Mamlakat ichkarisidagi qarama-qarshilik bilan birga yapon hukumatiga o'z jilovini tutqazgan ma'rifatparvarlar harakati inqirozga uchradi. 1919-yil 1-mart harakat-

larining besamar ketishiga ichki qarshilik sabab bo'ldi. Varrak biroz balandroq ko'tarildi jumlasida ikki million aholini namoyishga chorlagan, kurashga ko'targan mamlakat ziyolilar qatlamining omadsizligi tasvirlanadi.

3. Bola varrak uchirish joyini o'zgartirdi, u deraza oldiga kelib, endi qiyinchilik bilan g'altakni aylantira boshladi. Shamolsiz issiq havoda varrak, umuman, uchmadi. Oqsoq bolakay ilojisiz varrakni tortib, o'zi ham sudralib keta boshladi. Varrak bir zumda bola bo'yi barobar ko'tarildi, gir-gir aylanib, yana yerga tushdi. U parishonxotirlik bilan varrakning ort qismi va bolaning tovoniga tikilib qarab qoldi [4;73-b.]. Kurash maydoni o'zgartirildi, u Rossiya hududida Vladivostokka, Manjuriyaga ko'chirildi. Varrakni ko'tarishga har tomonlama harakat qilayotgan oqsoq bolakay obrazida jamiyatda ma'naviy muhitni tiklashga harakat qilayotgan, ammo bu harakatga qo'shilmasdan, chetdan turib jim turib kuzatayotgan insonlar qiyofasi o'z aksini topadi.

Varrak hikoyada voqealar rivojini ta'minlashga xizmat qiladi, asarning avj nuqtasini belgilashda alohida o'rin tutadi. Bu bosh qahramon ichki monologida kuzatiladi: "Ko'tarilmayapgan varrak, uni ko'tarishga harakat qilayotgan oqsoq bolakay, osonlik bilan ko'tarilmayotgan varrak uchun cheksiz tashvish tortish...baxtni his qilish...Ammo men o'sha bolakayni bechora deyishga haqqim bor deb o'ylaganim – bu butkul xatolik" [4;74-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). Yom Sansopning mazkur hikoyasida ichki nutqning murakkab shakli – ichki monolog qo'llanilgan bo'lib, personajning ichki monologi to'lig'icha o'z tilidan bayon etilgan. "Ichki monolog – personajning moddiylishmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli. Shartli ravishda inson ongida kechayotgan o'ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi" [1;260-b.]. Ma'lumki, o'quvchiga ma'lumotni yetkazib berishga qarab, ichki monolog monolog-mulohaza, monolog-muhokama, monolog-xotira kabi turlarga ajratiladi. Keltirilgan parchada monolog-mulohaza hamda monolog-muhokama orqali bosh qahramonning tashqi olamga, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati anglashiladi. Hikoyada hikoyachi-muallif hamda hikoyachi-personaj nutqi qorishiq holda keladi. Bu yozuvchining o'ziga xos uslubini ko'rsatadi.

Muallif hikoyada ichki monologning turli ko'rinishlaridan foydalanadi: varrak va bolakay haqida o'ylarini monolog-mulohaza orqali ifodalaydi; o'tgan kunlari, qalbi muhabbatga oshna bo'lgan davrlarini monolog-xotirada beradi, ichki kurashlar, tavba-tazarru, istig'for esa monolog-muzokarada o'z aksini topadi.

"Achinarli!..Sen mening hayotimda bir yil ham yashamading...o'zi men seni sevdimmi...Sevgan bo'lsam, sababi nimada? A! Sababsiz sevgi sof sevgi deyishadi...Ammo bizning sevishga haqqimiz bormi? Qarama-qarshi jins vakili oldida qaltiraydigan, onasining ko'krigidan tushgan holicha beg'ubor, bokira qiz! Esiz!" [4;75-b.].

U xotira monologda N. haqida tez-tez o'ylaydi, chunki bir vaqtlar do'sti uning cho'ntagiga qizning suratini solib qo'ygan. Gohida suratni olib stol ustiga qo'yadi, unga uzoq tikilib qaraydi. Suratdagi qiz katta-katta ko'zlarini ochib, uning harakatlarini kuzatayotgandek tuyuladi. Yigit yana xayol suradi: "Sevgi, unashtirish... Eh, men kabi yigitga bu ortiqchalik qiladi..." [4;75-b.]. Yigit ayni damda o'zining jur'atsizligini tan olgisi kelmaydi, ammo, shu bilan birga, qizni baxtli qila olmaganligidan afsuslanadi. Xotira monologda N.ning portretini "suratdagi ko'zlari katta-katta qiz", "Qarama-qarshi jins vakili oldida qaltiraydigan, onasining ko'krigidan tushgan holicha beg'ubor, bokira qiz" tarzida tasvirlaydi.

Bosh qahramonni qizning unga bo'lgan sof, ammo javobsiz muhabbati qiynaydi, o'zining noinsoflik bilan qilgan munosabatidan azoblanadi, N.haqidagi o'ylar unga mudom tinchlik bermaydi. Hatto kechasi bedor uyg'ongan qahramon xonasida chiroq nuri tushgan stol ustidagi suratga qarab yana xotira monologda o'zini sharmanda bo'lgandek his qiladi, bu hissiyotni adib qahramon tanasini qoplagan sovuq terda yanada bo'rttiradi: "Stol ustidagi surat...uning ko'zlari hamon ochiq, uning har bir harakatiga sovuqqonlik bilan qarab turardi. U suratga qarama-qarshi o'tirdi-da, cho'chib tushdi. Bu inson butun hayotini, taqdirini menga bag'ishlagan!..Mana menga! U bu dunyoda menga Osmon (xudo ma'nosida), deb qaraydigan yagona odam! Suratga qarab o'ylanar ekan, badani bo'ylab sovuq ter oqayotgandek bo'ldi" [4;84-b.].

Muallif hikoyada Uning xarakterini ochib berishda tamaki detalini qo'llaydi. U har safar jahli chiqqanida, bir qarorga kela olmaganida, chuqur xayol surganida tamaki chekadi: "...yana tamakini labiga qishtirdi va hovliqib nimanidir axtara boshladi" [4;71-b.], "u tamakini bir amallab chekarkan, yerga to'kilgan siyohga bir zum tikilib o'tirdi-da, tozalashga kirishdi" [4; 72-b.], "...birdan, o'rnidan turib, ko'chaga qarab ochiq derazaga suyangan holda tashqarini kuzatdi, tamaki chekdi" [4; 72-b.], "...shosha-pisha kostyumini kiydi va tamaki qutisini cho'ntagiga solib...xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi", "Tamakidan toliqqan boshi og'rir, go'yo tomog'iga qo'rg'oshin bo'lagi tiqilib qolgandek og'ir va qiynalardi" [4;84-b.] va h.k.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bo‘hronlar davrida yashagan, ichki ziddiyat va kechinmalarga boy Gamlet kabi, koreys muallifi hikoyasining yosh qahramoni ham og‘ir davr – o‘tish davri odami. “Qorong‘i tun” hikoyasida namoyon bo‘lgan gamletona ohang “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasi qahramoni obrazida yanada rivojlantiriladi va chuqurlashtiriladi. Har ikki hikoya qahramoni ismlari ingliz alifbosining ayni bir harfi – X bilan belgilangan. “Qorong‘i tun” va “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyalarining qahramonlari o‘z ma’naviy qiyofasiga ko‘ra o‘xshash bo‘lsa-da, ikkinchi hikoya qahramonining obrazi ancha keng berilgan. Ammo bu yerda ham qahramonning ma’naviy iztiroblari va yolg‘izligi sabablari haqida aniq bir narsa deyilmagan.

Adabiyotshunos olim Kim Donin fikriga ko‘ra, “Qorong‘i tun” hikoyasi qahramoni obrazi puxta ishlanmagan, shu sababli hikoyada gamletona ohang kuchli yangramaydi. Yom Sansop “Qorong‘i tun” hikoyasi g‘oyasini ochib berishda, qahramonlar ruhiyatini ochishda yangi shakl va yangi uslubdan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Тошкент, 2015, 356-бет.
- (2). Расулов А. Ҳозирги ўзбек танкидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси (XX аснинг 80–90-йиллари асосида). Филол.фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс..., Т., 2002, 44-бет.
- (3). Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф., Бухоро, 2020, 44-бет.
- (4). 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 325 쪽.

**Shin Viktoriya Aleksandrovna (TDSHU Koreyashunoslik oliy maktabi
erkin tadqiqotchisi; shinviktoriya94@gmail.com)
LI SAN IJODIDA “YANGI AYOL” OBRAZI TALQINI**

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy muhit, adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq koreys adabiy jarayonlarida ayol obrazining psixologik jihatdan shakllanishi masalalari Li San ijodi misolida ko‘rib chiqilgan. Chunki ayol psixologiyasini o‘rganish muayyan, xususan, Li San yashagan davr bilan bog‘lab o‘rganish nasrning badiiy poetik ko‘lamini belgilashda muhimdir. Adib qalamiga mansub hikoyada ayol ruhiyatini aks ettirishda monolog, epilog, peyzaj, detal kabi badiiy tasviriy vositalardan o‘rinli foydalanish muallifning hikoyachilik mahoratidan darak beradi.

Kalit so‘zlar: o‘ttiz uch, to‘qqiz, olti, xonadon, aspirin, adalin, qanotlar, quyosh, darvoza.

**Шин Виктория Александровна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь;
shinviktoriya94@gmail.com)**

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА «НОВОЙ ЖЕНЩИНЫ» В ТВОРЧЕСТВЕ ЛИ САН

Аннотация. В данной статье на примере творчества Ли Сан анализируются аспекты психологического формирования женского образа в корейской литературе, которые тесно взаимосвязаны с социальной средой, а также литературной и культурной жизнью. Исследование женской психологии играет важную роль для понимания художественно-поэтического содержания прозы. Умелое использование различных художественных приемов, таких как монолог, эпilog, описание природы и деталей, для передачи внутреннего мира женщины демонстрирует мастерство писателя в искусстве повествования.

Ключевые слова: тридцать три, девять, шесть, дом, аспирин, адалин, крылья, солнце, ворота.

Shin Viktoriya (Graduate School of Korean Studies, Freelance researcher; shinviktoriya94@gmail.com)

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF “NEW WOMAN” IN LEE SAN’S

Annotation. Using the example of Lee San’s work, the article examines the issues of psychological formation of the image of a woman in Korean literary processes closely related to the social environment, literary, spiritual and cultural life. Because the study of female psychology is important in determining the artistic and poetic scope of prose. The appropriate use of artistic visual means in the narrative by the author’s pen, such as monologue, epilogue, landscape, details to reflect the female spirit, shows the author’s skill in narration.

Key words: thirty-three, nine, six, house, aspirin, adaline, wings, sun, gate.

Kirish (Introduction). Dunyo san’atida ayol obrazi kirib bormagan sohaning o‘zi bo‘lmasa kerak. Ma’lumki, badiiy adabiyotda ayol obrazi yetakchi o‘rin egallaydi. Zero, Zuhridin Isomiddinov o‘rinli ta’kidlaganlaridek: “Ayol bo‘lmasa, adabiyot bo‘lmas edi. Adabiyot, avvalo, ayolga atab, ayol uchun, uning ko‘nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan hilqat ne o‘zi – shuni anglash uchun yaratilgan. Abdulla Qahhor

aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san‘ati, avvalboshi, er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi. Shu bois adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzui ayoldir” [3;372-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Darhaqiqat, ayol – adabiyotning markaziy masalasi sifatida o‘rganish obyektiga aylandi. Bu fikrni Arab tadqiqotchisi A.A.Xalafning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “Sharq san‘atida ayol obrazi Markaziy o‘rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko‘p ma‘nolarga ega bo‘lib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni ma‘naviy yuksak darajada bo‘lsa-da, “narsa” sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchi tomondan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri, ayniqsa, she‘riyat va tasviriy san‘at sintezida keng qo‘llanilgan” [4;118-b.].

Arab tadqiqotchisining “...ikkinchi xususiyatda ayol tasviri, ayniqsa, she‘riyat...keng qo‘llanilgan”, degan fikrlari o‘rta asrlarda ona tilidagi she‘riyat – sijo mualliflari Xvan Jini (1506–1544, adabiy taxallusi Myonvol), Li Keran (1573–1611, adabiy taxallusi Mechxan) va Chin Oklarga ham tegishli [1;27-b.]. Mumtoz davr koreys she‘riyati tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, aslida, kisen bo‘lgan bu shoirlar qalamiga mansub sijolar olam baxtli bo‘lishi uchun qilingan “...qarg‘ish, duo”lardir. Ular nazdida hayot bu ikki – ayol va erkak uyg‘un harakati demakdir [1;30-b.].

XVII – XVIII asrlarda yaratilgan Kim Manjun qalamiga mansub “Yun Xonim haqida” roman muallif onasining hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, yozuvchi ona obrazida “namunali ayol” portretini yaratadi. “Sa xonimning janub bo‘ylab sargardonliklari” romanida go‘zallik va donishmandlik timsolining jamiyat va oila uyg‘unligini saqlab qolishdagi xatti-harakati ishonarli va mohirona ochib berilgan. Asar uchun o‘rta asrlarda yozilgan “Inxyon haqida qissa” asos bo‘lgan. Mazkur qissa bosh qahramoni tarixiy shaxs, ya‘ni, qirolicha Inxyon bo‘lib, o‘ng va so‘l qanot vakillari o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik, saroy fitnalari sabab, surgunga yuborilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, “namunali ayol”ga bag‘ishlangan bu qissani “...qirolga yaqin freylinlardan biri yozgan...”, deb taxmin qilinadi [5;174-b.].

Kim Manjunning “To‘qqiz kishining bulutli tushi” romani qahramonlari ham bir erkak va sakkiz padridan iborat bo‘lib, buddaviy rohiblik yo‘liga kirgan bosh personajning moddiy va ma‘naviy hayot o‘rtasidagi sinovlardan o‘tishida ayollar muhim vazifani bajaradilar. Bu romanlar koreys adabiyotida muallifi noma‘lum qissalar taraqqiyotini belgilab berdi.

Ma‘lumki, XVI–XVIII asrga tegishli hodisa – she‘riyatdagi Kyuban kasa “uyning ayollar burchagida kuylangan qo‘shiqlar” janrida ayolning og‘ir qismati, uchrashuv va hijron, vafodorlik, uning kelishini kutish kabi masalalar yetakchilik qildi. XX asr boshida mamlakatda yuz bergan tarixiy hodisa, ijtimoiy muhit, ma‘rifatparvarlik harakatlari sabab adabiyotda ayolga bo‘lgan an‘anaviy muhabbat, ayriliq va hijron mavzulari keyingi planga o‘tib qoldi. K.P.Karagoda “Yangi zamon san‘atida ayollar obrazining ijtimoiy-madaniy sharti” nomli tadqiqot ishida yangi zamon adabiyoti va san‘atida ayollar o‘rning o‘zgarishini alohida ta‘kidlaydi. Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, “...Yangi davr san‘atida ayol tipologiyasini ikkiga, ya‘ni “yangi” va an‘anaviy ayol obrazlariga ajratish mumkin. “Yangi” – jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni aks ettiradi va shaxsning munosabati qanday o‘zgarayotganligini ko‘rsatadi. Ilgari vujudga kelgan va yangi zamon san‘atiga uyg‘un ravishda kirgan obrazlar an‘anaviy hisoblanadi” [2;19–20-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mumtoz davr koreys adabiyotida ayol obrazlari: muallifi noma‘lum qator qissalarda ayol kishi shaxs, ya‘ni, o‘z ichki olamiga ega inson sifatida teran ochilgan emas. To‘g‘ri, “Chxunxan haqida qissa”da kisen qizning yuqori tabaqa vakili o‘g‘liga bo‘lgan sadoqatli muhabbati, ‘Sim Chxon haqida qissa’da ota-ona oldida farzandlik burchi masalalari yoritilgan. Hatto “Paksi haqida qissa”da ham bosh personaj Paksi tashqi qiyofasi ko‘rimsiz, boy shaxsiy imkoniyatlarga ega bo‘lmagan shaxs sifatida tasvirlangan. Bu qissa nafaqat so‘z san‘atining umumiy qonuniyatlari, balki umumiy shartlar va milliy tarixiy yo‘lining xususiyatlarini aks ettirgani bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Qissa noma‘lum muallif tomonidan yozilgan. Asarning yaratilishiga Koreyaga manjurlar istilosi – Pyonjan urushi (1636–1637) boshlanishi bilan bog‘liq materiallar asos bo‘lgan. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, mazkur davrda yaratilgan qissa qahramoniga shon-shuhrat keltiradigan pirovard qilmish harbiy jasorat bilan bog‘liq, xolos.

Shunday ekan, o‘rta asrlar koreys qissalaridagi Chxunxan, Sim Chxon, Paksi, koreys romanlaridagi Sa xonim adabiy qahramon sifatida har qancha mashhurlikka erishmasin, shuhrat topmasin, ular kitobxon ko‘z o‘ngida jonli, o‘z ichki olamiga ega, faqat o‘ziga xos fe‘l-atvoriga ega inson sifatida gavdalanmaydi. Kitobxon esa ayni obrazni emas, u ifodalayotgan estetik ma‘no va g‘oyani baholashi mumkin [6].

Zamonaviy koreys adabiyotida ayollar yangi tipining shakllanishi va o‘zgarishiga, ularning o‘zligini anglashiga muhit katta ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada 1920-yillardan boshlab yangi ayol obrazi kashf etildi va

ayol o'zligini anglashi bo'yicha ilk tadqiqot ishlari boshlandi. Bu davrga kelib "sof adabiyot" vakili kim donin qalamiga mansub "Bir savat batat" hikoyasida ayol shaxsi davr muhiti, ijtimoiy chigalliklar, yuzaga kelgan vaziyat sabab "tuban" likka mahkum qilindi [7;15-b.].

Hikoyaning markazida Ponnyo ismli qizning taqdiri yotadi, ilk boshdan muallif fojiviy vaziyatlar – "o'ziga to'q" dehqonlardan chiqqan va xonavayron bo'lgandan keyin shaharning qo'rqinchli xarobalarida yashagan ota-onasining ayanchli ahvoriga asosiy etiborni qaratadi. O'n besh yoshida Ponnyo bir "qari bo'y-doq erkakka 18 von evaziga" sotilgan. Ammo u odam tanballardan biri edi. Oila qashshoqlik ichida yashaydi. Keyin ular Pexnyanga ko'chib ketishga qaror qilishadi. U yerda Ponnyo tilanchilik qilishga majbur bo'ladi, ipak qurti boquvchisining yoniga mardikorlikka o'tadi, boshqaruvchining ko'ngilxushlovchisi ham bo'ladi. Bir kuni kartoshka o'g'irlayotganda uni Van ismli xitoylik ushlab oladi. Ponnyo unga ko'ngilxushlovchi bo'lishga majbur bo'ladi.

Xitoylik Van boshqa bir qizga uylanadi, Ponnyo bundan g'azablanib, uni o'ldirish uchun qo'lda o'roq bilan boradi. Ponnyo Vanning qallig'ini rosa do'pposlaydi, Vanni esa o'ldirmoqchi bo'ladi. Van uning qo'lididan o'roqni tortib oladi va qizning qotiliga aylanadi. Badiiy detal sifatida olingan o'roq jinoyatga oldindan tayyorgarlik ko'rilganidan darak beradi. Asarning mazmuni Ponnyoning o'limi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni fosh qiladi, jamiyatda ayollarning ayanchli ahvoli, pulning har narsadan ustunligiga qaratilgan. Asarda muallif "kulba" ahlining hayotini haqqoniy tasvirlaydi.

Shuningdek, adibning "Zaifa g'ami" hikoyasida yolg'iz o'qituvchi ayolning boy xonadon farzandlariga saboq berishi hikoya qilinadi. Oqibatda, ayol uy egasining "ko'ngilxushlovchi"sig'a aylanadi. Ammo u hayot yo'lini boshqa erkak bilan bog'lashni istaydi. Kim Donin ilk bor insonning hissiy va ma'naviy qarashlari to'qnashuvini ko'rsatadi.

Kim Donin bilan zamondosh Na Doxyanning "Tush" hikoyasida qoloq oila, uning eski urf-odatlari, shavqatsizlik, tengsizlik, adolatsizlik, ma'naviy razolat ochib beriladi. Hikoya hayotning salbiy tomonlarini boshdan kechirayotgan qahramon nomidan olib boriladi. Bir yengil tabiatli ayol unga tegajoqlik qiladi, qahramon undan nafratlanadi. Uyg'a kelgan qahramon ayolning qo'li tekkan joylarini yuvib tashlaydi. U yer uchastkasini boshqaruvchining Imsil ismli qizi bilan tanishadi. Qiz unga oshiq bo'lib qoladi. Ammo "ular orasidagi munosabat xo'jayin va xizmatkor munosabati"dan boshqa narsa emas.

Ota-ona qizlarini bir dehqon cholg'a berishga qaror qiladi, ammo qiz buni rad etadi, natijada otasi tomonidan qattiq kaltaklanadi. Kaltak zarbidan qiz og'ir xastalanadi va vafot etadi. O'limidan so'ng qiz qahramonning tushiga kiradi, uyqusida har doim qizning o'zini chaqirayotgan ovozi eshitadi. Imsilning o'limi feodal urflarning noinsoniy sarqitlari, ijtimoiy tengsizlik, ayollarning huquqsizligini ko'rsatuvchi ramziy hodisadir.

Mazkur davr yozuvchisi Cho Myonxining "Naktongan" hikoyasi yangi koreys nasrining badiiy kashfiyoti bo'lish bilan birga, inqilobchi ayol obrazini aks ettirgan asar hisoblanadi. Ijtimoiy hayot asarda shartli shaklda emas, hayotiy haqiqatlar – ona tuprog'idan judo bo'lib, qatag'onga duchor qilingan, jafokash xalq turmushi, mustaqillik uchun harakatning faollashuvi, kurashga xotin-qizlarning ham jalb etilishi asosida berilgan. Jumladan, asar personaji Ro Ka ham kurashga bel bog'ladi. U Roza Lyuksemburg bilan qiyoslanadi.

Zamonaviy nasrda yaratilgan asarlarda ayollar obrazida ayollarning jamiyatdagi roli, o'rni o'sib, uning san'at va adabiyotdagi vazifasi o'zgarayotgani kuzatiladi. XX asrning birinchi yarmida yaratilgan asarlarda yaratilgan ayollar obrazini shartli ravishda quyidagicha 3 tipga ajratish mumkin: 1) muhit qurboniga aylangan ayollar; 2) axloqsizlik ko'chasidagi ayollar; 3) inqilobchi ayollar.

XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan Li San ijodida ham ayol obrazi transformasiyaga uchradi. Yozuvchining "Qanotlar" hikoyasida "yangi ayol" obrazi o'zining ijtimoiy-ruhiy talqini bilan ajralib turadi. Li San ayol obrazining o'ziga xosligini tasvirlar ekan, kitobxon e'tiborini yosh ayol va erkak yashaydigan manzilga qaratadi:

"Uyning o'n sakkiz xonadoni yelkama-yelka turib saf tortgan, derazalari va eshiklari, hatto pechkalari ham bir xil. Bu kvartiralarda yashaydigan odamlarning hammasi gulg'unchalar yanglig' yosh. Bu yerga quyosh ko'z tashlamaydi. Chunki odamlar o'zlarini xuddi quyosh haqida hech narsa bilmaydigandek qilib ko'rsatadilar. Eshiklari qarshisiga dor tortadilar va o'zlarini xuddi nam tortgan ko'rpa-to'shaklarini osib quritishlari kerakdek qilib ko'rsatib, quyoshning yo'lini to'sadilar" [9].

Yozuvchi berayotgan mazkur davrda yangi uslubda qurilgan uylar tasviri, bu yerda istiqomat qiladigan yoshlar hayoti o'quvchida makon va zamon haqida tasavvur uyg'otadi, hikoyada bayon etilishi kutilayotgan taqdir va kutilayotgan voqealarga ekspozitsiya vazifasini o'taydi. "Peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so'z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga, inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini

ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, biron-bir xiyobon yoki shahar kochasining tasviri ham peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqelar rivojini to'xtatib qo'yganча mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqelar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) mumkin. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir" [8;220-b.].

Hikoya ekspozitsiyasidan so'ng, muallif hikoya bosh qahramoni monologi orqali yosh ayol portretini chizadi: "...o'ttiz uchinchi uyning o'n sakkiz xonadonida yashaydigan ayollar ichida eng jajjisi va chiroylisi. Bu yerda quyosh nurlarini o'tkazmaydigan tunuka tom ostida mening ayolim yorug'lik manbayi va o'n sakkiz xonadonda ochilgan gullarning gullarning eng chiroylisi. Bu gulni parvarishlaydigan mendek jonzotning hayoti tuturiqsiz bo'lib tuyuladi" [9].

Muallif erkak monologida ayolning statik portretini mohirona chizadi. Bir qator tadqiqotchilar hikoyada modernizm yo'nalishi, erkak qahramon ruhiyati, "begonalashuv" masalasini tahlil doirasiga tortgan holda, ayol obraziga yetarlicha e'tibor qaratishmagan. Aslida, hikoya markazida ayol obrazi yetakchilik qiladi.

Keltirilgan parchada quyosh detaliga e'tibor qaratish joiz. "Bu yerga quyosh ko'z tashlamaydi", "...quyosh haqida hech narsa bilmaydigandek...", "quyoshning yo'lini to'sadilar". Yopiq xonadonlarning barchasi quyoshga qarama-qarshi qo'yilgan soyani eslatadi. Yozuvchi mohirlik bilan ramziy obrazga falsafiy mushohadasini singdiradi. Xuddi bu xonadonlarda istiqomat qiladigan yoshlar o'zlarining kirdikorlarini berkitish uchun "quyoshning yo'lini to'sadilar".

Ammo hikoya qahramoni erkak quyosh nuridan zavq oladi: "Xonaning bir qismiga ba'zan quyosh nuri tushadi. Ertalab, u dastro'moldek kattalikda paydo bo'ladi, peshindan keyin yanada kichrayadi va g'oyib bo'ladi. Tabiiyki, men quyosh tushmaydigan xonada yashayman. Biroq, shikoyat qilmayman. Ayolim ketishi bilan men darhol uning xonasiga kiraman, Sharq tomonga qaragan derazani ochaman. Derazani ochayotganimda, ayolim pardoz-andoz qiladigan stolchani quyoshning yorqin nurlari yoritadi, turli-tuman idishchalar yaltirab tovlana boshlaydi, bu manzara menga hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan laz-zat baxsh etadi" [9].

Bosh qahramonning quyosh nurlaridan lazzatlanishi tasviri juda ham yuksak badiiy bo'yoqdorlikda berilgan. Quyosh nurlariga intilayotgan erkak qahramonning qalbi "quyoshning yo'lini to'sgan" kabi taassurot uyg'otadi. Chunki xonadon sohibalari kunduzi eshiklaridan ichkariga mo'ralayotgan quyosh nurlari yo'lini to'sib qo'yib, surunkasiga uxlaydilar, kun botganda uyg'onib, xona chiroqlarini yoqib qo'yishadi. Kichkina chiroq yorug'ida xonadonlar sirli ko'rinadi, ammo barcha kechasi jonlanadi. Ma'lumki, an'anaviy koreys jamiyatida ayollar oila boshliqlariga so'zsiz itoat qilishgan, ular oilada o'rnatgan tartib asosida hayot kechirishgan. Ammo, mazkur hikoyada, aksincha, erkak ayolining ra'yiga qarab kun kechiradi. O'zgarayotgan jamiyatda oila tartiblarini ayol kishi o'rnatadi. Uyat, or-nomusdan voz kechgan ayol oilani boqish uchun tunu-kun ishlaydi, ammo u qayerda ishlashi, nima ishlar bilan mashg'ulligi erkakka noma'lum.

Hikoyada fojiani kuchaytirish uchun adib "darvoza" detalini kiritadi. Barcha o'n sakkiz xonadonda yashaydigan uy sohibalarining nomlari zikr etilgan darvoza tabaqasi doimo lang ochiq. Darvoza nomigagina qo'yilgan, hech qachon yopilmaydi. Shu sababli xonadonlarga kimlar tashrif buyurishi, va nega aynan kechki payt tashriflarning ko'pligi bosh qahramon uchun jumboq. Ammo, o'zining ayoli ham kechki payt uyida notanish erkaklarni qabul qiladi, ular bilan suhbatlashadi. Erkak esa o'z xonasidan chiqishi va ayoliga xalaqit berishi taqiqlangan. Jajji, go'zal sanam bunday "tartibsizlik"ni kechirmaydi: "Ayolim ishlaydimi? U ishlaydimi, yo'qmi, men qaerdan bilaman. Agar u ishsiz bo'lganida, menga o'xshab uyda o'tirgan bo'lardi. U esa uyda o'tirmaydi. U nainki o'zi ko'chaga chiqadi, balki uning oldiga odamlar kelishadi. Tashrif buyuruvchilar ko'p bo'lganda, men uzzukun o'z xonamda to'shakda yotishimga to'g'ri keladi" [9].

Bosh qahramon o'zini halok qiladi, bunga uning ichki dunyosidagi ziddiyatli kechinmalar sabab bo'ladi. Birinchisi, quyidagi matnda anglashiladi: "Biroq, uy eshigini ochib, men zinhor-bazinhor ko'rishim kerak bo'lmagan narsani o'z ko'zim bilan ko'rdim. Esankirab eshikni yopdim va boshim aylanayotgani uchun ko'zlarimni yumib, devorga suyandim. Ammo, oradan bir lahza o'tmasdan eshik yana ochildi va ayolim sochlari to'zg'igan bir ahvolda otilib chiqib, mening yoqamga yopishdi. Men sirpanib ketdim va polga yiqildim. Ayolim ustimga minib olib, meni savay boshladi. "Voy, jonim!" Unga qarshilik ko'rsatishga holim ham, xohishim ham yo'q edi. Men taqdirga tan berib, nima bo'lishini kuta boshladim. Shu vaqt ichkaridan bir erkak chiqdi va ayolimni quchoqlab olib, ichkariga olib kirib ketdi. Ayolim begona erkakka o'zini quchoqlashga izn berganini ko'rish jirkanch manzara edi" [9]. Ikkinchisi, "Bugun ertalab to'rt dona aspirin ichganim va so'ng uxlab qolganimni esladim. Kecha ham, o'tgan kuni ham, undan oldingi kun ham tinimsiz uxlagim kelgan edi. Shamollashim allaqachon o'tib ketgan bo'lsa-da, ayolim menga baribir aspirin berardi.

Bir kuni uxlab yotganimda qo'shni uyga o't tushibdi. Biroq men uyg'onmadim. Dong qotib uxladim. Bir oy aspirin deb o'ylab uyqu dori ichibman. Bu hazil emas!" [9]. Uchinchisi, "Kishilik jamiyati jonimga tekkan. Hayotdan ham bezor bo'lganman. Hammasi menga begona bo'lib qolgan" [9.]. Ayol o'z xatti-harakatini eriga mudom pul berish bilan berkitishga harakat qiladi, ammo bu pullar uning hayotiga rang bermadi. Iqtisodiy tanazzuldan og'irroq ma'naviy tanazzul og'ir asoratni – erkakning fojiali o'limini keltirib chiqardi. Erkakning ko'z o'ngida gunohga qo'l urgan ayol, ruhiy iztirobdan yiroq. Aksincha, erkak o'z joniga qasd qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). Hikoyada obraz va detallar bilan birga raqamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "...o'ttiz uchinchu uy...", "...o'n sakkiz xonadonida..." keltirilgan raqamlarni qo'shib hisoblasak, quyidagi manzara hosil bo'ladi "3+3", "6" raqamiga, "1+8" esa "9" raqamiga teng. Har ikki raqam o'z qiyofasini o'zgartirish xususiyatiga ega. Demak, yozuvchi o'zgaruvchan raqamlarda ayolning ikkiyuzlamachilik harakatlariga ishora qiladi. Bu faqat ayol va erkak oilasiga emas, balki davr fojiasiga aylangan muammodir. Li San yangi ayol obrazida mamlakatdagi tartibsiz ijtimoiy hayot bilan birga axloqsizlikning kuchayganligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, yozuvchi she'rlarida ham raqamlarga murojaat kuchli. Uning qalamiga mansub "13-raqamli she'r", "1933-yilning iyuni", "Qush parvozi balandligida" she'rlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

13 bola yo'lda jon-jahdi bilan yugurib ketmoqda.

(Yo'l esa boshi berk ko'cha).

1-bola qo'rqinchli deb aytdi.

2-bola qo'rqinchli deb aytdi.

3-bola qo'rqinchli deb aytdi.

4-bola qo'rqinchli deb aytdi [10;133-p.].

(7). <https://cyberleninka.ru/article/n/differentsirovannyj-podhod-k-obucheniyu-mladshih-shkolnikov-opytrealizatsii>

**Qo'ldasheva Maxmuda Nurmatjonovna (Namangan davlat Pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti (PhD); E-mail-kuldasheva80@bk.ru)**

TALABALARGA TABIAT VA JAMIYATNING O'ZARO ALOQADORLIGINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv jarayonining qonuniyatlari va mohiyatini belgilaydigan faoliyatning yetakchi g'oyalari, fanni o'qitish tamoyillari, "T+J" modeli haqida tushuncha, undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, o'quv ma'lumotlari talabalarining o'ziga xos xususiyatiga asoslangan o'quv elementlarining tipologiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tamoyil, o'quv elementi, tabiat, jamiyat, global muammo, innovatsion yondashuv, qonuniyat, o'quv faoliyati, "T+J" modeli, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayon.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЮ ПРИРОДЫ И ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье освещаются ведущие идеи деятельности, определяющие закономерности и сущность образовательного процесса, принципы преподавания предмета, понятие о модели "Т+Ж", рекомендации по ее использованию, типология элементов обучения, в основе которых лежит специфика обучающихся.

Ключевые слова: принцип, элемент обучения, природа, общество, глобальная проблема, инновационный подход, право, учебная деятельность, модель "Т+Ж", экономический, политический и социальный процесс.

AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING STUDENTS THE INTERACTION OF NATURE AND SOCIETY

Annotation. This article highlights the leading ideas of activities that determine the laws and essence of the educational process, the principles of teaching science, the concept of the Model "T+J", recommendations for its use, the typology of educational elements, the educational information of which is based on the peculiarity of students.

Key words: *principle, educational element, Nature, Society, global problem, innovative approach, law, educational activity, Model "T+J", economic, political and social process.*

Kirish (Introduction). Barchamizha ma'lumki, davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi etib belgilangan.

Mamlakatimizda so'nggi vaqtlarda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan xorijiy davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali mutxassislarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlarni olib borilishi dolzarb masalaga aylangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jahon miqyosida bo'lajak kadrlarni tayyorlash, shuningdek, geografiya ta'limini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida joriy etish orqali bo'lajak mutaxassislar tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini qo'llash masalalari G.S.Drori, Marta Ruiz-Corbella, Cropley A.Drapeau, B.Andresen, K.Brink, D.Patti, N.Castre, A.Rogers, C.Lanyi, N.Clifford, Sh.French, G.Valentine kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'quv jarayonining qonuniyatlari va mohiyatini belgilaydigan faoliyatning yetakchi g'oyalari (qoidalari) hamda talablari bo'lgan o'quv tamoyillarida aniq ifodalanadi. O'qitish tamoyillari asosida o'qituvchi o'quv mazmunini tuzadi va uni tashkil qilishni amalga oshiradi [3]. O'qitish tamoyillari, odatda, ta'lim muassasalarining nazariy rivojlanishi va amaliy tajribasi asosida aniqlanadi.

Yuqoridagi prinsiplarni amalda qo'llash jarayonida fanni o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etishda hozirgi kunga qadar muammoga aylanib borayotgan tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi insoniyat tomonidan to'liq anglab yetmayotganligi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda ta'limiy sohalarida buni e'tiborga olinmayotganligi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning uchun o'quv faoliyatini tashkil etishda o'ziga xos modelni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu maqsadda tadqiqot jarayonining talabalar o'quv faoliyatida fanni o'ziga xos qonuniyatlari, kon-sepsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi "T+J" modeli ishlab chiqildi. Ushbu model asosida talabalar fanda asosiy muammolardan biri hisoblangan tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning mohiyatini belgilaydigan faoliyatning yetakchi g'oya (qoida)lari va talablari bo'lgan o'quv tamoyillari asosida aniq ifodalanadi (1-ilova).

"T+J" yondashuvi 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi.

Ta'sir ko'rsatkichlari. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda nomutanosiblik kuzaatilishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni taqdim etish asosida talabalarning jamoada ishlash qobiliyati, o'z fikrini kreativ hamda kognitiv tarzda ifodalashini rivojlantirishga yordam beradigan holatda tuzilgan. Bu talabalarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. Shuningdek, tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirlashuvini ta'sir dinamikasi vositasida tahlil qiladilar.

Sabab. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi natijasida yuzaga keladigan muammolar hosil bo'lishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy, iqtisodiy hamda tabiiy omillarni aniqlash asosida talabalarning iqtisodiy va ijtimoiy soxalarni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Talabalar muammoning kelib chiqish sababini tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'zining nuqtai nazarini shakllantiradi.


Oqibat. Jamiyat va tabiat qonunlarini to'liq anglab yetmagan va unga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lmaganligi oqibatlarini o'rganish, qiyosiy tahlil qilish orqali talabalar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga, ekologik madaniyatni shakllantirilishiga, kasbiy kompetenlikni rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, kelib chiqadigan oqibatlarining oldi olinishi, yirik global muammolarning kamayishiga ma'lum miqdorda hissa qo'shadi. Shu bilan birga, oqibatlarni tasviriy va sxema, matnli ko'rinishda ifodalash hamda taqdimotini tayyorlashlari mumkin bo'ladi.

Istiqbollari. Talabalar tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligida ta'sir ko'rsatkichlari, sabab-oqibatlarini o'rganish hamda tahlil qilish asosida uning istiqboldagi jarayonlari, chora-tadbirlari, xukosa, tavsiya hamda takliflarini ishlab chiqadilar. Natijada ular shu yo'nalishda o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Mazkur model orqali talabalarning tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishda axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ular mavjud ko'rsatkichlar hamda muammolarni bartaraf etish, oldini olishni tahliliy nuqtai nazardan yon-

dashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini kengaytiradi. Ushbu ishlab chiqilgan modelni OTM geografiya yo'nalishi talabalari uchun joriy etish mumkin. Ushbu modelni qo'llashda muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilishi kerak.

"T+J" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv ta'lim muassasalarida qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar, bahs-munozara, aqliy hujum, innovatsion topshiriqlar ko'rinishida, muloqot ko'nikmasi esa savol-javob, bahs-munozara orqali rivojlanadi. Ushbu modeldan nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining barcha mavzularida, balki geografiyaning boshqa fan yo'nalishlarida qo'llash ham yaxshi samara beradi (1-rasm).



1-rasm. "T+j" modeli.

Ta'lim tizimida mazkur modelni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri. Yangi yondashuvni qo'llay olish, asosan, o'qituvchilarga bog'liq. Model natijasini talabaning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr talabasi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Fanni elementlari iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, hodisalar, geosiyosat hamda atrof-muhit bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli o'qitish usullari, talabalarni darsni o'zlashtirishiga qarab, o'quv elementlarining har xil turlari ishlab chiqiladi (1-jadval).

1-jadval

O'quv ma'lumotlari talabalarining o'ziga xos xususiyatiga asoslangan o'quv elementlarining tipologiyasi

t/r	O'quv elementi	Axborotni yetkazib beruvchi	Talabaga axborotlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar
11	Matn	Darslik, qo'shimcha mustaqil o'qish, davriy bosma materiallar.	O'qing, asosiy materialni tanlash, referat, geografik diktant, masala, jadval va reja tuzish.
22	Tasviriy illustratsiya	Rasmlar	Aniqlang, o'rnatish, taqqoslash, tavsif berish, tasvirlab berish, hikoya qilish, animatsiya tayyorlash va hokazo.
43	Jadval	Jadvallar, diagrammalar, chizmalar, sxemalar	Aniqlang, tavsiflash, qiyoslash, tahlil qiling, taksonomiyani ishlab chiqish va hokazo.
44	Og'zaki	O'qituvchi, ma'ruzachi	Vazifalarni tinglang va bajarish, savollarga javob bering, yozish savollar ro'yxati, reja tuzing, referat va boshqalar
55	Kompyuter	Ma'lumotlar bazalari, multimedia o'qitish vositalari	Faylni, rasmni o'qing, testni bajarish, amaliy ishlarni bajaring, audio ilovalarni tinglash va hokazo.
66	Audiovizual	Videolar, filmlar, slaydlar, yozuvlar, disklar	Savollarga javob bering, video ilovalarni tahlil qiling, sharhingizni yozing va hokazo.
77	Tabiiy	Geografik xususiyatlar, kuzatishlar	Geografik obyektlarni aniqlashni o'rganish, chizish, diagramma tuzing, tasvirlab bering va hokazo.
88	Aralash	Bir nechta saqlash vositalari	Turli xil, rasmi, video, ovoqli, matnli, jadvalli, sxemali va hokazo.

Pedagogning fan bo'yicha ko'rsatmasi individual o'zini-o'zi taklif qilishi sosida bo'lishi mumkin. Bunda, asosan, talabaning faol harakati, juftlikda va guruhlarda sheriklik faoliyati asosida ko'rsatmalarni quyidagicha belgilab beradi:

- fanni (darsni) va har bir o'quv elementini o'zlashtirish maqsadlari;
- turli darajadagi qiyinchiliklarni bajarish uchun topshiriqlar;
- ish uchun materiallar – manba havolalari, ilovalar;
- ish turi va shakli bo'yicha ko'rsatmalar (o'quv materialini qanday o'zlashtirish kerak-o'rganing, referat tuzing, loyiha ishlab chiqing, muammoni hal qiling, nostandart test topshiriqlari tuzing, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun diktant va masalalar ishlab chiqing va boshqalar);
- o'quv materialini o'zlashtirish darajasini belgilaydigan nazorat turlari (talabalarning yozma yoki og'zaki nazorati, o'zini o'zi boshqarish va baholash, o'zaro nazorat va boshqalar) [5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fan sifatida muayyan muammolarni hal qilish uchun quyidagicha mo'ljallangan:

1. Rivojlanishning har bir bosqichida rivojlanish tendensiyalari va metodologiya holati o'rganiladi.
2. Metodik tushunchalarni (til ta'limi metodi, yondashuvi, metodik tizimi) talablariga mos ravishda o'zgartirish.
3. Turli ilmiy va metodik maktablarning pozitsiyalarini hisobga olgan holda kategoriya apparatini aniqlash.
4. Davlat til siyosati talablari, jamiyat talablari va shaxs ehtiyojlarini inobatga olgan holda, umumiy metodologiyaning obyekti va predmetini aniqlash.
5. O'qituvchining amaliy faoliyati ehtiyojlariga metodikaga yaqin bo'lgan ilmiy sohalardagi ilmiy kashfiyotlarni birlashtirish va moslashtirish.
6. Ilmiy va amaliy tadqiqotlarning yangi usullarini va metodlarini yangilashhamda taklif qilish.
7. Zamonaviy tillar va atamalarni o'rgatish uchun xorijiy tilni o'qitishning yetakchi metodini ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, fanni o'qitish zamonaviy ta'limning eng yaxshi an'analarga tayanib, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan tubdan yangi ta'lim tizimiga muhtoj. Shuning uchun o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, aniq belgilangan maqsad va rejalashtirilgan natijalar bilan talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-qarori.
- (2). D.Muminova, M.Qo'ldasheva, N.To'rayeva, Z.Yulchiyeva. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik, 2023, 118-bet.
- (3). Жураев Р, Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. “Шарқ”, Т., 2005, 52-bet.
- (4). Брызгалова Е.В. Наука и образование: современные тренды в глобальном мире // Философия образования. № 6 (45), 2012, с. 11–19.
- (5). Григорьева Т.П. Дао и логос. М., “Наука”, 1992, 432 с.
- (6). Эрштейн Л.Б. Чрезмерная нагрузка на преподавателей вузов как фактор разрушения высшего образования в России. Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. 2021, № 2, с. 20–34.
- (7). Klaassen, R., Ceulemans, D., & Ioannides, M. (2018). Emerging Technologies in Engineering Education: Do we need them and can we make them work? Centre for Engineering Education. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/330444648_Emerging_Technologies_in_Engineering_Education_Do_we_need_them_and_can_we_make_them_work_Centre_for_Engineering_Education
- (8). The London Agenda. 16 key questions for for deans, directors and department heads in engineering institutions. London. Retrieved from <http://sefibenvwh.cluster023.hosting.ovh.net/wpcontent/uploads/2017/06/London-Agenda-September-2016.pdf>
- (9). x, P., & Jansen, D. (2018). The changing pedagogical landscape: In search of patterns in policies and practices of new modes of teaching and learning. Retrieved from https://eadtu.eu/documents/Publications/LLL/2018_The_Changing_Pedagogical_Landscape.pdf
- (10). www.xtranormal.com and www.wikispaces.com

**Atadjanov Ilhom Sharipovich (Urganch DU Geografiya kafedrası dotsenti),
Jabborov Bekjon Bayjonovich (Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi)
GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARGA BARQAROR TARAQQIYOT TA'LIMI
ASOSLARINI O'RGATISH – DAVR TALABI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarga barqaror taraqqiyot ta'limi asoslarini o'rgatish usullari, ularda ushbu bilimlarni shakllantirish orqali hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar haqida, mazkur bilimlarning ekologik ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** barqaror taraqqiyot, jamiyat, tabiat, ekologik savodxonlik, ekologik ong, muammo, maqsad, ekologik omillar.*

Атаджанов Илхом Шарипович (доцент кафедры географии Ургенчского государственного университета),

**Джабборов Бекжон Байжонович (Хорезмский областной центр педагогического мастерства)
ПРЕПОДАВАНИЕ ОСНОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТАМ В ПРОЦЕССЕ
ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы обучения студентов основам образования в области устойчивого развития, описываются формируемые в процессе получения знаний умения и компетенции, а также затрагивается вопрос о значении этих знаний в экологическом образовании и воспитании в рамках современного географического образования.*

***Ключевые слова:** устойчивое развитие, общество, природа, экологическая грамотность, экологическое сознание, проблема, цель, экологические факторы.*

Atadjanov Ilhom Sharipovich (Associate Professor of the Department of Geography, Urgench State University),

**Jabborov Bekjon Bayjonovich (Khorezm Regional Center for Pedagogical Excellence)
TEACHING SUSTAINABILITY TO STUDENTS IN GEOGRAPHICAL EDUCATION IS A
REQUIREMENT OF THE TIMES**

***Annotation.** This article examines methods of teaching students the basics of education in the field of sustainable development, describes the skills and competencies formed in the process of acquiring knowledge, and also touches upon the issue of the importance of this knowledge in environmental education and upbringing within the framework of modern geographical education.*

***Key words:** sustainable development, society, nature, environmental literacy, environmental awareness, problem, goal, environmental factors.*

Kirish. Davlatimiz rahbari tomonidan ayni davrda ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunisi ahamiyatliki, ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi [1].

Barcha tabiiy fanlar qatori, geografiya fani ham yoshlarga barqaror taraqqiyot ta'limi asoslarini singdirishda, atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya berishda keng imkoniyatlariga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Tabiat olamning, moddiy dunyoning bir qismi sifatida yer yuzidagi mavjudotning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbayidir. Tabiat bilan jamiyat o'zaro chambarchas bog'langan. Inson o'ziga kerakli hamma narsani tabiatdan oladi va o'zi ham shu tabiatning bar bo'lagidir [2]. Lekin inson xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri natijasida bir qator ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Iqlimning global isishi, atmosferaning ifloslanishi, ozon qatlamining yemirilishi, tuproqlar degradatsiyasi va boshqalar shular jumlasidandir [3]. Bunday global muammolarning kelib chiqishi, nafaqat tabiatga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi, balki jamiki mavjudot, inson salomatligi ham jiddiy xavf tug'diradi.

“Barqaror taraqqiyot (sustainable development) nazariyasi va amaliyotiga tayanib, iqtisodiy-ekologik vazifalarni mustaqil hal etishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi” [1].

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosida inson manfaatlari, uning turmush sharoitini farovonligini oshirish masalasi yotadi. Bu esa bevosita va bilvosita u yashayotgan atrof muhitning sofligiga,

u yerdagi tabiiy resurslarning sifat va miqdor holatiga, hududdagi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuv xususiyatiga bog'liqdir. Geografiya ta'limi mazmuniga singdirilgan barqaror taraqqiyot ta'limi esa aynan shu masalalar yechimi qanday bo'lishi kerakligiga xizmat qiladi.

O'quvchi-yoshlarimizni har taraflama barkamol bo'lib voyaga yetishida ta'lim-tarbiya tizimi, hech qanday mubolag'asiz, hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ta'lim tizimining vazifasi jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak avlodni tarbiyalab berishdan iborat. Bugungi kunda yoshlarimizni barkamol qilib tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiyaning uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa, geografiya ta'limida barqaror taraqqiyot va ekologik ta'lim uyg'unligiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar davom etmoqda. Shu bilan birga, o'zgarishlar markazida inson, uning huquq va qonuniy manfaatlar ham turibdi. Inson kapitaliga, bilim va innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar, "yashil" iqtisodiyotga o'tish iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanar ekan, tabiiy fanlar, jumladan, geografiya fani mazmuniga ham barqaror taraqqiyot ta'limini integratsiyalash rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaramog'i kerak [4].

Aytish kerakki, bu borada dastlabki muhim qadamlar qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-qaroriga 1-ilova sifatida "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilingan. Binobarin, ekologik ta'lim va tarbiya barqaror taraqqiyot ta'limining eng muhim bo'g'inidir.

Tahlil va natijalar. Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, bular quyidagilarda o'z aksini topadi:

- barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiylikiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;

- amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;

- ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;

- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim dasturlarining mavzulari bugungi kun talablariga javob bermaydi, jumladan, ularda ta'lim oluvchilarda ekologik ongni shakllantiruvchi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid mavzular yetarli emas;

- ta'lim muassasalarida ekologik targ'ibot tizimi ham qoniqarsiz ahvolda, bu borada ekologik targ'ibotni amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va ushbu mexanizmlarni munosib rag'batlantirish tadbirlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti;

- ekologik ta'limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilmagan;

- ta'lim hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi organlari o'rtasida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi amaliy hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, xususan, o'tgan yillar davomida ekologik ta'lim tizimini isloh qilish yuzasidan faqat takliflar bildirilgan, xolos;

- ekologik ta'lim sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik jihatdan ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv qo'llanmalari, o'quvchi va talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

Ana shularni inobatga olgan holda, ta'lim dasturlari to'liq qayta ko'rib chiqilishga muhtoj, jumladan, ular respublikada so'nggi vaqtlarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib tubdan takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, shaxsning ong va dunyoqarashiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, jamiyat a'zolarining ekologik ong shakllantirish, unga bo'lgan qiziqish-

larini tahliliy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlandiya, Norvegiya, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlar umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar kesimida o'quvchilarning barqaror taraqqiyot ta'limi bo'yicha bilim va malaka hamda kompetensiyalarini shakllantirishga va rivojlantirishga davlat siyosati darajasida hal etiladigan masala sifatida qaralgan.

Barqaror taraqqiyot ta'limi bu kambag'allikka qarshi kurashishdagi ham samarali qurollardan hisoblanib, insonlarning hayotini saqlab qolish, turmush tarzini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratuvchi vositadir. Shunday ekan, tabiiy fanlar, jumladan, geografiya ta'limiga barqaror taraqqiyot ta'limining integratsiyasini ta'minlash davr talabidir.

Barqarorlik uchun ta'lim endilikda rivojlangan va rivojlanayotgan dunyoning barcha qit'alarida, masalan, Germaniyada geografiya o'quv dasturida qo'llaniladi. Barqarorlik tafakkurini rivojlantirish uchun geografik ta'lim salohiyati ham ko'plab mamlakatlarda o'rganilgan. Barqarorlik muammosining ba'zi elementlari mavjud bo'lib, ular, xususan, ta'limga geografik yondashuvga mos keladi [5]. Fazoviylikni to'g'ri tushunish iqlim o'zgarishi va uning ta'sirini va odamlar, masalan, Birlashgan Qirollikdagilar o'zlarining karbonat angidrid chiqindilariga umumiy ta'sirini muntazam ravishda hisobga olmasliklari, chunki ular ishlab chiqarishning ko'p qismini e'tibordan chetda qoldirganliklarini tushunish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydilar [6]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda issiqxona gazlarini ishlab chiqarish, aslida, rivojlangan dunyoning o'zida iste'mol talabi bilan bog'liq.

Mamlakatlar yoki mintaqalar o'rtasidagi taqqoslashlar fuqarolik mas'uliyatini qanday oshirishi mumkinligiga misol keltirishimiz mumkin. Barqarorlik uchun ta'limni sezilarli darajada boyitish uchun geografik texnologiyalardan, xususan, masofaviy zondlash va GISdan foydalanishda ham ajoyib imkoniyatlar mavjud. Global ekologik muammolar tabiatan fazoviydir va GIS ularni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan interaktiv geografik vizualizatsiya va tahlil usullarini ta'minlaydi.

Barqaror rivojlanish uchun ta'limning geografiya va iqtisodiyot bo'yicha barcha o'quv dasturlarida o'z o'rnini, roli va ahamiyati o'rta maktab bosqichida (V–VII sinf) barqaror rivojlanish g'oyalari asosiy maqsadda, o'quv dasturining mazmunida aniq namoyon bo'ladi. Konseptual jihatdan mavjud bo'lmagan holda, aniq mavzular bo'yicha kutilgan o'quv natijalari sifatida kompetensiyalarda. Barqarorlikning maqsad va tamoyillarini rivojlantirish, shuningdek, asosiy kompetensiyalarni egallash bo'yicha faoliyatning inson bilan fanlararo aloqalarda aniqlanadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari o'quvchilarni barqaror rivojlanishning dolzarbligini va mahalliy va global muammolar bilan qanday bog'lanishini muhokama qilinadi.

Ekotizimlar va biologik xilma-xillikini o'qitishda turli ekotizimlar, ularning xizmatlari va biologik xilma-xillikning ahamiyati haqida o'rgatiladi. Inson faoliyati ushbu tizimlarga qanday ta'sir qilishini tushuntiriladi.

Qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan resurslarni, yuk tashish qobiliyati konsepsiyasini va resurslarni boshqarishda barqaror amaliyotlarni muhokama qilinadi. Iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlarini, jumladan, uning ob-havo sharoitlariga, dengiz sathi va ekotizimlarga ta'siri tushuntiriladi.

O'quvchilarni mahalliy muhitda barqarorlik haqida savollar berishga undash. Ushbu savollarni o'rganish uchun tadqiqot yoki loyihalarni amalga oshirishda ularga rahbarlik qilish zarur. Barqarorlik masalalarini tushuntirish uchun real misollardan foydalanish zarur. Mahalliy, milliy yoki global misollarni tahlil qiling, muvaffaqiyatlar va muammolarni muhokama qiling. O'quvchilarga barqarorlik haqida har tomonlama tushuncha berish uchun fan (ekotizimlar), iqtisod (barqaror biznes amaliyoti) va ijtimoiy tadqiqotlar (madaniy ta'sirlar) kabi boshqa fanlarni integratsiyalash. O'quvchilarni barqarorlik masalalari bo'yicha, ehtimol, ko'ngillilik yoki mahalliy tadbirlarni tashkil qilish orqali o'z hamjamiyatlari bilan hamkorlik qilishga undash.

Ushbu tushunchalar va strategiyalarni birlashtirib, siz o'quvchilarga barqaror rivojlanishni tushunish va jalb qilish imkoniyatini beradigan mazmunli geografiya o'quv dasturini yaratishingiz mumkin.

Mavzularni geografiya ta'limiga integratsiyalashgan holda o'quvchilar insoniyat jamiyatlari va atrof-muhitning o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishlari mumkin. Bu ularni yanada barqaror kelajakka hissa qo'shishi mumkin bo'lgan xabardor va faol fuqarolar bo'lish uchun bilim va ko'nikmalar bilan hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрдаги БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <https://tma.uz/wp-content/uploads/2017/09/sh-mirziyoev-manaviyatsoati>.

(2). A.N.Nigmatov va boshqalar. Barqaror rivojlanishning geoeologik jihatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent, "Universitet", 2006.

(3). H.Tursunov. Ekologiya. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006.

- (4). www.uznature.uz
(5). www.ecoforum.sk.uz

Avezov Davronbek Soburovich (Urganch Ranch Texnologiya universiteti “Pedagogika va filologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi; E-mail: avezovd02@gmail.com, Orcid: 0000-0002-7571-3645)
TALABALARDA INNOVATSION KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion fikrlash va kasbiy malakalarning mustahkam asoslari jamiyat va iqtisodiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishning foydasi ko‘rsatilgan. Talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda ijodiy tafakkur, muammolarni yechish ko‘nikmalari va yangi g‘oyalarga ochiqlikni shakllantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Maqola talabalarning kelajakdagi professional muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan innovatsion o‘quv jarayonini tashkil etish muhimligini yoritadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion kompetentlik, kasbiy rivojlanish, talaba, ijodiy tafakkur, ta’lim texnologiyalari, pedagogik yondashuvlar, yangi g‘oyalar, professional malaka.

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируется важность развития инновационной профессиональной компетентности у студентов. Инновационное мышление и прочная основа профессиональных навыков важны в подготовке специалистов, отвечающих современным запросам общества и экономики. В статье показаны преимущества использования инновационных технологий и педагогических подходов в современном образовании. Креативное мышление, навыки решения проблем и методы формирования открытости новым идеям учитываются в повышении профессиональной компетентности студентов. В статье подчеркивается важность организации инновационного образовательного процесса, положительно влияющего на будущую профессиональную успешность студентов.

Ключевые слова: инновационная компетентность, профессиональное развитие, студент, творческое мышление, образовательные технологии, педагогические подходы, новые идеи, профессиональная компетентность.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING INNOVATIVE PROFESSIONAL COMPETENCE IN STUDENTS

Annotation. This article analyzes the importance of developing innovative professional competence in students. Innovative thinking and solid foundations of professional skills are important in training specialists who meet the modern demands of society and economy. The article shows the benefits of using innovative technologies and pedagogical approaches in modern education. Creative thinking, problem-solving skills, and methods of forming openness to new ideas are considered in improving students' professional competence. The article highlights the importance of organizing an innovative educational process that positively affects the future professional success of students.

Key words: innovative competence, professional development, student, creative thinking, educational technologies, pedagogical approaches, new ideas, professional competence.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda tezkor rivojlanayotgan texnologiyalar va globallashuv sharoitida kasbiy sohalaridagi talablar ham muttasil o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun nafaqat an’anaviy kasbiy bilimlarga ega bo‘lish, balki innovatsion fikrlash, yangiliklarni tez o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish kabi ko‘nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish hozirgi ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishish, balki talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, ulardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini

rivojlantirishga, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar keng ko'lamdagi tadqiqotlarni qamrab oladi. Ilmiy ishlarda ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va natijalari chuqur tahlil qilingan. Masalan, A.V.Xutorskoyning ta'kidlashicha, pedagogik kompetentlikni shakllantirish o'qituvchilarning ta'lim jarayoniga ijodiy va yangi texnologiyalarni qo'llash malakasini oshirish bilan bog'liqdir [9;45-b.]. Shuningdek, B.S.Gershunskiy [2;176-b.] va I.A.Zimnyaya [10; 17-b.] kabi olimlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsion metodlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

Innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish usullari xususida V.A.Slastenin [8;81-b.] va G.M.Kojaspirova [5;212-b.] kabi olimlarning ishlari katta ahamiyatga ega. Ushbu manbalarda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan texnologik yangiliklar, shuningdek, ularning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayoniga moslashtirilgan innovatsion usullar va ularning o'qituvchilarga ta'siri haqida G.G.Granik [3; 92-b.] va N.D.Nikandrovning ishlari dolzarbdir (6;321-b.).

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlarni o'rgatish va ulardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish o'qituvchi tayyorlash jarayonini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligini shakllantirishda didaktik, psixologik va metodologik yondashuvlar alohida o'rganishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotlar tahlili asosida quyidagi muhim nuqtalar ajratib ko'rsatiladi:

1. Innovatsion kasbiy kompetentlikning ta'riflari. Turli tadqiqotchilar innovatsion kompetentlikni har xil jihatdan tasvirlagan. Masalan, innovatsion kompetentlikni yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr, o'z navbatida, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida innovatsion fikrlashni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

2. Pedagogik yondashuvlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda interaktiv ta'lim metodlari, loyiha asosidagi o'qitish va muammolarni yechish metodlari samarali natijalar berishi mumkin. Ushbu metodlar talabalarining ijodiy fikrlashini va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi [4;65-b.].

3. Innovatsion texnologiyalar. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, masalan, onlayn ta'lim platformalari va simulatsiya dasturlari, talabalar o'rtasida yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarining kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar birgalikda qo'llanilgan. Sifatli tahlil uchun adabiyotlar asosida nazariy bilimlar tahlil qilingan bo'lib, muhim tushunchalar va metodologiyalar ajratib ko'rsatilgan. Miqdoriy tahlil uchun esa so'rovnomalar va intervyular o'tkazilgan, ularning natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilingan. Bu metodologiya talabalarining innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu tahlil va metodologiya yordamida talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning roli batafsil o'rganiladi.

Munozara (Discussion). Ushbu maqolada talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya orqali ko'rsatilganidek, zamonaviy ta'lim jarayoni innovatsion fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni talab etadi.

Innovatsion kompetentlik, shubhasiz, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zaruriy shartlardan biridir. Talabalarining ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, muammolarni yechish qobiliyatini oshirish, shuningdek, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning kelajakdagi professional faoliyatida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari innovatsion kompetentlikni rivojlantirish uchun samarali metodologiyalar va pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishi lozim. Biroq bu jarayonda bir qator qiyinchiliklar mavjud. An'anaviy ta'lim metodlarining cheklovlari, o'qituvchilarning yangi yondashuvlarga nisbatan tayyorgarligi va talabalar orasida innovatsion fikrlashga qiziqishning pastligi kabi omillar, talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirish jarayonini

murakkablashtiradi. Ushbu muammolarni hal etish uchun o'qituvchilar va ta'lim tizimining rahbarlari tomonidan yangi strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, shuningdek, interaktiv pedagogik metodlarni qo'llash, talabalarni o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga rag'batlantiradi. Bunday yondashuvlar, talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kelajakda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni yanada kengroq qo'llash va pedagogik yondashuvlarni o'zgartirish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning professional malakalarini oshirish va talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatning innovatsion rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

Umuman olganda, talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi, ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning amalga oshirilishi kelajak avlodning professional muvaffaqiyati uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu tadqiqot natijalari talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining ahamiyatini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni ko'rsatdi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Innovatsion kompetentlikning ahamiyati. Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu kompetentlik, ijodiy fikrlash, muammolarni yechish va jamoada samarali ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

2. Pedagogik metodlarning samaradorligi. Interaktiv ta'lim metodlari va loyiha asosidagi o'qitish talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlangan. Ushbu metodlar, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

3. Innovatsion texnologiyalarning roli. Onlayn ta'lim platformalari va simulatsiya dasturlari talabalariga yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rsatilgan. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarni zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi [7;29-b.].

4. Qiyinchiliklar va takliflar. Talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda an'anaviy ta'lim metodlarining cheklovlari va o'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarga tayyorligi muammolari mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish zarurligi ta'kidlangan [1;540-b.].

Umuman olganda, bu tadqiqot natijalari talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida yangi strategiyalar ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan muhim yo'nalishlarni belgilab berdi. Kelgusida bu masala bo'yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tadqiqot talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasini chuqur tahlil qildi va bu jarayonning ahamiyatini, muammolarini hamda istiqbollarni ko'rsatdi. Innovatsion kompetentlik, zamonaviy ta'lim va mehnat bozorining talablariga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'z ijodiy fikrlash, muammolarni yechish va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun innovatsion pedagogik metodlar va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarur.

Tadqiqot natijalari interaktiv ta'lim metodlari va loyiha asosidagi o'qitishning samaradorligini tasdiqladi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini oshiradi. Biroq an'anaviy ta'lim metodlarining cheklovlari, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlarga tayyorgarligi va talabalar orasida innovatsion fikrlashga qiziqishning pastligi kabi muammolar ham mavjud.

Umuman olganda, talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar ishlab chiqish talab etiladi. Bunday ishlar, nafaqat talabalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlaydi, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zaruriy asosni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

[1]. Baker, L. (2015). Innovative Skills for a Changing Workforce. *Journal of Education and Work*, 28(5), 534–554 p.

- [2]. Gershunsky, B.S. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quvchilar ijodiy tafakkuri. Moskva, "Nauka", 2016.
- [3]. Granik, G.G. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar va ularning o'qituvchilarga ta'siri. Moskva, Darslik, 2021.
- [4]. Kivunja, C. (2016). Innovative Pedagogy: A New Paradigm for Learning and Teaching. International Journal of Innovative Research and Development, 5(3), 62–67 p.
- [5]. Kojaspirova, G.M. Pedagogik innovatsiyalar va ularni amaliyotga tatbiq etish. Moskva, "Prospekt", 2018.
- [6]. Nikandrov, N.D. Ta'lim tizimida texnologik yangiliklar va ularning samaradorligi. Moskva, "Znaniye", 2022.
- [7]. Santos, E. (2021). Bridging Theory and Practice: Innovative Competencies in Higher Education. Journal of Applied Learning in Higher Education, 13(1), 25–41 p.
- [8]. Slastenin, V.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalar. Moskva, "Pedagogika", 2020.
- [9]. Xutorskoy, A.V. Pedagogik kompetentlik va uni shakllantirish yo'llari. Moskva, "Akademiya", 2013.
- [10]. Zimnyaya, I.A. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsion metodlar. Moskva, "Pedagogika", 2019.

Xasanova Xurshida (Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedresi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent; x-xasanova1989@inbox.uz)
KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TA'LIMIGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Hayotimizda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilishda tabiiy fanlardan, jumladan, kimyo fanidan olingan ilmiy bilimlardan kreativ fikrlash asosida foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlash va nostandart tafakkurni rivojlantirishda o'z davriga mos bo'lgan topshiriqlarni tayyorlash muhimdir. Ushbu maqolada kimyo fanining boshqa fanlar bilan uzviyligiga asoslangan holda o'qitish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** STEAM ta'limi, hayotiy vaziyatlar, matematika, ijodkorlik, nostandart fikrlash, fanlararo integratsiya, malaka, qonuniyat.*

Хасанова Хуршида (Навоийский областной Центр педагогического мастерства, "Кафедра методики точных и естественных наук", доктор педагогических наук (DSc), доцент; x-xasanova1989@inbox.uz)
ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ STEAM В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

***Аннотация.** При решении проблемных ситуаций, возникающих в нашей жизни, целесообразно использовать научные знания, полученные из естественных наук, в том числе химии, на основе творческого мышления. При этом важно подготовить задания развивающие логическое и нестандартное мышления у школьников в соответствии со временем. В данной статье обоснована теоретическая и практическая значимость повышения интереса учащихся к предмету посредством преподавания на основе преемственности химии с другими предметами.*

***Ключевые слова:** STEAM образование, жизненные ситуации, математика, творчество, нестандартное мышление, междисциплинарная интеграция, навыки, право.*

Khasanova Khurshida (Navoi Regional Center of Pedagogical Excellence, "Department of Methods of Exact and Natural Sciences", Doctor of Pedagogical Sciences (DSc); x-xasanova1989@inbox.uz)
THE IMPORTANCE OF USING STEAM LEARNING TASKS IN DEVELOPING CREATIVE THINKING

***Annotation.** When solving problematic situations that arise in our lives, it is advisable to use scientific knowledge obtained from natural sciences, including chemistry, based on creative thinking. At the same time, it is important to prepare tasks that develop logical and non-standard thinking among schoolchildren in accordance with the time. This article substantiates the theoretical and practical importance of increasing students' interest in the subject through teaching based on the continuity of chemistry with other subjects.*

***Keywords:** STEAM education, life situations, mathematics, creativity, non-standard thinking, interdisciplinary integration, skills, law.*

Kirish. Dunyo miqyosida turli sohalarida kuzatilayotgan o'zgarishlar XXI asrda yashashga loyiq bo'lgan avlodni tarbiyalashda, o'quvchilarda global kompetensiyalarni shakllantirishda turli fanlarni, jumladan, kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda o'qitish jarayonini takomil-

lashtirishni talab qilmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Singapur, Germaniya, Xitoy, Koreyada olib borilgan tadqiqotlar natijasida maktablarda STEAM ta'limini muammolarni tadqiq qilishda, tushunish va hal qilishda kreativ fikrlashni rivojlantirish, faol muloqot va guruhli faoliyat asosida loyihalar tayyorlash va ularni amaliyotga tatbiq etish alohida amaliy ahamiyat kasb etmoqda [1].

Turli ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida STEAM ta'limidan foydalanish borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida zaruriy nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, bilim berish va bilimlarni mustahkamlash jarayonini xalqaro standartlar asosida amalga oshiruvchi metodik va didaktik ta'minotni takomillashtirishga imkon beruvchi metodikani takomillashtirish yaratish asosiy vazifalardan biri sanaladi.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xorijiy davlatlarda kreativ fikrlash va tanqidiy tafakkurni shakllantirish borasida E.P.Torrens, J.S.Bruner, E.de Bono, M.B.Solodixina, A.I. Bashmakov, A.I.Borovkov, P.I.Romanov, T.S.Anisimova, K.N.Kisilyovaning tadqiqotlari, loyiha ta'limi, innovatsion loyihalar yordamida ta'lim muhitini yaxshilash borasida D.Dyui, I.I.Lyaxov, V.G.Goroxovning izlanishlari diqqatga sazovordir [2].

STEAM ta'limi borasida dunyo miqyosida G.Yakman, Sh.Cronolly, D.A.Fields, J.Lathan, J.Cohen, W.M.Jones, Dj.Maeda, S.Smith, B.Calandra, L.Buechley, D.E.Bossi, K.Peppler, N.Djeyn, B.Marr, M.Eisenberglarning olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir [3;59–61-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). STEAM ta'limi turli kimyo faniga aloqador bo'lgan jarayon va tushunchalarni fandan olingan ilmiy bilimlar asosida tushunish, anglash, mavzuga aloqador bo'lgan topshiriqlarni nostandart fikrlash asosida tezlik bilan yechish, bu jarayonni mustaqil bajarish, "Guruhlarda" va "Jamoadagi" faoliyatda o'zaro hamkorlik munosabatlarini to'g'ri tashkil qila olish imkoniyatlarini beradi. Umumta'lim maktablarida kimyo darslarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlikda berib borishga imkon beradigan bu metodikada o'qituvchi o'quvchiga hamma bilimlarni tayyor holda berishga emas, balki yangicha fikrlar va g'oyalarning tug'ulishiga yordam beruvchi sifatida bo'ladi. Aynan shu sabablarga ko'ra, ushbu ta'limiy metodika aksariyat xorijiy davlatlarda kimyo darslarida foydalanishda ustuvor usullardan sanaladi [4].

XXI asrda yashovchi istalgan soha mutaxassisi innovatsion texnologiyalarni to'la tushunmog'i, o'z sohasida ijodkorlik asosida yangiliklarni tizimli ravishda joriy qilib bormog'i lozim. Tabiiy fanlarni, jumladan, kimyo fanini ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtiruvchi STEAM ta'limi asosida o'qitishda asosiy e'tibor ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va loyihalar bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Kimyo darslarida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni real hayot bilan bog'lashdan tashqari, bu yondashuv o'quvchilarning kreativligi uchun ham imkoniyat yaratadi. STEAM ta'limi tamoyillarini o'quvchilarda rivojlantirishda kreativ topshiriqlar, innovatsion loyihalar, STEAM amaliy mashg'ulotlari orqali amalga oshadi [5:501–520-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kimyo darslarining sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion metodlarning ahamiyati katta [6:85–87-b.]. STEAM ta'limi nafaqat amalda bajariladigan loyihalarni, balki og'zaki o'qitish usullariga mansub bo'lgan ijodiy topshiriqlar asosida o'qitishni ham nazarda tutadi. Bu topshiriqlar tuzulish shakliga ko'ra bolaning ijodkorligini oshirish, unda fanlararo integrativ bilimlarini qo'llash orqali dunyoqarashini kengaytirish, kreativ salohiyatini namoyon qilish kabi dolzarb muammolarni hal etishga ko'mak beradi. Kimyo fanidan foydalaniladigan STEAM ta'limiga oid kreativ topshiriqlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:



1-rasm. STEAM ta'limiga asoslangan og'zaki topshiriqlarning turlari.

Quyida ushbu topshiriqlar guruhlariga mansub bo'lgan ba'zi birlaridan namunalar keltiriladi.


1-topshiriq. Quyidagi elementlar ketma-ketligi qanday qonuniyat asosida joylashtirilganini aniqlang. Ushbu qonuniyat asosida noma'lum X elementni toping.



Cl, C, Si, X.

Ushbu topshiriqning javobi S bo'ladi. Chunki birinchi element 2 ta harfdan iborat, 2-si esa uning bosh harfi bilan bitta harfdan iborat. Shunga muvofiq, ikkinchi elementni topish uchun Si ning ikkinchi harfini o'chiramiz, shunda X element S bo'ladi.

2-topshiriq. Quyidagi elementlar ketma-ketligi qanday qonuniyat asosida joylashtirilganini aniqlang. Ushbu qonuniyat asosida noma'lum X va Y elementlarni toping.



Ag; X; As; Y.

Ushbu qatorda A harfidan keyingi harflar alifbo ketma-ketligida berilgan. Shunday ekan, ikkinchi harf alifboda G harfidan keyin joylashgan bo'lishi kerak. Demak, bu harf L harfi element esa "Al" bo'ladi. Keyingi harf esa S harfidan keyin joylashgan bo'lishi kerak. Demak, u U harfi, element esa Au bo'ladi.

3-topshiriq. Quyidagi ketma-ketlik qanday qonuniyat asosida joylashtirilganini aniqlang. Noma'lum X va Y elementlarni toping.



C, X, Ti, Y.

Ushbu qatordagi elementlarning N_A massalari 12 birlikka ortib boradi. Shunga muvofiq, $C=12$, $X=Mg=24$, $Ti=48$, $Y=Mo=96$, noma'lum elementlar Mg va Mo bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). STEAM ta'limiga oid kreativ topshiriqlardan foydalanish natijasida quyidagi yutuqlarga ega bo'lishimiz mumkin bo'ladi:

1. Bugungi kunda birmuncha murakkab sanalغان fanlardan kimyo faniga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
2. Topshiriqlarni o'zi olgan ilmiy bilimlar asosida mustaqil yechishga imkon beradi [7:20–26-b.].
3. STEAM kreativ topshiriqlari darsning istalgan qismida qo'llanadi, o'quvchilar bilimini xolisona va real baholashga imkon beradi.

5. STEAM topshiriqlarni keng qamrovli ekologik, agrokimyoviy, xo'jalik kimyosi, kimyoviy chiqindilar va chiqindisiz texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj borasidagi topshiriqlarni o'z ichiga olganligi sababli olingan bilimlarni hayotda qo'llashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/RDWkj5zQu6MuHyr.pdf>
 (2). Волосовец, Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа. М., Бином. Лаборатория знаний, 2019, 136 с.

(3). X.Xasanova. Kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy kreativ topshiriqlardan foydalanish. "Ilm sarchashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnali, Urganch. 8/2022, 59–61-betlar.

(4). STEM – образование в современной школе: необходимость и преимущества url: <http://www.zkoipk.kz/ru/nconf2018/3-section/4064-stem-.htm>

(5). Staver, J. Constructivism: Sound Theory for Explicating the Practice of Science and Science Teaching. Journal of Research in Science Teaching, № 35, 1998, p. 501–520.

(6). Xasanova X.N., Nurmonov S.E. The effect of individual and group learning forms in the teaching of organic chemistry art school students. International Multidisciplinary Research Journal akademikal. India: 3 march 2019, 85–87-betlar.

(7). Sanders M.E. STEAM, STEAM Education, STEAM mania. The technology teacher, 2009, p. 20–26.

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti v.v.b.;
e-mail: madaminov.9290@gmail.com)

GANDBOLCHILARNI DARVOZOBON O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISHDA HARAKATLI O'YINLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gandbolchilarni darvozabon o'yin texnikasini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlik jarayonida harakatli o'yinlardan ahamiyati, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, yetuk darvoza-bonlarni tarbiyalash uchun fundamental vazifasi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: gandbol, darvozabon, jismoniy sifatlar, harakatli o'yinlar, sakrash, o'yin mashqlari, mashg'ulot, ekstremal, estafeta, texnik harakat.

ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ГАНДБОЛИСТОВ ИГРОВОЙ ТЕХНИКЕ ВРАТАРЯ

Аннотация. В данной статье даны предложения и рекомендации по основной задаче развития вратарской техники игры гандболистов, значению двигательных игр в процессе физической подготовки, гармонии обучения и тренировки, подготовке продвинутых вратарей.

Ключевые слова: гандбол, вратарь, физические качества, подвижные игры, прыжки, игровые упражнения, тренировка, экстрим, эстафета, техническое движение.

THE ROLE OF ACTION GAMES IN TRAINING HANDBALL PLAYERS IN GOALKEEPER GAME TECHNIQUE

Annotation. In this article, suggestions and recommendations are given on the fundamental task of developing the technique of goalkeeping for handball players, the importance of movement games in the process of physical training, the harmony of education and training, and the training of advanced goalkeepers.

Keywords: handball, goalkeeper, physical qualities, action games, jumping, game exercises training, extreme, relay, technical movement.

Kirish. Jismoniy mashqlarning alohida turi hisoblangan harakatli o'yinlarning gandbol sport o'yinini o'rgatishda qo'llanilishi, tahsil oluvchilarni o'qitish hamda faol hordiq chiqarishlarini tashkil qilish eng yaxshi vosita hisoblanadi. To'g'ri tanlangan harakatli o'yinlarni ijobiy reaksiyalarni keltirib chiqarish, tetik his qilish, baquvvat, qat'iyatli hamda o'zini yaxshi his etishini ta'minlash, mustaqil fikrlashini oshirish; koordinatsion qobilyatlarini rivojlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gandbol jamoaviy sport turi hisoblanadi, baxsli sport turiga kiradi, bu jamoaviy o'yin hisoblanadi va asosiy maqsad sportchilarida: guruh, o'rtoqlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va o'yinchilarini jipsligi kabi yuksak tuyg'ularni shakllantirishdan iboratdir. Gandbolchi yangi shug'ullanuvchidan yuqori malakali sportchi darajasigacha tayyorlashda yagona tizimi hisoblanadi, u quyidagi jismoniy tayyorgarlik darajalariga asoslanadi: sport sog'lamlashtirish, boshlang'ich tayyorgarlik, o'quv-mashg'ulot, sport takomillashuvi va oliy sport mahoratilari.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish borasida tubdan yangi o'zgarishlarini amalga oshirish kerak. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi ahamiyatini hisobga olish sportni ishlarini yanada takomillashtirish, ularning zamon talablari darajasi o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish, aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini amalga oshirish, asosiy maqsad davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqish uni hayotga tatbiq etish juda ham muhim hisoblanadi.

Gandbol sport turi joriy yildan "Talabalar ligasi" sport musobaqalari qatoriga qo'shildi. Bu gandbol sport turini yanada ommalashtirish uchun turtki bo'ladi, deb o'ylaymiz. Har bir mahalladan iqtidorli sportchilarni tayyorlash, tarbiyalash va aholining sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqori malakali gandbolchi darvozabonlarni tayyorlashga erishish uchun o‘qish jarayonida aksariyat murakkab jismoniy mashqlarni egallashiga mo‘ljallangan shakl va uslublarini egallash, harakatli o‘yinlaridan foydalanish orqali ularning texnikasi rivojlantirish. Shunday uslublaridan biri musobaqa – o‘yin uslublari bo‘lib, bu yerda ta‘lim oluvchilar, o‘ynab turib va musobaqalashib, murakkab texnik-taktik mashqlar komplekslarini o‘rganishida ham jismoniy, ham psixologik yuklamalarni qulay yengib o‘tadilar.

Darvozabonlarning darvozasidagi asosiy turishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u to‘pni qaytarishga tayyorliklarni ta‘minlaydi. Darvozani qo‘riqlar ekan, gandbol darvozaboni uchib kelayotgan to‘pga sekundning ulushlariga teng vaqt ichida reaksiya ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Buning uchun u uchib kelayotgan gandbol to‘pini oyog‘i va qo‘llarining tezkor harakati bilan qaytarishi, tanasini to‘p zarbiga tutib berishi lozim. Shuning uchun darvozabonining tayyorgarligi ifodalovchi asosiy turish holati maydon o‘yinchining himoyadagi asosiy turishidan farq qiladi.

Gandbol darvozabonining asosiy turishi 160–170° burchak ostida bukilgan oyoqlarni bir-biridan 20–40 sm masofada joylashtirib turishidir. Gavda og‘irligi ikkala oyoqqa teng taqsimlangan, asosan, oyoq kaftlarning old qismiga tayaniladi, qo‘llar biroz bukilib, ikki tomonga cho‘zilgan, qo‘l kaftlarini oldinga qaratilgan. Chekka vaziyatdan uchib kelayotgan gandbol to‘pini qaytarish uchun darvozabon oyoqlarini to‘g‘rilab, asosiy turishi, holatini egallaydi, gavda og‘irligini ko‘proq darvoza ustuniga yaqin oyoqqa ishlaydi, darvoza ustuniga yaqin qo‘li yuqoriga ko‘tarilgan, biroz bukilgan bo‘lish lozim.

Gandbol hujumchisi zarba berishga yo‘nalganda, darvozabonining butun gavdasi taranglashadi. Shuning uchun u oyoq uchlariga ko‘tarilib, gavdasini biroz oldinga cho‘zadi. Ayrim tajribali darvozabonlar gandbol to‘pini kutish asnosida, gavda og‘irligini tez-tez bir oyoqdan ikkinchisiga o‘tkazib turadilar, shunda ular har bir lahzada gavdaning istalgan qism bilan gandbol to‘pini qaytarishiga tayyor bo‘ladilar. Gandbol darvozabonining asosiy o‘yin qoidalari haqida ma‘lumot bersak [3].

Darvozabon o‘yini bilan bog‘liq qoidalar [3]. Darvozabonga ruxsat etiladi:


- a) darvozabon maydonchasida butun o‘yin jarayonida gavdaning barcha qismlari bilan to‘pga tegishga;
- b) darvoza maydonchasi ichida to‘p bilan maydon o‘yinchilari qoidalariga rioya qilmasdan harakat qilishga hamda darvozabon tomonidan to‘pni uzatishni kechiktirishga ruxsat berilmaydi;
- d) to‘psiz darvoza maydoniga chiqib va maydonda o‘yinda ishtirok etish, u holda darvozabon maydon o‘yinchilari umumiy qoidalariga rioya qiladi.

Darvozabonga ruhsat etilmaydi:

- a) darvozani himoya qilish jarayonida raqiblarga xavf tug‘dirish;
- b) o‘zining nazoratida bo‘lgan to‘p bilan darvoza maydonchasidan chiqish yoki kirish;
- d) darvozabon tomonidan maydonga tashlangan to‘pga boshqa o‘yinchilar tegmasdan, darvozabon yana to‘pga tegishi man etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Taklif etilayotgan harakatli o‘yinlarning o‘ziga xos jihati – bu darvozabonning g‘alaba uchun kurashishidir, g‘alaba qozanishga intilish esa shug‘ullanuvchilardan aniq jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi [4]. Harakatli o‘yinlarni boshqa mashqlar bilan birga to‘g‘ri qo‘llash orqali murabbiy o‘quvchilarning mashg‘ulotga yanada ongli munosabatda bo‘lishiga erishadi. Harakatli o‘yinlar gandbol o‘yini singari, murabbiy tomonidan turli xil tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ham keng qo‘llaniladi.


Harakat chaqqonligi.



“Koridor”. To‘plar maydonning yon chiziqlari orqasida joylashgan bo‘lishi kerak. Yon qadamlar bilan harakatlantayotgan darvozabon to‘plarni oyoqlari bilan urib yuborishi kerak. Mashg‘ulotni tezroq bajargan o‘yinchi g‘olib bo‘ladi.


Variant. Gandbol to‘plarni qo‘llar yordamida yoki chapga faqat chap oyog‘ bilan, o‘ngga–o‘ng oyog‘ bilan urib yuborish mumkin.

Sakrash qobiliyati.



“**Xo'rozlar hujumi**”. Darvozabonlar maydonida ikkita guruh (har biri to'rttadan olti nafardan) joylashgan. Biri hujumda, ikkinchisi himoyada. Signaldan so'ng ikkala jamoa faqat bir oyoqda sakray boshlaydilar. Hujumchilarning vazifasi raqiblarni zonadan tashqariga chiqarishi kerak. **Variant:** ikkala jamoa ham hujumchi vazifasini bajaradi.


Harakat tezligi



“**Kun va tun**”. O'yinchilar ikki jamoaga bo'lingan, ular maydonning o'rtasida 1,5 m masofada orqalarini bir-birlariga qaratib turadilar. Bir jamoaga “Kun”, ikkinchisiga “Tun” nomi beriladi. Har bir jamoaning o'z yarmida darvozabon hududida uyi bor. Murabbiy kutilmaganda jamoalardan birining nomini aytadi, masalan, “Kun!” Bu jamoa o'z uyiga qochib ketadi va boshqa jamoa ularni ushlashga harakat qiladi. Tutilgan o'yinchilar hisobga olinadi va o'z jamoasiga qo'yib yuboriladi. **Variant:** signaldan oldin murabbiy o'yinchilarning e'tiborini chalg'itish uchun ularga turli xil mashqlarni bajarishni taklif qilishi mumkin, masalan, polga tayangan holfa qo'llarni bukish va yozish.

Texnik elementlardan foydalanib harakatli o'yinlar.


To'pni ilib olish va uzatish



“**Aniq to'p otish**”. O'yinchilar aylana bo'ylab joylashadilar. Aylana markazida – o'yinchi, darvozabon uni himoya qiladi. Signal bo'yicha o'yinchilar bir-birlariga to'p oshirib, markazdagi o'yinchiga tekkizishga harakat qilishadi, darvozabon esa bunga to'sqinlik qiladi.

Variant: ikki to'pdan foydalanib o'ynash mumkin. Darvozabon va markazdagi o'yinchi murabbiyning ixtiyoriga qarab o'zgartiriladi.


To'pni olib yurish



“**Markazdagiga tekiz**”. To'pi bor o'yinchilar aylana bo'ylab joylashadilar. Aylana markazida doira chizilgan, Unla ustun yoki to'ldirma to'p turadi. Uni ikkita darvozabon “qo'riqlaydi”. Signal bo'yicha o'yinchilar bir-biriga to'p uzatishadi va doira ichida turgan buyumga tekizishga harakat qilishadi. Darvozabonni vazifasi bunga qarshilik ko'rsatishdir.

Varianti: ikkita to'p bilan ham o'ynash mumkin.

Aldamchi harakatlar



To'pni zonaga olib kir. O'yin gandbol maydonida vaqtni hisoblash asosida o'tkaziladi. Jamoa ikkiga bo'linadi. To'p faqat o'tishga ruxsat etiladi (to'pni olib yurish bundan mustasno). To'psiz o'yinchi raqibga tegsa, to'p olib qo'yiladi. To'pni oxirgi chiziq orqasida yoki darvozabon maydonida ma'lum bir joyga qo'yishga muvaffaq bo'lgan jamoaga ochko beriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Har bir o'qituvchi va murabbiy o'quv rejasiga muvofiq, darvozabonlarni o'yin faoliyatini deyarli har bir mashg'ulotda qo'llashi mumkin. Buning uchun u mashg'ulot vazifalariga javob beruvchi turli xil musobaqa mashqlari, harakatli o'yinlarni tanlab olishi kerak [2].

Mashg'ulot jarayonidagi musobaqalashuv-o'yin uslubi – bu aksariyat qiyin jismoniy mashqlarni oson, go'yo o'ynab va musobaqalashib, bajarishga imkon beruvchi vositalar hamda uslublardan foydalanish imkoniyati. Shu orqali mashg'ulotlarning bir xilligi yengib o'tiladi, ularning evaziga jismoniy tarbiya jarayonining zerikarli va bir xil tusda o'tishiga yo'l qo'yilmaydi. Musobaqalashuv – o'yin uslubi sportchilarning emotsiyalarini ishga solish hisobiga mashg'ulotlarda harakat faoliyatini faollashtirishning tekshirilgan vositasi hisoblanadi. Jismoniy rivojlanishda ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishishga imkon yaratadi, mashg'ulotlarning o'zini esa qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. Черданцева Т.Р., Афонина Л.Е., Соколова А.В., Беланова Е.С. Использование подвижных игр в соревновательно-игровой деятельности гандболиста. Методическое пособие, Новокузнецк, МОУ ДПО ИПК, 2008, 100 с.
- [2]. Salayev T.K. "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (gandbol)". O'quv qo'llanma, "Lesson Press", Toshkent, 2022, 237 bet.
- [3]. Sharipov A.K., Jammатов J.Sh., Salayev T.K. "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (gandbol)". O'quv qo'llanma, "Lesson Press", Toshkent, 2021, 239 bet.
- [4]. Madaminov A.E. "Ilm sarchashmalari", Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali, Urganch, 2023, 127–128-betlar.

Qurbonova Dilnoza Arslanovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti v.b. (PhD)) INGLIZ TILI DARSLARIDA O'SMIRLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA NEYROLINGVISTIKANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar chet tili va tafakkurini rivojlantirishga doir mulohaza va fikrlar asoslab berilgan. Tafakkurni rivojlantirishda neyrolingvistikaning nechog'lik ahamiyatli ekanligi mazkur maqolada o'z aksini topgan. Tafakkurni rivojlantirishda neyrolingvistik jarayonlarni yaxshilash ingliz tili darslarida yanada samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tafakkurni rivojlantirish nafaqat chet tilini o'qitish jarayonini intensivlashtirishda, balki tinglovchilarning kasbiy o'sishida ham muhim omil sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: tafakkur, rivojlantirish, fikrlar, neyrolingvistika, psixolingvistika, afaziya, nutq.

Курбанова Дилноза Арслановна (Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD))

ЗНАЧЕНИЕ НЕЙРОЛИНГВИСТИКИ В РАЗВИТИИ МЫШЛЕНИЯ ПОДРОСТКОВ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье обоснованы комментарии и мысли по поводу развития иностранного языка и мышления подростков. Насколько важна нейролингвистика в развитии мышления, отражено в этой статье. Улучшение нейролингвистических процессов в развитии мышления

более эффективно на занятиях английским языком. При этом развитие мышления считается важным фактором не только интенсификации процесса обучения иностранному языку, но и профессионального роста студентов.

Ключевые слова: мышление, рассуждения, мысли, нейролингвистика, психоллингвистика, афазия, речь.

Kurbanova Dilnoza Arslanovna (Jizzakh State Pedagogical University, etc. associate professor (PhD))

THE IMPORTANCE OF NEUROLINGUISTICS IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF TEENAGERS IN ENGLISH CLASSES

Annotation. *In this article, comments and thoughts on the development of foreign language and thinking of teenagers are justified. How important neurolinguistics is in the development of thinking is reflected in this article. Improving neurolinguistic processes in the development of thinking is more effective in English classes. At the same time, the development of thinking is considered an important factor not only in intensifying the process of foreign language teaching, but also in the professional growth of students.*

Key words: *thinking, reasoning, thoughts, neurolinguistics, psycholinguistics, aphasia, speech.*

Kirish. Bugungi rivojlanayotgan mehnat bozorining kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida bir qancha muammolarni hal qilishda tafakkur qila oladigan chet tilini biladigan yuqori malakali mutaxassis-larga bo'lgan ehtiyoji ko'payib borayotganligi sababli, ta'lim mazmuni yangi talablarga javob berishi kerak bo'lyapti.

Hozirda zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida shaxs turibdi. Endilikda tilshunoslik faoliyat-dagi, harakatdagi til bilan bog'liq jarayonlarga e'tibor qaratib, tilni o'z egasi bilan birga tadqiq etishni ta-qozo etmoqda. Atama sifatida rivojlanayotgan yangi sohalardan biri – psixolingvistika ham inson va uning nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rganmoqda. Psixolingvistikada inson miya faoliyati va nutqiy jarayoni hamisha bir-biri bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi. Miya mexanizm-larining til sistemasini bilan uzviy bog'liqligi, miya jarohatining nutqiy faoliyat bilan bog'liq tomonlari psixo-lingvistikaning yana bir tarmogi – neyrolingvistika sohasi doirasida o'rganilib, bu soha nutqiy buzilishning miya faoliyati bilan ajralmas tomonlariga asosiy e'tiborni qaratadi.

Neyrolingvistika (yunon. neuron – tomir, nerv, asab va lot. lingua – til) – nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning mahalliy jarohatlanishi tufayli yuzaga keladigan nutqiy jarayondagi o'zgarish-larni o'rganadigan fan. Shu bilan birga, barcha jihatlar bir-biridan ajralmagan holda o'zaro bog'liqlikda o'r-ganiladi, ya'ni, til sistemasini lisoniy muomalaning miya substrati (lot. substratum – asos, zamin, negiz, bu o'rinda miya asosi) bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi. Neyrolingvistika asosiy e'tiborini turli ko'rinish-dagi nutqiy buzilishlarni tashxislash va davolashga qaratadi.

Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida (biologik) tilshunoslik negizida, neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keldi va u til sistemasini lisoniy muomalaning miya substrati bilan o'zaro aloqada o'rganadi. Neyrolingvistika lingvistika, psixolingvistika, fiziologiya, neyrofiziologiya, nev-rologiya, psixologiya va neyropsixologiya fanlari bilan o'zaro bog'langan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Neyrolingvistikaning fan sifatida rivojlanishi A.L.Luriya ilmiy ishlari bilan bog'liq. Uning “Neyrolingvistika muammolari” kitobi ilk neyrolingvistik manba sifatida o'rganilmoqda. Bu soha fan sifatida E.Krouell Trager, A.Xeker kashfiyotlarida 1950-yillarda shakllandi. 1970-yilda AQSHda Garri Uitaker tomonidan neyrolingvistika sohasi yanada rivojlantirildi va buning nati-jasida 1974-yilda “Brain and language” jurnali yaratildi. Bugungi kunda tilshunoslar neyrolingvistika soha-si paydo bo'lishida A.L.Luriya, Karl Verniki, Pol Broka xizmatlarini alohida e'tirof etadilar.

1970-yillarning boshlarida Santa Kruz universiteti professori va talabalari – Jon Grinder va Richard Bandler neyrolingvistika (NLP) sohasini o'rganishni chuqurlashtirishgan. O'zbek tilshunoslik dorasida bu soha haqida dastlabki fikr quyidagicha. Neyrolingvistika tilshunoslikning eng yangi sohasi sifatida ma'lum bo'lib, u miyadagi neyronlarning tilni hosil qilishdagi xizmatini o'rganuvchi sohadir. Neyrolingvistika psixolingvistika bilan uzviy bog'liq va ba'zan ular o'rganadigan obyektlar aralashadi. Ammo lingvist neyrolingvistika va psixolingvistika bo'yicha olimlar Iroda Azimova “Psixolingvistika buni insondagi psixolo-gik jarayonlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi. Neyrolingvistika esa miya strukturalari va funk-siyalari bilan bog'lab o'rganadi”, deb ta'kidlaydi. Neyrolingvistika nevrologiyaning kognitiv nevrologiya bo'imi sohasi tarkibi sifatida o'rganilgan. Neyrolingvistikaning, dastavval, asosi afaziya bo'lgan. Afaziya – nutqning sistem buzilishi bo'lib, bosh miya po'stlog'ida joylashgan nutq markazlarining zararlanishi oqi-batida kuzatiladigan holatdir. Neyropsixologlar nutqning turlarga ajratadi. Bu ekspressiv nutq (so'zlash) va impressive nutq (so'zlarni, gaplarni tushunish). Afaziya bir necha turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: global, ekspressiv, aralash, retseptiv afaziya (ravon), anomik, birlamchi progressiv afaziya.

P.Broka tadqiqotlarida chap yarim shar shikastlanganda, miyaning aynan shu qismi zararlanganda inson o'z nutqini, gapirish layoqatini yo'qotadi, lekin o'zgalar nutqini anglay oladi. Nemis psixiatri K. Verniki miyaning shikastlanishi chakka egri yarimsharda sodir bo'lganida, inson gapira olishi mumkinligini ta'kidlaydi, shu bilan birga, o'zgalar nutqini tushuna olmasligini aniqlab beradi. Inson miyasi ko'plab neyronlardan iborat. Nutqiy faoliyat shu neyronlar harakati orqali amalga oshiriladi. Miya esa chap va o'ng yarimshar miya sifatida insonda mavjud. Til, nutq va so'z bilan bog'liq hodisalar chap yarimshar miyada mavjud. o'ng yarimshar miyada esa asosiy funksiya ko'zlar orqali bo'lib, olamni so'zsiz idrok etish kuzatilib, obraz yaratish, tasvirlash o'ng yarimshar miyada kuchli bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Neyrolingvistika shaxs miya mexanizmini nutqiy zonalar bilan ajralmas holda o'rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham inobatga oladi, bu esa sotsiologiya bilan chambarchas bog'liq tomonlarini namoyon etadi. Insonning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi nutqiy va aqliy salohiyatiga qarab belgilanadi.

Miya faoliyatining buzilishi nutqiy faoliyatga va tafakkur qilishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Miya faoliyati buzilishi vaqtincha yoki doimiy, shuningdek, tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi ham mumkin. Erkin tafakkur qilolmaslikka sabablardan ba'zilari kuchli hayajonlanish, qattiq toliqish, ruhiy charchoq, depressiya, qo'rquv, xavotir va spirtli ichimliklar ichish miya faoliyatining vaqtincha yoki orttirilgan buzilishlari bo'ladi. Homilador ayolning shu jarayonlarni boshdan kechirishi esa tug'ma nutqiy buzilishli individning tug'ilishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Nutqning shakllanishi individual va o'ziga xos bo'lib, har bir individda turli ko'rinishda sodir bo'ladi. Biroq nutqning kechikishi uchun sabab sifatida turli yosh chegaralari belgilangan. Nutq shakllanishi intellektual salohiyat rivojlanishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, 3 yoshgacha nutqiy rivojlanish kechikishi mumkin, ayniqsa, og'il bolalarda bu holat ko'proq kuzatiladi.

Tafakkur inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shakli hisoblanadi. Tafakkur va fikrlash bu bilish jarayonidir. Tafakkur eksperimental psixologiya tomonidan o'rganilgan bo'lib, shaxs tomonidan borliqni umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shaklidir.

Tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shakli. Tafakkur qilishimizni ta'minlab beruvchi organ esa miyadir. Miyamizga kelgan barcha o'y-xayollar esa fikrlardir.

Miya umumiy shaklda 4 xil leksikonni boshqaradi:

1. Auditor – ish leksikoni.
2. Vuzual – ko'rish leksikoni.
3. Og'zaki – chiqish leksikoni.
4. Grafema – yozuv leksikoni.

Psixolingvistika – nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini, ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan. Psixolingvistika psixologiya (ruh) va lingvistika (til)ning sintezidan paydo bo'lgan.

Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi.

Ingliz tili lingvistikaning bir qism bo'lganligi sabali psixolingvistika masalalarini dars jarayonida qo'llash samarali natija beradi. Ingliz tili darslarida til o'rganish kompetensiyalari mavjud bo'lib ular: o'qish, yozish, eshitish va gapirishdir. Xorijiy til o'rganuvchilaridan ularning barchasi o'zlashtirish talab etiladi. Gapirish ko'nikmasi bu nutqni hosil qilish bilan uzviy bog'liqdir. Demak, nutqiy ravonlik va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ingliz tili dars jarayonida qo'llanilsa, o'rganuvchilarda idrok eta olish, diqqatini jamlash, suhbatdoshining nutqini to'g'ri anglab, tafakkur qila olish va fikrini bildirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa. Tafakkurni rivojlantirishda neyrolingvistika va psixolingvistikalarning ham o'rni beqiyos. Tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lgan neyrolingvistika ingliz tili darslarida o'quvchilar tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, ingliz tilida ba'zi so'zlarning bir qancha ma'nolari bor. Masalan, "get" fe'li 400 ortiq ma'nolarda qo'llaniladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarda ko'proq so'z boyligiga ega bo'lishni va nutq ravonlikni oshirishiga olib keladi. So'z boyligi va nutqi rivojlangan, til ilmi kengaygan sari tafakkur ham kengayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Otaqulova A.O. Badiiy matn qahramonlari neyrolingvistik tahlili (nazar eshonqulning "Urush odamlari" qissasi misolida). Golden Brain ISSN:2181-4120, Volume 1, issue, 3, 2023.

(2). Muslixiddinova R.H. Neyrolingvistika. Tahlil va talqin. Academic Research in Educational Sciences Volume 5, Issue 1, 2024.

(3). Vygotskiy L.S. Fikrlash va nutq. Tahrir 5, ISPR. M., "Labirint", 1999, 352-bet.

(4). Jinkin N I. Til–nutq–ijod (tanlangan asarlar) /komp., taxminan. S.I.Gindin tomonidan. M., Labirint, 1998, 368-bet.

(5). Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. Sankt-Peterburg, "Piter", 2000, 712-bet.

(6). Rummyantseva I.M. Nutq psixologiyasi va lingvopedagogik psixologiya. M., Per SE, "Logos", 2004, 319-bet.

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich (Qarshi davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi, 180100. Uzbekiston; iftixor.kamolov@inbox.ru; UDK 7.0.741.744),

Suyunov Navruz Alisher o'g'li (Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Qarshi, 180100. Uzbekiston, navruz.suyunov.n@gmail.com)

TEZ QALAMCHIZGILAR ISHLASH JARAYONIDA DIQQAT VA KUZATISHNI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Tasviriy san'at dars mashg'ulotlarida talabalarning kuzatish qobiliyatini va detallarga e'tiborni rivojlantirish o'quv jarayonining asosiy jihati hisoblanadi. Tez qalamchizgilar talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirishning samarali vositasidir. Tezkor eskizlar obyektlarni doimiy va diqqat bilan kuzatishni talab qiladi, bu esa detallarni va aniqlikni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar eng kichik detallarni sezish, eslab qolish, vizual ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganadilar. Bu ularning vizual xotirasini, tahlil qilish qobiliyatlarini va umumiy hushyorligini yaxshilaydi. Tezkor qalam chizish texnikasi talabalarning turli sohalarida rivojlanish tezligini oshirish uchun asos bo'ladi. Kuzatishni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** tez qalamchizgi, kognitiv, qalam zarbalari, perfeksionizm, jonli dinamik,*

**Камолов Ифтихор (Каршинский государственный университет. Заведующий кафедрой изобразительного искусства и инженерной графики, доктор наук, профессор, Карши, Узбекистан),
Суюнов Навруз (Каршинского государственного университета, независимый исследователь, Карши, Узбекистан)**

РАЗВИТИЕ ВНИМАНИЯ И НАБЛЮДАТЕЛЬНОСТИ ВО ВРЕМЯ РАБОТЫ КРАТКОСРОЧНЫМ БЫСТРЫМ РИСУНКОМ КАРАНДАШОМ

***Аннотация.** Основным аспектом образовательного процесса является развитие у учащихся умения наблюдать и обращать внимание на детали на занятиях изобразительным искусством. Быстрые зарисовки являются эффективным инструментом развития этих навыков у учащихся. Быстрые зарисовки требуют постоянного и внимательного наблюдения за объектами, что развивает способность воспринимать детали и точность. Учащиеся учатся замечать мельчайшие детали, запоминать и анализировать визуальную информацию. Это улучшает зрительную память, аналитические способности и общую внимательность. Техника быстрого рисования карандашом является основой повышения скорости развития учащихся в различных областях. Помогает развивать наблюдательность во всех аспектах.*

***Ключевые слова:** быстрые зарисовки, когнитивный, карандашные удары, перфекционизм, живой динамичный.*

Kamolov Iftixor (Karshi State University. Department of Fine Arts and Engineering Graphics, Doctor, Professor, Kharshi, Uzbekistan),

Suyunov Navro'z (Karshi State University, Independent Researcher, Kharshi, Uzbekistan)

DEVELOPING ATTENTION AND OBSERVATION DURING WORK WITH SHORT-TERM QUICK PENCIL DRAWINGS

***Annotation.** The main aspect of the educational process is the development of students' ability to observe and pay attention to detail in the visual arts. Quick sketches are an effective tool for developing these skills in students. Quick sketches require constant and careful observation of objects, which develops the ability to perceive detail and accuracy. Students learn to notice the smallest details, remember and analyze visual information. It improves visual memory, analytical skills and overall alertness. The technique of quick pencil drawing is the basis for increasing the speed of student development in various areas. Helps develop observation skills in all aspects.*

***Keywords:** Quick sketches, cognitive, pencil strokes, perfectionism,*

Kirish. Diqqat va kuzatish badiiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismidir. Aniq va ifodali tasvirlarni yaratish jarayonida, ayniqsa, qisqa muddatli tezkor qalam rasmlari haqida gap ketganda, asosiy rol o'ynaydi. Tezkor eskizlar rassomdan obyektning asosiy xususiyatlarini bir zumda qo'lga kiritishni talab qiladi, bu esa tezda baholash va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu amaliyotni kundalik rasm chizishga joriy etish nafaqat texnik ko'nikmalarni yaxshilashga, balki atrofdagi dunyo tafsilotlarini idrok etishni keskinlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqola qalam bilan tez chizish amaliyoti orqali diqqat va kuzatishni rivojlantirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan turli texnika va mashqlar, shuningdek, ularning umumiy badiiy darajaga ta'siri ko'rib chiqiladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun muntazam ravishda o'qitish va olingan natijalarni tahlil qilish muhimligiga e'tibor qaratiladi. Bu rassomlarga vizual taassurotlarini tezda qog'ozga o'tkazish imkonini beradi, idrok va ifoda o'rtasidagi chuqurroq aloqani ta'minlaydi. Tez qalam chizish texnikasi, ayniqsa, kuzatish qobiliyatini yaxshilash, qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni yaxshilash va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish qobiliyati tufayli eng muhim tamoyildir. Yuqori sifatli eskizlar bilan bog'langan g'oyalar, eskizlar bilan solishtirganda, ijodiy deb qabul qilinadi [1;2-b.].

Adabiyotlarning tahlili. Qisqa muddatli, tezkor qalam rasmlari bilan ishlashda diqqat va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim mavzusidir. Ushbu tadqiqotga asosiy adabiyotlar scopus va science-direct platformalaridan ma'lumotlar to'plandi. Ko'pgina maqolalar tahlil qilindi.

•Booth, J.W., Taborda, E.A., Ramani, K., Reid, T – dizaynerlari uchun eskiz chizish ko'nikmalarini o'rgatish.

•Istead, L., Istead – Chizish uchun oddiy, chiziqqa asoslangan usul. Virtual Reality Intelligent Hardware.

•Rieger, K.L., Chernomas, W.M. – San'atga asoslangan pedagogikada ijodkorlikni boshqarish.

•Almukhambetov, B., Tanirbergenov, M., Nebessayeva, Z. Tasviriy san'at imkoniyatlarini o'qituvchining badiiy pedagogik faoliyatida qo'llash.

Ushbu scopus va sciencedirect ma'lumotlar bazasidan olingan maqolalarga tayangan holda ish olib borildi, hamda o'zbekistonning:

•Botir Boymetovning qalamtasvir pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmasidan unumli foydalanildi.

Tez qalam rasmlar yuqori konsentratsiya va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladigan amaliyot. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday mashqlar vizual ko'nikmalarni va vizual fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Tez chizmalar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlash va ijodkorlikni ham rivojlantiradi.

Metodlar. Qisqa muddatli, tezkor qalamchizgilar bajarishda diqqat va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy jihatdir. Bu jarayon rassomga nafaqat o'z mahoratini oshirish, balki tasvirlangan ob'ektning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradigan turli xil usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Rassomlar qo'llarining tezkor harakatlaridan foydalangan holda chizmalarini yaratadilar, ular mayin va qo'pol chizilgan chiziqlar hosil qiladilar [2;4-b.].

1. Tezkor harakat. Bu ob'ektning asosiy shakli va harakatini qo'lga kiritishga yordam beradigan tezkor eskizlar.

•Kuzatishni oshirishga yordam beradigan holat va dinamikani tezda baholash qobiliyatini rivojlantirish.

•30 soniyadan 2 daqiqagacha modellarni chizib, detallarga emas, balki asosiy chiziqlarga va harakatga e'tibor qaratish.

2. Kontur chizmalar. Qog'ozdan qalamni ko'tarmasdan, bitta doimiy chiziqda chizilgan chizmalar.

•Qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish va tafsilotlarga e'tiborni yaxshilash.

•Mayda detallar bilan chalg'imasdan, faqat konturlariga e'tibor qaratgan holda obyektlarni chizish.

3. Ko'rinmas kontur chiziqlar. Rassom qog'ozda kurinar ko'rinmas kontur chizish varianti.

•Vizual idrok va qo'llaringizga ishonchni mustahkamlash.

•Obyektni qog'ozga emas, faqat unga qarab chizing. Bu shakl va nisbatlarga e'tiborni rivojlantiradi.

4. Vaqtinchalik cheklovlar. Chizma yaratish uchun qat'iy vaqt oralig'ini belgilash.

•Tez fikrlashni rivojlantirish va qisqa vaqt ichida asosiy narsani ajratib ko'rsatish qobiliyati.

•Turli vaqt chegaralari bilan bir qator chizmalarni bajarish.(masalan, 1,5 va 10 daqiqqa).

5. Hayotdan chizish. Fotosuratlardan emas, balki haqiqiy narsalarni yoki odamlarni chizish.

•Chuqurlik, yorug'lik va soyani kuzatish, idrok etishni takomillashtirish.

•O'zgaruvchan yorug'lik sharoitlariga va istiqbolga e'tibor berib, muntazam ravishda ob'ektlarni, odamlarni yoki haqiqiy hayot sahnalarini chizish.


6. Tahlil va fikr bildirish. Tugallangan chizmalarni tahlil qilish va boshqa rassomlar yoki o'qituvchilardan fikr-mulohazalarni olish.

- Kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish sohalarini tushunish.


- Ishingizni muntazam ravishda ko'rib chiqing, taraqqiyot va yaxshilanish joylarini qayd eting va konstruktiv tanqidni qabul qiling.

Diqqatni rivojlantirish. Tezkor qalamchizgilarni yaratish jarayoni talabalardan yuqori darajadagi konsentratsiyani talab qiladi. Cheklangan vaqt ichida obyektning baholash, asosiy elementlarni tanlash va ularni tezda qog'ozga tushirish talab etiladi. Bunga ko'z bilan o'lchash (masofa va jism o'chamlarini ko'zda chamalash) qobiliyatini rivojlantirish va ko'zni to'g'ri qaratish orqali erishiladi [6;12-b.].

Tezkor chizmalar talabalardan chizayotgan predmetlarini doimiy ravishda kuzatishni talab qiladi. Eng kichik detallarni va atrof-muhitdagi o'zgarishlarni yaqindan kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi. (1–2-rasmlar).



1-rasm.




2-rasm.

Muntazam kuzatish amaliyoti o'quvchilarda voqelikni qog'ozda to'g'ri idrok etish va yetkazishda muhim bo'lgan vizual tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, Ijodkorlik va ijodiy pedagogikaning bevosita kontekstiga ta'sir ko'rsatadi [4;297-b.].

Tezkor qalamchizgilar bilan ishlash talabaga atrofda dunyoni tez va aniq kuzatish, tasviriy san'at terapiyasini rivojlantirish, obyektlarning muhim detallari va xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. "Art-terapiya" atamasi, odatda, san'at orqali davolashni anglatadi [5;297-b.], shu jumladan, ishning samarasini oshiradi

Yuqori tezlikdagi qalam rasmlari nafaqat dinamikani kuzatish va yetkazish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Narsani o'ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish lozim. [6;8-b.]. Tezkor chizish jarayonida tezda qaror qabul qilishga, obyektlar va tafsilotlarni yetkazish uchun nostandart yechimlarni topishga harakat qilinadi. Bunday yondashuv bizning tez fikrlash qobiliyatimizni rivojlantiradi (3-rasm).



3-rasm.

Tezkor qalamchizgilar yoki eskizlar san'atni o'rganish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu usul nafaqat o'quvchilarning badiiy mahoratini oshirishga yordam beradi, balki diqqatni jamlash, kuzatish va detalarga e'tibor berish kabi muhim fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu qobiliyatlarning barchasi nafaqat badiiy sohada, balki hayotning boshqa jabhalarida ham foydalidir.

Diqqatni o'zgartirish qobiliyati. O'zgartirish qobiliyati (kognitiv moslashuvchanlik) – bu bir vazifa yoki jihatdan boshqasiga tez va samarali o'tish qobiliyati. Bu nafaqat atrof-muhitdagi o'zgarishlarga bir zumda javob berish qobiliyatini, balki turli faoliyat yoki fikrlash jarayonlarini osongina almashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi (4-rasm).

Tezkor qalamchizgi jarayonida rassom, ko'pincha, diqqatni tortadigan narsalarni o'zgartiradi, bir detaldan ikkinchisiga o'tadi.

Bu vazifaning turli tomonlarini tezda almashtirish qobiliyatini o'rgatadi, bu ko'p vazifalarni bajarishda muhim mahoratdir. Diqqatni tezda o'zgartirish diqqatni jamlashga yordam beradi va umumiy ish faoliyatini yaxshilaydi.

Tahlil va natijalar. Tasviriy san'at bilan shug'ullanish ruhiy salomatlik va farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tez qalamchizgilar ishlash jarayonida diqqat va kuzatishni rivojlantirishda eng samarali yo'llar ishlab chiqildi.

1. Tez qalam chizishni muntazam mashq qilish texnik mahoratni oshirishning eng samarali usulidir.

Aniqlik va ishonch – doimiy rasm chizish amaliyoti chiziq'larga bo'lgan ishonchni va yetkazishda aniqlikni rivojlantiradi

Chizish tezligi – tez ishlash qobiliyatingizni oshiradi, Bu, ayniqsa, tez fikrlashni talab qilinadigan holatlarda foydalidir

Qo'l rivojlanishi – epchillik va nazoratni yaxshilaydi, qo'l harakatlarida chiziq'lar aniqroq va ifodali bo'ladi.



4-rasm.

2. Badiiy tafakkurni chuqurlashtirish:

Kuzatish: tez sezish qobiliyatini oshiradi va obyektning asosiy belgilarini, shaklini, nisbatlarini tahlil qiladi.

Moslashuvchanlik: tajriba o'tkazish qobiliyati turli uslublar va texnikalar diqqatni jamlash va mahoratni rivojlantirishga ko'maklashadi.

3. Shaxsiy rivojlanish.

Konsentratsiya. Diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilaydi va bir vaqtning o'zida ikkita vazifaga e'tibor qaratiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish: muntazam ravishda mashq qilish odatini rivojlantirish o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkin ki tezkor qalamchizgilar texnikasi diqqat va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu ijodiy jarayon diqqatni jamlashni, ko'z-qo'llarni muvofiqlashtirishni va vizual xotirani yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, tez chizish perfektsionizmni yengishga yordam beradi va diqqatni o'zgartirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu yo'nalishdagi muntazam mashg'ulotlar nafaqat badiiy mahoratni oshiradi, kognitiv funktsiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, umumiy samaradorlikni oshiradi va kundalik hayotga moslashadi. Tezkor qalamchizgilar bizdan diqqatni jamlash va tezda reaksiyaga kirishishimizni talab qiladi. Axborotni tez idrok etish va qayta ishlash qobiliyatimizni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Booth, J.W., Taborda, E.A., Ramani, K., Reid, T. (2016c). Interventions for teaching sketching skills and reducing inhibition for novice engineering designers. *Design Studies*, 43, 1–23. <https://doi.org/10.1016/j.destud.2015.11.002>

(2). Istead, L., Istead (2022d). A simple, stroke-based method for gesture drawing. *Virtual Reality Intelligent Hardware /Xuni Xianshi. Y.Zhineng. Yingjian.*, 4(5), 381–392. <https://doi.org/10.1016/j.vrih.2022.08.004>

(3). Rieger, K.L., Chernomas, W.M., McMillan, D.E., Morin, F.L. (2020). Navigating creativity within arts-based pedagogy: Implications of a constructivist grounded theory study. *Nurse Education Today*, 91, 104465. <https://doi.org/10.1016/j.nedt.2020.104465>

(4). Chappell, K., Hetherington, L., Keene, H.R., Wren, H., Alexopoulos, A., Ben-Horin, O., Nikolopoulos, K., Robberstad, J., Sotiriou, S., Bogner, F. (2019). Dialogue and materiality/embodiment in science|arts creative pedagogy: Their role and manifestation. *Thinking Skills and Creativity*, 31, 296–322. <https://doi.org/10.1016/j.tsc.2018.12.008>

(5). Almkhambetov, B., Tanirbergenov, M., Nebessayeva, Z. (2015) The application of figurative arts' capabilities in the Art-Pedagogical activity of a teacher. Procedia: Social Behavioral Sciences, 197, 1525–1529. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.1056>

(6). Botir Boymetov. 2007. Pedagogika yo 'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma, Toshkent, «ILM ZIYO 214 bet.

(7). X.X.Muratov. Qalamtasvir. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsifa etilgan. Toshkent. IJOD-PRINT, 2020, 132-bet.

**Xudayberganov Otabek Erkinovich (Ma'mun universiteti professori v.b.),
Ismoilov Dilmurod. Xamidjonovich (O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi)
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINING VOLEYBOL VOSITALARI
YORDAMIDA KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Annotatsiya. Maqolada talabalarni voleybolga o'rgatishning aniq vazifalari va shart-sharoitlari, shuningdek, ma'lum kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda voleybol mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, voleybol, mashg'ulot usullari, kasbiy faoliyat, kasbiy ko'nikmalar, irodali sifatlar.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ
ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ВОЛЕЙБОЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ**

Аннотация. В статье рассматриваются конкретные задачи и условия обучения студентов игре в волейбол, а также вопросы использования возможностей занятий волейболом в формировании определенных профессиональных умений.

Ключевые слова: физическая культура, волейбол, методика обучения, профессиональная деятельность, профессиональные умения, волевые качества.

**FORMING THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION
SPECIALISTS WITH THE HELP OF VOLLEYBALL TOOLS**

Annotation. The article examines specific tasks and conditions for teaching students to play volleyball, as well as issues of using the opportunities of volleyball classes in the formation of certain professional skills.

Key words: physical education, volleyball, teaching methods, professional activity, professional skills, volitional qualities.

Kirish. Dunyoda hozirgi vaqtda global raqobat shart-sharoitlari barcha sohalarda, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida, ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirish – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy ta'limiga bo'lgan talablarini oshirish, shuningdek, turli darajalar ularning faoliyatini chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Jahon sport fanida oliy o'quv yurtlari tizimida jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim jarayonini takomillashtirishning nazariy va uslubiy-texnologik jihatdan ta'minlashning aniq yo'llarini izlab topishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish Konsepsiyasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish ularning bo'lajak kasbiy faoliyatining asosiy turlarini inobatga olgan holda, ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifani amalga oshirish jismoniy tarbiya mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalarida tayyorlash tizimida ta'lim jarayonini nazariy va uslubiy-texnologik jihatdan ta'minlashning aniq yo'llarini izlab topish zaruriyatini belgilab beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi ularning oliy ta'lim muassasasida butun o'qish davri davomida fanlar majmuasini o'zlashtirish va fanlarga tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi. Bu fanlarning ahamiyati katta, chunki kasbiy mahoratning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar xuddi shu fanlarda o'zining aniq aksini topa oladi. Bu borada pedagogika oliy ta'lim muassasalarining jismoniy madaniyat fakultetlarida sport turi bo'yicha "Sport maxoratini oshirish" (SMO) fani muhim rol o'ynaydi.

SMO bo'yicha ta'lim jarayoni "Jismoniy tarbiya" mutaxassisligi, "Jismoniy tarbiya o'qituvchisi" malakasi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi kasbiy mahoratining asosiy tarkiblarini shakllantirishga, ya'ni, harakat faoliyatiga o'rgatish texnologiyasini o'zlashtirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish; kasbiy harakat ko'nikmalarini egallash, sport yutuqlari darajasini oshirishga qaratilgan.

Sport-pedagogik ko'nikmalar darajasi pedagog kasbiy mahoratining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarni egallashi ularda kasb bo'yicha

real jismoniy tarbiya va sport faoliyati sharoitlarida amaliyotga yo'naltirilgan vazifalarni unumli hal etishga tayyorlikni paydo qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirishda nafaqat bilim va ko'nikmalarning shakllantirish, balki bo'lajak kasbiy faoliyat subyekti shaxsining shakllantirilishi zarurligiga urg'u beriladi.

Demak, kasbiy-pedagogik faoliyat sifatini oshirishga bo'lgan obyektiv mavjud, talablar hamda bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida ularning takomillashuvi jarayonida kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantirish, shu maqsadda sport o'yinlari, jumladan, voleybolning imkoniyatlaridan foydalanish muammosining etarlicha ishlab chiqilmaganligi orasida ziddiyatlar kuzatilmoqda, aynan shu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi oliy pedagogik ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- voleybol vositalari va muammoli o'qitish tamoyillari asosida talabalarining kasbiy ko'nikma va shaxsiy sifatlarini shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish va asoslash;

- ishlab chiqilgan uslubiyatning bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy ko'nikmalari va shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ta'sirini tajribada sinab ko'rish va baholash.

Tadqiqot obyekti. "Sport mahoratini oshirish" fani bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti jismoniy madaniyat fakultetlarida sport pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha o'quv va sport faoliyati mazmuni va ularning tashkil etilishi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy pedagogik ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash muammosiga A.N.Abdiyev, S.I.Balandin, A.A.Gladishev, I.M.Zalyaletdinova, D.A.Zubkov, O.A.Krivko, E.F.Orexov, T.A.Polivaev, N.A.Xudayberdiyeva va boshqalar ishlar olib borishgan [2,3,4,5,6,7,8,9,10].

Mazkur ishlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiy faoliyatiga bo'lgan kasbiy tayyorgarlik mohiyati va mazmuni ochib berilgan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlik mazmuni hamda jarayoni takomillashtirishga ilmiy asoslangan yondoshuvlar taklif qilinadi. Biroq kasbiy tayyorgarlikning sport ixtisosligi vositalari yordamida shakllantirish masalalari kam tatbiq qilinganligicha qolmoqda.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonining turli bosqichlarida usullar majmuasidan foydalanildi, jumladan: jismoniy tarbiya ta'limi mazmuniga oid maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, hujjatli materiallarni tahlil qilish, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, tajriba ma'lumotlarini qayta ishlashning statistik usullari.

Tadqiqotning natijalari. Oliy o'quv yurtlari talabalarining o'quv mashg'ulotlarida kasbiy tayyorgarligi jarayonida voleybolni o'z ichiga olgan tajriba va amaliyotni o'rganish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan vositalar, tashkiliy-uslubiy texnikalar tizimini ishlab chiqish maqsadida dasturlar, o'quv rejalari va uslubiy ishlanmalar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda: ularning o'quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari etarlicha to'liq yoritilmagan.

Kasbiy-pedagogik faoliyat sifatini oshirishga bo'lgan obyektiv mavjud, talablar hamda bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida ularning takomillashuvi jarayonida kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantirish, shu maqsadda sport o'yinlari, jumladan, voleybolning imkoniyatlaridan foydalanish muammosining etarlicha ishlab chiqilmaganligi orasida ziddiyatlar kuzatilmoqda, aynan shu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi

Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining voleybol vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan uslubiyati samaradorligini o'rganish maqsadida Urganch davlat universiteti bazasida jismoniy madaniyat fakulteti talabalarining tayyorgarligi jarayonida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajriba uchta bosqichda o'tkazildi. Uning davomiyligi 2 yilni tashkil etdi. Har bir ta'lim bosqichida bittadan nazorat va bittadan tajriba guruhi aniqlab olindi, bu guruhlar tayyorgarlikning dastlabgi darajasi bo'yicha bir-biridan ishonchli ($R \leq 0,05$) farq qilmadi.

Nazorat guruhi talabalari uchun o'quv rejasi voleybolni boshlang'ich o'rgatish bo'yicha an'anaviy uslubiyatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, unga talabalar sportining o'ziga xosligini hisobga oluvchi o'zgartirishlar kiritildi. Tajriba guruhidagi mashg'ulotlarni rejalashtirish nazorat guruhi mashg'ulotlari o'quv rejasidan farq qilmadi, chunki har ikki guruh uchun bu bosqichdagi asosiy vazifa – voleybolni bosh-

lang'ich o'rgatish edi. Ishimizning mavzusiga muvofiq tajriba guruhi talabalari o'quv rejasiga tadqiqotimiz mavzusi – kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish hisobga oluvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Voleybolni o'qitishning pedagogik ko'nikmalarini shakllantirish bilan uyg'unlashtirish maqsadida voleybolga o'rgatishning birinchi o'quv yilining ikkinchi semestrndan boshlab nazorat va tajriba guruhlari-da pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha maxsus vazifalar va mashqlardan foydalanildi, tajriba guruhida esa yana pedagogik yo'nalish elementlariga ega muammoli o'qitish uslublari qo'llanildi. Ularning mohiyati mashg'ulot o'yinlari sharoitlarida shug'ullanuvchilar oldiga harakat vazifalarini qo'yishdan iborat.

Ushbu tajribani o'tkazishda ikkita vazifa qo'yildi:

1) muammoli o'qitish uslublariidan foydalangan holda, o'tkaziladigan mashg'ulotlarning talabalar pedagogik ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sirini aniqlash;

2) muammoli o'qitish uslublariinig tanlangan sport turi va ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatga ta'sirini aniqlash.

Tajribaviy uslubiyat murabbiy-o'qituvchi faoliyati to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, kasbiy ko'nikmalarining mohiyati va ahamiyati, shuningdek, ularni shakllantirish xususiyatlari ochib berildi. Talabalarga doimiy ravshda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan vazifalar taklif qilib borildi.

Birinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

Birinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti

T/r	Ta'lim jarayonining mazmuni	Tayyorgarlik davri					Musobaqa davri					O'tish davri		Umumiy soat
		IX	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Nazariy mashg'ulotlar. Voleybolning rivojlanish tarixi	1												1
2	Jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari	1												1
3	Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik		1											1
4	Voleybol texnikasi		1											1
5	Dam olish va mehnat tartibida jismoniy tarbiya va sport			1										1
6	Voleybol mashg'ulotlari jarayonida tibbiy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish			1										1
7	Voleybolchilarning psixik sifatlari va psixologik tayyorgarlik				1								t	1
8	Voleybol taktikasi				1									1
9.	Musobaqalar va hakamlik	1												1
	Jami soatlar	3	2	2	2									9
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Amaliy mashg'ulotlar. Umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	9	4	6	9	4	6	6	4	4			58
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	4	5	4	5	4	5	5	5	5	4		1	46
3	Texnika va taktikani o'rganish va takomillashtirish	10	12	14	14	12	13	13	13	9	8			118
4	Musobaqalarda ishtirok etish													
5	Nazorat me'yorlarini topshirish	3				3				3				9

Jami	23	26	22	25	28	22	24	24	21	16			231
Umumiy	26	28	24	26	29	22	24	24	21	16			240

Ikkinchi yil ta'lim olayotgan guruh uchun soatlar taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ikkinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti

T/r	Ta'lim jarayonining mazmuni	Tayyorgarlik davri					Musobaqa davri					O'tish davri			Umumiy soatlar
		IX	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1.	Nazariy mashg'ulot. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik	1											1		
2	Voleybol texnikasi		1											1	
3	Psixologik tayyorgarlik va o'z o'zini boshqarish			1										1	
4	Musobaqalarga tayyorgarlikni rejalashtirish				1									1	
5	Voleybol taktikasi					1								1	
6	Voleybolni o'rgatish uslubi-yati						1							1	
7.	Harakat tayyorgarligi							I						1	
	Jami soatlar	1	1	1	1	1	1	1						7	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	8	6	4	10	6	6	4	4	6			60	
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	4	6	4	6	6	4	4	6	6	4			50	
3	Texnika va taktikani o'rganish va takomillashtirish	12	14	12	14	10	12	12	12	14	4			116	
4	Musobaqalarda ishtirok etish														
5	Nazorat me'yorlarini topshirish	2				2					2			6	
	Jami	24	28	22	24	28	22	22	22	24	16			232	
	Umumiy	25	29	23	25	29	23	23	23	24	18			240	

Taklif etilgan vazifalarning bajarilishi talabalarni muayyan vazifalarni hal etayotgan murabbiy-o'qituvchi o'rniga qo'yishni nazarda tutgan edi. Kasbiy ko'nikmalarni egallash bosqichlariga muvofiq taklif qilinayotgan vazifalarning muntazam va izchil bajarilishiga alohida ahamiya qaratildi. Ajratib olingan us-tuvor ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini muntazam nazorat qilib borishni tashkil etadi.

Tadqiqotlardan olingan natijalar, umuman, voleybolning ham, muammoli o'qitish uslublarining ham 1-o'quv yili talabalariga kasbiy ko'nikmalarini hosil qilishga ijobiy ta'sir etganligidan darak beradi. Ular ko'p hollarda tahsil oluvchilar oldiga odatiy pedagogik vazifalarni qo'ydi. Jadvalda ko'rinib turibdiki, nazorat guruhidagi ekspert baholar 12% ga, tajriba guruhida 24% ga o'sgan.

Ikkinchi o'quv yilida ham xuddi o'sha shug'ullanuvchilar kontingenti bilan voleybol vositalari yor-damida pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish masalasini o'rganish davom etirildi. Mashg'ulotlar ishlab chiqilgan rejaga binoan o'tkazildi. Muammoli o'qitish uslublarining qo'llanilishi ijobiy natija berganligini inobatga olib, bu uslublardan nazorat guruhi talabalarini bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda foydalanishga qaror qildik.


Muammoli o'qitish uslublarini qo'llagan holda ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati birinchi bos-qichdagidek saqlab qolindi. Birinchi yilga nisbatan eng istiqbolli ko'nikmalarni aniqlash bo'yicha o'tkazil-gan tadqiqotga muvofiq avval shakllantirilgan 8 ta ko'nikmalarga sportchilarda mustaqil ishlash malaka-larini shakllantirish ko'nikmasi qo'shildi, mashqlarni murakkablik darajasi o'sib borishiga qarab joylash-tirish ko'nikmasi esa yanada murakkabroq ko'nikma – mashqni namoyish qilishni to'g'ri bajarish ko'nik-masi bilan almashtiriladi, chunki namoyish qilishni bajarishda bajarilayotgan harakatning asosiy texnik ji-hatlariga va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hatolarga diqqatni qaratish zarur bo'ladi.

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, birinchi o'quv yilida ishlab chiqilgan sinovdan o'tkazilgan pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati voleybolga o'rgatishning ikkinchi yilida ham

o'z samaradorligini tasdiqladi, sobiq nazorat guhida muammoli o'qitish uslublarining qo'llanilishi esa unga tajriba guruhi natijalariga yaqinlashib olishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan fakultetlarning 1-o'quv yili talabalarida jismoniy tayyorgarlik darajasi jismoniy madaniyat fakulteti talabalariga qaraganda ancha past bo'lganligi sababli, umumiy jismoniy tayyorgarlikka mashg'ulotlarning umumiy vaqtiga nisbatan 15% ga ko'proq vaqt ajratildi.

Maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, jasurlik, chidamlilik va o'zini qo'lga olish, mustaqillik hamda tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantirish jismoniy madaniyat fakultetlarinig ikkinchi o'quv yili talabalarini uchun qo'llanilgan uslubiyatga o'xshash uslubiyat bo'yicha amalga oshirildi. Samaradorlik pedagogik kuzatuv uslubi orqali aniqlandi, natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Irodaviy sifatlarning o'sib bo'rish darajasi (ballar)

A –tajribadan oldin; V – tajribadan keyin

- 1 – qat'iyatlilik va tirishqoqlik; 4 – chidamlilik va o'zini qo'lga ola bilish;
 2 – maqsadga intiluvchanlik; 5 – jur'at va jasorat.
 3 – mustaqillik va tashabbuskorlik;

1-rasmda ko'rinib turganidek, irodaviy sifatlarning o'sib borish darajasi quyidagicha bo'ldi: maqsadga intiluvchanlik – 75,4%; qat'iyatlilik va tirishqoqlik – 41,0%; jur'at va jasurlik – 46,2%; chidamlilik va o'zini qo'lga ola bilish – 82,3%; mustaqillik va tashabbuskorlik – 60,4%.

Boshqa mutaxassisliklar fakultetlari talabalarini bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar yakunlari asosida shular aniqlandiki, jismoniy madaniyat fakulteti uchun voleybolga boshlang'ich o'rgatish uslubiyatiga kiritilgan o'zgarishlar boshqa fakultetlar talabalarini bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda o'z samaradorligini tasdiqladi. Voleybolga boshlang'ich o'rgatish bosqichida texnik-taktik ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir vaqtda shakllantirish mumkin, chunki voleybol bilan ushbu sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Xulosalar. Ekspert baholash voleybolning ham, muammoli o'qitish uslublarining ham kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga ijobiy ta'sir etganligidan darak beradi. Ular tahsil olayotgan talaba oldiga ko'p hollarda odatiy pedagogik vaziyatlarni qo'yadi. Birinchi o'quv yilida ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati voleybolga o'qitishning ikkinchi yilida ham o'z samaradorligini tasdiqladi, nazorat guhida muammoli o'qitish uslublaridan foydalanish natijalar bo'yicha tajriba guruhiga yetib olish imkonini berdi. Talabalarining matanot va o'zini qo'lga ola bilishni mustaqil baholashlari natijalardan ko'rinib turibdiki, matonot hamda o'zini qo'lga ola bilish tuzilmasi yaxshi tamonga o'zgargan: irodaviy sifatlarning yuqori darajada namayon bo'lishi 30%ga o'sgan va ustunlik qilgan, yuqori darajada irodaviy sifatlarga ega sportchilar soni 40% gacha oshgan, past darajadagi irodaviy sifatlarga ega sportchilar soni 45% dan 15% gacha kamaygan. Shuningdek, individual yondashuvni talab qiluvchi qat'iyatlilik va tirishqoqlikni mustaqil baholash ko'rsatkichlarining yuqori darajasi muhim natija bo'lib, ular, mos ravshda, 8,5 va 64,3% ga o'sgan.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligi nazariy jihatdan asoslangan va amalda tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtiriish va ommlashtiriish chora-tadbirlari tўg'risida»gi. ПФ-5924-фармони, 24.01.2020 й.

(2). Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришининг илмий-педагогик асослари. Автореф. дис....д-ра пед наук, Тошкент, 2004, 56-бет.

(3). Баландин С.И. Междисциплинарный подход в подготовке кадров для области физической культуры и спорта. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, СПб., 2012, 24 с.

(4). Гладышев А.А. Формирование индивидуальной образовательной траектории студентов физкультурно-спортивного профиля на основе компетентностного подхода. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Нижневартовск, 2015, 20 с.

(5). Залялетдинова И.М. Развитие социально-профессиональной мобильности бакалавра физической культуры. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Ур.гос. ун-т физ. культуры, Челябинск, 2016, 23 с.

(6). Зубков, Д.А. Психолого-педагогическое сопровождение профессионального становления будущих специалистов по физической культуре и спорту: дис. канд. пед. наук, Д.А.Зубков. СПб., 2012, 187 с.

(7). Кривко, О.А. Формирование профессиональной компетентности педагога-тренера по спорту в процессе обучения в вузе. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Барнаул, 2013, 21 с.

(8). Орехов Е.Ф. Модернизация высшего профессионального образования в отрасли физической культуры и спорта в современных социокультурных условиях. Автореф.дисс... д-ра пед.наук, Калининград, 2012, с. 43.

(9). Поливаев, А.Г. Качество подготовки физкультурных кадров для общеобразовательной школы в педагогическом вузе: проблемы и перспективы. А.Г.Поливаев, А.В.Черемисов. Омский научный вестник, 2014, № 3, с. 167–170.

(10). Худайбердиева Н.А. “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагог кадрлар тизимини бошқаришда инновацион фаолиятни ривожлантириш механизмини яратиш”. Т., Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти, 2018, 148-бет.

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD);
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSIYALARNI SHAKLLANISH OMILLARI VA TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida innovatsiyalarni shakllanish omillari, innovatsiya tushunchasi va uning turlari, innovatsiyalarga asoslangan ta'lim jarayonini shakllantirish ahamiyati hamda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslari qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyatga tayyorlash, ilmiy faoliyat, ta'lim innovatsiyalari, integratsiya.

**Сапаев Умидбек Абдуллаевич (старший преподаватель, Ургенчский государственный университет,
д.ф.п.н. (PhD); umidbek.sapayev@inbox.ru)**

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ПРИНЦИПЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье кратко анализируются факторы формирования инноваций в процессе высшего образования, понятие инновации и ее виды, значение формирования образовательного процесса, основанного на инновациях, а также научные основы подготовки студентов к инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, подготовка к инновационной деятельности, научная деятельность, образовательные инновации, интеграция.

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (senior lecturer of Urganch State University, PhD,
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

FACTORS OF FORMATION OF INNOVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND PRINCIPLES OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY

Annotation. This article briefly analyzes the factors of formation of innovations in the process of higher education, the concept of innovation and its types, the importance of forming an educational process based on innovations, and the scientific basis of preparing students for innovative activities.

Key words: innovation, innovative activity, preparation for innovative activity, scientific activity, educational innovations, integration.

Kirish (Introduction). Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv faoliyatini tashkil qilish va sifatli ta'lim berishni amalga oshirish maqsadida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Ta'lim innovatsiyalari – bu ta'lim sohalarida yoki talabalarni o'quv faoliyatini tashkil qilish jarayonida mavjud yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni yangicha pedagogik yondashuvlar asosida yechimlarini samarali va kafolatli bo'lishiga xizmat qiluvchi yangi metod va texnologiyalarni yaratish va qo'llash imkoniyatlari tushuniladi [1].

Innovatsion faoliyat tushunchasi bilan aloqador bo'lgan muhim tushunchalardan biri bu insonning innovatsion salohiyati bo'lib, bu talaba yoki mutaxassis kadrlarning bilim darajasi, ilmiy salohiyati, bilim bazasi, shaxsiy ijobiy fazilatlarining rivojlanganligi va zamonaviy texnika va texnologiyalarni boshqara olish xususiyatlari bilan belgilanadi [2;33-b.]. Innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish esa oliy ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini vujudga keltirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish asosida belgilanadi.

O'rganilgan ilmiy manbalarga asosan, "innovatsiya" atamasi jarayon sifatida ko'riladi. Lekin chuqur ilmiy izlanishlarimizga asosan, shuni aytish joizki, "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalari bir-biriga o'zaro mazmunan yaqin bo'lsa-da, ular alohida ma'noga egadir. Innovatsion faoliyat yangi innovatsiyalarni yaratish, ularni o'zlashtirish hamda tarqatish jarayonlari bilan bog'liq hodisadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Pedagogik tahlillar va ilmiy tadqiqot natijalariga asosan, ta'lim innovatsiyalari quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: 1) pedagogik jarayonlarda qo'llaniladigan innovatsiyalar; 2) ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: 1) radikal innovatsiyalar; 2) modifikatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: 1) tarmoq innovatsiyalari; 2) modul innovatsiyalari; 3) tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbayiga ko'ra: 1) jamoa tamonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar; 2) o'zlashtirilgan innovatsiyalar [3;11-b.].

Keltirilgan tasniflarga asoslangan tarzda shuni takidlash mumkinki, mamlakatimiz hayotining barcha javhalarida ijobiy va samarali yuksalishlarni vujudga kelishi, jamiyatning barcha sohalaridagi muammoli vaziyatlarni yangicha yechimlarini topishi, oliy ta'lim sohasini va talabalarga bilim berish jarayonlarini yuksak darajalarga ko'tarish, faqatgina innovatsion yundashuvlar asosida tashkil qilish bilangi amalga oshirish mumkun bo'ladi.

Adabiyotlarda "innovatsiya" atamasi texnika va texnologiyalar sohalariga yangiliklar kiritish, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ma'muriy boshqaruv yo'nalishlarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi tub islohotlarni kritish va yangiliklarni joriy qilish, ilm-fan sohalarida yangi metod va ta'lim texnologiyalarini qo'llash ma'nosida talqin qilinadi [4].

V.M.Palterovichning ilmiy kuzatishlariga asosan, innovatsiyalarni davlatlar tomonidan yangilik sifatida takroriy joriy qilinayotgan va jahonda ilk marotaba qo'llanilayotgan innovatsiyalarga ajratib o'rganishni taklif qiladi [5].

Hozirgi davrda har bir sohada innovatsiyalarni joriy etish kundalik ehtiyoj sifatida ko'rilmogda. Shuning uchun innovatsiyalarni yaratish va uni amaliyotga joriy etish masalasi keng tushunchadir bu nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlaridagi yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, balki davlat va jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ma'muriy boshqaruv sohalaridagi yangiliklar va asosiy ta'lim jarayonida yaratiladigan yangiliklarni aytishimiz mumkin bo'ladi [6].

Oliy ta'lim jarayonini innovatsion tarzda tashkil qilish, talabalarning innovatsiyalar bilan shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish va oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari va texnik xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasida integratsiyani amalga oshirish natijasida texnika yo'nalishidagi talabalarni innovatsion fikrlashlarini amaliyotga yaqinlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish, shuningdek, mustaqil ilmiy faoliyat yuritish va zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan mutaxassislar bo'lib yetishishlariga imkoniyat beradi. Bu borada ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar.

Jumladan, U.N.Xodjamqulov tamonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida O'zbekiston ta'lim tizimini yangi innovatsiyalarga asoslangan "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" modeli asosida tashkil qilinishi taklif qilinadi [7;11-b.]. Taklif qilinayotgan modelning asosiy vazifasi yuksak darajadagi ilmiy salohiyatga ega va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida pedagogik ilmiy aloqalarni yo'lga qo'yish va uni tizimlashtirish natijasida kuchaytirish, talabalarni ta'lim jarayonlariga uyg'un holatda ishlab chiqarish va ta'lim sohasiga mos bo'lgan xizmat ko'rsatish tarmoqlarida o'zaro manfaatli tarzda amaliy natijalarga erishish, ta'lim jarayonlari bilan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida uzoq maqsadli, ko'p yo'nalishli aloqalarni yo'lga qo'yish. Innovatsiyalarni rivojlantirish va rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri universitetlarning infratuzulmasini yaratishdan iboratdir.

San-Fransiskolik olimlar R.Evans va R.Leppmannlar innovatsiyani ikki kichik komponentga ega ekanini ta'kidlaydi. Birinchisi, bu ma'lum bir shaxs yoki guruh uchun yangilik bo'lgan g'oya yoki narsa,

ikkinchidan, obyekt yoki g'oyani qabul qilish natijasida yuzaga keladigan o'zgarish deb baholaydilar [8; 16-b.].

Keyinchalik, bu firklarni kaliforniyalik olim Peter Serdyukov rivojlantirib, innovatsiya uchta katta bosqichni talab qiladi: g'oya, uni amalga oshirish va g'oyani amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan natija deb ta'kidlaydi. Ta'limda innovatsiyalar yangi pedagogik nazariya, uslubiy yondashuv, o'qitish texnikasi, o'qitish vositasi, o'quv jarayoni yoki institutsional tuzulma sifatida paydo bo'lishi mumkin, bularni amaliyotga joriy qilish natijasida esa talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshishiga olib keladi [9;8-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta'lim jarayonida nafaqat yuksak darjadagi nazariy bilimlarga va kasbiy tushunchalarga ega, shu bilan birga, o'zlashtirilgan bilimlarni qanday qilib amaliyotga joriy qilishni biladigan va o'qish yakunida innovatsiyalarga asoslangan mahsulot, texnologiya yoki xizmatni taqdim etishga tayyor bo'lgan mutaxassislarini tayyorlab, jamiyat ehtiyojlarini to'laqonli qondirishi kerak. Oliy ta'lim jarayonlari talabalarga o'zining innovatsion fikrlarini shakllantirishga va uni innovatsion tavar yoki xizmat turiga olib kelishiga hamda yaratilgan mahsulotlarni bozorda qanday innovatsion usullarda xaridorlarga takliflarni amalga oshirishga imkoniyat beruvchi yuksak darjadagi pedagogik shart-sharoitlarni tashkillashtirishi lozim bo'ladi [10].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy bilimlarga tayangan holda, innovatsion texnika va texnologiyalarni rivojlantirish natijasida milliy rivojlanish tizimiga erishish va natijada mamlakatning barqaror iqtisodiy munosabatlarini shakllantrish imkoniyati vujudga keladi. Bu degani, ta'lim jarayonida yaratilgan innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda tayyor mahsulot holiga keltirishning asoslarini ishlab chiqarish bilan oliy ta'lim o'rtasidagi integratsiyani maqsadli shakllantirish bilan izohlash mumkin bo'ladi [11].

Oliy ta'lim jarayonlariga davlatimiz tomonidan ma'lum ta'lim standartlari joriy qilingan bo'lib, bunga, asosan, o'quv fanlarining bloklari mazmunida "Ta'lim va tarbiya jarayoning mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlash lozim" deb belgilanganligiga alohida ahamiyat qaratilgan [12;12-b.]. Belgilangan talabalarga tayangan holda ta'lim jarayonini amalga oshirish, talabalarning innovatsion tafakkur kengliklarini shakllantirish, talabalarni innovatsion faoliyatlarga jalb qilish ishlarini tashkillashtirish, kasbiy va shaxsiy qiziqishlarini uyg'unlashtirish va doimiy innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishlarini ta'minlash zarur hisoblaniladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari talabalaridan innovatsion faoliyat haqidagi bilimlarni va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Chunki innovatsion faoliyat mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat yurgizishning asosiy manbaya bo'libgina qolmay, balki barcha shaxslar uchun ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, intellektual salohiyatlarini yuksak darajada rivojlantirish, o'z shaxsiy faoliyatiga va kasbiy rivojlanishiga nisbatan individual xususiyatlarini takomillashtirish va mehnatga bo'lgan ijodiy yundashuvlarini innovatsion imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Sapayev U.A. Talabalarning innovatsion faoliyat madaniyatiga ta'sir qiluvchi omillar. "Ilm sarchashmalari", 2022, 8-son, 102–104-betlar.
- (2). Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doktor of Science) ilmiy darajasini olish yozilgan diss., Toshkent, 2018, 260-bet.
- (3). Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma, Toshkent, 2015, 208-bet.
- (4). Ковалёв Г.Д. Основы инновационного менеджмента. М., 1999, с, 192.
- (5). Akabirova D.N. Innovatsion strategiya. O'quv qo'llanma, Toshkent, TDIU, 2007, 32-bet.
- (6). Латипова М.М. Управление инновациями на горных предприятиях. Горный информационно-аналитический бюллетень. № 3/2007//[хттп://www.gornaya-kniga.ru/периодис/914](http://www.gornaya-kniga.ru/периодис/914)
- (7). Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida (pedagogik ta'limni klashterlashtirishning zarurati). Zamonaviy ta'lim, ilmiy jurnali. T., 2019, 10(83,) 10–15-betlar.
- (8). Evans R. and Leppmann P., Resistance to Innovation in Higher Education, Jossey-Bass Publishers Inc., San Francisco, CA, (1970).
- (9). Peter Serdyukov, La Jolla. Innovation in education: what works, what doesn't, and what to do about it? The current issue and full text archive of this journal is available on Emerald Insight at: www.emeraldinsight.com/2397-7604.html.

(10). M.S.Чванова, Н.А.Котова. Формирование инновационной образовательной среды в вузе как современная потребность социума//нкотова01@яндех.ру. Психолого-педагогический журнал “Гаудеамус”, №1 (23), 2014, с. 44–51.

(11). Б.Ю.Сербиновский, Б.Б.Сербиновский, Л.М.Егорова. Инновационная модель и интегрированная информационная среда в управлении университетом нового типа. Южный федеральный университет, Новочеркасск, ЮРГТУ (НПИ), 2009, 226 с.

(12). O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘limining me‘yoriy hujjatlari. Toshkent, 2001, 138-bet.

**Tursunova Gulnoza Qahorovna (QarshiMII “Umumiy kimyo” kafedrasida katta o‘qituvchisi)
KIMYOVIY JARAYONLARGA OID MASALALAR YECHISHDA TALABALARNING
TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLILIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Annatsiya. Maqolada, texnika oliy o‘quv yurtlarida anorganik kimyodan o‘tiladigan mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan “Erishda bo‘ladigan issiqlik hodisalari” hamda “Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti”ga oid masala yechish bilan talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: modda, erish, neytrallanish, issiqlik effekti, suv, tuz, kislota, gradus, gidratlanish, ionlar, eritmalar, termodinamik, entropiya, entalpiya.

Турсунова Гулноза Кахаровна (Каршинский ИЕИ, старший преподаватель кафедры “Общая химия”)
**ПОВЫШЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПРИ
РЕШЕНИИ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С ХИМИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ**

Аннотация. В статье раскрываются возможности развития исследовательских компетенций студентов путем решения задач, связанных с “Тепловыми явлениями при плавлении” и “Тепловым эффектом химических реакций” изучаемыми на занятиях по неорганической химии в технических вузах.

Ключевые слова: вещество, растворение, нейтрализация, тепловое воздействие, вода, соль, кислота, градус, гидратация, ионы, растворы, термодинамика, энтропия, энталпия.

Tursunova Gulnoza Kakharovna (Karshi Engineering and Economics Institute, Senior Lecturer, Department of General Chemistry)

**IMPROVING STUDENTS-RESEARCH COMPETENCE IN SOLVING PROBLEMS RELATED
TO CHEMICAL PROCESSES**

Annotation. The article reveals the possibilities for developing students’ research competencies by solving problems related to “Thermal phenomena during melting” and “Thermal effect of chemical reactions” studied in inorganic chemistry classes at technical universities.

Key words: substance, dissolution, neutralization, thermal effect, water, salt, acid, degree, hydration, ions, solutions, thermodynamics, entropy, enthalpy.

Kirish. Texnika oliy o‘quv yurtlarida anorganik kimyo kursini o‘rganishda va kimyoviy reaksiyalarning energetikasiga oid hisoblashlar va tajribalar o‘tkazishga ham katta ahamiyat beriladi. Lekin kimyoviy jarayonlarda energiya ajralish yoki yutilining ko‘rsatuvchi tajribalar o‘tkazish uchun standart asboblar yo‘q. Biz o‘z tajribamizda qo‘llab kelayotgan oddiy asbob–kalorimetr yordamida termokimyoviy hisoblashlar erish va gidratlanishda ajraladi (yutiladi)gan issiqlik miqdorini o‘lchash va shu asosda hisoblashlar o‘tkazish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar. “Erishda bo‘ladigan issiqlik hodisalari”, “Neytrallanish reaksiyasi”, “Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti”, “Termokimyoviy tenglamalar bo‘yicha hisoblashlar”, “Neytrallanish reaksiyasining issiqligini aniqlash” kabi mavzularda oddiy tajribalar o‘tkazish orqali hisoblash ishlarini amalga oshirish nazarda tutiladi [1].

Ushbu maqolada, biz anorganik kimyodan o‘tiladigan mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan “Erishda bo‘ladigan issiqlik hodisalari” hamda “Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti”[2]ga oid masala yechish metodikasi haqida o‘z tajribamizni bayon qilmoqchimiz. Erishga oid tajriba quyidagicha o‘tkaziladi: ikki talaba apteka tarozida ammoniy xlorid tuzidan 2 yoki 5 g hamda o‘lchov silindrida 2 yoki 10 ml sulfat kislota o‘lchab oladi (tajriba uchun suvda yaxshi eriydigan istalgan birikmani olish mumkin). Boshqa bir talaba esa 20 – 30 ml yoki 40 – 50 ml suv o‘lchab, probirkaga qo‘yadi. So‘ngra probirkaning og‘zini termometrli probka bilan bекitib, suvning temperaturasini 2 – 3 minut davomida o‘lchab, alohida daftarga yozib qo‘yadi. Tajriba ma‘lumotlarini hamma talabalar o‘z daftarlariga yozib boradilar. Keyin tajriba asosida masala tuziladi. Masalan, 2 g ammoniy xlorid tuzi 30 ml suvda eritilganda temperatura 3⁰C ga pasaydi. Tuzning erish issiqligini hisoblang

Tadqiqot metodologiyasi. Fizika kursidan ma'lumki, biror jism qizitilganda yoki sovitilganda sarflangan yoki yutilgan issiqlikning miqdori, uning solishtirma issiqlik sig'iminin modda massasiga va temperatura o'zgarishining ko'paytmasiga teng, degan qoidaga muvofiq u quyidagi formula asosida yechiladi [3].

$$q = cm \cdot \Delta t. \quad (1)$$

Bunda: C – moddaning solishtirma issiqlik sig'imi bo'lib, tajribada aniqlangan qiymati $C_{H_2O} = 4,18 \frac{J}{g}$ gradusga teng, m – erituvchi moddaning gramm hisobidagi massasi, Δt esa $(t_1 - t_2)$ yoki $(t_2 - t_1)$ temperaturaning o'zgarishi. U holda quyidagi formulani keltirib chiqaramiz:

$$q = cm \cdot \Delta t = 4,18 \frac{J}{g \cdot ^\circ C} \cdot 30g \cdot 3^\circ C = 376,8J.$$

Erish issiqligi (ya'ni 1 mol moddaning erish issiqligi) Q bilan, berilgan ayni modda miqdorining erish issiqlik effekti esa Q bilan ifodalanadi. Bu ikki kattalik orasidagi bog'lanish

$$q = Q \frac{m}{\mu}, \quad (2)$$

(2) tenglama bilan ifodalanadi. Bu yerda: m – erigan moddaning massasi, μ erigan moddaning molekular og'irligi. U holda (1) tenglamaga Q ning qiymatini qo'yib, erish issiqligi Q ni hisoblaymiz:

$$q = Q \frac{m_{NH_4Cl}}{\mu_{NH_4Cl}} = 376,8J,$$

dir. Bundan

$$Q = \frac{376,8J \cdot \mu_{NH_4Cl}}{m_{NH_4Cl}} = \frac{376,8 \cdot 53,5}{2} 10802,0 \frac{J}{mol} = 10,80 \frac{kJ}{mol},$$

bo'ladi. Bu asbob yordamida turli elektrolitlarning suvda eriganda ajralgan yoki yutilgan issiqlik miqdorini hisoblash mumkin.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim kimyo kursida, asosan, suvli muhitda o'tadigan kimyoviy jarayonlar o'rganiladi. Moddalarning erishida eruvchining ion yoki molekulari bilan erituvchining molekulari orasida birikish, boshqacha aytganda, ion yoki molekularlarning gidratlanishi sodir bo'ladi. 1 mol modda ko'p miqdorda (300–400 mol) suvda eriganda ajraladigan (yutiladigan) issiqlik miqdori o'sha moddaning gidratlanish issiqligi deyiladi. Gidratlanish jarayonida issiqlik ajraladi [4]. Qattiq moddalarning erishida gidratlanishdan tashqari, modda kristall panjarasining yemirilishi kuzatiladi, bunda issiqlik yutilishi sodir bo'ladi. Gidratlanish va kristall panjara yemirilishi jarayonlarining issiqlik effekti bir-biri bilan qo'shilib, erishdagi umumiy issiqlik effektini hosil qiladi. Agar erish issiqligini Q bilan gidratlanish issiqligini Q_1 bilan va kristall panjaraning yemirilish issiqligini Q_2 bilan belgilasak, u vaqtda quyidagi formulani keltirib chiqaramiz: $Q = Q_1 + (-Q_2) = Q_1 - Q_2$ (ilmiy adabiyotlarda va ba'zi metodik qo'llanmalarda, Q o'rniga entalpiya o'zgarish ΔH olinadi). Agar $Q_1 > Q_2$ bo'lsa musbat, agar $Q > Q_2$ bo'lsa, manfiy qiymatli issiqlik effekti hosil bo'ladi. Bordi-yu $Q_1 = Q_2$ bo'lsa, u holda $Q = 0$ bo'ladi, ya'ni issiqlik effekti kuzatilmaydi. Shunga asoslanib erishning issiqlik effektiga doir xilma-xil hisoblashlar o'tkazish mumkin [5].

1-masala. $CaCl_2 \cdot 6H_2O$ suvda eriganda issiqlik yutiladi, uning erish issiqligi – $180 \frac{kJ}{mol}$ ga teng.

5 g suvsiz $CaCl_2$ ning 35 g suvda eritilsa, temperatura $1,96^\circ C$ ortadi. $CaCl_2$ ning gidratlanish issiqligini hisoblab toping.

Yechish: Suvsiz $CaCl_2$ ning erish issiqligini hisoblaymiz. Buning uchun (1) va (2) tenglamalarni jamlab Q ni topamiz: $Q = \frac{C \cdot m_{H_2O} \cdot \Delta t \cdot \mu_{CaCl_2}}{m_{CaCl_2}}$ masalada berilgan qiymatlarni o'rniga qo'yilganda

$$Q = \frac{4,18J \cdot \frac{g}{^{\circ}C} \cdot 352 \cdot 1,96^{\circ}C \cdot 111 \frac{g}{mol}}{5g} = 63766 \frac{J}{mol} = 63,76 \frac{kJ}{mol}.$$

Suvsizlantirilgan $CaCl_2$ ning erish issiqligi Q gidratlanish issiqligi Q_1 va kristall panjara yemirili-shining issiqligi Q_2 yig'indisiga teng bo'lgani uchun, ya'ni $Q = Q_1 + Q_2$, $63,76kJ = Q_1 + (\sim 18,00kJ)$ bo'ladi. Bundan $Q = 63,76kJ + 18,00kJ = 8176kJ/mol$ kelib chiqadi.

Shunday qilib, erish jarayoni suv molekularini tuz kristallidagi ionlarning o'zaro tortishish kuch-larini yemirib, o'sha kristall ionlari bilan birikib, gidratlangan ionlar kompleksini hosil qilishini tushuntiri-ladi. Agarda Q_1 gidratlanish issiqligi ($\Delta H \pm gidrat$) absolut qiymati jihatidan kristall panjara energi-ya-sidan yuqori bo'lsa, u holda, tuz eriydi. Masalan, litiy xloridning kristall panjara energiyasi $842kJ/mol$, kristall panjarani hosil qiluvchi ionlarning gidratlanish issiqliklari esa $882,8kJ/mol$. Bu qiymatlar ora-sidagi farq $882,8 - 842,0 = 41kJ$ ga teng. Demak, litiy xloridning erishi ekzotermik jarayondir. Boshqacha aytganda, ayni holdagi gidratlangan ionlarning hosil bo'lishida ajralgan issiqlik miqdori, tuz kristallari ion-larining bog'larini uzilishiga sarflanadigan energiya miqdoridan ko'proqdir.

Kaliy xlorid tuzini erishida boshqacha manzara kuzatiladi. Kristall panjaraning enregiyasi $703kJ$ ga teng. Kaliy va xlor ionlarining gidratlanish issiqliklari yig'indisi $690kJ$. Bundan ko'rinadiki, kristall panj-ara energiyasi bilan gidratlanish issiqligi qiymatining yig'indisi $(703 - 690) = 13kJ/mol$ bo'lgani uchun tuzning suvda erish jarayoni issiqlik yutilishi bilan boradi, bu endotermik jarayondir.

Osh tuzi kristall panjarasining energiyasi $774kJ/mol$, natriy va xlor ionlarining gidratlanish issiq-liklari yig'indisi $774kJ$ teng. Shuning uchun osh tuzining erish issiqligi amalda nolga tengdir.

Ba'zi moddalarning kristall panjara energiyasi.

1-jadval

Ionlar	Moddalar kristall panjarasining energiyasi, kJ/mol				
	F^-	Cl^-	Br^-	I^-	OH^-
Li^+	1024	842	802	748	854
Na^+	909	774	741	694	884
K^+	805	703	677	637	790
Rb^+	774	678	654	618	776
Cs^+	732	646	625	592	720

2-jadval

Suvli eritmadagi ionlarning gidratlanish ($-\Delta H_h^0$) issiqlik effekti

Ion	ΔH_h^0 kJ/g ion	Ion	ΔH_h^0 kJ/g ion
Li^+	-531,4	Ba^{2+}	-1338,9
Na^+	-422,6	Rb^{2+}	-1514,6
K^+	-338,9	NO_3^-	-309,6
Rb^+	-313,8	Mg^{2+}	-1953,0
Cs^+	-208,3	Al^{3+}	-4707,0
Zn^{+2}	-2075,3	Fe^{2+}	-1952,9
Sr^{2+}	-1476,9	Ni^{2+}	-2136,0
NH_4^+	-326,3	F^-	-485,3
Hg^+	-1850,3	Cl^-	-351,4
OH^-	-510,4	Br^-	-3177,9
H^+	-1108,7	I^-	-208,3
Ag^+	-489,5	SO_4^{2-}	-1108,7

Cu^{2+}	-2129,6	CO_4^{2-}	-1389,1
Ca^{2+}	-1615,1		

Kumush xlorid kristall panjarasi energiyasining qiymati 903 kJ/mol ga kumush va xlor ionlarining gidratlanish issiqliklari qiymati esa 841 kJ/mol ga teng. Demak, kristall panjara bog'larini ajratish kabi endotermik jarayonni amalga oshirishga nisbatan (903–841).

62 kJ/mol ko'p energiya talab qilinadi. Agar kristall panjara energiyasi, ionlarning gidratlanish issiqliklari qiymatidan ancha yuqori bo'lsa, elektrolitning erish jarayori amalda kuzatilmaydi. Kimyoviy o'zaro ta'sirlarni bir-biri bilan solishtirish va taqqoslashda reaksiyalarning issiqlik effekti qiymatlaridan foydalaniladi. Issiqlik effektlarining miqdor qiymatlari standart holat (1 atm bosim va 25°C)da olinadi. Gidratlanish hodisasi xilma-xil kimyoviy o'zaro ta'sirlarning mohiyatini tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega. Suvdagi eritmalarda ionlar faqat gidratlangan holda bo'ladi. Gidratlangan ionlar xossalari jihatidan gazsimon bo'lib, kristall tarkibidagi ionlardan keskin farq qiladi. Masalan, suvsiz tuz $CuSO_4$ rangsiz, suvli eritmasi esa havorang tusda bo'ladi. Bu rang misning gidratlangan ionlaridir. Shuning uchun ham gidratlangan ionlarni $K_{(e)}^+$, $NO_{3(e)}^-$ ishoralar bilan (e -eritmada) belgilanadi.

2-masala. Agar suvsiz $SrCl_2$ ning suvda erish issiqligi $+47,8 \text{ kJ/mol}$ bo'lib, $SrCl_2 \cdot 6H_2O$ ning erish issiqligi $-31,0 \text{ kJ/mol}$ bo'lsa, suvsiz $SrCl_2$ ning kristallgidratga aylanish issiqligini hisoblang.

Yechish. Erish issiqligi effektini hisoblash formulasi $Q = -Q_2 + Q_1$ ga asosan, qiymatlar o'rniga qo'yilganda, $+47,8 = -31,0 + Q$ bo'ladi. Gidratlanish natijasida ajralib chiqqan issiqlik ikki jarayon uchun sarflanadi:

1. Kristall panjaraning yemirilishi va 2) hosil bo'lgan $SrCl_2 \cdot 6H_2O$ gidratlarining erishi uchun ketadi. Demak, $Q = Q_2 + Q_1$; $Q_1 = +31,0 + 47,8 = 78,8 \text{ kJ/mol}$ bo'ladi.

3-masala. Kislotani ishqor bilan neytrallaganda, 1 g/mol suv hosil bo'lishi natijasida $57,3 \text{ kJ}$ issiqlik ajraladi. Kalorimetrga ko'p miqdordagi HCl ga 50 ml KON eritmasi qo'yilganda, 8598 joul issiqlik ajraladi. Reaksiya uchun olingan ishqor eritmasining mol konsentratsiyasini hisoblang.

Yechish. a) $8598 \text{ J} = 8,6 \text{ kJ}$ ga teng; $1 \text{ mol} : 57,3 \text{ kJ} = X \text{ mol} : 8,6 \text{ kJ}$ bo'lsa,

$$X = \frac{1 \text{ mol} \cdot 8,6 \text{ kJ}}{57,3 \text{ kJ}} = 0,15 \text{ mol}$$
 bo'ladi;


b) reaksiyaga kirishgan (50 ml KON) ishqorning miqdori 1000 ml dan 20 marta kam ($1000:50 = 20$) bo'lgani uchun; $0,15 \text{ mol} \cdot 20 = 3,00 \text{ mol/l}$ bo'ladi.

Kimyoviy jarayonni termodinamik jihatdan tasvirlash uchun Q ning o'rniga Δt qabul qilingan. Ekzotermik jarayon ΔH "minus" ishoraga ega. Buning fizik ma'nosi shuki, izotermik reaksiya sodir bo'lganda, dastlabki moddalarning ichki energiya zapasi kamayadi. Endotermik protsess ΔH "plus" ishoraga ega. Demak, bu jarayonda sistemaning ichki energiyasi ortadi.


Tabiatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlarda ikki manzara kuzatiladi: 1) moddalar o'zining erkin energiyasini eng kichik qiymatga keltirishga intiladi (bu jarayon vaqtida issiqlik ajraladi); 2) kimyoviy sistema o'zining tartibsizligini eng yuqori holatga yetkazish uchun intiladi (bu vaqtda issiqlik yutiladi). Agar kimyoviy jarayon vaqtida sistemaning entalpiyasi (energiya zapasi) o'zgarmasa, $\Delta H = 0$ bo'lsa, kimyoviy jarayon natijasida entropiya ortadi, ya'ni $\Delta S > 0$ bo'ladi. Bordi-yu, kimyoviy jarayon vaqtida entropiya o'zgarmasdan qolsa, u holda entalpiya o'zgaradi, ya'ni $\Delta H < 0$ bo'ladi. Ko'pincha, kimyoviy jarayonlarda ham, entalpiya ham entropiya bir vaqtda o'zgaradi.

4-masala. Bir mol temir (III)-oksid alumotermik usul bilan qaytarilganda, ajraladigan issiqlik miqdorini hisoblang. Oksidlarning hosil bo'lish issiqligi $q_{Al_2O_3} = 1671 \text{ kJ}$, $q_{Fe_2O_3} = 741 \text{ kJ}$ dir.

Yechish. Bu masala Gess qonuniga asosan yechiladi. Reaksiya tenglamasi ostiga qiymatlar yoziladi:



U holda $Q = q_2 - q_1 = 1671 - 741 = 930 \text{ kJ}$. Demak, reaksiyada 930 kJ issiqlik ajraladi, termokimyoviy tenglama quyidagicha yoziladi:




Ba'zi ionlarning suvli eritmalaridagi standart entalpiya ΔH_{298}^0 va entropiya ΔS_{298}^0 qiymati.

3-jadval

Ionlar	ΔH_{298}^0 kJ · g / ion	ΔS_{298}^0 J / g · ion · °C	Ionlar	ΔH_{298}^0 kJ · g / ion	ΔS_{298}^0 J / g · ion · °C
H^+	0	0	NH_4^+	-132,4	112,8
Li^+	-278,4	14,2	NO_2^-	-106,3	125,1
Na^+	-239,6	60,2	NO_3^-	-206,6	146,4
K^+	-251,2	102,5	PO_4^{3-}	-1284,1	-218
Ag^+	-105,9	73,9	SO_3^{2-}	-636,1	-29,3
Cu^{2+}	64,4	-98,7	SO_4^{2-}	-907,5	17,2
Mg^{2+}	-461,9	118,0	F^-	-329,1	-9,6
Ca^{2+}	-542,9	-55,2	Cl^-	-167,4	-55,1
Sr^{2+}	-545,1	-26,4	Br^-	-120,9	-80,7
Ba^{2+}	-538	13	J^-	-55,9	109,4
Zn^{2+}	-152,4	-106,2	Mn^{2+}	-218,8	80,0
Cd^{2+}	-72,4	-61,1	Fe^{2+}	-87,9	-113,4
Hg^{2+}	174,0	-22,6	Fe^{3+}	-47,7	-293,3
Al^{3+}	-524,7	-313,4	Ni^{2+}	-64,0	-123,0
Rb^{2+}	1,63	21,3			
OH^-	-230,0	-10,5			
CO_3^{2-}	-676,3	-53,1			

Berilgan miqdor qiymatlardan foydalanib, (3-jadval) metall ionlari orasida bo'ladigan reaksiyalar-ning qaysi tomonga qarab borishini oldindan bilish mumkin. Masalan, metall holidagi temir Cu^{2+} ionlari bo'lgan eritma ($CuSO_4$) bilan reaksiyaga kirishib, uni toza metall holiga qaytariladi:



ning olingan qiymati manfiy, ammo kattalik jihatidan oz. Reaksiya standart sharoitda to'g'ri yo'nalishda boradi. Reaksiyada ΔH ning ishorasiga ko'ra, reaksiya qaysi yo'nalishda borishini faqat past temperatura-lardagina oldindan aytish mumkin.

Ma'lumki, metallarning tuz va kislota eritmalarini bilan bo'ladigan reaksiyasidagi kimyoviy "aktivlik" energetik jihatdan izohlanmaydi. Buni quyidagi misoldan ko'rish mumkin.

5-masala. 3-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, $Fe_{(k)}^0 + 2H_{(e)}^+ = Fe_{(e)}^{2+} + H_2$ (gaz) reaksiya uchun ΔH^0 va ΔS^0 qiymatlarini hisoblang, reaksiyaning yo'nalishini tushuntiring.

Yechish. 1) ΔH^0 ning qiymatini topamiz: $\Delta H_{reak}^0 = -87,9 - 0 = -87,9 \frac{\text{kJ}}{\text{g} \cdot \text{ion}}$. Vodorodning gid-

ratlangan ionlari (H^+) uchun bu qiymatlar nolga teng deb qabul qilingan. Bu reaksiya odatdagi sharoitda to'g'ri yo'nalishda borishi mumkin. Chunki ΔH^0 manfiy ishoraga ega va absolut qiymatga yaqin (21 kkal);

2) reaksiya tenglamasidan ma'lumki, jarayon gazsimon modda molekullari sonining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, reaksiya natijasida entropiya ortadi, ya'ni $\Delta S > 0$.

$$\Delta S_{reak}^0 = 113,4 - 0 = -113,4 \frac{\text{J}}{\text{g} \cdot \text{ion} \cdot ^\circ\text{C}}$$

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kimyoviy jarayonlarning borish qonuniyatlarini tushuntirishda fizik kattaliklardan foydalanish materialning talabalar tomonidan ilmiy asosda chuqur tushunib olishga imkon beradi. Kimyoviy jarayonlarga oid masalalar yechishda talabalarning tadqiqotchilik kompetentliklari tarkib topib, rivojlanib boradi. O'qituvchi ta'limning turli metod va usullaridan foydalanib, o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishi, talabalar bilimining chuqur va puxta bo'lishiga erishuvi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1).Raxmatullayev N.G., Toshpo'latov Y.T., Iskandarov O.Y. Noorganik kimyodan masalalar yechish. T., 2003.
- (2). Yoriyev O.M., Sharipov M.S., Mavlyanov H.N., Xafizov A.R. Umumiy kimyo va noorganik kimyodan masala va mashqlar to'plami. T., "Avto nashr", 2008.
- (3). Tursunov Q.Sh. Tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishda modellashtirish. Monografiya, Toshkent, «DAVR PRESS» NMU, 2018, 185-bet.
- (4). Tursunova G.Q. Kimyo o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma, Qarshi, "Intelekt" nashriyoti,– 2023, 215-bet.
- (5). Tursunov Q.Sh., Tursunova G.Q. Tabiatning asosiy qonunlarini fanlararo integratsiya asosida tushuntirish. "Zamonaviy ta'lim", Toshkent, 2019, 8-son, 51–55-betlar.

Nabijonova Gulnoza Valijon qizi (Namangan Muhandislik-qurilish instituti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedra 1-kurs doktoranti; gnabijonova1@gmail.com)
BO'LAJAK QURUVCHI-MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI XORIJIY TILLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

***Annotatsiya.** Bo'lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida rivojlantirish, albatta, dolzarb ilmiy-pedagogik muammo deb hisoblanadi. Yuqoridagi masalani o'rganish bir necha jihatdan muhimdir. Bo'lajak quruvchi-muhandislar uchun kasbiy kompetensiya rivojlanishi, global qurilish sanoatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ham muhimdir. Xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tili, qurilish sohasida zamonaviy bilimlar va ko'nikmalarni egallashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi maqolada bo'lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy talab, integratsiya, bilim, ko'nikma, malaka, qurilish va lingvistika, mintaqaviy loyiha, innovatsion usul, zamonaviy texnologiya, metodologiya, dastur, analitika, nazariy bilim.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СТРОИТЕЛЕЙ-ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ КАК НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

***Аннотация.** Развитие профессиональной компетентности будущих строителей-инженеров на основе иностранных языков, безусловно, считается актуальной научно-педагогической проблемой. Изучение вышеуказанного вопроса важно по нескольким причинам. Развитие профессиональных компетенций будущих инженеров-строителей имеет решающее значение для успешной работы в мировой строительной отрасли. Иностранные языки, особенно английский, играют важную роль в приобретении современных знаний и навыков в сфере строительства. В следующей статье рассматриваются проблемы развития профессиональной компетентности будущих строителей-инженеров на основе иностранных языков и пути их решения.*

***Ключевые слова:** профессиональный запрос, интеграция, знания, навыки, компетентность, строительство и лингвистика, региональный проект, инновационный метод, современные технологии, методология, программа, аналитика, теоретические знания.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE BUILDER-ENGINEERS ON THE BASIS OF FOREIGN LANGUAGES AS A SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL PROBLEM

***Annotation.** Development of professional competence of future builders-engineers on the basis of foreign languages is certainly considered an urgent scientific and pedagogical problem. Studying the above issue is important in several ways. Professional competency development for future construction engineers is critical to successfully operating in the global construction industry. Foreign languages, especially English, play an important role in acquiring modern knowledge and skills in the field of construction. The following article examines the problems of developing the professional competence of future builders-engineers based on foreign languages and ways to solve them.*

Key words: *professional demand, integration, knowledge, skills, competence, construction and linguistics, regional project, innovative method, modern technology, methodology, program, analytics, theoretical knowledge.*

Kirish. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-noyabrda PQ-416-qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, arxitektura, qurilish, muhandislik sohalari rahbar va mutaxassislar hamda ishchi kasb egalarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarorga asosan, qurilish sohasi va mutaxassislar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinyapti. Birinchi navbatda, sifatli nazariy va amaliy bilim manbalarini talab qiladi [1].

Muammoning dolzarbligi shundaki, uning nazariy va amaliy ahamiyati, qarama-qarshiliklari, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun manbalar kamligidir. Buning oldini olish uchun o‘rganilgan metodologiya asosida yangicha modellar ishlab chiqildi. Yuqoridagi maqsadga ko‘ra tadqiqot olib borildi. Tadqiqotda metodik manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (anketa-so‘rov, savol-javob, suhbat, kuzatish) usullaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar kasbiy tayyorgarligini xorijiy tillar asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda ularni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish masalalari bo‘yicha mamlakatimiz olimlari va xorijiy mutaxassislar va olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar chuqur o‘rganildi va tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘rganildi. Shuningdek, Mansurova D. (2020): “Quruvchi-muhandislar uchun ingliz tilida professional muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.” Abdullayeva N. (2021): “Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida innovatsion metodlar,” Ismoilov R. (2019): “Muhandislik ta‘limida ingliz tilining ahamiyati”, Xamdamova S. (2022): “Qurilish sohasida til o‘rganish jarayonlarini samarali tashkil etish kabi o‘zbek olimlari hamda Borisov A. (2021): “Ingliz tilida muhandislik ta‘limini rivojlantirish: metodologik yondashuvlar”, Petrova N. (2019): “Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ metodlar: muhandislik va texnologiya,” Sokolova M. (2020): “Professional tilni o‘rganishning zamonaviy usullari. Qurilish sohasida” Ivanov P. (2022): “Quruvchi-muhandislar uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish” kabi xorijiy tadqiqotchi olimlarning qarashlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar kasbiy kompetensiyasini o‘qitishda o‘quvchi-talabalarining kompetensiyasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini xorijiy til metodik sxema asosida rivojlantirilgan. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar kompetensiyasini multimedialli (ovozli, animatsion, videofragment, VR), xorijiy tilni o‘qitish metodikasini (oddiy, o‘rta, murakkab, ijodiy) qo‘llash orqali ta‘limning intensiv o‘zlashtirish usullari asosida takomillashtirilgan. Shuningdek, quruvchi-muhandislar o‘qitishda oddiydan murakkablikka tamoyili asosida xorijiy tilni o‘zlashtirish topshiriqlari o‘quvchi-talabalarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantiruvchi, uzluksiz nazorat qiluvchi, o‘zlashtirish sifatini taxlil qiluvchi pedagogik model asosida ta‘lim samaradorligini oshirishligi asoslangan.

Bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun kasbiy kompetensiya rivojlanishi, global qurilish sanoatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tili, qurilish sohasida zamonaviy bilimlar va ko‘nikmalarni egallashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada bo‘lajak quruvchi-muhandislar kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasi va maxsus dastur, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar global qurilish sohasida raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun, birinchi navbatda, kasbiy bilimlarining o‘rni ahamiyatlidir. Qachonki kasbiy bilimi yuqori va sifatli bo‘lgan quruvchi va muhandis, qurilish sohasida ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar xalqaro talablar asosida shakllantiraoladi. Xorijiy tillarni bilish, muhandislik terminologiyasini tushunish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Talabalar global loyihalarda ishtirok etish, xorijiy mutaxassislar bilan muloqot qilish va zamonaviy tadqiqotlarni olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi [5:37–40-b.].

Quruvchi-muhandislar uchun xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasi o‘zgacha bo‘lishi kerak. Bu metodikada kasbiy terminologiya va amaliy vazifalarni inobatga olish kerak. O‘quv dasturlarida loyiha asosida o‘qitish, rol o‘yinlari va amaliy topshiriqlar orqali xorijiy tilni o‘rganish metodlaridan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida o‘rganildiki, qurilish sohasida ham integratsiya muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tillar va qurilish bilimlarini integratsiyalashgan ta‘lim dasturlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu talaba-

larni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Masalan, "Qurilish va lingvistik" fanini tatbiq etish orqali talabalar qurilish terminologiyasini xorijiy tilda o'rganishi sezilarli darajada sifatli va oson bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, quruvchi-muhandislarni o'qitadigan pedagoglar xorijiy tillar va zamonaviy o'qitish uslublarini mukammal egallashlari lozim.. Ularning kasbiy tayyorgarligi talabalar uchun motivatsiya manbasi bo'lishi kerak. O'qituvchilarni xorijiy tillarda muloqot qilishga o'rgatish, ularni o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llashga undaydi. Talabalarning amaliyoti davomida xorijiy tillarda muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish kerak. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik, mintaqaviy loyihalarda ishtirok etish va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish orqali talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi. Shuningdek, yangi texnologiyalar va qurilish metodlarini o'rganish xorijiy tillarni bilish bilan bevosita bog'liq. Talabalar zamonaviy dasturlarda ishlash va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish orqali yangi bilimlar egallashadi. Bu, o'z navbatida, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi [8;76–82-b.].

Qurilish yo'nalishi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hozirgi zamon talabidir. Qachonki bo'lajak muhandis o'zining kasbiy kompetensiyasini chuqur anglab yetsagina, kelajak bunyodkori sifatida mamlakat qurilish sanoatiga kerakli kadr bo'ladi. Qurilish mutaxassislarining asosiy kasbiy kompetensiyalari quyidagilardir: qurilish chizmalarini o'qiy olishi, grafik dasturlarda ishlay olishi, chizma-ga qarab qurilish ishlarini amalga oshira olishi, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, xorijiy til bilimi, innovatsion texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati, jamoda ishlash, huquqiy bilimlarni bilish kabi kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega.

Nazariy bilimlar bu muhandislik asoslari va texnik chizmalardir. Muhandislik asoslari qurilish materiallari, konstruksiyalar, mexanik va struktural nazariyasi bo'lsa, texnik chizmalar esa chizma va loyiha tayyorlash ko'nikmalari, CAD dasturlaridan foydalanishdir. Amaliy ko'nikmalar ikki bosqichni o'z ichiga oladi. 1. Loyihalash: qurilish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalari. 2. Qurilish jarayonlari: qurilish texnologiyalari, jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish. Bo'lajak quruvchi muhandislarining xorijiy tilni bilishi eng yaxshi mutaxassis sifatida muhim jihatlardan biridir [9;23–24-b.].

Bu borada terminologiya va muloqot qilish bilimi muhim ahamiyatga ega. Mutaxassisdan qurilish sohasidagi xorijiy terminlarni bilish va ulardan foydalanish hamda xorijiy tilda muloqot qilish va hujjatlarni o'qish qobiliyati talab etiladi. Shuningdek, ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, innovatsion texnologiya hisoblangan zamonaviy dasturlardan foydalanish qurilish va loyiha boshqarish uchun barqaror qurilish va ekologik qurilish uslublarini bilish quruvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Yana bir asosiy kompetensiyalardan biri bu jamoada ishlashdir. Bo'lajak muhandisdan jamoa ichida samarali muloqot va ish olib borish qobiliyati va loyihalarda liderlik qobiliyatlari talab etiladi. Hamkorlik va liderlik xususiyatlari mujassam etgan quruvchi qo'yilgan rejani oson va sifatli bajaradi. Keyingi o'rinda huquqiy bilimlar, ya'ni, qurilish qonunlari: qurilish sohasidagi me'yoriy hujjatlar, standartlar va qonunlar haqida bilimlardir. Shuningdek, qurilish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va hal etish ko'nikmalari talab etiladi. Analitik fikrlash juda ham kerakli bilimdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, eng asosiy kompetensiya ijtimoiy mas'uliyatdir. Barqaror rivojlanish: qurilish jarayonlarida ekologik mas'uliyatni hisobga olish. Ushbu talablarga javob beradigan bo'lajak quruvchi-muhandislar, qurilish sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar [10;33–34-b.].

Bo'lajak quruvchi-mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida rivojlantirishda o'qitish metodologiyasi zaruriy dasturulamaldir. O'rganishlar natijasiga ko'ra, o'qitish metodologiyasini quyidagicha talqin qilindi:

1. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv:
 - Maqsadni belgilash. Talabalarni professional faoliyatida kerakli bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash.
 - Kasbiy vazifalar. O'qitish jarayonida real hayotiy vazifalar va muammolarni yechish.
2. Integratsiyalashgan o'qitish:
 - Fanlararo yondashuv. Xorijiy tilni qurilish fanlari bilan integratsiyalash, masalan, "Qurilish va til" fanini kiritish.
 - Amaliy mashg'ulotlar. Talabalar uchun loyiha asosida o'qitish, amaliy topshiriqlarni bajartirish.
3. Interaktiv metodlar:
 - Rolli o'yinlar. Xorijiy tilda muloqot qilishni rag'batlantirish uchun rol o'yinlari va simulatsiyalar.
 - Guruhli ishlar. Talabalarni jamoa bo'lib ishlashga undash, fikr almashish va muammolarni hal etish.
4. Texnologiyalardan foydalanish:

• Onlayn platformalar. O‘quvchilar uchun elektron darsliklar va platformalar (masalan, duolingo, Coursera).

• Video va audiomateriallar. Qurilish sohasidagi xorijiy tildagi videolar va maqolalar orqali bilim berish [8;125–200-b.].

Yuqorida keltirilgan metodologiyalar davlat ta‘lim standartlariga mukammal to‘g‘ri keladi. Yetuk, malakali raqobadbardosh kadrlar tayyorlashda samarali ahamiyatga ega.

Metodologiya asosida qurilish yo‘nalishidagilar uchun maxsus dastur ishlab chiqildi. Uning qisqacha bayonnomasi maqolada keltirildi. Maxsus dastur:

1. Dars rejalari:

Kirish darsi. Xorijiy tilni o‘rganish maqsadlari va strategiyalari.

Kasbiy terminologiya. Qurilish sohasidagi asosiy terminlar va ularning qo‘llanilishi.

Texnik hujjatlar. Loyihalash va texnik hujjatlarni o‘qish va tushunish ko‘nikmalari.

2. Amaliy mashg‘ulotlar.

Loyihalash bo‘yicha mashg‘ulotlar. Talabalar guruhlarida loyiha tayyorlash, xorijiy tilda taqdimot qilish. Qurilish saytlari tashriflari. Amaliyotlar davomida xorijiy tilda muloqot qilish imkoniyatlari.

3. Baholash.

Nazorat testlari. Har bir bo‘limdan so‘ng testlar orqali bilimlarni baholash.

Amaliy ishlar. Talabalar tomonidan bajarilgan amaliy ishlar va loyiha taqdimotlari.

4. Qo‘shimcha resurslar.

Kitoblar va maqolalar. Qurilish va muhandislikka oid xorijiy tillardagi resurslar.

Tashqi mutaxassislar. Xorijiy tilni mukammal biladigan mutaxassislarni darsga jalb qilish [15;52–55-b.].

Xulosa va takliflar. Bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasi va maxsus dastur, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zaruriy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar global qurilish sohasida raqobadbardosh bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Maqolaning asosiy qismida bo‘lajak quruvchi-muhandislarining kasbiy kompetensiyalari bir necha asosiy jihatlardan iborat bo‘lishligi aytib o‘tildi. Nazariy bilimlar, texnik ko‘nikma, xorijiy til bilimi, huquqiy bilim kabi kompetensiyalari sanab, tahlil qilindi. Belgilangan muammo bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarga asoslanib, o‘quv va rivojlanish konsepsiyasi taklif qilindi. Doimiy o‘rganish: kasbiy bilimlarni yangilab turish va o‘z ustida ishlash bo‘lajak quruvchi-mutaxassislarning ko‘nikma va malakasini tez sur‘atlarda rivojlantiradi. Ushbu kompetensiyalar bo‘lajak quruvchi-muhandislar uchun zarur bo‘lib, ularni global qurilish sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentiing 2022-yilning 8-noyabrda “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 416-son qarori. www.lex.uz.

2. Mansurov D. Quruvchi-muhandislar uchun ingliz tilida professional muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020. 52–55-b.

3. Abdullayeva N. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida innovatsion metodlar. T., “Sharq”, 2021. 8–14-b.

4. Ismoilov R. Muhandislik ta‘limida ingliz tilining ahamiyati. T., “Tubo nashr”, 2019. 64–66-b.

5. Xamdanova S. Qurilish sohasida til o‘rganish jarayonlarini samarali tashkil etish. M., “Академия”, 2021.

6. Toshpulatov A. O‘qitish metodlari orqali professional ko‘nikmalarni rivojlantirish. T., “Fan”, 2023.

7. Jalolov O. Tillararo taqqoslash: Xorijiy tillarning muhandislik ta‘limidagi o‘rni. T., “Fan va texnologiya”, 2020. 43-b.

8. Borisov A. Ingliz tilida muhandislik ta‘limini rivojlantirish: metodologik yondashuvlar. T., 1-жилд, Zilolbu-loq nashriyoti, 2021. 121–200-b.

9. Petrova N. Xorijiy tillarni o‘qitishda integrativ metodlar: muhandislik va texnologiya. T., “Turon-iqbol” (2019). 23–45-b.

10. Sokolova M. Professional tilni o‘rganishning zamonaviy usullari: Qurilish sohasida. M., “Наука”, 2020.

11. Ivanov P. Quruvchi-muhandislar uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. M., “Мир”, 2022.

12. Frolov E. Xorijiy til o‘qitish metodikasi: muhandislik ta‘limi kontekstida. Abh. Math. Sern. Univ. Hamburg, 2023. 116–162-b.

13. Kovalev V. Ta‘lim jarayonida xorijiy tilni o‘rgatish: yondashuvlar va strategiyalar. Mosc., Math, 2018.

14. Stepanova T. Muhandislik sohasida professional tilni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari. Красноярск: Сибирский федеральный ун-т., 2021. 296–298-b.

15. Emelyanova T.A. Nolingvistik oliy o‘quv yurtlari talabalariga kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘rgatishda interfaol kompetensiyani shakllantirish: dissertatsiya referati. dis. ...kand. ped. T., “Fanlar”, 2021. 52–55-b.

Bekchanova Dilbar Zaripovna (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig‘i)
YECHIMLAR JURNALISTIKASI VA JURNALIST SURISHTIRUVI: O‘XSHASHLIK VA FARQLAR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jurnalistik surishtiruv (tadqiqoti) janri hamda yechimlar jurnalistikasi va ularning o‘zaro o‘xshashlik jihatlari, tafovut hamda afzalliklari atroflicha tahlil qilinadi. Zero, jurnalistikada internet jahon axborot tarmoqlari orqali ijtimoiy muammolarni aholiga yetkazish va yechimini tezkor va xolisona taqdim etishda har ikkalasining ham o‘rni juda katta va ahamiyatlidir.*

***Kalit so‘zlar:** jurnalist surishtiruv, tafovut, mediamakon, jurnalist daxlsizligi, ijtimoiy muammo, negativ holat, noqonuniy xatti-harakatlar, jamoatchilik xabardorligi, to‘laqonli yechim.*

Бекчанова Дилбар Зариповна (руководитель управления Агентства информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан в Хорезмской области).
ЖУРНАЛИСТИКА РЕШЕНИЙ И ЖУРНАЛИСТСКИЕ РАССЛЕДОВАНИЯ: СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ

***Аннотация.** В данной статье подробно анализируются жанр журналистского расследования, журналистика решений, а также их общие черты, различия и преимущества. Ведь в журналистике роль обоих направлений велика и значима в том, чтобы посредством мировых информационных сетей интернета донести до общества социальные проблемы, оперативно и объективно предложить их решения.*

***Ключевые слова:** журналистское расследование, различие, медийное пространство, неприкосновенность журналиста, социальная проблема, негативная ситуация, незаконные действия, информированность общественности, полноценное решение.*

Bekchanova Dilbar Zaripovna (Head of the Khorezm Regional Department of the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan)
SOLUTIONS JOURNALISM AND INVESTIGATIVE JOURNALISM: SIMILARITIES AND DIFFERENCES

***Annotation.** This article provides an in-depth analysis of the genre of investigative journalism and solutions journalism, as well as their similarities, differences, and advantages. Indeed, both play a significant and important role in journalism by delivering social issues to the public through global information networks and by presenting solutions quickly and objectively.*

***Key words:** investigative journalism, difference, media space, journalist's immunity, social issue, negative situation, illegal actions, public awareness, comprehensive solution.*

Kirish. Jurnalist surishtiruv an‘anaviy janr sifatida ommaviy axborot vositalari faoliyatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, taniqli jurnalist Ahmadjon Melibayevning ta‘kidlashicha, “Bugun o‘zbek matbuotida ham, jahon matbuotida ham jurnalist surishtiruv janriga e‘tibor katta. Buning sababi jamoatchilikka ma‘lum bo‘lmagan (yoki to‘la ma‘lum bo‘lmagan), biror bir tashkilot (mansabdor shaxs) xizmat mavqeyidan foydalanib sir tutishga, jamoatchilik fikrini chalg‘itishga harakat qilayotgan voqea-hodisa tafsilotini o‘rganish asnosida tayyorlangan material, ya‘ni jurnalist tekshiruviga qiziqish katta. Ammo bunday materiallarda shunchaki shov-shuv ko‘tarish, kimnidir badnom qilish, yo‘lini to‘shish emas, haqiqatni aniqlash, undan jamoatchilikni xabardor etish, kelgusida soddir bo‘lishi mumkin bo‘lgan biror illatning oldini olish asosiy maqsad bo‘lmog‘i lozim” (1;1-b.).

O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining “Jurnalist tekshiruvchi” deb nomlangan 9-moddasida “Jurnalist axborot to‘plash va tekshiruv o‘tkazish huquqiga ega. Jurnalist o‘z tekshiruvlarining natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishga, ularni davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Jurnalist tekshiruv davrida u qo‘lga kiritgan materiallar va hujjatlar olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi mumkin emas”, deya belgilab berilgan (2;03/21/683/0375-son).

Demak, jurnalistning kasbiy faoliyatida jurnalist tekshiruvini o‘tkazish, tadqiqot qilish qonun tomondan huquqiy jihatdan kafolatlab berilgan. Yuqorida ustoz ta‘kidlaganlaridek, “bunday materiallarda shunchaki shov-shuv ko‘tarish, kimnidir badnom qilish, yo‘lini to‘shish emas, haqiqatni aniqlash” muhim ahami-

yatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar orqali muammolarni ko'tarib chiqayotgan ba'zi resurs egalari, elektron nashrlar tomonidan "shov-shuv" ortidan o'z obunachilarini ko'paytirib olish ilinjida turli asossiz va to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatish holatlari, afsuski, uchramoqda.

"Albatta, bitta ovozni yashirincha yozib olib, oshkor qilish oson va go'yo "shov-shuvli". Haqiqiy surishtiruv esa izlanish, o'rganish, taqqoslash, axborot yig'ishdagi mashaqqatlar, rahbarlar bilan to'qnashuvlar va nihoyat, e'lon qilish qiyinchiliklari kabi yo'lni bosib o'tadi. Bunday yo'lga hamma jurnalist ham yo kasbiy-malaka jihatdan tayyor emas, yoki mashaqqatdan qochadi-da, oson yo'lni tanlaydi" (3;6-b.).

Asosiy qism. Jurnalist surishtiruvi (Investigative Journalism)—bu jurnalistikaning muhim, lekin murakkab janrlaridan biri. Uning asosiy maqsadi – yashiringan va ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni oshkor qilish. Jurnalist tekshiruvi jarayonida jurnalistlar, ko'pincha, qonunbuzarliklar, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvchi, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik, adolatsizlik singari muammolarni oshkor qilishga intilishadi. Bunday surishtiruvlar orqali jamiyatdagi yopiq va murakkab masalalar fosh etiladi. Bu esa jamiyatda adolat va haqiqatni, shuningdek, fuqarolar javobgarligini ta'minlashga yordam beradi.

Yechimlar jurnalistikasi (Solutions Journalism) bugungi kunda shiddat bilan ommalashib borayotgan jurnalistika yo'nalishlaridan biridir. Yechimlar jurnalistikasi janr sifatida e'tirof qilinmasa-da, uning mavjud muammolarni yoritishdan tashqari, ularga yechim topish yo'llarini o'rganish hamda jamoatchilikka taqdim etishdagi ahamiyati beqiyosdir. Unda muammolarni keltirish va tahlil qilishgina emas, balki ularga qay tarzda samarali yechim topish mumkinligi maqsad qilinadi.

Yechimlar jurnalistikasi bilan ishlaydigan jurnalistlar, ko'pincha, muammoning tub sabablarini o'rganadilar, muammo qanday paydo bo'lganini tahlil qiladilar va uni hal qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli usullardan foydalanadilar. Bu yondashuv fuqarolarning muammolarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi, odamlarda ijtimoiy faollikni, huquqiy madaniyatni oshiradi va jamiyatdagi turli millatlar, elatlar o'rtasida o'zaro muloqotni yuksaltiradi, do'stona va xolisona munosabatlarni shakllantiradi.

Jurnalist surishtiruvi janri yechimlar jurnalistikasiga qaraganda ancha qiyin jarayon. Professional jurnalistlar ushbu janrning o'ziga xos tarzda talabchanlik xususiyatlarini juda yaxshi tushunadilar. Uning quyidagi jihatlari alohida keltirib o'tish mumkin:

1. "Qattiq tanqid va so'ngra dalillarga asoslangan holat". Jurnalist tekshiruvda muxbir, asosan, muammolarning asosiy sabablarini ochiqlaydi va ulardan jamoatchilikni xabardor qilish maqsadlarini ko'zlaydi. Bunda muayyan qonunbuzarlik holatlari, jarayonlar tahlil qilinishi bilan birga, uning tashqi va ichki mexanizmlari, oqibatlarini atroflicha o'rganiladi.

2. "Tegishli hokimlik yoki idora va tashkilotlarga nisbatan javobgarlikni yuklash". Tekshiruv, aksariyat paytlarda, hokimiyat va katta nufuzli tashkilotlar tomonidan sodir etilgan noqonuniy yoki adolatsiz xatti-harakatlarni oshkor etishdan boshlanadi. Misol uchun, davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, idora va tashkilotlardagi korrupsion vaziyatlar, manfaatlar to'qnashuvi, iqtisodiy va moliyaviy qonunbuzilishlar yoxud atrof-muhitga, ekologiyaga, insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli vaziyatlar yoritiladi.

3. "Ko'p vaqt talab qiladigan, chuqur va atroflicha tahlil". Jurnalist surishtiruvi chuqur tahlil va ma'lumotlarni qayta-qayta tekshirishni taqozo qiladi. Bunday holatda jurnalistning aniq va ko'plab ma'lumotlar, hujjatlar bilan ishlashiga, axborotlarni turli manbalardan tezkorlik bilan olishiga to'g'ri keladi.

4. "Mas'uliyat va yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan xavf-xatar". Ma'lumki, bunday vaziyatlar-da tekshiruv olib boradigan jurnalist xavf ostida bo'lishi, ayrim ziddiyatlarga ro'baro' kelishi mumkin. Negaki, tanqid hech kimga yoqmaydi. Ayniqsa, jamiyatda kattagina nufuzga ega mansabdor shaxslar yoki biron korxonaning noqonuniy faoliyatini fosh etganida jurnalist o'ziga yetkaziladigan turli xatar va tahdidlardan mutlaqo xoli bo'ladi, deyish mushkul. Jurnalist fosh etilayotgan noqonuniy xatti-harakatlarni yoritganida axborot va ma'lumotlardan nihoyatda mas'uliyat bilan foydalanishi zarur bo'ladi.

Tabiiyki, media makonda yechimlar jurnalistikasi atamasi ham o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmadi. Zaruriyat yuzasidan u ana shu tinimsiz ommaviy kommunikatsiya vositalari rivojlanishi sharoitida vujudga keldi. Ushbu termin o'z faoliyati doirasida mediamakonda aholining xabardorligini ta'minlash maqsadida kundalik iste'molimizga keng kirib keldi hamda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan chuqur o'rin oldi. Yechimlar jurnalistikasi negatvlar oqimida, muammolar ummonida ijtimoiy turmushning o'ziga xos muhim ehtiyoji, zaruriyati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Taniqli jurnalist Tina Rozenbergning ta'rificha, "Odamlar muammolardan charchashgani haq. Bugun ular ijobiy natijalar, pozitiv yondashuvlar va muvaffaqiyatli yakunlar haqidagi axborotlarga, yangiliklarga muhtojdirlar. Bu yo'nalishdan jurnalistikaning muhim bir janri sifatida muammolar yechimiga kuchli ta'sir qilish instrumenti sifatida foydalaniladi" (ruschadan erkin tarjima muallifniki (6;3-b.).

Mazkur yoʻnalish ham jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Biroq jurnalist surishtiruv va yechimlar jurnalistikasi maqsad va vazifalari, usullari jihatidan bir-biridan tafovut qiladi.

Xoʻsh, yechimlar jurnalistikasi va jurnalist surishtiruv oʻrtasidagi jiddiy tafovutlar nimalarda namoyon boʻladi? Ular oʻrtasidagi farqlarni quyidagicha kuzatish mumkin:

1. “Muammolarning yechimlari bilan yoritish”. Yechimlar jurnalistikasida asosiy maqsad muammoni faqatgina koʻrsatish emas, balki uning qay yoʻsinda hal etilishini yoritishdan iboratdir. Masalan, ekologik muammolarni taqdim qilishda ularning salbiy oqibatlari toʻgʻrisida maʼlumot berishgina emas, balki ekologik muammolarni kamaytirish yuzasidan samarali chora-tadbirlarni koʻrib bilish ham ahamiyatli ekanligi bayon etiladi.

2. “Tashabbus va ilgʻor tajribalarni tahlil qilish”. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotda qoʻllanilayotgan ilgʻor tajribalarni va tashabbuslarni oʻrganish ham bu yoʻnalishning muhim jihatlaridan biridir. Misol uchun, bir davlatdagi taʼlim tizimidagi muvaffaqiyatli loyihalar boshqa yana bir qancha davlatlarga namuna boʻlishi mumkin. Yoki boʻlmasa, atrof-muhitning toza va musaffoligini avaylab-asrash borasidagi xayrli tashabbuslar va harakatlar boshqa yana qanchalab fuqarolarni oʻziga jalb etishi mumkin.

3. “Virtual muloqotda axborotdan foydalanuvchilarda umid uygʻotish va konstruktivlik”. Yechimlar jurnalistikasi oʻz mazmun-mohiyatiga binoan ijobiy hodisa, chunki u aholini turli muammolarga yaxshilik ila yondashishga daʼvat qiladi. Bunday jurnalistika yordamida muammolarga yangicha munosabat, ijobiy yondashuv paydo boʻladi. Bu esa fuqarolik jamiyatda oʻzaro muloqot, hamkorlik, xalq diplomatiyasi muhitini shakllantirishga yordam beradi.

4. “Jamiyatda faol ishtirokchilikni koʻpaytirish”. Yechimlar jurnalistikasi fuqarolarning diqqatini muammo va masalalarni hal qilish jarayoniga qaratgani bilan ularni ijtimoiy oʻzgarishlarga jalb qilishga koʻmak beradi.

5. “Aholiga maʼlumotni taqdim etish uslubi va yondashuv”. Yechimlar jurnalistikasi fuqarolarga pozitiv va ilhomبخsh maʼlumotlarni yetkazib bersa, jurnalist tekshiruv jiddiy va tanqidiy axborotlarni, jumladan, salbiy tafsilotlarni bayon qiladi.

6. “Niyat va munosabat”. Yechimlar jurnalistikasining maqsadi muammolar yechimiga yoʻl koʻrsatish, samarali yechimlarini izlash boʻlsa, jurnalist tekshiruv esa muammo va murakkab vaziyatlarni, masalalarni ochiq-oshkora etishni ifoda etadi.

7. “Izlanish va oʻrganishlar – tadqiqotning chuqurligi”. Jurnalist tekshiruv koʻp vaqt talab qiluvchi har tomonlama atroflicha va chuqur tadqiqotni talab qiladi. Yechimlar jurnalistikasi esa muayyan bir muammo yoki masalani tahlil qilib, uning yechimini ham koʻrsatib berishga, bayon etishga qaratilganligi bilan farqlanadi.

Yechimlar jurnalistikasi va jurnalist tekshiruv oʻrtasida har qancha farq boʻlmasin, ularning juda muhim oʻxshashlik jihatlari bor:

1. Haqqoniy va ishonchli maʼlumotlar. Har ikkala yoʻnalish ham jamoatchilikka toʻgʻri va asoslantirilgan, haqqoniy va ishonchli maʼlumotlarni, muammolarni ochiq yetkazib berishi bilan xarakterlidir. Asosiy maqsad – adolat va haqiqatni qaror toptirish. Shu bois taqdim etilayotgan materiallarda toʻliq, aniq va ishonchli maʼlumotlarni berishga harakat qilinadi.

2. “Xalq, jamoat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi”. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi. Turmushning asosiy, muhim va murakkab muammolarini yoritib, Odamlar ongini uygʻotishga, haqiqat va yaxshilikka xizmat qiladi.

3. “Aniq va rasmiy axborot manbalaridan foydalanadi”. Ikkala yoʻnalishda muxbirlar maʼlumotlarni taqdim etishda ishonchli manbalar asosida ish olib boradilar. Dalillarni oʻrganadilar, qayta-qayta tekshiradilar, tasdiqlaydilar va ularni xolis yoritishga eʼtibor qaratadilar.

Xulosa. Hech mubolagʻasiz aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda oshkoralik va ochiqlikka asoslangan yechimlar jurnalistikasi yoʻnalishi ham jurnalist surishtiruv janri singari hayotga koʻproq va samaraliroq tatbiq etilmoqda. Ijtimoiy turmushimizda uchrayotgan turli kamchiliklar, muammo va masalalarning xolisona yoritilishi va yechimi ustida ham bosh qotirilishi muhim ahamiyat kasb qiladi. Negaki, har ikkala yoʻnalish yordamida mamlakatimizni obroʻsizlantirishni niyat qilgan, har qadamimizni zimdan poylayotgan gʻanimlar tarqatayotgan turli mish-mishlarga, boʻhton va uydirmalarga qarshi zarba beriladi. Tirnoq ostidan kir qidirib yurganlarga, yurtni, aholining fikrini buzmoqchi boʻlganlarga ham ish qolmaydi. Shuning uchun internet makonida yechimlar jurnalistikasi va jurnalist surishtiruv “yo hayot yoki mamot masalasi”ga aylangan, desak, mubolagʻa emas. Ushbu kasbiy faoliyat tom maʼnoda har bir davlat, jamiyat yoki tashkilotning muayyan nufuzini oshirishga, samarali fuqarolikni shakllantirishga, axborot maydoni-

da, hatto murakkab muammolarni ham yechimini topishga xizmat qilishi bilan aholining xabardorligini ta'minlashda o'ta muhim va beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Аҳмаджон Мелибоев. “Замонавий журналистиканинг долзарб муаммолари”. II Фарғона халқаро конференцияси материаллари тўпламидан, 2022, 1-бет.
- (2). Ўзбекистон Республикасининг “Журналистлик фаолиятини химоя қилиш тўғрисида”ги қонуни (1997 йил, 24 апрель). 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-қонун таҳририда. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021й., 03/21/683/0375-сон).
- (3). Муҳаммаджон Обидов. Журналист суриштируви. Тажриба ва таҳлил. “Фарғона” нашриёти, 2018, 91-бет.
- (4). Wikipedia. uz.m.wikipedia.org Ечимлар журналистикаси. Кириш. Сўнгги таҳрир, 2022.
- (5). Хуршид Дўстмуҳаммад. “Ахборот–мўъжиза, жозоба, фалсафа. Тошкент, 2013.
- (6). Тина Розенберг. Журналистика решений: Solutions Journalism. “Что такое журналистика решений?” Lismimmid.tilde.ws 16 июня 2018. Статья в интернете.
- (7). Автор Solutions Journalism Network. Jun 16. 2022. Специальные темы. “Что такое журналистика решений и почему она заслуживает внимания?” Статья в интернете.
- (8). Новости MediaSavod. Журналистика решений. Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 10 октября 2023. Интернет-издание.
- (9). uz.qlever.asia Журналистика решений. Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 27 марта. 2024. Интернет платформа.
- (10). Рубрика. rubryka.com. Где искать решение? Что такое журналистика решений и почему это о “Рубрике”. 6 июня 2020. Статья в интернете.

Salomova Gavhar Abdinazarovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.; e-mail:gavhar.salomova@mail.ru; UO'K: 811.111'366.552)

QISQARTMALAR INGLIZ TILI TILSHUNOSLIGINING BIR QISMI SIFATIDA

***Annotatsiya.** Mazkur maqola dunyo tilshunosligida qisqartma so'zlar, ularning so'z birikmalari va birikma nomlarni almashtirish vazifalarini aniqlash, qisqartmalarning yuzaga kelish yo'llarini tipologik aspektda tavsiflash, qisqartmalarning birikma nomlardagi ma'noni bera olish jihatlarini ilmiy asoslash, rasmiy, badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanishini o'rganish asosiy vazifa bo'lib keldi. Keyingi tadqiqotlarda esa qisqartmalarning ilmiy va rasmiy matnlarda to'laqonli qo'llanishini lingvistik asoslash, bunday matnlarni ixchamlashtirishda qisqartmalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.*

***Kalit so'zlar:** qisqartma so'zlar, abbreviatsiya, tipologiya, sistemasentrizm, antroposentrizm.*

СОКРАЩЕНИЯ КАК ЧАСТЬ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

***Аннотация.** В данной статье определены функции замены аббревиатур, их словосочетаний и сложных существительных в мировой лингвистике, описаны способы возникновения аббревиатур в типологическом аспекте, научно обоснованы аспекты способности аббревиатур придавать значение в сложных существительных, использование их в официальном, художественном и публицистическом стиле. Основной задачей было изучение приложения. В дальнейших исследованиях приобретает актуальность лингвистическое обоснование полноценного использования сокращений в научных и официальных текстах, разработка способов использования сокращений при сокращении таких текстов.*

***Ключевые слова:** сокращенные слова, аббревиатуры, типология, системоцентризм, антропоцентризм.*

ABBREVIATIONS AS A PART OF ENGLISH LINGUISTICS

***Annotation.** This article defines the functions of replacing abbreviations, their word combinations and compound nouns in world linguistics, describes the ways of occurrence of abbreviations in the typological aspect, scientifically substantiates the aspects of the ability of abbreviations to give meaning in compound nouns, uses them in official, artistic and journalistic styles. The main task has been to study the application. In further studies, the linguistic justification of the full use of abbreviations in scientific and official texts, the development of methods of using abbreviations in the condensing of such texts are gaining relevance.*

***Key words:** acronyms, abbreviations, typology, systemocentrism, anthrocentrism.*

Kirish. Og'zaki nutqning so'z yasashning bir turi sifatida qisqartma yoki qisqartirish deb ham ataladi, ingliz tilida XV asrda qayd etilgan. O'shandan beri u ko'proq va samaraliroq o'sdi. Bu, ayniqsa, XX asrda ko'plab Yevropa tillarida sezilarli bo'ldi, bu rivojlanish ingliz tilida jadal ekanligi hammaga ma'lum.

Yangi qisqartirilgan so'zlar doimiy ravishda paydo bo'ladi. Buni ko'plab neologizmlar tasdiqlaydi, masalan, dub v, kino atamasi "boshqa tilda filmga ovoqli trekni yana bir marta yozib olish" (dubldan boshlab); *frig* yoki *fridge* to'liq ko'rinishi *refrigerator*; *mike* to'liq ko'rinishi *microphone*; *tellie*, *telly* or *T.V.* to'liq ko'rinishi *television set*; *vacun* to'liq ko'rinishi *vacuum cleaner* va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Barcha tilshunoslarning fikriga ko'ra, ko'pincha, so'zning birinchi yoki urg'uli qismi butunni ifodalash uchun qoladi. Segalning ta'kidlasicha, norasmiy holatlar bilan bog'liq bir nechta eksperimental tadqiqotlar natijalarini keltiradi [1;45 c.].

Ko'pgina mualliflar ushbu rivojlanishning asosiy manbayi sifatida zamonaviy hayotning keskinligi rolini ortiqcha ta'kidlashga moyil. Bu, shubhasiz, sabablarning faqat bittasi bo'lib, sof lingvistik omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Asosiy kuchlar qatoriga ritm talablari kiradi, ular so'zlar bir bo'g'inli bo'lganda osonroq qondiriladi.

Uzoq muddatli so'zlar bilan ishlashda, shuningdek, ingliz tilidagi qisqartmalarning yuqori foizi so'zlarni assimillatsiya qilish jarayonida ishtirok etishini ta'kidlash mumkin. Monosyllabic ingliz tilida boshqa Yevropa tillariga qaraganda ancha uzoqroqdir, shuning uchun qisqartirilgan so'zlar ularning uzun prototiplariga qaraganda ko'proq mahalliy so'zlarga o'xshaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Og'zaki so'zlarni qisqartma yoki qisqartirish so'zni uning qismlaridan biriga qisqartirishdan iborat (bu qism ilgari morfema bo'lganmi yoki yo'qmi), buning natijasida yangi shakl

o'ziga xos lisoniy qiymatga ega bo'ladi. Saqlangan qism fonetik jihatdan o'zgaraydi, shuning uchun yuqoridagi ba'zi misollarda imloni o'zgartirish zarurati (*dub*:: *double*, *mike*:: *microphone*).

O'zgarish faqat miqdoriy emas: qisqartirilgan so'z shunchaki boshlang'ich, o'rta yoki yakuniy qismini yo'qotgan so'z emas. Xekett ta'kidlaganidek, qisqartirishni butun uchun bir qismdan foydalanish deb hisoblash ham mumkin emas, chunki qisqartirilgan so'z har doim ma'no va qo'llanilishi bo'yicha o'zining prototipidan qaysidir ma'noda farq qiladi. Bundan tashqari, qisqarishning har bir turi hosila, kompozitsiya va konversiyadan mavjud morfemalarning yangi joylashuvi emas, balki, ko'pincha, yangilarining manbayi bo'lishi bilan farq qiladi.

Tahlil va natijalar. Qisqartirish ildiz yaratishning bir turi sifatida qaralishi mumkin, chunki hosil bo'lgan yangi morfemalar erkin shakl sifatida ishlatilishi va bog'langan shakllar bilan birlashishi mumkin. Ular funksional qo'shimchalarni olishlari mumkin: "Refs Warning Works Magic" (hakam ikkala jamoani bir joyga chaqirib, qo'pol o'yin haqida ma'ruza qilgan futbol o'yini haqidagi gazeta maqolasining sarlavhasi). Cf. *Sing.* – *bike*, *bod*, *1 Pl.* – *bikes*, *bodes*, *Inf.* – *to vac*, *2 Part. I* – *vacking*, *Past Tense and Part. II* – *vacked*. Ular keyingi so'z yasaliishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi: *fancy n* (*from fantasy*), *fancy v*, *fancier n*, *fanciful adj*, *fancifully adv*, *fancifulness n*, *fancy-ball n*, *fancy-dress n*, *fancy-work* [3;59-b.].

Shu munosabat bilan, teleko'rsatuv va teleko'rsatuvlardagi "tele" morfemalarini solishtirish qiziq. Ular omonimdir, lekin bir xil emas. Tele- in television is "Grtele far" so'zidan olingan bo'lib, u uzoqdan natijalarni ishlab chiqaradigan yoki qayd etuvchi asboblari va jarayonlarni bildiruvchi ko'plab maxsus atamalarini kiritish uchun ishlatiladigan birlashtiruvchi shakldir, *telecommunication*, *telemechanics*, *telepathy*, *telephone*, *telescope* va *television*. Teleko'rsatuv "uzoq" degan ma'noni anglatmaydi, bu yangi ishlanma – televideniyaning qisqartirilgan varianti bo'lib, alohida yangi tushunchani beradi. Bu quyidagi oddiy o'zgarishlardan ayon bo'ladi: televideniya – masofadan ko'rish, tele (keng) "HO masofada eshittirish, 3 tele (efir) televizion eshittirish. Bu yangi quvvatda tele- ko'plab kombinatsiyalarga kiradi: telefilm, tele-prompter (ma'ruzachi matnini sekin-asta ochib beruvchi, katta hajmdagi, auditoriya ko'rmaydigan elektron qurilma), teletomoshabin "televizordan foydalanadigan", telestar (televideniya reley stansiyasi sifatida ishlatiladigan ingliz-amerika sun'iy yo'ldoshi).

Qisqartirilgan so'zning prototipi bilan o'zaro bog'liqligi katta qiziqish uyg'otadi. Ikki mumkin bo'lgan rivojlanishni ta'kidlash kerak:

1. Qisqartirilgan shakl to'liq shakldan miqdoriy, stilistik va ba'zan hissiy jihatdan farq qiluvchi variant yoki sinonim sifatida qaralishi mumkin, prototip stilistik va hissiy jihatdan neytral, e. g. *doc* :: *doctor*; *exam* :: *examination* Atoqli otlar: *Becky* :: *Rebecca*, *Frisco* :: *San Francisco*, *Japs* :: *the Japanese*. Yo'qolgan qism har doim tinglovchi tomonidan ta'minlanishi mumkin, shunda prototip va qisqa shakl o'rtasidagi aloqa yo'qolmaydi. Prototip va qisqartirish o'rtasidagi munosabat bu holda, hozirgi lug'at tizimiga tegishli bo'lib, sinxron tahlil uchun tegishli xususiyatni tashkil qiladi [3;59-b.]. Prototip va qisqartirish o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda hali ko'p ish qilish kerak, chunki ularni qachon ikkita alohida sinonim so'z deb hisoblash kerakligi va ular bir xil so'zning varianti ekanligi aniq emas.

2. Aksincha, ekstremal holatda aloqa faqat etimologik jihatdan o'rnatilishi mumkin. Denotativ yoki leksik-grammatik ma'no yoki ikkalasi ham shunchalik o'zgaraydiki, kesish alohida so'z bo'lib qoladi. Bino-barin, bir juft etimologik dublonlarl vujudga keladi. Cf. *chap* :: *chapmen 'a peddlers'*, *fan 'an enthusiastic devotee'* :: *fanatic*, *fancy* :: *fantasy*, *miss* -.- *mistress*. O'zini futbol ishqibozi deb atagan notiq, balki fanatik deb atalganidan xafa bo'lardi. Fanatik deganda uni ijtimoiy xavfli qiladigan asossiz va bo'rtirilgan e'tiqod va qarashlar tushuniladi, muxlis esa belgilangan o'yin-kulgining zararsiz fidoyisi. Ushbu ikkinchi guruhdagi qisqartirilgan shakllar va prototiplar o'rtasidagi munosabatlar hozirgi lug'at tizimiga aloqasi yo'q va tarixiy masala, ya'ni diaxronistik o'rganish.

Ikkala turda ham kesilgan shakllar (*doc*, *exam*, *chap*, *fan* va boshqalar) tegishli prototiplari bilan birga tilda mavjud. Biroq, farq shundaki, birinchi guruhga tegishli so'zlar o'zlarining prototiplari bilan almashirilishi va shu tarzda ma'lum darajada almashinish qobiliyatini ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, dubletlar hech qachon leksik jihatdan ekvivalent bo'lmaydi, chunki prototip qisqartirilgan so'zni almashtira oladigan kontekstlar ma'noni o'zgartirmasdan mavjud emas.

Variantlar bo'lgan taqdirda almashtirish imkoniyatini quyidagi misol bilan ko'rsatish mumkin: agar biron bir musiqachi haqidagi gazeta maqolasi. "Tenor saksafonining xo'jayini" deb nomlangan bo'lsa, saksafonni saksafonga almashtirishda juda g'alati narsa yo'q ("The Boss of the Tenor Saxophone"). Prototip stilistik jihatdan neytral va shuning uchun u qisqartirilgan so'z uchun turishi mumkin. Chikagoda poyga otlari uchun ko'zoynaklar retsepti haqidagi qisqacha gazeta yozuvining quyidagi sarlavhasi shunga o'xshash misoldir. U quyidagicha ishlaydi: "Poyga otlari texnik xususiyatlar bilan jihozlangan". Spektakllarga ko'z-

oynaklar almashtirilsa, sarlavhani biroz jonli qiladi, lekin qabul qilib bo'lmaydi [4;106-b.].

Ko'p ma'noli so'zning ikkilamchi ma'nolaridan faqat bittasini berish qisqartirilgan so'zlarga xosdir. Masalan, double fe'li "ikkiga ko'paytirmoq", "ikki barobar ko'paytirmoq", "ikki barobar ko'paymoq" ma'nolarini bildirishi mumkin; musiqachilar tomonidan qo'llanilganda, "bir xil notani yuqori yoki pastki oktavada qo'shish" degan ma'noni anglatadi. Harbiy kontekstda bu "ikki vaqt ichida harakat qilish yoki chopish" degan ma'noni anglatadi. Dengiz termini sifatida u "dumaloq boshqoli" iborasining sinonimidir va hokazo. Dub, aksincha, o'ziga xos ma'nolardan faqat bittasini beradi [6;18 p.].

Bu turga mansub qisqartirilgan so'zlar, asosan, mono-semantik bo'lib, masalan, laboratoriya, imtihon va fan. Bundan tashqari, ular, ko'pincha, omonimdir: yuqorida ko'rsatilgandek van va vakni solishtirish, shuningdek, gimnastika uchun sport zali va gimnaziya uchun sport zali yoki veteran va veterinariya uchun veterinar. Ularning ko'pchiligi konversiya orqali fe'llarni hosil qiladi: telefon, to vac, to vet va boshqalar, bunda prototip bilan semantik aloqasi juda aniq bo'lib qoladi [5;63 p.].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, aniq belgilangan ekstremal holatlarning ikkita guruhi, ya'ni, variantlar yoki sinonimlar va dubletlar o'rtasida tasniflash qiyin bo'lgan ko'plab oraliq holatlar mavjud. So'zda murakkabroq semantik tuzilmaning paydo bo'lishi uning katta mustaqillikka ega bo'lishi, shuning uchun prototipning varianti emas, balki dubletiga aylanishi uchun qadamdir. Ushbu oraliq holat poliomielit so'zi bilan tasvirlangan bo'lib, u nafaqat kasallikni, balki poliomielit bilan og'rikan odamni ham anglatadi, ammo poliomielit kasalligi yoki poliomiyelet qurboni iboralari ko'proq qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Иванова Л.В. Структурно-семантические и функционально-прагматические особенности аббревиатурной лексики: на материале немецкоязычных текстов СМИ. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, Барнаул, 2010, 45 с.

(2). Елдышев А.Н. Стрoение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове). Автореф. дис. ... канд. филол. наук, Москва, 1982, 23 с.

(3). Salomova G.A. Ingliz va o'zbek tillardagi qisqartma so'zlarning chog'ishtirma tadqiqi. F.f.f.d. (PhD) dis ... , Termiz, 2023, 59-bet.

(4). Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент, "Университет", 2000, 106-bet.

(5). (OED) The Oxford English dictionary. Vol. 1–12, Oxford: Clarendon Press, 1933, 63 p.

(6). Partridge E. Origins: a short etymological dictionary of modern English. London and New York, Taylor & Francis, 2006, 18 p.

Nurabullaeva Kamila Joldasbaevna (Ajiniyaz nomidagi NDPI doktranti)

NEMIS TILI DARSLARIDA MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, NEMIS TILI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola mediatexnologiyalardan foydalanib, nemis tilini maktab o'quvchilari orasida o'rganishni takomillashtirishga qaratilgan. Har qnday til o'rganuvchi uchun xorijiy tilni o'rganish qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo shunday qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida, dastlab, til o'rganuvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Audio va videomateriallaridagi nutq egasining fikri, psixoemotsiyanal holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari yordamida o'quvchilarning til o'rganish imkoniyati yanada oshadi.

Kalit so'zlar: videoga asoslangan suhbat, kommunikativ kompetensiya, gapirish ko'nikmasi.

Нурабуллаева Камила Жолдасбаевна (докторант НГПИ имени Ажинияза)

РАЗВИТИЕ НЕМЕЦКОЯЗЫЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Данная статья направлена на совершенствование изучения немецкого языка среди школьников с помощью медиатехнологий. Для любого носителя языка изучение иностранного языка представляет трудности. Но с целью преодоления таких трудностей сначала рассматриваются вопросы развития коммуникативной компетентности носителя языка. С помощью мыслей, психоэмоционального состояния, мимики, жестов говорящего в аудио и видеоматериалах дополнительно повышается способность говорящих к изучению языка

Ключевые слова: обсуждение на основе видео, коммуникативная компетентность, умение говорить.

**Nurabullaeva Kamila Joldasbaevna (Doktorant of the Nukus State Pedagogical
Institute named after Ajiniyaz)**

**DEVELOPMENT OF GERMAN-LANGUAGE COMPETENCE USING MEDIA
TECHNOLOGIES IN GERMAN LESSONS**

***Annotation.** This article aims to improve the perception of German among schoolchildren using mediatechnologies. Every language carries difficulties in preserving a foreign language for a foreigner. But in order to overcome such difficulties, the issues of the development of communicative competence of the language Tester are initially considered. With the help of the opinion of the owner of speech in Audio and video materials, psycho-emocyanal state, facial expressions, gestures, the possibility of language over taking by speakers increases even more.*

***Key words:** video-based discussion, communicative competence, speaking skill.*

Kirish. Ushbu maqolada A1 darajadagi o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib umumta'lim maktablarining 5–6-sinf o'quvchilari tanlangan. Nutq–o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan to'rta ko'nikmadan biridir, chunki chet tilini o'rganuvchi uchun kundalik faoliyat uchun og'zaki muloqot komponenti va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nutq mahoratini hosil qilish va tushinishning retseptiv mahorati yonma-yon boradi, yani, og'zaki muloqatda so'zlovchilar va tinglovchilar o'rtasidagi o'rtasidagi ikki tomonlama o'zaro ta'siri birgalikda yuz beradi. Chet tilida so'zlashishga o'rgatish chet tilini tushintirishdan anchagina mashaqqatli. Asosiy e'tibor yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa qaratiladi [4;8–9-b.]. Natijada insonlar bilan muloqot qilish, aloqa o'rnatish anchagina mashaqqatli kechadi, sababi insonlar fikrini, o'y-xayollarini, faktlarni, o'zida yuz berayotgan his-hayojonlarini aniq-ravshan yetkaza olishmaydi, chet tilida so'zlashish bunday odamlar uchun noqulaylik tug'diradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Uchta nutq komponentlari bor: aniqlik, tartiblilik va tushunarlilik. So'zlarni aniq talaffuz qilish qobiliyati ravonlik kategoriyasiga teng. Bilim darajasi yuqori o'quvchilar o'zlarining nutqida grammatikani, fonetikani va suhbatlashish komponentlarini to'g'ri qullay oladilar. So'zlashish chet tilini o'ranishda va o'rgatishda eng ahamiyatli qobilyatlardan biridir sababi u komunikatsiyaning ong asosiy poydevori, shu bilan birga, eng murakkab ko'nikmalardan hisoblanadi.

Chet tili ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi maqsadli o'qituvchilarga “muomila qilishni o'rgatish, “Befaeigung zo'r kommunikation” bo'lgan yangi o'quv rejalarini qabul qilindi [2;527-b.]. So'zlashish ko'nikmasi chet tilini endi o'rganishni boshlaganlar uchun eng qiyini hisoblanadi. Ayniqsa, nemis tilida so'zlashish paytida o'quvchilar ko'proq duduqlanadilar. Buning sababi nemis tilini o'rganuvchilar nemis tilini targ'ib etuvchi haqiqiy real voqealarga duch kelmaydi, qaysiki, faqat nemis tilida suhbatlashish zaruriyati yaqqol talab qilinadi. Eng ahamiyatli va dolzarb iqtidor bu nutq ko'nlikmasidir. Bu ko'nlikmani yaxshi egallagan odamda so'zlovchini lingvistik tushinish qobiliyati ham mavjud. Ko'plagan ta'limiy teoriyalarda ta'kidlashisha diskussiya so'z boylikni oshirishda eng samaradorli usul hisoblanadi. Rolli o'yinlar va suhbatlashish nutq faoliyatini takomillashishiga sababchi bo'ladi. Til sohasida qo'shimcha mashqlar tilda kommunikatsiyaning rivojlantirishda asosiy komponentlar hisoblanadi. Sinfdagi mashqlar orqali yuzaga kelgan o'zaro muloqot tilni yaxshilashiga olib keladi, ya'ni, o'zaro muloqotni talab qiluvchi mashqlar o'rgatuvchi va o'quvchi orasida, o'quvchi va o'quvchi orasida o'quvchilarni kuchli tanani his qilishga g'ayratlantiradi va bu qulay muhitini yaratishga hissa qo'shadi. Qo'shimcha tarzda mazkur keltirilib o'tilgan muloqot mashqlari va mediateknologiyalar nutq faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi, o'quvchilar media yordamida nemis tilida so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirishi mumkin. Tadqiqotchi ularning nutq ko'nlikmasini rivojlantirishga bir qancha metodlar yaratishga sazovor bo'lishdi. Tadqiqotchilar media va diskussiya metodlarni tanladi, bu qarorga bir qancha o'rganishlardan so'ng keldilar va bu texnologiyalar nutq faoliyatini yaxshilashda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gapirishda ishtirok etadigan til materiali, boshqa barcha nutq faoliyati turlarida ham o'rganiladi, Ular aktiv leksika va grammatika nomi bilan yuritiladigan til materialidir [5;39-b.].

O'zaro munosabat yaratishning yana bir formasi – bu media. Media muntazam shug'ullanish uchun qulaylik yaratadi, qayerda va qanday bo'lishdan qat'iy nazar. Dastur yoki yo'llanmaning tasirini tatbiq etishdan ko'ra, natijali muloqot mediani qo'llanish orqali yuzaga keladi. O'qituvchilarning o'quvchisi bilan media orqali munosabat o'rnatishi va dars davomida foydalanishini anglatadi. Media o'rgatuvchiga o'quvchisi uchun ma'lumotni ifodalashga va keyingi natijali tajriyba orttirishga darslarda bir qancha javoblar shakllanishiga xizmat qiladi.

Video–juda murakkab bo'lgan ommaviy axborot vositasi, u turli xil ko'rgazmali dasturlarni hamda og'zaki so'zlash uchun katta qo'shimcha eshitish mashqlarini oz ichiga olgan. Ustozlar vazifasiga maqbul

tanlagan izchil o'z tajriybasidan kelip chiqqan holda ko'rgazmali qurollar tanlash ham kiradi. Bundan tashqari, ustoz a'zolar tarkibiga, kerak paytida videodagi savollarga javob berishga, ko'rgazmali topshiriqlarni yaratish va tanlab olish va darsga ma'qul keladigan video yoki audiomteriallardan keyingi mashqlarni tatbiq qila olishi kerak. Darsda o'rgatuvchi videolarni qo'llash o'rganilayotgan kursning to'liq ma'nosini anglashga asosiy urg'uni berishi kerak. Tilni o'rgatuvchi tarafidan tayyorlangan video qo'shimcha manba sifatida kursga mos holda qat'iy ko'rib chiqilib tayyorlanishi kerak. O'quv rejasida allaqachon yoritilgan tushincha yoki mavzuni tanishtirish yoki ishlab chiqish uchun video bunga erishishning bir usuli hisoblanadi. Tilni bilish – bu boshqalar bilan juda yaxshi suhbatlashishni anglatadi. Qo'shimcha qilib aytganda, u pragmatik maqsadlarni boshqa til foydalanuvchisi bilan suhbatlashish tilni deyarli hamisha o'rganayotgan xizmatini ta'kidlaydi.

Samarali og'zaki muloqot nafaqat og'zaki muloqotni, balki nutqning paralingvistik tarkibiy qismlarini, jumladan, tovush balandligi, urg'u va intonatsiyani o'z ichiga olgan ijtimoiy kontekstlarda tilni qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Qo'shimcha qilib aytganda, lingvistikaga xos bo'lmagan mimika, tana tili va emotsiyalar nutqimizda yetarlicha so'z boyligimiz yo'qligini ifodalaydi. Ijtimoiy muloqot o'zaro muloqot funksiyasida katta rol o'ynaydi. Bu funksiyalarda biz nima deysimiz, uni tana tili, imo-ishoralar, ko'z bilan aloqa, jismoniy masofa va boshqa belgilar orqali qanday aytishimiz muhim. Axborotni ishlab chiqarish, qabul qilish va qayta ishlash so'zlashuv tilida ma'no yaratishning interaktiv jarayonidagi barcha bosqichlardir. Bu sodir bo'ladigan kontekst, jumladan, shaxslarning o'zlari, ularning umumiy tajribalari nutqning shakli va ma'nosiga ta'sir qiladi. Grammatika, tinish belgilarini yoki lug'at kabi ma'lum sohalarda tillarni qanday yaratishni o'rganish nutqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, talabalar tilni qachon va qanday qilish kerakligini tushinishlari kerak (ijtimoiy lingvistik kompetensiya) malakali kommunikator ma'lum bir nutq harakatida muvaffaqiyat qozonish uchun bu xilma-xil qobiliyat va ma'lumotlarni birlashtiradi.

Ushbu tadqiqotda tasodifiy ravishda bir-biriga tayinlangan ikkita guruh ishtirok etgan haqiqiy eksperimental dizayn qo'llanilgan, ularning har biri tadqiqot yakunida sinovdan o'tgan. Oldingi va keyingi test sifatida nemis tilini bilish testi qo'llaniladi. 30 nafar o'quvchi ishtirokida video asosidagi muhokamadan foydalangan holda, sakkizta dars rejasi amalga oshirildi. O'quvchilardan dars tugashidan oldin ham, undan keyin ham kundalik hayot tarzi haqida so'roq qilindi. Tadqiqotchi tafsivlash va xulosa chiqarish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'quvchilardan olingan oldingi va keyingi testlar bir qancha parametrlar yordamida kategoriyalanadi. Bunda testdan guruhni oldingi ballardan tajriyba va nazorat natijalarini namoyish qiladi. Tajriybadan o'tkazilayotgan guruhdagi o'quvchi maxsus, juda yaxshi va juda yomon baho qo'lga kiritmadi. Shu bilan birgalikda, bir o'quvchi juda yaxshi baho oldi, olti o'quvchi teng baho oldi, to'qqiz o'quvchi juda past baho oldi va o'n to'rt o'quvchi ham juda past baho oldi.

Tajribadagi guruh va nazorat guruhlaridan olingan keyingi test natijalari aniqlandi. Ikkita guruh ballari ham ko'paygan. Ammo tajribadagi guruh ko'rinishidan sinf xonasidagi videoga asoslangan va bilim natijalari sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Biz tajribada guruhida hech bir o'quvchi ajoyib, yomon yoki juda yomon ballar olmaganligini tahlil qildik. Shu bilan birga, 5 o'quvchi juda yaxshi, 10 o'quvchi yaxshi va 15 o'quvchi o'rtacha baho oldi.

Nazorat guruhidagi 2 o'quvchi (11.11%), 8 o'quvchi (22.22%), 20 o'quvchi (66.67%) va hech bir o'quvchi a'lo, juda yaxshi va juda yomon baholarni olmadilar. Quyidagi 1- va 2-jadvalda eksperimental va nazorat guruhlar uchun o'rtacha ball va standart o'sishi ko'rsatilgan.

Ballarning o'sishi ikki guruhda ham nutqning o'sganligini bildiradi. Ammo eksperiment guruhining bali nazorat guruhi baliga nisbatan yuqoriligini bilamiz. Bu shuni anglatadiki, darslarda videoga asoslangan suhbatlar uyushtirish samaraliroq ekanligi isbotlangan. Metodda uchta asosiy aspekt asosida tekshirilgan, ular: ravon, aniq, tushunishga oson. Har bir aspekt olti balga ega, bular: a'lo, juda yaxshi, yaxshi, o'rta, yomon va juda yomon. Ular yuqoridagi jadvallar asosida nutq qobiliyati ballarining o'zgarishini ko'rsatadi. Tadqiqotchi o'quvchiga videoga asoslangan munozora usulini amalga oshirishda baholash uchun oldingi test va keyingi testni taqdim etadi va natijada videoga asoslangan muhokama talabning nutq ko'nikmalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Nazorat guruhiga nisbatan faqat muhokamadan foydalanilgan usullari, videoga asoslangan munozara, muhokama usullaridan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi, shuning uchun tadqiqot natijalari oldingi tadqiqotlarga mos keladi va ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma'lumotlar va muhokamalar asosida tadqiqotchi quyidagi xulosoga keldi:

a) video asosidagi dars multimediasidan foydalanish o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, videoga asoslangan muhokamadan

so'ng o'quvchilarning nutq qobilyatlari sezilarli darajada yaxshilangan. O'quvchilarning testdan keyingi o'rtacha bali [3;2869-b.] o'quvchilarning testdan oldingi o'rtacha balidan yuqori [2;2456-b.]. Bu muqobil gipoteza qabul qilingandan dalolat beradi. Ushbu natija tadqiqotchining muammoli bayonini ko'rib chiqdi, chunki suhbatlashning videoga asoslanib foydalanishi o'quvchilarning nutq qobiliyati oshirdi;

b) tadqiqotchi dastlabki test jarayonida ma'lum o'quvchilar ham eksperimental, ham nazorat guruhlari kerakli lug'atga ega bo'lmagani uchun savolga javob berishda qiynalardi. Pretest intervyu shaklida bo'ldi. Ishtirokchilarga suhbatdan oldin so'z boyligini kengaytirishga videoma'limotlar yordam berdi. Natijada ularni so'z boyligi o'sganligi sababli post testdan yaxshi natijalarga erishdilar;

d) o'quvchilar vaqtini boshqarishda qiyinchiliklarni ko'rdi, ammo ikkinchi va keyingi darslarda strategiyaga moslasha boshladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Juraboyev B.B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215–220 p.

(2). Sanaqulov Z. (2021) Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlar. Academic Research in educational sciences. Issue 4, 523–532 p.

(3). O'tepbergenov J.S. Tálimde xabar texnologiyari. Tashkent, «Yosh avlod matbaa», 2022, 55–58-betlar.

(4). Xodjayev M. & Qahharova M. “Chet tilini o'qitish metodikasi”. T., «Fan va texnologiya», 2012.

(5). Jamolov J. “Chet tilini o'qitish metodikasi”. Toshkent, «O'qituvchi” nashriyoti, 2012.

Yuldashev Doniyor Taxirovich (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent),

Ro'zimova Guli (UrDU mustaqil tadqiqotchisi),

“OSHIQNOMA” TURKUM DOSTONLARIDAGI SIFATLASHLARNING IFODA MATERIALIGA KO'RA TURLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi paradigmatic hodisa sifatida qaraluvchi tropalar va sintagmatik nuqtayi nazardan yondashiluvchi uslubiy figuralar, xususan, sifatlashlarning matn takomilidagi o'rni, uning ko'rinishlari, nutqning badiiyligini, obrazlilikni vujudga keltiruvchi, badiiy shaklni yaratuvchi vosita ekanligi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tilshunoslik, lingvofolkloristika, lingvopoetika, sifatlash, tasviriy vositalar, trop, nutqiy figuralar, metafora, sinesteziya.*

Юлдашев Даниёр Тахирович (доктор филологических наук (DSc), доцент),

Розимова Гули (независимый исследователь УрГУ)

ТИПЫ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ЦИКЛЕ ДАСТАНОВ “АШИК НАМЕ” ПО ВЫРАЗИТЕЛЬНОМУ МАТЕРИАЛУ

***Аннотация.** В данной статье с синтагматической точки зрения рассматриваются тропы и стилистические фигуры в цикле дастанов “Ашик наме”. В частности, исследуется роль эпитетов, изобразительно-выразительных средств в совершенствовании текста. Они отмечаются в качестве средства, придающего тексту художественность и образность.*

***Ключевые слова:** языкознание, лингвофольклористика, изобразительные средства, троп, фигуры, метафора, синестезия.*

Yuldashev Daniyör Takhirovich (Doctor of Philological Sciences (DSc), associate professor),

Rozimova Guli (independent researcher, UrSU)

TYPES OF ADJECTIVES IN “OSHIKNOMA” SERIES ACCORDING TO THE MATERIAL OF EXPRESSION

***Annotation.** In this article, tropes and stylistic figures the epics of the “Oshiqnoma” series, are approached from a syntagmatic point of view, in particular, the role of adjectives, which is one of the oldest forms of visual means, in the development of the text, its manifestations, the tool that creates the artistry of speech, imagery, and creates an artistic form is highlighted.*

***Key words:** Linguistics, linguo-folkloristics, pictorial means, trope, figures of speech, metaphor, synesthesia.*

Kirish. Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham badiiy so'z, xususan, uslubiy figura va tropalar masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi sifatlashlar va ularning o'ziga xosliklari, umumxalq va badiiy sifatlashlar, sifatlashlarning tasnifiy guruhlari: shaxslar, narsa-tushunchalar va joy bilan bog'liq sifatlashlar, ularning ifoda materiali va tarkibiga ko'ra turlari misollar yordamida yoritib berishga harakat qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'lumki, sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo'lib, aniqlovchilardan emotsional ta'sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. M. Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma'no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko'rsatgan [4;15–16-b.]. A.T. Rubaylo sifatlash tropning metafora va metonimiyaga yaqin bo'lgan turi ekanligini ta'kidlab, uni badiiy aniqlovchi deb ataydi [5;46-b.]. R. Qo'ng'urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta'kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi [6;27-b.]. Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsional-ekspressivligi, nihoyat, badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M. Kojina sifatlashni narsa-hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta'kidlovchi, ko'proq badiiy nutqda qo'llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so'z sifatida talqin qiladi [7;97-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy nutqda qo'llaniladigan barcha so'zlar u yoki bu darajada tasvirilikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so'z matnda o'ziga xos ma'no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasvirilikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo'lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri sifatlash (epitet)dir. Sifatlash tropning bir turi bo'lib, unga badiiy obrazlilikni ta'minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan [1, 2, 3]. Sifatlash umumslubiy vosita sanaladi. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta'riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir.

Tahlil va natijalar. "Oshiqnoma" turkum dostonlari matnida uchraydigan sifatlashlarni xarakteriga ko'ra, ikki turga ajratish mumkin: a) umumnutq sifatlashlari; b) badiiy sifatlashlar.

Umunnutq sifatlashlarida obrazlilik, ekspressivlik kuchli bo'lmaydi, bunday sifatlashlarida narsa, hodisalarning biror tomoni, hammaga ma'lum bo'lgan belgi asosida ko'rsatiladi. Ammo sifatlashlarning bu turi ham ifodadorlik ko'lami bilan ajralib turadi. Bunday sifatlashlar inson holatini ta'riflash vazifasini bajaradi va badiiy asarlarda bu tipdagi sifatlashlar orqali inson o'y-kechinmalari, narsa-hodisaga munosabati kabilar ifodalanadi. Masalan, "Oshiqnoma" turkumi dostonlarida ummunnutq sifatlashlarining inson holatini tasvirlash jarayonining obrazli dalilanganligini uchramiz: *Ikki oshiq bir ruh, bir jon, bir tanli* (8-kitob, Sh. (y.v.) 118-b.), *Tabla to'la, bedov o'tli, Ko'shki ayvon shoh sifatli, Bizning birlan muhabbatli, Beklar ko'rindi-ko'rindi* (8-kitob, Sh. (y.v.) 143-b.), *Bemuruvvat qahbo falak alindin, Bag'rim shona-shona tilindi turnam* (8-kitob, Sh. (y.v.) 131-b.) kabi misralarda "bir ruh, bir jon, bir tanli ikki oshiq", "bedov o'tli tabla, shoh sifatli ko'shki ayvon, muhabbatli", "bemuruvvat qahbo" sifatlashlari ummunnutq sifatlashlariga misol bo'la oladi. Ya'ni, bunday sifatlashlar inson holatini ifodalanishi va o'y-kechinmalarning narsa-hodisaga munosabati orqali aniq ta'riflangan. Ayri o'rinlarda bunday sifatlash personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan allaqanday voqeaga eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan.

Badiiy sifatlashlar, ko'pincha, individual so'z qo'llanilishining namunasi bo'lib, ifodadagi favquloddalik, yangilik, emotsional-ekspressivlikning kuchayishi uchun imkon yaratadi. Bunday sifatlashlar orqali narsa-hodisa kishi xayolida obrazli gavdalanadi. Badiiy sifatlashlarda, ko'pincha, ma'no metaforik asosda yoki o'xshatish-sifatlash asosida vujudga keladi. Badiiy matnlardagi sifatlashlarni sinchiklab kuzatish shunday xulosaga olib keldiki, sifatlashning metaforik sifatlash turi ko'proq poetik asarlarga xos bo'lib, nasriy asarlarda bu tur u darajada faol emas. Shu boisdan nasriy matnlarda sifatlashlarning badiiy so'zlar asosida vujudga kelgan ko'rinishlari ma'no xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Doston matnida ham tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy sifatlashlar ham yetarlicha uchraydi. Masalan, *ajab totli shaftoli* (2-kitob, OG'SH. 45-b.) – *Bog'boningiz bog'bon o'tli, Shaftolingiz ajab totli // aqiq dudoqli* (7-kitob, Dav. 39-b.) – *La'li, marjon taqqan, aqiq dudoqli // Qo'yni jannat parizod bila kechur // arab o'tli bek o'g'lonlar* (8-kitob, AK. 23-b.) – *Asl arab o'tli bek o'g'lonlari, Tabriza bir bo'lak so'na keldimi?*

Badiiy sifatlashlar nutqqa parдоз berish, predmetlarning xarakterli tomonlarini badiiy bo'yoqdor holda ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Sifatlashlarning bu turi emotsional obrazlilikning kuchliligi bilan farqlanadi. Bunday sifatlashlarda aksariyat hollarda bir necha sifatlovchi belgi mavjud bo'ladi. Masalan, *Yuzingni mangzatdim bir qatra suva* (8-kitob, Sh. (y.v.) 107-b.) // *Qo'li bilak uzuklining, Dod alindan, do'st alindan* (8-kitob, Sh. (y.v.) 83-b.) // *Bu binafsha bo'ying egib yig'lama, To'ti kabi o'zing so'za chog'lama* (2-kitob, OG'Sh. 22-b.) // *Gul yuzlari ola mangzar, Xush sifatli bola mangzar, Bir boqishli humoya mangzar, Sarvi Xiromon ko'rindi* (2-kitob, Xir. 232-b.) // *O'n barmog'i bo'g'in-bo'g'in xinolim* (8-kitob, Sh. (y.v.) 137-b.). Keltirilgan *bir qatra suva mangzar yuz, bilakuzukli qo'l, binafsha bo'y, bir boqishli humo, bo'g'in-bo'g'in xinoli o'n barmog* sifatlashlaridagi obrazlilik predmetlardagi muayyan belgining mavjudligi asosida kuchaygan. Zero, sifatlashlarning bu turida predmet belgisini o'ta aniq, butun tafsiloti bilan ajratib ko'rsatilishi asosida ekspressivlik darajasi ham kuchayib boradi. Badiiy nasr sifatlashlarga boy bo'-

lib, unda doimiy sifatlashlar bilan bir qatorda individual sifatlashlar ham ko‘plab uchraydi [8;154-b.]. Doston matnida qo‘llanilgan quyidagi misollar shaxsning turli belgilariga asoslangan individual sifatlashlarga misoldir: *bodom qaboqli, yuzi mengli, qizil olma yanoqli, la’li-marjon, aqiq yanglig‘ saqoqli, qandday asal shirin tilli qiz – Qiz juvoni turfa, bodom qaboqli, Yuzi mengli, qizil olma yanoqli, La’li-marjon, aqiq yanglig‘ saqoqli, Qandday asal shirin tillari bordur* (7-kitob, Dav. 97-b.).

Muhokama. Umuman, badiiy nasrda sifatlashlar ikki xil ko‘rinishdagi so‘zlar yordamida hosil bo‘ladi, ya’ni:

a) predmet, narsa va hodisaning belgi-xususiyatini bildirgan so‘zlar yordamida hosil bo‘ladi: *marol ko‘zli yor, guldek badan, mazali so‘z, misli oydek yuzlar, jilva yuzli yor, jodu ko‘z, inju tishli qiz...*;

b) predmet, narsa-hodisaning holatini ifodalaydigan so‘zlar vositasida hosil bo‘ladi: *karomatli kishi, ikki tilli bevafo, er nazari tushgan odam, g‘irt savdoyi odam, g‘o‘chchoq er yigit* kabilar. Bular orasida sifatlashlarning biror predmetning rangiga qiyoslash orqali hosil bo‘lgan turlari ta’sirchanlik va obrazlilik darajasining kuchliligi bilan ajralib turadi. Chunki sifatlashning bu turida ham o‘xshatish, ham sifatlash holati mavjud bo‘ladi.

Sifatlashlarning tasnifiy guruhlari:

1. Shaxslar tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar:

a) bevosita shaxsga yo‘naltirilgan sifatlashlar: *Besh ming sovutli, arslon tilakli, Zarnigorning Rustam Zoli kerakdur* (6-kitob, MZ. 117-b.) // *Asilxonday sevar yordan, Man do‘naman, ko‘nglim do‘nmas* (8-kitob, As.(og‘) 36-b.) // *Asl arab otli bek o‘g‘lonlari, Tabriza bir bo‘lak so‘na keldimi?* (8-kitob, AK. 23-b.) // *Bir toza gul erdim man so‘lar bo‘ldim, Bahorli-bog‘chali yordin ayirdi.* Bunday sifatlashlarga “Oshiqnoma” turkum dostonlaridan yuzlagan misollar keltirish mumkin: *Bahromdin haybatli, Hazrati Yusufday xonlari; bahru bozli yigit, bek o‘g‘lonbek, boshi talli yigit, bo‘z tarlon sifatli, to‘ti boqishli odam, g‘o‘ch o‘g‘lon, g‘o‘ch yigit, hurlara mangziydigan kaniz, huri parizodlarday ayol, ikki yuzi gul Yusuf* kabilar;

b) shaxsning shakli-shamoyiliga yo‘naltirilgan sifatlashlar: *Uzoqdir saning ellaring, Alifdek incha bellaring* (2-kitob, MG. 174-b.) // *Alifdek qomating, incha belingdan* (2-kitob, MG. 176-b.) // *Yuzda anbaridin qaboli, Kiyinibdur olma bolli* (8-kitob, AK. 12-b.) // *Anorga mangzar yuzlaring, Gulingni termaka keldim* (2-kitob, OA. 114-b.) // *Bu binafsha bo‘ying egib yig‘lama, To‘ti kabi o‘zing so‘za chog‘lama* (2-kitob, OG‘Sh. 22-b.). Yana bir qatra suva mangzar yuz, bol og‘izlar; *China mangzar soch, cho‘qmora mangzash tumshuq* kabi sifatlashlarni ham shu guruhga kiritish mumkin.

2. Narsa-predmetlar tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar: *Tegrasina borib, bag‘dodiy gopusini qoqdi* (2-kitob, Xir. 241-b.) // *Ammo 40 kunda podshoga idirli bir gap ayta olmay o‘zaro kelishdilar...* (6-kitob, MZ. 80-b.) // *Ammo bobo yetmish yoshga kirsang ham kallangda ignaning uhidek aql yo‘q ekan* (6-kitob, MZ. 83-b.) // *Ishratli zavqu safoni, Surmakka go‘zal yarashur* (8-kitob, SH. (y.v.) 151-b.) // *Shunday issiq xabardi avvalrak topsong bo‘lmimi, deb gavhari shamchiroqni sotib oldilar* (3-kitob, HH. 233-b.) // *Oq yuzinda jo‘ra-jo‘ra xolina, Boshim qurbon toza kelgan nov gula* (8-kitob, SH.(y.v.) 137-b.) // *Gavdangdin ayrilur kadidek boshing, Yigit, qochgil, tezroq mening yo‘limdin* (6-kitob, Gav. 194-b.) // *Sallona-sallona qozdek yurishi, Alifdek qomati, kamondek qoshi* (2-kitob, Xir. 230-b.) kabilar.

3. Joy nomlari tavsifi bilan bog‘liq sifatlashlar: *Ersa yaqin bordi, ko‘rarkim, bog‘i jannatsifat bir joy* (2-kitob, MG. 174-b.) // *Bulbulli, chamanli, bo‘stonli bog‘lar* (8-kitob, SH. (y.v.) 132-b.) // *Oqar chashmasi, buloqli, Degra-doshi qizil oqli, Boqchasi bag‘dod yaproqli* (8-kitob, SH.(y.v.) 143-b.) // *Haryona taratib mushki, sunbuli, Eram bog‘a mangzar bog‘laring saning* (2-kitob, SHah. 284-b.) // *Bu yerda dim kurortni yer ekan, besh-olti kun dami-tinchimizdi olib, tuyalarni o‘tga yuborib, to‘yintirib, undan keyin yo‘lga chiqsak qalay bo‘lar ekan, – dedi* (3-kitob, HH. 232-b.) // *Munogqosh uylarda, oq o‘tovlarda* (8-kitob, SH. (y.v.) 96-b.) // *Oshiq Oydin pirim ustozlarim bor, Murg‘zorli cho‘llar tushar yodima* (2-kitob, OA. 156-b.) // *Ammo Istambul viloyatiday ulug‘ joyni ko‘rmadik* (7-kitob, GB. 127-b.) kabilar.

Sifatlashlarning ifoda materialiga ko‘ra turlari:

a) an’anaviy til materiallari bilan ifodalangan sifatlashlar: *Archali, givoli tog‘lardan oshdim, Shum falakning savdosina sotashdim* (8-kitob, Sh.(y.v.) 126-b.) // *Asilxonday sevar yordan, Man do‘naman, ko‘nglim do‘nmas* (8-kitob, As. (og‘) 36-b.) // *Oo‘li bilak uzuklining, Dod alindan, do‘st alindan* (8-kitob, Sh.(y.v.) 83-b.) // *Ersa yaqin bordi, ko‘rarkim, bog‘i jannatsifat bir joy* (2-kitob, MG. 174-b.) kabilar;

b) diniy tushunchalar bilan ifodalangan sifatlashlar: *Ul shirin so‘zlari jona yoqishli, Isi mushkanbarli yupor qoqishli* (7-kitob, GB. 158-b.) // *Muruvvatli qiblagohim, Yuz tutdum devona qarshi* (7-kitob, GB. 181-b.) // *La‘lidir, gavhardir, durri-marjondir, Murassa‘ qubbasi bordir kaklikning* (1-kitob, SH. 41-b.) // *Qosim qarasa, qushning har oyog‘i machitning o‘rasiday, gavdasi qora uy bilan barobar, tumshug‘i*

cho'qmorga mangzash, ko'zlari chirog'day (6-kitob, MZ. 83-b.) // Lablarining shirindir misoli kavsar (8-kitob, SH. (y.v.) 138-b.) kabilar.

Sifatlashlarning tarkibiga ko'ra turlari:

a) sodda tarkibli sifatlashlar: *Hov, yuzboshi, bul imir-dumon egilikli ahvol ermas* (7-kitob, Dav. 50-b.) // *Qarasa sherday haybatli, ajdarday suratli, yo'lbarsday quvvatli, ko'zlari sehrli, boqishlari mehrlil, farishtasifat, xush tal'at bir yigit unga mayusona tabassum qilib turibdi* (6-kitob, YuZ. 25-b.) // *Bir muruvvat ayla, g'amli qullara* (2-kitob, OG'SH. 41-b.) // *Aqcha kelin, g'amsiz boshim, G'amxona bo'ldi, naylayin?* (2-kitob, OG'SH. 23-b.) // *Gul yuzlari ola mangzar* (2-kitob, Xir. 232-b.) // *Ham hiloli qoshlar-ring, ko'rsat mango o'g'limmisan* (2-kitob, Shah. 314-b.) // *Alifdek qomating, incha belingdan* (2-kitob, MG. 176-b.) kabilar;

b) murakkab tarkibli sifatlashlar – bunday sifatlashli so'z birikmalarida tobe qism, ya'ni sifatlash qismi bir yoki bir necha so'zlar bilan kengayadi: *Kiyikday qora qoshlari, Injuday oqdur tishlari, Tovus misol yurishlari, Nozli mahublar kelibdur* (2-kitob, AK. 219-b.) // *Do'stim, qo'yning mangzar jannat bog'ina, O'ltirsang to anda bog'bon quvg'uncha* (8-kitob, AK. 4-b.) // *Javharday qora ko'zlarining, Jonimni olar so'zlarining* (2-kitob, OA. 114-b.) // *Bulbul ham Gulning bo'yniga qo'l solib, ikki oshiq shul vaqt murodig'a yetgan kabi sarvi og'ochning soyasida, sarhovuzning bo'yida kashmiriy shol ko'rpachaning ustida inja beldin quchishib...* (7-kitob, GB. 171-b.) // *Man bir g'arib ko'zi yoshli nochorman, Ko'z yoshimdin ashki gulgun socharman* (1-kitob, MZ. 246-b.) // *Do'ni gulgun jiyaklining, Kumushdan oq bilaklining* (2-kitob, Xir. 237-b.) kabilar;

d) uyishiq tarkibli sifatlashlar – bunda sifatlashlar teng tarkibda yoki gradatsion holatda uyushadi: *Ikki oshiq bir ruh, bir jon, bir tanli* (8-kitob, Sh. (y.v.) 118-b.) // *Oiz juvoni bodom qaboqli, Yuzi mengli, qizil olma yanog'li, La'li-marjon, aqiq yanglig' saqoqli, Qandday asal shirin tilli* (7-kitob, Dav. 97-b.) // *Zulflari chin-chin, yuzlari o'n to'rt kunlik oydek, tishlari dur, lablari la'l jonona* (2-kitob, SHah. 271-b.) // *Zulflari zarafshon, tili sanoli, Yuzi zanaxdonli, ali xinoli, Oq gardanda tillo tumor minoli, Alifdek qomatli yordin ayrilsa* (7-kitob, Dav. 96-b.) // *Ko'zi, qoshi binolining, O'n barmog'i xinolining, Bizdin ko'ngli ginali qizning* (8-kitob, Sh. (y.v.) 82-b.) kabilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi paradigmatic hodisa sifatida qaraluvchi troplar va sintagmatik nuqtayi nazardan yondashiluvchi uslubiy figuralarning matn takomilidagi o'rni beqiyos. Xususan, sifatlashlar nutqning badiiyligini, obrazlilikni vujudga keltiruvchi, badiiy shaklni yaratuvchi vosita sanaladi. Sifatlashlar ma'noni ifodalashda, narsa-hodisalarni tavsiflashda chog'ishtirishga asoslanishi bilan dostonda takrorlanmas fikr ifodalaydi va ularning lingvopoetik imkoniyat ko'lami kengdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Л., 1973.
- (2). Долинин К.А. Стилистика французского языка. Л., 1978.
- (3). Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1969.
- (4). Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Тошкент, 1993.
- (5). Рубайло А.Т. Художественные средства языка. М., 1961.
- (6). Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент, "Фан", 1977.
- (7). Кожина М.И. Стилистика русского языка. Москва, "Флинта", 2020.
- (8). Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-усlubий шаклланиш асослари. Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс., Тошкент, 2020.
- (9). Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб (2005), 2-китоб (2005), 7-китоб (2018), 8-китоб. Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев, Урганч, "Хоразм" нашриёти, 2019.

Kushmanov Jasur Bahodirovich (PhD; jasurbaxodirovich84@gmail.com),

Xudayberganova Gulzoda Xursandbek qizi (Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti;

gulzodaxudayberganova55@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida somatik frazeologik birliklarning tahlilini o'rganishga bag'ishlangan. Somatik frazeologik birliklar odamning tanasiga oid so'zlar va iboralardan iborat bo'lib, ular madaniyat va til o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Maqolada har ikkala tilning somatik frazeologizmlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning ma'nosi, tuzilishi hamda madaniy kontekstdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarni turli kategoriyalar bo'yicha tasniflash amalga oshirilgan. Natijada maqola somatik frazeologik birliklar-

ning tilshunoslikdagi ahamiyatini ochib berish bilan birga, turli tillar orasidagi farqlar va o'xshashliklarni ham ajratib ko'rsatadi. Bu ilmiy tadqiqot nafaqat lingvistika sohasida, balki madaniyatlararo tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo'lishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: somatik, frazeologik birliklar, etimologiya, anatomik qismlar, frazema, turg'un iboralar, frazeologik iboralar semantikasi.

АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению соматических фразеологизмов английского и узбекского языков. Соматические фразеологизмы состоят из слов и выражений, связанных с телом человека, которые отражают взаимосвязь культуры и языка. В статье анализируются особенности соматической фразеологии обоих языков, их значение, структура и значение в культурном контексте. В ходе исследования соматические фразеологизмы в английском и узбекском языках были классифицированы по разным категориям. В результате в статье раскрывается значение соматических фразеологизмов в лингвистике, а также выделяются различия и сходства между разными языками. Ожидается, что это научное исследование станет важным ресурсом не только в области лингвистики, но и для межкультурных исследований.

Ключевые слова: соматика, фразеологизмы, этимология, анатомические части, фразовые глаголы, устойчивые словосочетания, семантика фразеологизмов.

ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. This article is devoted to the study of somatic phraseological units in the English and Uzbek languages. Somatic phraseological units consist of words and expressions related to the human body, which reflect the relationship between culture and language. The article analyzes the characteristics of somatic phraseology of both languages, their meaning, structure, and significance in the cultural context. During the research, somatic phraseological units in English and Uzbek languages were classified according to different categories: ability, feeling, thought, etc. The etymology of these units and their use in modern speech are also considered. As a result, the article reveals the importance of somatic phraseological units in linguistics, and also highlights the differences and similarities between different languages. This scientific research is expected to be an important resource not only in the field of linguistics, but also for cross-cultural researches.

Key words: somatic, phraseological units, etymology, anatomical parts, phrasal verbs, fixed phrases, semantics of phraseological phrases.

Kirish. Somatik frazeologiya – bu tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, unda inson tanasi va uning qismlariga oid iboralar o'rganiladi. Har bir xalqning madaniyati, tarixi va hayot tarziga mos ravishda somatik frazeologik birliklar muayyan ma'nolarni ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillarida somatik frazeologik birliklar ko'p, ularda inson tanasining turli qismlari (masalan, bosh, qo'l, oyoq) qisman yoki to'liq har xil kontekstlarda ishlatiladi.

Semantik tasnif. Somatik frazeologik birliklar semantik jihatdan quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

1. Anatomik ma'noda. Bu birliklar to'g'ridan to'g'ri tananing qismlariga bog'liq. Masalan:
 - o'zbek tilida: “Boshni yulib olmoq” (noqulay vaziyatga tushmoq);
 - ingliz tilida: “To have a head for something” (biror narsaga qobiliyatli bo'lmoq).
2. Hissiy holatlarni ifodalovchi. Bu guruhda his-tuyg'ular yoki ruhiy holatlarni ifodalovchi iboralar joylashadi:
 - o'zbek tilida: “Yuragida g'ashlik” (xavotirlanmoq);
 - ingliz tilida: “To have a heart of stone” (sovuq yurakli bo'lmoq).
3. Xulq-atvor yoki fe'lni ifodalovchi: Bu yerda insonning xulqi yoki fe'l-atvorini aks ettiruvchi iboralar mavjud:
 - o'zbek tilida: “Qo'lidan keladigan ish” (mahorat);
 - ingliz tilida: “To lend a hand” (yordam berish).
4. Ijtimoiy aloqalarni aks ettiruvchi: Bu birliklar ijtimoiy munosabatlarga oid iboralardir:
 - o'zbek tilida: “Ko'z ko'rmas, quloq eshitmas” (boshqalarning ishlariga aralashmaslik);
 - ingliz tilida: “To keep an eye on someone” (birovni kuzatib borish).

Somatik frazeologik birliklar – inson tanasining qismlari, funksiyalari va hissiyotlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar bo'lib, ularning mazmuni, ko'pincha, madaniyat, an'ana va xulq-atvor bilan bog'liq. Ingliz

va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarni o'rganish orqali biz ikki turli madaniyatdagi insonlar fikrlash tarzini, his-tuyg'ularini va atrof-muhitga nisbatan munosabatlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikda inson tana a'zolari nomlariga nisbatan qo'llaniladigan "somatizm" atamasi ilk bor eston tili frazeologizmlarini o'rgangan olim F.Bakk tomonidan qo'llanilgan edi. U mazkur dissertatsiyasida eston tili frazeologik fondining anchagina qismini tashkil etishini ta'kidlagan edi. "Somatik frazeologizm" atamasi esa birinchi marta rus olimi E.M.Mordkovich tomonidan inson a'zolari bilan bog'liq "Семантико-тематические группы соматических фразеологизмов" nomli maqolasida qo'llagan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan somatik frazeologizmlarni o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish boshlangan. Somatik frazeologizmlarni bir til doirasida o'rganish ishlarini 1964-yilda F.Bakk nomzodlik dissertatsiyasida boshlab bergan. U eston badiiy tilidagi somatik frazeologizmlarni o'rgandi va "somatizm" atamasini yoritib berdi. Ilk marta aynan somatik frazeologik birliklar component tarkibini funksional-semantik yo'nalishda 1977-yilda M.V.Oryol o'z maqolalaridan birida tadqiq etgan. 1980-yilda V.M.Mokiyenko o'zining "Славянская фразеология" asosida slavyan tilidagi frazeologizmlarni o'rganib, somatik frazeologik birliklarga ham to'xtalib o'tgan. Xuddi shu yilda R.M.Vaynt-raub o'z maqolasida rus tilidagi somatik frazeologizmlarni tadqiq etgan. Somatik frazeologik birliklarni o'rgangan olimlarning ayrimlari ularni ikki, uch va turli tillar doirasida qiyosiy metod asosida tadqiq etishdi. 1971-yilda Y.A.Dolgopolob ingliz va nemis tillaridagi somatik frazeologik so'z birikmalarini qiyosiy o'rgangan edi. V.M.Mokiyenko o'zining "Славянская фразеология"(1980) nomli asarida frazeologik birliklarni ikki guruhga bo'lgan edi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz va o'zbek tillarida somatik frazeologizmlar orqali tilning semantik xususiyatlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

1. Madaniy farqlar. Har bir xalqning madaniyati, an'analari, dunyoqarashi va hayot tarzi til orqali ifodalanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarni taqqoslash orqali bu madaniy farqlarni aniqlash mumkin.

2. Psixologik omillar. Somatik frazeologizmlar insonning psixologik holatini ifodalovchi kuchli vosita hisoblanadi. Ularning tahlili orqali ijtimoiy psixologiya, hissiyotlar va munosabatlar haqida ma'lumot olish mumkin.

3. Til o'rganish jarayoni. O'zbek va ingliz tillaridagi somatik birliklarni o'rganish chet tillarni o'rganayotgan talabalarga yordam beradi, chunki bunday birliklar, ko'pincha, nutqdagi rang-baranglikni oshirib, ifodaviylikni kuchaytiradi.

4. Tilshunoslik tadqiqotlari: Tilshunoslikda somatik frazeologiya sohasida olib boriladigan tadqiqotlar yangi bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa lingvistika fanining rivojiga hissa qo'shadi.

5. Interkultural kommunikatsiya: Globalizatsiya davrida turli tillar va madaniyatlar orasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Somatik frazeologizmlar orqali turli xalqlar o'rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash mumkin.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek tillarida somatik frazeologizmlarni o'rganish bilan shug'ullangan bir nechta olimlar mavjud. Ularning ishlarida bu birliklarning semantik tasnifi, ularning madaniy konteksti va tilshunoslikdagi ahamiyati yoritilgan.

1. Zokirova N. O'zbek tilidagi somatik frazeologizmlarni o'rganishda muhim ishlarni amalga oshirgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari asosan o'zbek xalqining madaniyati va an'analarini yoritishga qaratilgan.

2. Mamatqulov M. Ingliz tili va adabiyotini tadqiq etuvchi olim sifatida somatik frazeologik birliklar bilan bog'liq ko'plab ilmiy maqolalar yozgan.

3. Ibragimova Z. U ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni taqqoslash orqali ularning semantik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

4. Shodmonov A. Bu olim ham somatik frazeologizmlarni tahlil qilishda keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borgan.

Ushbu olimlarning izlanishlari orqali ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning semantik tasnifi, ularning shakllanishi va qo'llanilishi haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Frazeologik birliklarga kiruvchi so'zlar inson tanasi qismlarini anglatadi va bu so'zlar orqali milliy mentalitet ham aks etadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning semantik tasnifi ularning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot har ikki xalqning fikrlash tarzi va hayotiy tajribasini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Somatik frazeologiya orqali biz faqatgina lug'aviy ma'nolarni emas,

balki jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlarni ham chuqurroq anglashimiz mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning semantik tasnifi nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyatlararo aloqalar nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Bu tadqiqot sohalari tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda interkultural munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

1. Madaniy farqlar. Har ikki tilning somatik frazeologik birliklari o'z madaniyatiga xos bo'lib, ularning semantik ma'nolari ko'pincha milliy mentalitet bilan bog'liqdir. Masalan, ingliz tilida "to bite someone's ears off" ifodasi ko'p gapirib tinglovchini zeriktirmoq ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida esa "qulog'ini tishlamoq" iborasi unashdirilmoq ma'nosida ishlatiladi.

2. O'xshashliklar. Ba'zi somatik frazeologik birliklar har ikkala tilda bir xil ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu umumiy insoniy tajriba va hissiyotlar bilan bog'liq:

Ingliz tilida	O'zbek tilida	Ma'nosi
Head to toe	Boshdan oyoq	Boshidan to oyog'igacha
Head over the barrel	Boshi devorga tegmoq	Afsuslanmoq
In the blink of an eye	Ko'z ochib yumguncha	Juda tez
Have eyes bigger than stomach	Ko'zi och bo'lmoq	Nafsi buzuq bo'lmoq
To be the apple of someone's eye	Ko'z qorachig'idek asramoq	Juda qadrli bo'lmoq
Have one foot in the grave	Bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda	Juda qari
In one ear and out the other	O'ng qulog'idan kirib, chap qulog'idan chiqib ketmoq	Esidan chiqmoq
Poke one's nose in	Burun tiqmoq	Birovni ishiga aralashmoq
All eyes and ears	Butun vujudi bilan tinglamoq	Diqqat bilan eshitmoq
Face to face	Yuzma yuz	Qarama qarshi, bir-biriga qarab turmoq

3. Semantik rang-baranglik. O'zbek tilidagi somatik frazeologik birliklar ko'proq tasavvurlar va an'anaviy qadriyatlarga asoslangan holda ifodalanadi, ingliz tilida esa ko'proq zamonaviy hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlarga mos keladi.

4. Qo'llanish sohalari. Har ikki tildagi somatik frazeologik birliklar turli kontekstlarda qo'llanilishi mumkin: adabiyotda, nutqda yoki kundalik hayotda. Ularning qo'llanishi ham madaniyatga ta'sir etadigan omillardan biridir.

Xulosa va takliflar.

1. Tadqiqotlarni kengaytirish. Somatik frazeologik birliklarni chuqurroq o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur, chunki bu soha hali ham yetarlicha o'rganilmagan.

2. Ta'limda qo'llash. O'zbek va ingliz tillarini o'rganayotgan talabalar uchun somatik frazeologik birliklar orqali madaniyatni o'rganishga qaratilgan maxsus kurslarni tashkil etish foydali bo'lardi.

3. Qayta ishlash. Somatik frazeologiyalarni qamrab oluvchi lug'atlar yaratish tavsiya etiladi, bu esa tarjimonlarga va til o'rganuvchilarga yordam beradi.

4. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish. Har ikki millat vakillari orasida madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish uchun seminarlar yoki treninglar o'tkazilishi mumkin.

Ushbu takliflar yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarni yanada chuqurroq tushunishga erishish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Vahobovna A.Z., Ikromjonovna M.D., Kamolovna X.M. Ingliz tilida somatik frazeologik birliklar. "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" jurnali, 2022, 2-t., №.13, c. 378–384.

(2). Abduramanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012, 142 p.

(3). Jumaniyazova N. Frazeologiya va uning nazariyasi. Toshkent, O'zbekiston milliy universiteti. 2019.

(4). Qosimova S. O'zbek tilida somatik frazeologizm va ularning semantik tahlili. Toshkent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 2020.

(5). Benson, M., Benson, E., & Ilson, R. The BBI Combinatory Dictionary of English: A Guide to Word Combinations. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company. 1986.

(6). Makkayeva D. Ingliz tilidagi somatik frazeologik birliklar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari. Toshkent, O'zbekiston davlat Pedagogika universiteti. 2021.

(7). Khayrullayev R. Lingvistik tadqiqotlar va frazeologiya. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2018.

Qodirova Mukaddas Tog'ayevna (TerDU dotsenti, f.f.d. (PhD); E-mail: gmuqaddas@mail.ru)
BIZNES DISKURSINING FREYM TUZILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI TAHLILIDA)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biznes diskursining freym tuzilishi ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil qilinadi. Maqsad – ikki til kontekstida biznes tilining struktura, semantika va kommunikativ funksiyalarini aniqlash va taqqoslash. Maqolada kognitiv lingvistika va freym semantikasiga asoslangan yondashuvlar orqali biznes terminologiyasi va iboralari orasidagi semantik aloqalar ko'rsatilib, ularning kontekstga bog'liqligi o'rganiladi. Bundan tashqari, freymlar yordamida biznes diskursida ma'no yaratish jarayoni va uni tushunish mexanizmlari yoritiladi. Olingan natijalar ingliz va o'zbek tillaridagi biznes muloqotining xususiyatlarini belgilab berish bilan birga, tilshunoslik, kommunikatsiya va iqtisodiy tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ham ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:** biznes diskursi, freym tuzilishi, kognitiv lingvistika, semantika, muloqot.*

Кадирова Мукаддас Тогаевна (доцент ТерГУ, д.фил.н. (PhD); E-mail: gmuqaddas@mail.ru)
ФРЕЙМНАЯ СТРУКТУРА ДЕЛОВОГО ДИСКУРСА (АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

***Аннотация.** В данной статье анализируется структура фреймов в бизнес-дискурсе на примерах английского и узбекского языков. Цель – выявить и сравнить структуру, семантику и коммуникативные функции делового языка в контексте двух языков. В статье, с использованием когнитивной лингвистики и подходов фреймовой семантики, рассматриваются семантические связи между бизнес-терминами и выражениями, а также их зависимость от контекста. Кроме того, освещается процесс создания значений в бизнес-дискурсе с помощью фреймов и механизмы их понимания. Полученные результаты должны способствовать определению особенностей делового общения на английском и узбекском языках, а также раскрыть взаимосвязь между лингвистикой, коммуникацией и экономическими концепциями.*

***Ключевые слова:** бизнес-дискурс, структура фрейма, когнитивная лингвистика, семантика, общение.*

Kadirova Mukaddas Togayevna (Associate Professor of TerSU, Doctor of Philosophy (PhD);
E-mail: gmuqaddas@mail.ru)

FRAME STRUCTURE OF BUSINESS DISCOURSE (ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

***Annotation.** This article analyzes the frame structure of business discourse using examples from English and Uzbek languages. The aim is to identify and compare the structure, semantics, and communicative functions of business language within the context of both languages. Through cognitive linguistics and frame semantics approaches, the article examines the semantic relationships between business terminology and expressions, as well as their contextual dependencies. Additionally, it explores the process of meaning creation in business discourse through frames and the mechanisms of understanding them. The findings are expected to define the characteristics of business communication in English and Uzbek languages while revealing the interconnections between linguistics, communication, and economic concepts.*

***Key words:** business discourse, frame structure, cognitive linguistics, semantics, communication.*

Kirish (Introduction). Biznes diskursi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi tijorat, iqtisodiy va tashkiliy muloqotlarni tahlil qilishga qaratilgan. "Diskurs" tushunchasi o'z ildizini lotincha *discursus* so'zidan olgan, u *so'zlashuv, aloqa* degan ma'noni anglatadi [11]. Biznes diskursi esa bevosita tijorat faoliyati bilan bog'liq kommunikativ jarayonlar yig'indisi sifatida shakllanadi va o'ziga xos til vositalari, muloqot strategiyalari bilan farqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ushbu sohaning tadqiqotlariga qaratilgan e'tibor XX asrning ikkinchi yarmida ortdi. Biznes diskursi tadqiqotlarida muhim rol o'ynagan olimlar orasida John Swales (1990) [9], Deborah Tannen (1984) [10], Almut Koester (2006) [6], Norman Fairclough (1992) [3] va Jan-Charlz Fillmor (1982) [4] kabi tadqiqotchilarni alohida qayd etish mumkin.

Freym tushunchasi lingvistikada va psixologiyada keng qo'llanilib, muloqot jarayonidagi kognitiv tuzilmalarni aniqlashda yordam beradi. Freym tushunchasi, dastlab, kognitiv psixologiyada tadqiq qilingan, uning asoschilaridan biri Erving Goffmandir [5]. U freymni odamlarning voqea va jarayonlarni tushinishiga yordam beruvchi mantiqiy tuzilma sifatida ta'riflagan. Keyinchalik, bu tushuncha lingvistikaga tatbiq etilib, Jan-Charlz Fillmor tomonidan lingvistik freym nazariyasi shakllantirilgan [4;112-b.]. Ushbu nazariya muloqotda foydalaniladigan til birliklari orqali voqelikning qanday tashkil etilishini o'rganadi.

J.Swales biznes diskursini “o‘ziga xos maqsadga erishish uchun tilni tashkilotlar ichida yoki ular bilan bog‘liq holda ishlatish” [9;147-b.], deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, biznes diskursi ma’lum janrlar orqali shakllanadi va tashkilotning kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi. Deborah Tannen esa biznes diskursini “tashkilotlar va ishbilarmonlar o‘rtasidagi muloqotni ifodalovchi ko‘p qirrali kommunikativ hodisa” [10; 135-b.], deb qaraydi. Uning talqiniga ko‘ra, biznes diskursida til faqat axborot uzatish vositasi bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi rol o‘ynaydi [10;135-b.]. Almut Koester ushbu qarashlarga qo‘shimcha qilgan holda, biznes diskursi “tijorat va tashkiliy faoliyat doirasida shakllangan maxsus kommunikatsiya turi bo‘lib, unda ish jarayonidagi rasmiy va norasmiy muloqot uslublari birlashadi [6;47-b.], deb ta’riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ingliz va o‘zbek tillarida tahlilida biznes diskursining Freym tuzilishini o‘rganishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo‘llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Freym – bu insonning tajribasi asosida dunyoni idrok qilish uchun ishlatiladigan mental model. Har bir so‘z yoki ibora ma’lum bir freymga asoslanadi. Masalan, *shartnoma* (contract) so‘zi biznes diskursida ishbilarmonlik shartnomalari, kelishuvlar va ular bilan bog‘liq qoidalarining kognitiv freymiga asoslanadi. Biznes diskursida freym semantikasi yordamida so‘z va iboralarining kognitiv strukturalari tahlil qilinadi. Har bir biznes tushunchasi, masalan, *investitsiya, rivojlanish, hamkorlik* kabi so‘zlar muayyan freymlar orqali tushuntiriladi. Ingliz va o‘zbek tillarida bu freym-lar qanday farqlanishini yoki qanday o‘xshashligini tahlil qilish biznes muloqotining ikki tilli muloqotdagi tuzilishini ochib berishga yordam beradi. Quyida kognitiv lingvistika va freym semantikasi yondashuvlariga asoslangan holda biznes diskursida ishlatiladigan misollar keltiramiz: 1. *Market Share* (bozor ulushi) iborasi biznes diskursida raqobat va iqtisodiy muvaffaqiyatlarni ifodalashda muhimdir. Masalan: *Market share refers to the portion of a market controlled by a particular company or product. It is a critical indicator of competitive strength and market position* [7;293-b.]. Ushbu ibora ma’lum kognitiv freymga asoslanadi: *market* (bozor) – iqtisodiy muhit va *share* (ulush) – resurs yoki imkoniyatni ifodalaydi. Bu ibora orqali kompaniyaning bozor ichidagi o‘rnini va raqobatbardoshligini baholash mumkin. 2. *Value Proposition* (qiymat taklifi) iborasi biznes diskursida mijozlarga taqdim etiladigan xizmat yoki mahsulotning foydalari va ularni qanday qilib ajratib turishi haqida ma’lumot beradi. Masalan, “*A value proposition is the promise of value to be delivered to the customer; highlighting the benefits and unique selling points that differentiate the product or service*” [8;22-b.]. Bu ibora orqali iste’molchilarga kompaniyaning taklifining qanchalik o‘ziga xosligi va raqobatchilarga nisbatan ustunligi ifodalanadi. Kognitiv freym sifatida “qiymat” (value) iqtisodiy foyda va “taklif” (proposition) esa o‘zaro munosabatlar va savdo jarayonini anglatadi; 3. “*Customer Relationship Management (CRM)*” (Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) iborasi kompaniya va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni samarali boshqarish maqsadini ko‘zda tutadi. Masalan, “*Customer Relationship Management (CRM) is a strategy that companies use to manage interactions with current and potential customers, emphasizing long-term relationships*” [1;4-b.]. Bu ibora muloqot va ishonchni mustahkamlashga asoslangan kognitiv freymni o‘z ichiga oladi. Ushbu ibora orqali kompaniya o‘z mijozlari bilan uzoq muddatli aloqalar o‘rnatishga intilishadi va ularning ehtiyojlarini qondirishga e’tibor qaratishadi. 4. “*Corporate Social Responsibility (CSR)*” (Korporativ ijtimoiy mas’uliyat) iborasi kompaniyaning ijtimoiy va ekologik masalalar bo‘yicha o‘z mas’uliyatini ifodalaydi [2;268-b.]. Masalan, “*Corporate Social Responsibility (CSR) is a management concept whereby companies integrate social and environmental concerns in their business operations and interactions with stakeholders*”. Bu ibora ijtimoiy mas’uliyatni kognitiv freymlar orqali tushuntirishga yordam beradi: “*korporativ*” (corporate) – biznes va “*ijtimoiy mas’uliyat*” (social responsibility) – jamiyatga ta’sir. Ushbu ibora orqali kompaniyalar o‘z faoliyatlarida ijtimoiy va ekologik masalalarni hisobga olishlarini ko‘rsatadi. Ushbu misollar orqali anglash mumkinki, biznes diskursini kognitiv lingvistika va freym semantikasi yondashuvlari orqali chuqur tahlil qilish mumkin. Shuningdek, bu misollar biznes sohasida o‘zaro muloqot va tushunishni oshirishda yordam beradi.

Demak, har ikki tilda berilgan misollar biznes sohasidagi turli tushunchalarning qanchalik keng ishlatilishini va ularning amaliyotga tatbiq etilishini ochib beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qiladigan bo‘lsak, biznes diskursining freym tuzilishi tahlili ingliz va o‘zbek tillarida turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida biznes diskursi kengroq va aniqroq terminologiya hamda ma’nolar bilan boyitilgan, bu esa global iqtisodiy va madaniy ta’sirning natijasidir. O‘zbek tilida esa biznes terminologiyasi endi rivojlanib borayotgan bo‘lib, ayrim atamalar, asosan, tarjima orqali kirib kelmoqda va keng qo‘llanilishi cheklangan. Freym semantikasi yondashuvi orqali biznes diskursi elementlarini chuqur tahlil qilish, so‘zlar va atamalar ortidagi kognitiv

ma'nolarni ochib beradi. Har ikkala til uchun ham freym tuzilmasi tushunchalarni shakllantirishda va ularning turli madaniyatlar, iqtisodiy vaziyatlar hamda ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlashini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'zbek tilida bu borada yanada keng ilmiy-tadqiqiy izlanishlar olib borish lozimligi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Buttle, F. (2009). Customer Relationship Management: Concepts and Tools. London, Routledge, 468 pp.
- (2). Carroll A.B. (1999). Corporate Social Responsibility: Evolution of a Definitional Construct. Business & Society, 38(3), 268–295 pp.
- (3). Fairclough N. Discourse and Social Change. UK, Cambridge: Polity Press, 1992, 259 p.
- (4). Fillmore Ch. Frame Semantics/Linguistic Society of Korea (ed.)/Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hansshin Publishing, pp. 111–137.
- (5). Goffman E. Frame analysis: An essay on the organization of experience. Cambridge MA: Harvard University Press, 1974, 586 pp.
- (6). Koester A. Investigating Workplace Discourse. UK, London, Routledge, 2006, Xii+126 pp.
- (7). Kotler, P., & Keller, K.L. (2016). Marketing Management. India, Pearson Education, 870 pp.
- (8). Osterwalder, A., & Pigneur, Y. (2010). Business Model Generation. Wiley. England, John Wiley & Sons, 288 pp.
- (9). Swales J. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge, Cambridge University Press, 1990, 260 p.
- (10). Tannen D. Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends. USA, New Jersey, Norwood: Ablex Publishing Corporation, 1984, 256 p.
- (11). <https://www.etymonline.com/word/discourse>

Xudaybergenova Zuxra Orazbaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti;
khudaybergenova.zukhra@gmail.com)

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA “WHITE, BLACK” VA “AQ, QARA” LEKSEMALARINING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida “white, black” va “aq, qara” rang ifodalovchi leksemalarning kommunikativ xususiyatlari haqida so‘z boradi. Ingliz va qoraqalpoq tillarida oq va qora rang birliklarining semantikasini aniqlashda kommunikativ jarayon yoki nutqiy akt muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada kommunikativ jarayon so‘zlovchining intensiyasi (boshlang‘ich intensiya, natijaviy intensiya) bilan birga, nutqiy akt intonatsiyasi va nutqdagi kontekst kabi xususiyatlar ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:** kommunikativ jarayon, boshlang‘ich intensiya, natijaviy intensiya, intonatsiya, rang ifodasi*

Худайбергенова Зухра Оразбаевна (ассистент преподавательница в КГУ им. Бердаха;
khudaybergenova.zukhra@gmail.com)

КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСЕМ «БЕЛЫЙ, ЧЕРНЫЙ» И «АК, КАРА» В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются коммуникативные особенности лексем, обозначающих цвет “белый, черный” и “ак, кара” в английском и каракалпакском языках. Предполагается, что коммуникативный процесс или речевой акт играет решающую роль в определении семантики единиц белого и черного цвета в английском и каракалпакском языках. В статье подчеркивается коммуникативный процесс наряду с намерением говорящего (исходное намерение, результирующее намерение), а также интонация речевого акта и контекст в речи.*

***Ключевые слова:** коммуникативный процесс, исходное намерение, результирующее намерение, интонация, цветовое выражение.*

Khudaybergenova Zuxra Orazbaevna (Assistant teacher of Karakalpak state university named after Berdakh; e-mail: khudaybergenova.zukhra@gmail.com)

COMMUNICATIVE FEATURES OF LEXEMES “WHITE, BLACK” AND “AQ, QARA” IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES

***Annotation.** This article deals with the communicative features of lexemes representing color “white, black” and “aq, kara” in English and Karakalpak languages. The communicative process or speech act is supposed to be essential in determining the semantics of white and black color units in English and Karakalpak languages. In the article, the communicative process is emphasized along with the intention of the*

speaker (initial intention, resulting intention), as well as the intonation of the speech act and the context in the speech.

Keywords: *communicative process, initial intention, resulting intention, intonation, color expression.*

Kirish. Qiyoslanayotgan tillardagi *aq, qara* va *white, black* sifatlarining ikkilamchi ma'nolar o'rtasidagi farq mavjud birikmalar anglatadigan ma'no xususiyatlari, ushbu birikmalarining lingvomadaniy xususiyatlari orqali mazkur halqlarning lisoniy olam tasviriga bog'liq. Shunday bo'lsa-da, qoraqalpoq va ingliz tilidagi *aq, qara* va *white, black* sifatlari bir hil rang atamalarini namoyish etadi. Ularning asosiy ma'nosining bir hil yo'nalishdagi akromatik rangni bildiruvchi rang atamalarining kichik guruhiga mansubligi bilan izohlanadi. Bu *aq, qara* va *white, black* sifatlarining polisemantik xususiyatlari turli kommunikativ jarayon natijasida yuzaga kelgan, degan muloxozaga kelishimizga asos bo'ladi.

Tilga kognitiv yondashuv doyrasida qoraqalpoq va ingliz tillarida o'rganilayotgan sifatlar semantikasi kommunikativ xususiyatlariga bog'liq holda taraqqiy etishini ko'z atashi mumkin.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida *white, black* va *aq, qara* tushunchasini ifodalovchi sifatlarda o'xshash birlamchi semantik komponentlar bevosita umuminsoniy tushunchalarga mos ekanligi ushbu sifatlarning denotativ xususiyati rang belgisi bilan aloqadorligi sifatida baholanadi. Mazkur sifatlarning ikkilamchi semantik komponentlari esa xususiy, ya'ni lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga undaydi.

Shunday qilib, *white, black* va *aq, qara* sifatlarning semantik o'zgarishini aniqlashning samarali usuli sifatida ularning kommunikativ jarayonda kengroq qo'llanishini o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu sifatlarning leksik-semantik o'zgarishining umumiy modellari orasida sifatlar semantikasining kengayishi, semantik siljish xususiyatlarga egaligi bilan bog'liq bo'lgan kognitiv jarayon sifatida baholash mumkin.

White, black va *aq, qara* sifatlarining semantik o'zgarishi jarayonida qo'shimcha konnotativ semalar hosil bo'lishi ko'z atashi mumkin. Ushbu rivojlanish jarayonida rangga asoslangan belgilar, rang xususiyatlaridan tashqari, shaxsning axloqiy xususiyatlarini ifodalovchi semantik komponentlarni kuzatish mumkin. Qoraqalpoq va ingliz tillarida salbiy baho semantik komponentining ifodalanishi *qara, black* sifatining so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqiy akt holatiga xosdir. Ingliz tilidagi *white* sifatining leksik-semantik o'zgarishining o'ziga xos xususiyatini tasviriy semaning hosil bo'lishiga bog'liq hodisa sifatida baholash mumkin.

Qoraqalpoq va ingliz tillarida *qara, black* tushunchasini ifodalovchi sifatlarda o'xshash birlamchi semantik komponentlarning shakllanishi rang belgisi bilan bog'liq bo'lsa, ushbu tillarining *qara, black* sifatlari uchun leksik-semantik o'zgarish o'xshashlikni aniqlash uchun ularning kommunikativ jarayon voqelashidagi ikkilamchi ma'nolarini taqqoslash muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz va qoraqalpoq tillarida rang ifodasi, asosan, ikki xalqning madaniyatini, yashash tarzini, insonning yoshini aniqlashda vujudga keladi va tahlil qilinayotgan oq va qora ranglar har xil ma'noni ifodalab keladi. Shuning bilan birga, rang birliklarining boshqa ifodasini aniqlashda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayoni ham katta ahamiyatga ega. Bunda muloqot jarayonida qo'llanilgan nutqiy akt yoki kommunikativ aloqa rang birliklarining ma'nosini ochib berishda yordam beradi.

Sh. Safarovning ta'kidlashicha, tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir [1; 77-b.].

Ikki yoki bir necha shaxslar orasidagi nutqiy akt ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, ikki qiyoslanayotgan tildagi rang birliklarining ma'lum ma'noni ifodalashda nutqiy akt va undagi muloqotning maqsadi va istagiga ko'ra har xil ma'no ifodalanishi mumkin. Masalan: 1) Birewinen bolmasa birewinen **qara jumis** tabilmas pa eken? [3;168-b.]; 2) – Tawıq degeniń turǵan turısı jemis ǵoy, máyegin jeyseń, ǵóshin jeyseń, párin kópshik qılasań... – Qaǵınım tússe **qara tawıq** penen qaqtırasań! – dedi Quwatbay kúlip [3;225-b.].

Berilgan birinchi misoldagi gap so'roq shaklida ishlatilgan va so'zlovchining maqsadi nafaqat qandaydir bir ish bor yoki yo'qligini bilish, balki asl maqsad pul ishlab topish va uy ro'zgoriga ishlatish hisoblanadi.

Ikkinchi misolda keltirilgan kommunikativ jarayonda *qara tawiq* birikmasi ishlatilgan. Berilgan kontekstda *qara tawiq* birikmasida biz rang ifodasidan tashqari, qoraqalpoq, o'zbek xalqlarida kasallikka davolash sifatida yoki shoytonlardan qutulish uchun qora tovuqdan foydalanish udumi ifodasini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, kontekstda tinglovchi so'zlovchining gapini tasdiqlash maqsadida *qara tawiq* birikmasini ishlatgan.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida oq va qora leksemalarining pragmatik xususiyati aniqlashda intentsiya tahliliga yuzlanamiz. Bu muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining amalga oshirgan nutqiy harakat maqsadini aniqlashga bog'liq hisoblanadi. Tilshunos Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" nomli ishida ta'kidlanishicha, tahlil kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so'zlovchi maqsadi, istagi bilan bog'liq tomonlari o'rganadi. Unga ko'ra, kommunikativ jarayonda nutqiy akt yagona maqsadga yoki ikki maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Sh.Safarov nutqiy aktning maqsadi ikki qismga yo'naltirilgan shaklining tarafdori bo'lib, unda intensiyani "boshlang'ich intensiya (maqsad)" va "natijaviy intensiya" sifatida ikki qismga ajratadi. Kommunikativ jarayonda qo'llanilgan intensional tahlilning bu turi haqiqatdan ham nutqiy aktning mazmunini to'liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, *Eki kózim dárwazadan eliw-alpís metrdey jerdegi jarma qapılı aq esikte* [3;21-b.].

Berilgan misolda so'zlovchining nutqidagi boshlang'ich maqsadi uning oq eshikga qarab turganidan xabar berish bo'lsa, natijaviy maqsadi shu eshikdan kirayotgan insonni ko'tib olishdir.

Kommunikativ jarayondagi so'zlovchining boshlang'ich maqsad harakati gapning shakliy ma'no xususiyatlariga xos bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida ta'kidlangan *Birewinen bolmasa birewinen qara jumis tabilmas pa eken?* gapi nutqiy shaklining boshlang'ich intensiya akti so'roq gap, *Eki kózim dárwazadan eliw-alpís metrdey jerdegi jarma qapılı aq esikte*. misolidagi shakl darak, xabar berish hisoblanadi.

Ingliz tilida ham shu kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan: 1) *How hard can it be to capture a white-collar guy?* [5;81-b.]; 2) *He lie down on bed and start turn white and say, "Love, I'm not feeling great. Blood sugar's dropped. I'm diabetic, you see"* [6;321-b.].

Keltirilgan ingliz tilidagi rang ifodasi ishtirok etgan misollarning gap tuzilishi jihatdan so'roq va darak gap shaklida berilgan. Bunda nutqiy akt ishtirok etgan kommunikativ jarayonida so'zlovchi o'z intensional boshlang'ich maqsadi va natijasiga egaligini ko'rishimiz mumkin. Misollarda qo'llanilgan rang *a white-collar* va *turn white* birliklari bu kommunikativ jarayonda *idora ishchisi* va *kasallik* ma'nolarini ifodalab kelgan.

Natijaviy maqsad harakatlari, birinchidan, son jihatidan ko'p, ikkinchidan, ular uchun gapning struktur-semantik tuzilishi hech qanday ahamiyatga ega emas. Natijaviy intensiyaning shakllanishi gaplarning nafaqat ma'no xususiyatlari, balki ularning faollashuv muhiti, nutq konteksti bilan ham bog'liqdir. Boshqacha aytganda, natijaviy maqsad akti, lisoniy harakatlar bilan bir qatorda, nolisoniy harakatlarni ham qamrab oladi [1;81-b.].

A.I.Perevishkoning ta'kidlashicha, zamonaviy tilshunoslik umumiy kommunikativ-diskursiv yo'nalish, ya'ni, til tizimini tahlil qilishni ijtimoiy-madaniy kontekst, so'zlovchining shaxsiyati va bevosita muloqot holati bilan bog'liq holda funksional xususiyatlarga yo'naltirish istagi bilan belgilanadi. Kommunikativ tilshunoslik har doim muayyan kommunikativ akt sharoitida aniq lingvistik birliklarni tahlil qilishi, turli kommunikativ sharoitlarda til birliklarining faoliyatidagi farqlarni tadqiq etishi bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda kommunikativ tilshunoslik nafaqat nazariy va tadqiqot usullari, balki tadqiqot materialining o'zi bilan ham farqlanadigan bir nechta yo'nalishlar bilan ifodalanadi. Bu sohalarga nutqiy harakatlar nazariyasi, protsessual semantika, kommunikativ sintaksis, matn lingvistikasi, paralingvistikaning turli sohalari, kommunikativ xulq-atvor nazariyasi, nutq janrlari nazariyasi, madaniyatlararo muloqot nazariyasi kiradi [2;97-100-b.]. Qo'yidagi misollarni qiyoslang:

– *O, aq quw!* – *dep baqırıwı menen qayıqta turǵanın da umıtp sekirip jiberdi* [4;26-b.].

– *Bizde Aq quwlar haqqında bir qásiyetli gáp bar, – dedim jenílgenimdi sezdirmeu ushin* [3;78-b.].

Nutqiy akt muhitida qo'llanilgan bu misollardagi *aq quw*, *aq quwlar* rang birikmalarining kommunikativ sintaktik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, birinchi misoldagi rang birikmasining ohangi ikkinchisiga nisbatan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi misoldagi *aq quw* birikmasi kommunikativ jarayonda ogohlantirish ma'nosini ifodalasa, ikkinchi misoldagi *aq quwlar* birikmasi darak yoki xabar ma'nosida ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz.

Ingliz tilidagi misollarni tahlil qilamiz. "*You know,*" *Hank said, "you really should learn how to dance. What if you and Taylor are asked to the White House and the President asks you to dance? What will you say? That you don't know how?"* [7;171-b.].

*Her head came up. "But you promised to teach me to dance. Remember the **White House**? It's why we bought me a dancing dress"* [7;178-b.].

Berilgan misollarda *White House* rang birikmasi ishlatilgan va so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ jarayonga ko'ra, rang birikmasi birinchi misolda *taklif* ma'nosida kelgan bo'lsa, ikkinchi misoldagi kontekst intonatsiyasi *eslatish* ma'nosini ifodalab kelgan.

Xulosa. Ingliz va qoraqalpoq tillarida oq va qora rang birliklarining semantikasini aniqlashda kommunikativ jarayon yoki nutqiy akt muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda so'zlovchining intonatsiyasi (boshlang'ich intonatsiya, natijaviy intonatsiya) bilan birga, nutqiy akt intonatsiyasi ham kontekst ichida rang birliklarining mazmunini aniqlashga yordam beradi. Kommunikativ jarayon turlari bo'lgan xabar, so'roq va buyruq shakllarini bir-biridan intonatsiya kabi lingvistik vosita orqali ajratishimiz mumkin. Shuningdek, intonatsiya gapning kirish so'zlari, murojaat kabi elementlarini ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография, Тошкент, 2008, 77-бет.
- (2). Перевышко А.И. Коммуникативная лингвистика как раздел современного языкознания. Иностранные языки: инновации, перспективы исследования и преподавания. Материалы IV междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 100-летию Белорус. гос. ун-та, Минск, БГУ, 2021, с. 97–100.
- (3). Нызанов М. Таңламалы шығармалары. VIII том, роман, гүрриңлер, драблллер, Нөкис, "Билим", 2018, 302-бет.
- (4). К.Алламбергенов. Куслар қайтқан күн. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1995, 26-бет.
- (5). Goltz H. Mastermind, e-book, 82 p.
- (6). Atkinson K. Big Sky, e-book, 321 p.
- (7). Deveraux J. The Awakening, e-book, 171 p.

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna (Termiz davlat universiteti 2-bosqich (DSc) doktoranti;

E-mail: uglonoy@yahoo.com)

DINIY BARQAROR BIRIKMALAR TARKIBIDAGI LEKSEMALARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annотatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tili diniy barqaror birikmalarini hosil qiluvchi leksik birliklarning etimologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillariga qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning o'zaro uzviy aloqasi ochiqqlangan hamda ushbu so'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'zlashish jarayonlari tahlil etilgan. Islom, nasroniy, yahudiy dinlarini aks ettiruvchi leksik birliklarning semantik xususiyatlari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *diniy barqaror birikmalar, qardosh va noqardosh tillar, etimologiya, semantik xususiyatlari, so'z o'zlashtirish, o'z ma'no, ko'chma ma'no.*

Худойназарова Углоной Алламурадовна (докторант 2 курса (DSc) Термезского государственного университета; E-mail: uglonoy@yahoo.com)

ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛЕКСЕМ В СТАБИЛЬНЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ОБЪЕДИНЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этимологические особенности лексических единиц, образующих религиозно устойчивые сочетания английского и узбекского языков, выявляется взаимосвязь родственных и неродственных языков английского и узбекского языков. Анализируются процессы усвоения слов из одного языка в другой. Изучены семантические особенности лексических единиц, отражающих исламскую, христианскую и иудейскую религии.*

Ключевые слова: *религиозные устойчивые сочетания, родственные и неродственные языки, этимология, семантические особенности, словообразование, исходное значение, переносное значение.*

Khudoynazarova Uglonoy Allamurodovna (2-year (DSc) doctoral student of Termiz State University;

E-mail: uglonoy@yahoo.com)

ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LEXEMES IN STABLE RELIGIOUS ASSOCIATIONS

Annotation. *In this article, the etymological features of the lexical units that form religiously stable combinations of the English and Uzbek languages are considered, the interrelationship of the related and non-related languages of English and Uzbek is revealed, and this word The processes of acquisition of words from one language to another are analyzed. Semantic features of lexical units reflecting Islamic, Christian, and Jewish religions are studied.*

Keywords: *religious stable combinations, related and non-related languages, etymology, semantic features, word acquisition, original meaning, figurative meaning.*

Kirish (Introduction). Jahon tilshunosligida maqol, matal, hikmatli soʻzlar, rivoyat, hadis, oʻgit, va-siyat, naql, iboralar proverbial frazeologizmlar ham deyiladi. Bu turdagi frazeologizmlar tafakkurning ba-diiy-mantiqiy shakli ekanligi, har bir millatning oʻziga xos belgilarini saqlashi, milliy folklorning eng ki-chik janri, maxsus grammatik shaklga ega ekanligi va umumlashtiruvchi, didaktik fikrning mavjudligi kabi kategorial belgilarga ega. Ushbu turdagi birliklar oʻzida diniy barqaror birliklarni ham namoyon etadi. Ma-salan, *Asfalasofilin* arabchadan oʻzlashgan soʻz boʻlib, tubanlarning tubani, eng yaramas, eng tuban demak-dir. Oʻzbek tilida doʻzaxning eng tagi, jahannam deya hisoblanib, *asfalasofilin boʻlmoq* yoki *asfalasofilinga ketmoq* iboralar oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi. Oʻz maʼnosida chuqurlik, jarlikka tushib ketmoq; koʻchma maʼnoda halok boʻlmoq, halokatga uchramoq maʼnolarini anglatadi [9].

1. *Alpha and omega* – ushbu harflar grek alifbosidagi birinchi va oxirgi harflari a va o harflariga teng boʻlib, Ollohning buyukligiga ishora etadi.

2. *Al-Asma al-Husna* – Ollohning eng goʻzal ismlaridan biri. Islomda Ollohning 99 ismi qayd etiladi va ularni bilgan insonlarning jannatga kirishiga ishoniladi.

3. *Avici hell*–eng azobli doʻzax demakdir [1;27-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Diniy barqaror birikmalar tarkibidagi lekse-malarning etimologik xususiyatlari bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Bu borada ayniqsa Eric Partridge tomonidan yozilgan “Origins: an etymological dictionary of modern En-glish”, Charles Michie tomonidan yozilgan “Bible words and phrases explained and illustrated” nomli asar-lar muhim manba boʻli xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida diniy tilshunoslikni tad-qiq etuvchi qiyosiy, chogʻishtirma, analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Diniy barqaror birikmalarni quyidagi leksemalar tashkil qiladi.

Gospel (anglo-sakslar: fransuzcha Godspell:yaxshi habar) maʼnosini bildirib, grekcha “euangelion, yozuvchilar bu soʻzni Ollohning insoniyatga yaxshi xabarlarini uchungina qoʻllashadi. Ushbu termin, keyin-chalik, hayot kitobi va Iso Masih taʼlimotlari maʼnosini anglatgan. Baʼzi qadimiy yozishmalarda “gospel” atamasi Iso Masih hayotidan emas, balki Tomas hayotidan soʻzlashi taʼkidlangan [2;239-b.].

Hell–oʻlimdan keyin fosiqlar maskani. Oʻrta asr ilohiyotida doʻzax jismoniy yonish yoki Dantedagi kabi kuchli sovuq joy edi. Zamonaviy ilohiyotchilar doʻzaxni tavba qilmagan yovuzlarning maskani deb bilishadi [3;136-b.].

In Sha Allah (arabchada *in shah ahl-lah* – Olloh istasa) – Xudoning olamni yaratishdagi mutlaq iro-dasi va qudratiga ishora qiluvchi umumiy islomiy ibora [4;491-b.]. Kaaba/God’s sacred house (arab tilidagi *kah`bah* soʻzidan olingan). Mecca (arab tilidagi mak`kub soʻzidan olingan. Baʼzida Muqaddas Qur`oni karimda *Bakka* shaklida ham keladi.

Rabbi (yahudiycha ra`bi, *ustozim, egam* degan maʼnoni anglatadi). Rabbi atamasi birinchi marta mi-lodiy 70-yilda Quddus ibodatxonasi vayron qilinganidan keyin ishlatilgan. Oʻrta asrlarda *ha-rav* belgisi ilmiy mavqeni bildirsa, *rahv*, koʻpincha, “janob” maʼnosida ishlatilgan.

Usul-al-din (oo-sool`ood-deen`; arab tilidan olingan) din asoslari. Zamonaviy islomda asosiy eʼti-qodlar (marosimlarni bajarishning besh ustunidan farqli) Xudo va Uning sifatleri (toʻqson toʻqqizta goʻzal ismlari bilan koʻrsatilgan), insoniyatga yuborilgan paygʻambarlar, farishtalar, muqaddas kitoblar, qiyomat kuni, Allohning barcha ishga qodirligi va taqdir bitiklari borasidagi haqiqatlar [5;1110-b.].

Adam–yaratilgan, bino qilingan maʼnosini bildiradi (ossuriya tilida *adamu*–yasamoq, ishlab chiqar-moq) yoki *Adamah* – tuproq, tuproqdan maʼnosini bildiradi. God formed man of the dust of the ground–O-lloh insonni tuproqdan yaratdi.

Adamant, *adamantine*, *diamond*, *diamantiferous*, *diamantine*. *Adamant* qadimgi fransuz tiliga lotin tilidagi *adamas/adamant*; grek tilidagi ogʻir metal maʼnosini bildiruvchi *adamas* soʻzlari orqali oʻzlash-gan. *Adamantin* sifati grek tilidagi *adamantinos* soʻzi bilan bogʻliq. *Diamond*–olmos soʻzi yunoncha ada-mas soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, yengilmas degan maʼnoni anglatadi. Bu mineralning gʻayrioddiy qattiq-ligiga, shuningdek, qadimgi afsonalarga koʻra, uning har qanday zahar yoki hujumdan himoya qilish uchun sehrli xususiyatlariga ishora qildi. Bu soʻz qadimgi fransuz tilida *diamant* shaklida, oʻrta asrlar ingliz tilida *diamant*, *diamant* shaklida, zamonaviy ingliz tilida *diamond* koʻrinishida shakllangan [11].

Kaffir-kofir, ba'zida *Kafir*; *Gheber/Gebir/Giaour* shakllarida iste'molda bo'lgan. *Kafir-kofir* (*bevafo, dinsiz, xudosiz*) so'zi fors tilidagi *gabr*, fransuz tilidagi *guebre*, V.S.Lendorning she'rlarida *gebir*, Bayronning she'rlarida *giaour*, fors tilida *gaur/gabr* shaklida qo'llanilgan.

Gebir

*What hoary form so vigorous vast bends here?
Time, Time himself throws of his motly garb,
Figured with monstrous men and monstrous gods,
And in pure vesture enters there pure fanes,
A proud partaker of their festivals.* [6;29-b.]

Mecca–Makka so'zi orzu qilingan maqsad ma'nosini anglatib, payg'ambarimiz Muhammad Sallolohu alayhi vassalam tavallud topgan mashhur arab diyoridagi muqaddas shahardir. Buyuk geograf olim Ptolomey milodiy 130 yillarda o'z asarlarida ushbu so'zni *Macoraba* shaklida qo'llagan.

Mosque–masjid. Bu so'zning *mosquee, moschea* ning shakllari mavjud. Masjid so'zining *masgid* shakli mavjud bo'lib, ibodat qiladigan maskandir.

Mufti–har bir kishi kiyishi mumkin bo'lgan fuqarolik kiyimi, in mufti so'zidan olingan bo'lib, *F en mufti*, sudya vazifasini bajaruvchi armiya zobitiga (F yoki E) ishora qilgan va bu rolda *muftiy* kabi kiyingan yoki qonunni ta'riflovchi (bo'sh, sudya). Mufti so'zi afta (fata kelishigi) so'zining faol qo'shimchasi bo'lgan *Ar muftidan* olingan [7;417-b.]. Mufti–oddiy kiyimdir, ayniqsa, odatda, harbiy yoki boshqa kiyim, maktab formasi. Shuningdek, u *civies* va *civvies* deb ataladi [12].

Paradise so'zi qadimgi fransuz tilidagi paradisi so'zidan o'zlashgan bo'lib, o'rta asrlar ingliz tilida paradisi shaklida qo'llanilgan. Lotin tilida paradisi–jannat bog'i ma'nosini anglatgan; grek tilida *paradeisos-bog'*, yoqimli bog'; o'rta asrlar fors tilida *paridaiza*–oliyjanob inson bog'i sifatida talqin etilgan. *Pairidaeza* so'zi *pairi*–atrof, tomon hamda *daeza*–devor so'zlari qo'shilmisidan hosil bo'lgan. Lotin faylasufi va teolog Tertullian ushbu so'zni jannat, barakalar maskani deya o'z asarlarida talqin etgan. U “Kim jannatga kirishni istasa, jannatga xos bo'lmagan narsalarning barchasidan voz kechishi lozim” degan fikrlari bilan mashhur.

Prophecy (payg'ambarlik), *prophecy* (payg'ambarlik qilmoq), *prophet*, *prophetic*. Grek tilidagi *prophetes* so'zi “baland so'zlovchi” (*pro, forth+phanai*–gapirmoq ma'nolarini anglatgan), Keyinchalik, *prophet* shaklida qo'llanilgan bu so'z o'rta asrlar ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, qadimgi fransuz tilida *prophete*, lotin tilida *prophetia* shaklida iste'molda bo'lgan.

Husband so'zi *husbonda, husbandi* so'zidan olingan bo'lib, *hus*–uy va *buandi, bua* yashamoq, istiqomat qilmoq, ayrim manbalarda *bonde*–dehqon yoki uyning egasi, uyning oilaning rahbari ma'nosini bildiradi. Qadimda yozuvchilar uni ot o'rnida–*dala*, yoki fe'l o'rnida *yerga ishlov bermoq* ma'nosida qo'llagan. For as a farmer cannot husband his ground so well if he sit at a great rent.–dehqonning yeri ijara bo'lsa, u o'sha yerga yaxshi ishlov bera olmaydi [8;38-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, diniy barqaror birikmalar tarkibidagi leksemalar, asosan, arab, lotin, fors, grek, yahudiy tillaridan o'zlashgan bo'lib, ularning katta qismini arab va lotin o'zlashmalari tashkil qiladi. Ingliz tilida diniy barqaror birliklar polisemantiklikka asoslansa, o'zbek tilidagi diniy barqaror birliklar, asosan, monosemantiklikka, ya'ni bir ma'nolikka asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Macmillan dictionary of religion. London. Macmillan Press, 1994, p. 10–27.
- (2). Richard N. Soulen. Handbook of Biblical criticism. Atlanta, Ga.:J. Knox Press, 1981. p. 239.
- (3). Richard Ince M A Camb. A dictionary of religion and religions. 1935, p. 130–136.
- (4). Smith, Jonathan Z; Green, William Scott; Buckley, Jorunn Jacobsen; American Academy of Religion. The Harper Collins dictionary of religion. San Francisco. Harper San Francisco. 1995, p. 351–408.
- (5). Smith, Jonathan Z; Green, William Scott, Buckley, Jorunn Jacobsen. The Harper Collins dictionary of religion. San Francisco: Harper San Francisco. 1995, p. 1110.
- (6). Sidney Colvin. English men of letters Landor. Macmillan and Co., Limited. 1909, London, p. 29.
- (7). Eric Partridge. Origins: an etymological dictionary of modern English. London: Routledge and Kegan Paul. 1966, p. 417.
- (8). Michie Charles. Bible words and phrases explained and illustrated. 1890. Edingburgh: T&T Clark, p. 38.
- (9). <http://daryo.uz>
- (10). <https://www.quora.com/We-all-know-the-99-most-beautiful-names-of-Allah>
- (11). <https://www.forbes.com/sites/davidbressan/2016/04/30/the-origin-of-geological-terms-diamonds>
- (12). <https://ru.wikipedia.org/wiki>

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o'g'li (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti;
e-mail: bekhmirzokhid27@mail.ru)

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDAGI JOY NOMLARI BILAN ATALGAN
MASHINALARNING NOMLANISHI

Аннотация. Mazkur maqola tilshunoslikning onomastika sohasidagi dolzarb masalalardan biriga bag'ishlangan. Joy nomlari bilan atalgan transport vositalari topoporeyonimlar; mashina markalarining nomlanish xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Калит so'zlar: onomastika, toponim, topoporeyonimlar, "Chevrolet Tahoe", "Malibu".

Мухаммадалиев Мирзохид (докторант Наманганского университета)
НАЗВАНИЕ АВТОМОБИЛЕЙ, НАЗВАННЫХ ТОПОНИМАМИ США

Аннотация. Данная статья посвящена одному из актуальных вопросов в области ономастики языкознания. Приводятся сведения о транспортных средствах, названных по географическим названиям, топонимам, особенностям наименования марок автомобилей.

Ключевые слова: ономастика, топоним, топонапонимлар, «Шевроле Тахо», «Малибу».

Muhammadaliyev Mirzokhid (Doctoral student of Namangan State University)
NAMING OF CARS CALLED WITH PLACE NAMES IN USA

Annotation. This article is devoted to one of the current issues in the field of onomastics of linguistics. Information is given about vehicles named by place names, toponyms, naming features of car brands.

Key words: onomastics, toponym, topoporeyonimlar, "Chevrolet Tahoe", "Malibu".

Kirish (Introduction). Avtomobil kompaniyasi duch keladigan birinchi muammolardan biri uni qanday nomlashdir. Sababi, har safar yangi mashina chiqarilganida, unga yangi nom berish kerak. Mashina nomlari har safar o'ziga xos ajoyib nomlar bilan nomlanadi. Ba'zi mashina nomlari shaxs nomlari bilan (*Ferrari Enzo, Lotus Elisa*), hayvon nomlari bilan (*Ford Mustang, Dodge Viper*) boshqalari esa joy nomlaridan (*Malibu, Tahoe*) foydalanib nomlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek va boshqa tillardagi mashinalar nomlarining onomastikasi va ularning ma'nolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Ammo toponim va ularning asosiy masalalari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, T.Rahmatov, J.Latipov, T.Ernazarov, N.Oxunov, S.Nayimov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi.¹

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Maqolada qiyosiy-tarixiy va tavsifiy tahlil tadqiqot metodlari qo'llanilgan. Joy nomlari bilan atalgan mashina nomlarini nomlanish xususiyatlari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dunyoda davlatlararo ijtmoy, siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojlanib borgan sari bir davlatda ishlab chiqarilgan mashinalar boshqa davlatga ham kirib boryapti. Bu mashina nomlarini shakllanishi, nomlanish xususiyatlarini o'rganish o'zbek onomastikasi oldida turgan muhim masalalardan biridir.

Toponimika (lotincha topos – joy, onoma – ism) – joy nomlarini paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi va to'g'ri yozilishini o'rganuvchi fan.² Joy nomlari bilan nomlangan mashina nomlari topoporeyonimlar deb ataladi.

Zamonaviy onomastikada poreyonim har qanday transport vositalariga berilgan nomlarni o'rganadi. Poreyonimlar bizga xalqlarning onomastik an'alarini, nomlarning til ichidagi va tillararo aloqalari xususiyatlarini ochib beradi.

Joy nomlari bilan atalgan mashina nomlari, asosan, dam olish va sayohat qilish maskanlaridir. Bu joylar o'zining tabiati, joylashuvi, dengiz va qum bilan mashhur bo'lgan sokin dam olish joylari avtomobil ixlosmandlarini diqqatini tortgan. Bu yerlarning go'zal manzarasi va yo'llari avtomobil reklamalari va fotosessiyalar uchun mashhur joylar edi. Butun dunyodagi mashhur avtomobil kompaniyalari o'zlarining so'nggi modellarini nomlashda ajoyib landshaftlar va joy nomlarini tanlaydilar. Bu tanlangan nomlar avtomobillarning mashhurligiga olib keladigan ekologik ongni o'sishini ko'ramiz.

¹ Yo'ldoshev B. O'zbek onomastika masalalari. Samarqand, 2011, 45-bet.

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Toponimika>

Chevrolet Malibu – "GM Uzbekistan" qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan "*Chevrolet Malibu*" avtomobili yuksak harakatlanish xarakteristikasi, zamonaviy xavfsizlik tizimi va betakror ko'rinishi bilan alohida ajralib turuvchi mashina.

"*Malibu*" 1978-yilda AQSHda ishlab chiqarilgan. Toshkentda 2012-yilning 20-martida "GM Uzbekistan" qo'shma korxonasi tomonidan ishlab chiqarila boshlangan "*Chevrolet Malibu*" avtomobili jamoatchilikka taqdim etildi.

Malibu – AQSHning Kaliforniya shtatidagi plyajlardan biri. Chevning qirg'oq bo'yidagi go'zal Malibu shahri 1964-yilda o'rta o'lchamli avtomobillar bilan boshlangan. Bu nom 1983-yilda avtomobil ishlab chiqaruvchisi qatordan chiqib ketdi, faqat 1997-yilda yana qaytdi.

Chevrolet Tahoe – "Uzavto Motors" ushbu avtomobil modelini O'zbekistonda 2019-yil dekabr oyida taqdim etdi. 2022-yilda kompaniya "Tahoe" modelini sotuvi boshlaganini e'lon qildi. 2022-yil 3-martdan arizalar qabul qilish boshlandi.

Chevrolet Tahoe – AQSHdagi Kaliforniya shtatidagi 1945-yilda rasman Tahoe ko'li deb nomlangan go'zal moviy ko'l va chang'i hududi nomi bilan atalgan mashina.

Amerika Qo'shma Shtatlari hududidagi shtatlar nomlari bilan atalgan mashina nomlari.

Alaska. *GMC Denali* – Shimoliy Amerikadagi 49-shtatda joylashgan eng baland tog'dan olingan.¹

Arizona. *Hyundai Tucson* – 2005-yildan boshqalab ishlab chiqarilgan bu mashina Arizonadagi hududidan olingan. Sonoran cho'lidagi bu janubi-g'arbiy shahar Saguaro milliy bog'iga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Kaliforniya. *Ferrari California* – Italiyada 2008-yildan 2017-yilgacha ishlab chiqarilgan. Bu mashina AQSH shtati bilan atalgan, Italiya sport avtomobili.

Chrysler Pacifica – Kaliforniyadagi bu joy San-Fransisko va Half Moon ko'rfazi o'rtasidagi shahar nomi bilan atalgan.

Chevrolet Bel Air – Kaliforniyaning Los-Anjeles shahrining bir qismi bo'lib, birinchi marta 1950-yilda ishlatilgan. 1958–1981-yillarda ishlab chiqarilgan.

Toyota Avalon – Janubiy Kaliforniya yaqinidagi orolda joylashgan shahar.

Chevrolet Malibu – Kaliforniyadagi plyajlardan biri. Chevning qirg'oq bo'yidagi go'zal Malibu shahri 1964-yilda o'rta o'lchamli avtomobillar bilan boshlangan. Bu nom 1983-yilda avtomobil ishlab chiqaruvchisi qatordan chiqib ketdi, faqat 1997-yilda qaytdi.

Hyundai Palisade – Nyu-Jersidagi Palisades va Kolorado shtatidagi Palisade shahridagi baland qoyalarni anglatadi. Ammo, Hyundai bu nomni Los-Anjelesdagi Tinch okeani Palisadesning badavlat mahallasi sharafiga qo'rganini aytdi.

Hyundai Santa Cruz – Tinch okeani sohilidagi go'zal manzarali shaharcha nomi bilan atalgan.

Toyota Sequoia – o'zining baland sekvoja daraxtlari bilan mashhur bo'lgan Sequoia milliy bog'i Tayota qatoridagi mashina uchun munosib joydir. Lekin Tayota mashinasiga daraxtlarning o'z nomini berganini aytdi.

GMC Sierra – balandligi 14 000 futdan ortiq bo'lgan Uiti tog'i joylashgan Kaliforniya markazidagi Syerra Nevada tog' tizmasi sharafiga nomlangan.

Chevrolet Silverado – Genral Motors tomondan ishlab chiqarilgan, Kaliforniyaning diqqatga sazovor joy nomi bilan atalgan. Bu nom Los-Anjelesning janubi-sharqidagi Silverado kanyoni yoki Santa-Ana tog'larida joylashgan xuddi shu nomdagi kumush qazib oluvchi shaharcha nomidan olingan.

Chevrolet Tahoe – Kaliforniyadagi go'zal moviy ko'l va chang'i hududi.

Kolorado. *Chevrolet Colorado* – AQSHning g'arbiy shtati nomidan olingan.

Dodge Durango – kumush qazib olish va tarixiy bug' poyezdi bilan mashhur bo'lgan ushbu Kolorado shahri Mesa Verde milliy bog'i Chimney Rok milliy yodgorligi o'rtasidagi joylashgan.

Kia Tellurida – Tellurida tog' vodiysida joylashgan tog'-chang'i kurortiga aylangan konchilar shahriga mos keladigan o'ziga xos ko'rinishga ega.

Gavayi. *Hyundai Kona* – Gavayaning katta oroldagi mashhur dam olish maskani bo'lgan Kona tumanidan olingan.

Meyn. *GMC Acadia* – Akada 17–18-asrlarda hozirgi Kanada va Meyndagi mustamlaka va qish juda shavqatsiz bo'lishi mumkin bo'lgan hudud edi. Qish mavsumida harakatlanish qulay bo'lgan mashina.

Meksika. *Hyundai Santa Fe* – AQSHning janubi-g'arbiy shtati poytaxt nomi bilan atalgan.

¹ <https://www.capitalone.com/cars/learn/finding-the-right-car/the-united-states-of-cars-a-roundup-of-new-vehicles-named-after-american-places/216>

Volswagen Taos – bir asr davomida doimiy ravishda egallab kelingan qadimiy puebloga ega bo‘lgan baland cho‘ldagi Taos shahri ilhom manbai bo‘lgan. Taosda 1920-yillarga borib taqaladigan gullab-yashnagan san’at hamjamiyati mavjud.

Hyundai Veracruz – Meksikaning federal tuzilmalarini tashkil etuvchi 32 shtatdan biri, shuningdek Meksika ko‘rfazining g‘arbiy qismi bilan chegaradosh mintaqaning sharqiy qismi bo‘ylab qirg‘oq chizig‘ining muhim qismini o‘z ichiga oladi.

Subaru Baja – Meksikadagi g‘arbiy shtat va yarim orol bo‘lgan joy nomi bilan atalgan. 2003–2006-yillarda ishlab chiqarigan.

Vashington. *Tayota Tacoma* – Vashingtondagi Rainer tog‘i uchun Salish atamasidan olingan, Takoma ham Seilt janubidagi port shahridir.

Buick Rainier – Tinch okeaning shimoli-g‘arbiy qismidagi bir nechta shaharlar va Vashington shtatidagi tog‘dir.

AQSHdagi boshqa shtatlar bilan atalgan mashina nomlari. *Kia Sedona* – AQSHning shimoli-g‘arbiy shtatidagi mashhur bo‘lgan shahar.

Chevrolet Delray – bu so‘z ”qirol” degan ma‘noni anglatadi. Jorjiya, Texas, G‘arbiy Verjiniya (va chekka Michigan) shtatlarida bu nomdagi joylar bor.

Renault Caravelle – 1958-yilda Parijda sotuvga chiqarilgan mashina Karavelle AQSH shtatlaridan biri bilan nomlandi.

Xulosa (Conclusion). Maqolada joy nomlari (toponimlar) bilan atalgan mashina nomlarini ko‘rib chiqdik. Joy nomlari bilan atalgan mashina nomlari asosan dam olish va sayohat qilish maskanlari, o‘zining tabiati, joylashuvi, dengiz va qum bilan mashhur bo‘lgan joy nomlarilar bilan atalgan. Bu nomlar tilning lug‘at boyligining muhim qismi, o‘tmish voqealari darakchisi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastika masalalari. Samarqand, 2011.
- (2). Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
- (3). <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Топонимика>
- (4). <https://www.capitalone.com/cars/learn/finding-the-right-car/the-united-states-of-cars-a-roundup-of-new-vehicles-named-after-american-places/216>

Begniyazova Gozzal Allambergenovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti) KO‘K RANG BILDIRUVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi ko‘k rang bildiruvchi frazeologizmlar, ko‘k rangning etimologiyasi, ongimiz, xalqimizning urf-odat dasturlari bilan shambarshas bog‘liqligi, fikri, milliy-madaniy belgilari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, rang, ko‘k, semantika, dunyoqarash, mentalitet, fikr, lisoniy qarashlar, abstrakt, milliy madaniyat.

Бегниязова Гоззал Алламбергеновна (докторант Каракалпакского государственного университета им. Бердаха)

СЕМАНТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМА, ОБОЗНАЧАЮЩЕГО СИНИЙ ЦВЕТ

Аннотация. В данной статье рассматривается семантика фразеологизмов, обозначающих синий цвет в каракалпакском языке и этнография некоторых слов.

Ключевые слова: фразеология, цвет, синий, семантика, мировоззрение, менталитет, мысль, лингвистические перспективы, абстракт, национально-культурная.

Begniyazova Gozzal Allambergenovna (doktorant Karakalpak State University named after Berdakh)
SEMANTICS OF PHRASEOLOGY MEANING BLUE

Annotation. In this article, the semantics of phraseological units denoting the color blue in the Karakalpak language and the ethnography of some words are discussed.

Keywords: phraseology, color, blue, semantics, outlook, mentality, thought, linguistic perspectives, abstract, national culture.

Kirish. Tilshinoslikta ranglarni ifodalovchi har qil dunyoqarash, rang bildiruvchi frazeologizmlarning ma‘no qirralari, universal va spetsifik belgilarni ma‘lum darajada o‘rganishga harakat qilgan. Rang komponentli frazeologizmlarning semantikasi, falsafiy fikrlash, assotsiativ maydon hosil qilishi, pragmatik ma‘no, kognitiv bilim, psixolingvistik yondashuvni aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Rang komponentli frazeologizmlar olamning lisoniy manzarasini, xalqlarning yashash hududi, turmush tarzi, mental xususiyatlari, milliy-madaniy xarakterini yoritish, etnomadaniy etika tamoyillari, millatlar orasidagi muloqot ko‘rinishlarini tahlil qilishda yordam beradi. Rang komponentli frazeologizmlarning inson turmushida tutgan o‘rni, rang bilan bog‘liq ma‘no bildiruvchi jarayonlar, ranglar semantikasining badiiy matnda, og‘zaki adabiyotda, muloqot paytida, she‘rlarda til birliklarining emotsional-ekspressiv xusiyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon til bilimida ranglarni ifodalab, tasvirlab beruvchi ko‘plab ilmiy mehnatlar yozilgan. V.Alpatov ranglarga nazariy jihatdan qarab, ilmiy xulosalar bildirgan [1]. Umumiy madaniyatdagi ranglarni L.Samarina o‘rgangan [2]. A.Vejbiskaya rangning predmetga berilishi haqida, milliy-madaniy belgilarning ahamiyati, ko‘k rangining ilmiy nuqtayi nazardan amalga oshirgan [3]. Yapon xalq tilining rangni ifodalovchi so‘zlarni O.Frolova bergan [4], F.Kunio qizil, sariq, yashil, havo rang, binafsha rang va ko‘k ranglarning madaniy ma‘nosini o‘rgangan [5].

Rus til bilimida E.Samodelova ranglarning simvolikasini badiiy asarlarda berilishini o‘rganishga harakat qilgan [6], nasr janridagi rangning ma‘nolarini O.Sedova o‘rganishga muaffaq bo‘lgan [7]. Y. Lotman rang simvolikasini matn misolida [8], V.Maslova rang semantikasi madaniyatdan tashqari narsa va tabiat bilan bog‘liqligini [9], asarlarda rangning berilish muammosini Y.Yushkina [10], A.Kudrina, B. Mesheryakov madaniyatdagi ranglar semantikasini ilmiy ishlarida yoritib bergan [11].

Turkologiya ilimida rang bildiruvchi so‘zlarning turli xil xususiyatlarini A.N.Kononov, Y.Koychubayev, F.G.Is‘hakovlar tadqiq qilgan [12].

O‘zbek tilshunosligida M.Sodiqova rang ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoy qildi [13]. Rangning timsollar tavsifiga etnografik belgilarga e‘tibor bergan olim N.Jumatova bo‘ldi [14]. M.Ro‘ziyeva rang simvolikasini diniy nuqtayi nazardan baholab o‘rgangan [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Ranglar har xil xalqning o‘ziga xosliklari, shu millatning ongi, dunyoqarashi, dunyoni bilishi bilan bog‘liq holda tilda namoyon bo‘ladi va har xil ranglar orqali tasavvur qiladi. Boshidan o‘tayotgan hodisalarni ranglarga taqqoslaydi. Insonlarning ruhiy holati, kechirmalari, turmush tarzi, tarbiyasi, madaniyati ranglarda yaqqolroq ko‘rinadi. Chunki ranglar xalqning uni qurshab turgan olam, adabiyot, san‘at va madaniyatga munosabatlari, diniy, mifologik tushinchalari bilan bog‘lanib ketadi. Insonlarning yashash sharoitlari, dunyoqarashi, mentaliteti, urf-odatlar, hayot yollari qanaqa ko‘rinishda bo‘lsa, ranglar bilan bog‘liq tushinchalari ham shunaqa bo‘lgan.

Ranglar tarkibida ko‘k rang o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida ko‘k so‘zi bleu yoki blewe so‘zidan kelib chiqqan. Avvalgi davrlarda fransuz tilida bleu, qadimgi nemischa blao so‘zi bilan bog‘liq (yonib, yaltirab turgan ma‘nolarni anglatgan). Rus tilida, ispan va boshqa tillarda ko‘k rangni ifodalovchi bitta so‘z yoq, aksincha, ochiq ko‘k rangi uchun turli xil so‘zlar bor (голубой; Celeste) va quyuoq ko‘k rangi (синий; Azul). Yapon va Lakota xalqlari tillari uchun ko‘k va yashil rangni tasvirlashda bir xil so‘zdan foydalanib kelgan. AQSH va Yevropada o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida ko‘k rang eng ko‘p uyg‘unlik, sodiq bo‘lish, ishonch bildirish, oraliq, cheksiz dunyo, tasavvur qilish, sovuq va qayg‘uli hodisalar bilan bog‘liq. Ko‘k va qora rangdan, ko‘pincha, erkak kishilar foydalanib, aql-idrok, bilimlilik, xotirjam bo‘lish va diqqatni bir yerga jamlashta ishlatidigan rang ekanligi aytilgan.

“Ko‘k”ning o‘ziga xos jihatlarini A.Vejbitskaya aniqlagan. U yapon tilidagi yashil, ko‘k ranglarining o‘ziga xos bir-biridan farq qilishini tushuntiradi va qaysi rang qay vaqtda ishlatilishini aniqlashtirib beradi [16]. Uning fikriga ko‘ra, rang qanday narsa bo‘lmasin, u narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib shu narsaga nom sifatida beriladi. *Aoi* deganda ko‘k, havo rang, yashil tushuniladi.

Dunyo tilshinosligida “ko‘k” rangni S.Grigorukning «Georgiy Ivanov poeziyasida ko‘k rangining konsepti» tadqiqoti orqali bilamiz. Mehnatda G.Ivanov she‘riyatida foydalanilgan ko‘k rang tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘kidlab o‘tgan. Uning she‘riy misollarida yer-osmon, kun-tun, abadiylik-o‘tkinchi, yuqori-past singari qarama-qarshiliklar tahlil qilingan [17].

Sh.Zoolishoyeva ko‘k so‘zini etnolingvistik taraftan tahlil qilgan. Sh.Zoolishoyeva o‘zining bu nomzodlik dissertatsiyasida Eron tillari guruhidan hisoblangan shugnan va ruzhan tillari, ushbu tillar guruhida «ko‘k» leksemasining kelib chiqishiga, konseptlik jihatlariga hamda ma‘no semantikasiga e‘tibor qaratgan [18].

Ko‘k rangi qozoq tilida faol qo‘llanadi va ko‘p ma‘noga ega. Masalan, kók sheshék-chechák (kasallik), kók kepter–kaptar, kók tas–qabr toshi, kók aspan–moviy, kók kógershin–kók kaptar va boshqa.

Qoraqalpoq tilshonoligida “ko‘k” rangi bilan bog‘liq ilimiy ishlarga D.Yerjanovning doktorlik dissertatsiyasini misol qilsak bo‘ladi. U Ibroyim Yusupov poemalarida «ko‘k» leksemasini omonim so‘zlardan turli poetik usullar hosil qilish maqsadida keng foydalanganligini ta’kidlaydi [19]. Masalan:

1. Kókte júzip barar shala tolğan ay (Aktrisanin igráli).
2. Kók terip qaytawğa bir barğanımda (Aktrisanin igráli).
3. Bálki pisik shıǵar, bálki shıǵar kók (Aktrisanin igráli).

Ko‘k leksemasi har xil ma’nolarda qo‘llanilib, lingvopoetik jihatdan poemaning mazmunini yoritib berishda ishlatilgan.

Rang bildiruvchi frazeologizmlarning bildiradigan vazifasini to‘g‘ri belgilashda nutq egalari belgi semantikasiga oid nazariy bilimlari muhim o‘rin tutadi. Bunday bo‘lmagan holatta gapning semantik ko‘lamini va uning yashirin ifodalarini anglab yetmaydi.

Mallar kók quwalap tarqap ketpey me? – dep áńgimenin baǵıtın bóldi (T.Qayıpbergenov).

–Báharde kók quwǵan maldı toplaǵ baǵatıǵın padashı bolmaydı, darxanlıqta jayılabersin (T.Qayıpbergenov).

Bu misollarda *kók quwalaw*, *kók quwǵan* frazeologizmlari qishtan chiqqan mollar ko‘k maysalarni, o‘simliklarni ko‘rib, shu yoqqa qarab yeyish uchun yugiradi.

«Ko‘k» leksemasi rang ma’nosini bildirishdan tashqari, bahor faslini anglatib turibdi. Yangilanish, yasharish fasli ko‘k rangda berilgan bo‘lib, yer ustiga ko‘k maysalarning chiqishi, atrof ko‘k libosga o‘ranishi, daraxtlarning ko‘k chiqarishi – bularning bari haqida aytilgan. Boshqa ko‘pchilik xalqlarda ko‘k rangining o‘rniga yashil rangi ishlatilib, yashil tabiat ma’nosida keladi.

Ziybagúl balasınıń qońuraw etkenine tóbesi kókke jetip, quwanıp qaldı (Alp Sultan).

–Apamnıń tóbesi kókke jetip qaladı (B.Xudaybergenov).

Bu misollardagi *tóbesi kókke jetiw* frazeologizmi quvonch ma’nosida kelgan. Ko‘k leksemasi osman, baland, yoqari, ching ma’nolarin bildirib turibdi.

Jer, kókti titiretken ana páriyadı biykarǵa emes edi (P.Xojamuratova).

Ko‘kti titiretken frazeologizmi kuchli, qattiq, qayg‘uvli nola chekish, pushoymanlik tuyg‘ularida berilgan. «Ko‘k» leksemasi osmon ma’nosida kelgan, ya’ni, faryodi osmonga yetti, qattiq ko‘tarildi, shovqin chiqti so‘zlari bilan sinonim.

Ol ádebinde hesh kútpegende kókten túsken jasılday birden payda bolıp, qápelimde qarań ete qalǵan kelgindiden abaysızda qattı qorqıp, júregi jarılǵanday birden jerge silqa túsip edi (Ó.Xojaniyazov).

Bu yerda *kókten túsken jasılday* frazeologizmi, kutilmaganda, birdan, ha deganda, bir zumda ma’nolarin bildirib kelgan. Tabiatda yuz beradigan, yomg‘ir yo‘g‘ar payttagi osmonda chaqmoq chaqishi bilan taqqoslangan. Chaqmoq tez, bir zumda yuz beradigan hodisa. Tezlik ma’nosini ekspressivlik-emotsionallik jihatdan ko‘rkamlab berish uchun avtor *kókten túsken jasılday* frazeologizmini qo‘llagan.

Mina qarań qalǵır urıstıń záhári nárestelerdi de kókley pisirgen eken ǵoy. Kókley qatqan shıraqlarım-ay! (G.Esemuratova). Bu misoldagi “kókley pisirw” frazeologizmi yoshidan avval ulg‘ayish, vaqtdan burun yigit bo‘lish ma’nolarini bildirib kelgan.

Ekkinchi misoldagi “ko‘kley qatqan” frazeologizmi og‘zining sarig‘i ketmay turib, har xil ishlar qilishi, o‘ynab-kulish nimaligini bilmay ulg‘ayishini tasvirlab bergan.

Tahlil va natijalar. Ko‘k rangi turklar tasavvurida ilohiy degan ma’noda qo‘llangan. Og‘uznomada muhim obraz hisoblangan ko‘k yolli erkak bo‘ri. Bu bo‘ri osmondan tushganligi sababli, osmon rangi bilan bir xil. Qadimgi insonlar olamda o‘z hayoti, turmush tarzi uchun juda muhim va zarur bo‘lgan narsalarni, ya’ni, osmon, havo – ko‘k, yer–qora, suv–oq, quyosh–sariq, o‘simliklar–yashil, olov–qizil ranglarda qabul qilgan.

Xulosa va takliflar. «Ko‘k» rang bildiruvchi frazeologizmlar semantikasi, stilistikasi, lingvokulturologik, lingvopragmatik ma’nolarining ma’no nozikliklari, go‘zalligi bilan ajralib turadi. Bu frazeologizmlar xalq tilida ijtimoiy-madaniy, tarixiy, etnik, milliy an’analar, odob-axloq, udumlar singari xalqimizning madaniy qadriyatlarini, milliylik xususiyatlarini aks ettiradi. Frazeologizmlar orasida «ko‘k» rangi bilan bog‘liq obrazli o‘xshatishlar yaratishda xalqimiz madaniyati, mentaliteti, urf-odatiga xos bo‘lgan o‘ziga xosliklar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Алпатов В.М. Языки культуры. М., Языки славянских культур, 2003, 225 с.
- (2). Самарина Л.В. Традиционная культура и цвет: основные направления и проблемы зарубежных исследований. Этнографическое обозрение. 1992, с. 147–156.

- (3). Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М., Русские словари, 1996, 124 с.
- (4). Фролова О.П. Цветообозначения в японском языке. Языковые категории в лексикологии и синтаксисе. Новосибирск, 1991, с. 71–87.
- (5). Фукуда Кунио. Қизил, оловранг, сарик, яшил, ҳаво ранг, кўк ва бинафша ранг ва уларнинг маданий маъноси. Япония. Илмий тадқиқот институти, 1979. 254-бет.
- (6). Самоделова Е.А. Символика цвета у С.А.Есенина и свадебная поэзия рязанщины. Филологические науки. М., 1992, с. 12–22.
- (7). Седава О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Дисс. ...канд. филол. наук, Елец, 2006, 200 с.
- (8). Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. СПб., “Искусство”, 2000, 703 с.
- (9). Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Академия”, 2001, 208 с.
- (10). Юшкина Е.А. Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. Волгоград, 2008, 201 с.
- (11). Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах. Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. Дубна, 2011, 18 с.
- (12). Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак тюркской географической терминологии. Изв. АН Тадж. ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. Душанбе, 1954, с. 83–85; Исхаков Ф.Г. Имя прилагательное. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. II. Морфология, 1956; Е.Койчубаев. Нецветовая сущность топонимических компонентов ак, кара, кок, сары в географических названиях. В кн.: Всесоюзная конференция по топонимике. 1965, 185 с.
- (13). Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 1963.
- (14). Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърятда ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фан. номз... дисс., Тошкент, 2000, 13-бет.
- (15). Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси. Филол. фан. номз...дисс., Тошкент, 2017, 23-бет.
- (16). Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М., Русские словари, 1996, с. 231–291.
- (17). Григорук С.И. Концепт синего цвета в поэзии Георгия Иванова. Львовский национальный университет им. И.Франко. Автореф. Дисс...докт. филол. наук. М., 2002, с. 15.
- (18). Зоолишоева Ф.Ш. Цветообозначение в шугнано-рушанской языковой группе в этнолингвистическом освещении. Автореф. дисс... докт. филол. наук, Санкт-Петербург, 2005, с. 23.
- (19). Ержанова Д.Қ. Ибрайим Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс., Нукус, 2022, 14-бет.

Maxamadtoirova Adiba Botir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası o‘qituvchisi, PhD; email: maxamadtoirova@mail.ru)
XITOIY TILIDA QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA JARAYON VAQTIDAGI
GRADATSIYANING NAMOYON BO‘LISHI

***Annotatsiya.** Tilshunoslikda qiyoslash XX asrdan boshlab alohida kategoriya sifatida o‘rganila boshladi. Ushbu mavzu o‘zbek, rus, xitoy va boshqa tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Qiyoslash konstruksiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasalishidagi o‘ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko‘ra tasnifi amalga oshirilgan. Ammo ta‘kidlash joizki, qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya masalasi shu vaqtga qadar monografik yo‘sinda tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabatining ifodalanishiga qaratilgan bo‘lib, qiyoslash konstruksiyaalri orqali gradatsiya sodir bo‘lsa, qanday usullar orqali amalga oshishi o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qiyos, taqqos, o‘xshatish, qiyosiy daraja, qiyos obyektı, qiyos subyektı, konstruksiya, gradatsiya.*

Махамадтоирова Адиба Ботир кизи (PhD Ташкентского государственного университета востоковедения; email: maxamadtoirova@mail.ru)
ВЫРАЖЕНИЕ ГРАДАЦИИ ПРОЦЕССА В СРАВНИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЯХ
КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация.** Сравнение в языкознании как отдельная категория стало изучаться с XX века и становилось темой исследований узбекских, русских, китайских и других ученых-лингвистов. Исследования сравнительных конструкций выявили грамматические особенности сравнительных конструкций в китайском языке, особенности построения этих конструкций, их классификацию по семантике и структуре. Однако следует отметить, что вопрос градации в сравнительных конструкциях до сих пор оставался неизученным в монографическом плане. Данная статья посвящена выражению отношения градации в сравнительных конструкциях в современном китайском языке,*

а также тому, какими методами осуществляется сравнение, если градация происходит через эти конструкции.

Ключевые слова: сравнение, сопоставление, аналогия, сравнительная степень, предлог, объект сравнения, предмет сравнения, конструкция, градация.

Makhamadtoirova Adiba Botir kizi (State University of Oriental Studies, Doctor of Philosophy, Chinese teacher; Email: maxamadtoirova@mail.ru)

EXPRESSION OF PROCESS GRADATION IN COMPARATIVE CONSTRUCTIONS OF THE CHINESE LANGUAGE

Annotation. Comparison in linguistics as a separate category began to be studied from the twentieth century and became a topic of research by Uzbek, Russian, Chinese and other linguists. Studies of comparative constructions have revealed the grammatical features of comparative constructions in the Chinese language, the peculiarities of the construction of these constructions, their classification according to semantics and structure. However, it should be noted that the issue of gradation in comparative constructions has so far remained unstudied in monographic terms. This article focuses on the expression of the gradation relationship in comparative constructions in modern Chinese, and explores the methods by which gradation occurs when comparative constructions occur.

Keywords: compare, comparison, analogy, comparative degree, object of comparison, subject of comparison, construction, gradation.

Kirish. Jahon tilshunosligida qiyoslash inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladigan, insonning dunyoni bilish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, tashqi olamni idrok etishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tilshunoslikda bilish faoliyatiga xos qiyoslash kategoriyasi XX asrdan boshlab tilshunoslikda alohida kategoriya sifatida o'rganila boshladi.

Dunyo tillarining deyarli barchasida qiyoslash kategoriyasi mavjud, ammo ularning qurilishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi. Qiyoslash turli fanlar: matematika, mantiq, psixologiya, falsafa, tilshunoslik fanlarining universal tushunchasi bo'lib, bu hodisani o'rganayotgan har bir fan o'zi uchun muhim jihatiga e'tibor qaratadi, bu esa qiyoslashning ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi. Shu nuqtayi nazardan, qiyoslashni dunyo tillari misolida tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining muhim masalalaridan biridir.


Tilshunoslikda boshqa fanlardagi kabi, bir-biriga zid ma'no yoki mazmun, hatto fikr ifodalovchi tushunchalar mavjud. Bunday muqobil tushunchalar ifoda materialining ko'lamiga va ifoda usuliga ko'ra, o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ma'no, mazmun va fikrni yuzaga chiqarishi mumkin. "Til birliklari o'rtasidagi tadrijiy darajalanish (graduonimiya)ni matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajratishimiz mumkin" [1;168-b.].

Modomiki, ikki til birligi o'zaro qarama-qarshi yo'nalish kasb etgan ekan, ular o'rtasida ham, albatta, o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan birliklar bo'lishi, tabiiy. Bu birliklarning yo'nalishlari tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og'ib boradi. Oraliq, mo'tadil nuqta (nol)dan o'tadi va tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va manbasi. Ushbu maqolada mavzuni yoritish yuzasidan to'plangan materiallar analiz, sintez, deskriptiv, tavsiflash usullaridan foydalanilgan. Ilmiy maqola uchun manba sifatida Luy Shusianning "现代汉语八百词" (Hozirgi xitoy tilida sakkiz yuz so'z) (北京: 商务印书馆出版社, 1981) asaridan foydalanildi. Shuningdek, mazkur dissertatsiya doirasida hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarini jamlash va tadqiq etishda 2000-yildan keyingi xitoy tilining leksikografik materiallariga ham murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar. Til birliklari o'rtasidagi tadrijiy darajalash gradatsiya bo'lib, u matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajraladi. Bunda o'zaro qarama-qarshi yo'nalish kasb etgan til birliklari o'rtasida o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan birliklar tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og'ib boradi va mo'tadil nuqta, noldan o'tib, tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi. Unga quyidagicha misol keltiramiz: 1. 狗大, 熊猫更大, 大熊猫最大。 *Gǒu dà, xióngmāo gèng dà, dàxióng zuì dà.* Kuchuk – katta, panda – anchayin katta, fil juda ham katta.

1-chizma



Bu yerda gradatsiya kuchuk, panda va filning kattaligi 0 dan musbat qutbga qarab yo‘nalishi orqali ifodalanmoqda. Qiyoslash konstruksiyalarida esa gradatsiya munosabati to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki muayyan boshqa hukmning ifodalayotgan natijasiga nisbatan namoyon bo‘ladi. Masalan: 2. 熊猫比狗大, 大熊猫比熊猫更大, 大熊猫比狗最大。 *Xióngmāo bǐ gǒu dà, dàxióng bǐ xióngmāo gèng dà, dàxióng bǐ gǒu zuì dà.* Panda kuchukdan katta, fil pandadan kattaroq, fil kuchukdan juda ham katta. Ya’ni 狗 *gǒu* kuchuk kattaligi o‘rtacha kattalikda bo‘lib, 0 dan joy olgan, 熊猫 *xióngmāo* panda katta bo‘lib, 1 da joylashgan, 大熊猫 *dàxióng* ulkan 2 dan joy olgan. Bu yerda gradatsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, me’yoriy deb olingan kuchukning kattaligiga qiyoslash orqali, nisbat berilgan holda amalga oshmoqda. Bunda gradatsiya ma’lum bir vaqt oralig‘ida emas, balki belgi, xususiyat, jarayon, harakat yoki holat orqali aynan o‘sha vaqtda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, qiyoslash konstruksiyalari uzluksiz vaqt davomidagi gradatsiya va jarayon vaqtidagi gradatsiyani ifodalovchi konstruksiyalarga bo‘linib, jarayon vaqtidagi gradatsiyaning ifodalanishi ham ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi darajalardagi o‘zaro farqni, baland yoki pastlikni ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga 比 *bǐ*, 不比 *bùbǐ*, 不如 *bùrú*, 没有 *méiyǒu* ishtirokidagi konstruksiyalar; ikkinchisi darajalarning o‘zaro teng yoki teng emasligini ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga: [跟 *gēn*不一样 *bù yíyàng*], [跟 *gēn* ...相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn*相似 *xiāngsì*], [跟 *gēn* ...近似 *jìnsì*], [跟 *gēn*类似 *lèisì*], [跟 *gēn*.... 不一样 *bù yíyàng*], [不跟 *bùgēn*....一样 *yíyàng*], [(没 *méi*) 有 *yǒu*....(那么 *nàme* /这么 *zhème*)...], [...(和 *hé*)...完全两样 *wánquán liǎngyàng*], [...就是不一样 *jiùshì bù yíyàng*], [A跟 *gēn* B....差不多 *chābuduo*] ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi.

Darajaning teng yoki notengligini ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalari ham, o‘z navbatida, farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi. Uni quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

Xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarning farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra tasnifi


Farqlash orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar	O‘xshatish orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar
[A跟 <i>gēn</i> B ... 一样 <i>yíyàng</i>]	[A(没)有 B (那么/这么)....]
[...就是不一样 <i>jiùshì bù yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....相同 <i>xiāngtóng</i>]
[...(和 <i>hé</i>)...完全两样 <i>wánquán liǎngyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....相似 <i>xiāngsì</i>]
[A跟 <i>gēn</i> B 不一样 <i>yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....近似 <i>jìnsì</i>]
[A不跟 <i>bùgēn</i> B 一样 <i>yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....类似 <i>lèisì</i>]
	[A跟 <i>gēn</i> B....差不多 <i>chābuduo</i>]

Ta’kidlash joizki, qiyoslash o‘xshatish orqali ham amalga oshadi va bu konstruksiyalar qiyoslash mazmunidagi gaplarning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ya’ni, qiyoslanayotgan obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, o‘xshatish orqali qiyoslanadi. Bunda o‘xshatish asosida ham qiyoslash bo‘lganligi uchun, qiyoslash formulasidan foydalaniladi [A(βV)S]. “To‘liq o‘xshatishda to‘rt element: 1) o‘xshagan narsa; 2) o‘xshatilgan narsa; 3) o‘xshash sifat; 4) o‘xshatish qo‘shimchasi mavjud bo‘ladi” [3;263-b.].

Jarayon vaqtidagi gradatsiyani ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalarining semantik tahlilidan ayon bo‘ladiki, 比 *bǐ* old ko‘makchisi sifat va darajalarning o‘zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo‘llanadi. Qiyos obyektini 比 *bǐ* old ko‘makchisi yordamida taqqoslanayotgan bo‘lsa, kesim taqqosning natijasini ifodalab keladi. Semantik jihatdan ega va kesimning orasidan hol joy olib, 比 *bǐ* old ko‘makchisi hol vazifasini bajaradi. [A (Ega)+比 B (hol)+kesim]. Konstruksiyada kesim vazifasida sifat, fe’l, sifatli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi, ega-kesimli so‘z birikmasi ishlatilishi mumkin. Masalan: 刘继武激动地说: “爷爷,你比我更懂得枪的用处,你比我更喜欢这支枪”. *Liú Jìwǔ jīdòng de shuō: “Yéye, nǐ bǐ wǒ gèng dǒngde qiāngde yòngchū, nǐ bǐ wǒ gèng xǐhuan zhè zhī qiāng”.* Liu Dzi U hayajonlanib gapirdi: “Buva, miltiqdan foydalanishni mendan ko‘ra yaxshi bilasiz, bu miltiqni mendan-da yaxshi ko‘rasiz”. Bu yerda “men”ing miltiqdan foydalanishidan ko‘ra “buvam”ning miltiqdan foydalanishi yaxshi ekanligi va “men”ing miltiqni yaxshi ko‘rishiga nisbatan “buvam”ning miltiqni yaxshi ko‘rishiga kuchliroq ekanligi ifodalanmoqda. Mazkur jarayon vaqtidagi gradatsiya ifoda usuliga ko‘ra mantiqiy, mohiyatiga ko‘ra kli-maks, baholash nuqtayi nazaridan, subyektiv ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda.

不比 *bùbǐ* tuzilish jihatidan qiyosiy gaplarning inkor shakli bo‘lib, uni quyidagicha ifodalashimiz mumkin: “Oldingisi keyingisiga teng emas ...”, ya’ni, “A B dek emas”, “B A dek ... deyish mumkin emas”, “keyingisi oldingisiga nisbatan ...” deb bo‘lmaydi [4;163-b.]. Masalan: 今天不比昨天冷。 *Jīntiān bùbǐ zuótiān lěng*. Bugun kechagidan sovuq emas.

3-chizma



Ushbu misolga ko‘ra, kunning iliqqligi chizmada ko‘rsatilgan me‘yoriy 0 dan joy olsa, kunning sovuqligi 0 dan manfiy -3, -4 tomon siljiydi. *Bugunning kechagidan sovuq emasligi* esa musbat tomonga og‘ib -2, -1 da namoyon bo‘lmoqda. Bu yerda gradatsiya kunning iliqqligi, ya’ni, me‘yoriy 0 ga nisbatan emas, balki kechagi kunning sovuqligiga nisbatan ko‘tarilishi mazmunini ifodalash orqali namoyon bo‘lmoqda

不比 *bùbǐ* konstruksiyasini [A没有 *méiyǒu* B] (A B dek emas) yoki [A 不如 *bùrú* B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ularning tarjimasini turlicha ma’nolarni ifodalaydi. Masalan: 1. 这件衣服不比那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú bùbǐ nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyimni unisidan uzun deb bo‘lmaydi. 2. 这件衣服没有那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú méiyǒu nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyim unisidek uzun emas. 3. 这件衣服不如那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú bùrú nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyimning uzunligi unisidek emas. 不如 *bùrú* konstruksiyasi biror-bir shaxs yoki predmetning boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini ifodalab keladi: 坐火车不如坐飞机快。 *Zuò huǒ chē bùrú zuò fēi jī kuài*. Poyezdda borish samolyotda borish kabi tez emas. Bu yerda samolyot tezligining poyezd tezligidan yuqori ekanligini ifodalash orqali gradatsiya ifodalanmoqda.

Narsa, hodisa va holatlarning o‘zaro bir xilligini ifodalovchi [A跟 *gēn* B 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi va uning inkor shakli: [A跟 *gēn* B... 不一样 *bù yīyàng*], [A不跟 *bùgēn* B ... 一样 *yīyàng*] orqali ifodalanib, ushbu konstruksiyada 一样 *yīyàng* o‘rniga, 相同 *xiāngtóng* / 相似 *xiāngsì* / 近似 *jìnsì* / 类似 *lèisì* so‘zlaridan ham foydalanish mumkin. Aytish joizki, old ko‘makchi hisoblangan 跟 *gēn* so‘zini 与 *yǔ*, 和 *hé*, 同 *tóng* kabi so‘zlar bilan almashtirib foydalanish mumkin, aynan shu xususiyat uning og‘zaki nutqdagi qulayligini ta‘minlab beradi. Masalan: 这本书跟那本书一样厚, 大概都是四百多页 [5; 236]. *Zhèběn shū gēn nàběn shū yīyàng hòu, dàgài dōushì sībāi duō xié*. Bu kitob bilan anavi kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan to‘rt yuz betdan ko‘proq. Ushbu misolda anavi kitobning qalinligi bu kitobga nisbatan anglashilmoqda va ikkita kitobning ham bir xil qalinlikda ekanligi mazmunini berish orqali jarayon vaqtidagi darajalarning tengligi ifodalanmoqda. Bunda, mohiyatiga ko‘ra, klimaks, baholash nuqtayi nazaridan obyektiv gradatsiya namoyon bo‘lgan, deb xulosa qilish mumkin.

Ma‘lumki, 有 *yǒu* fe‘li ikki shaxs yoki ikki xil harakatning xususiyatini, vaziyatini, miqdorini yoki darajasining o‘xshash taraflarini taqqoslashda qo‘llaniladi. Xitoy tilida 有 *yǒu* orqali qiyoslash ifodalan-ganda, A B ning darajasiga yetganligi ifodalanadi. 有 *yǒu* fe‘lidan keyin, odatda, 这么 *zhème*, 这样 *zhèyàng*, 那么 *nàme*, 那样 *nàyàng* qo‘llanadi, lekin 一样 *yīyàng* qo‘llanilmaydi. 没有 *méiyǒu* orqali inkor ma‘nosi ifodalan-ganda, u ham 比 *bǐ* old ko‘makchisi ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakli, ham 有 *yǒu* ishtiro-kidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakliga kirishi mumkinligini kuzatamiz. Eng muhim, e‘tibor qara-tiladigan jihat shundaki, xitoy tilida [A比 *bǐ* B.... 一样 *yīyàng*], [比 *bǐ* ... 不一样 *bù yīyàng*], [有 *yǒu*... 一样 *yīyàng*] kabi modellar mavjud emas. Masalan: 1. 这家商店的东西没有那家的东西那么便直 [6; 700]. *Zhè jiā shāngdiàn de dōngxī méiyǒu nà jiā de dōngxī nàme biàn zhí*. Bu do‘konning mahsuloti anavi do‘konning mahsulotichalik arzon emas.

[跟 *gēn*.... 差不多 *chàbùduo*] konstruksiyasi ifodalanayotgan darajalarning o‘zaro yaqinligini, lekin aynan bir xil emasligini bildiradi. (和 *hé*)... 完全两样 *wánquán liǎngyàng* ikki shaxs, harakat-holat yoki predmetning bir-biriga o‘xshamasligini, batamom ikki xil, umuman, boshqa-boshqa ekanligini, 就是不一样 *jiùshì bù yīyàng* esa ma‘lum shaxs yoki predmetlar o‘rtasida, umuman, o‘xshashlik yo‘qligini ifodalaydi. O‘xshatish orqali qiyoslash amalga oshganida, bunday gaplarda hukm to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita emas, balki muayyan boshqa hukmga nisbatan ifodalanadi. Sof qiyoslashda esa bir predmet, jarayon, hodisalar ularni o‘zaro o‘xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. De-mak, sof qiyoslash bilan birga o‘xshatish orqali ifodalanadigan qiyoslash konstruksiyalari ham mavjud bo‘-

lib, bunda belgi va xususiyat, harakat, jarayon yoki holat qiyoslanayotgan predmetlarga turli darajada emas, balki aynan bir xil darajada tegishli bo'ladi.

Xulosa. Tilshunoslikda qiyoslash XX asrdan boshlab alohida kategoriya sifatida o'rganila boshladi. Ushbu mavzu o'zbek, rus, xitoy va boshqa tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Qiyoslash konstruksiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasalishidagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko'ra tasnifi amalga oshirilgan. Ammo, ta'kidlash joizki, qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya masalasi shu vaqtga qadar monografik yo'sinda tadqiq etilmagan.

Qiyoslash morfologik va sintaktik belgilar orqali namoyon bo'ladi. Agar morfologik belgilar bilan ifodalansa, sifat va ravish so'z turkumlari doirasida morfologik sathda o'rganiladi. Agar gap qurilishi sintaktik belgilarga asoslangan bo'lsa, sintaktik sathda konstruksiyalar asosida o'rganiladi. Xitoy tilshunosligida qiyoslash konstruksiyalarining tadqiqi bo'yicha olib borilgan ishlar mazkur tilda qiyoslash morfologik usullar vositasida emas, balki muayyan sintaktik konstruksiyalar orqali amalga oshishi bilan boshqa tillardan farq qilishini ko'rsatadi. Xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalari ishtirokisiz qiyoslash mazmunli gaplarni tuzish mumkin emas.

Qiyoslash mazmunidagi gaplarida hamisha murakkab mazmuniy munosabat ifodalanib, ularda eng kami ikkita semantik propozitsiya bo'ladi. Bu ikki propozitsiya o'zaro *antiteza*, *farqlash* va *o'xshatish* vositasida bog'lanadi. O'xshatish negizida ham qiyoslash mavjud bo'lib, o'xshatish bir predmetni boshqasiga ular o'rtasidagi umumiy bo'lgan xususiyatga ko'ra qiyoslashdir.

Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalari ifoda mazmuniga ko'ra, uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi gradatsiyalar guruhlariga bo'linadi. Uzluksiz vaqt davomidagi gradatsiya chegaralanmagan vaqt oralig'ida ma'noning bosqichma-bosqich kuchayib yoki pasayib borishini ifodalovchi [一...比一...+X], [...越来越+X], [...越发+X] konstruksiyalari vositasida voqelanadi. Bunda [一...比一...+X] – vaqt o'lchovida asta-sekin o'zgarib turadigan doimiy nuqta, [...越来越+X] – vaqt o'lchovida cho'zilgan diogonal chiziq, [...越发+X] – vaqt o'lchovining ikki nuqtasi bo'lib, ushbu konstruksiya faqat grammatikaga oid ilmiy manbalarda uchraydi.

Jarayon vaqtidagi gradatsiyaning ifodalanishi esa ikki xil: birinchisi darajalardagi o'zaro farqni, uning baland yoki pastligini ifodalovchi guruh bo'lib, bunga 比, 不比, 不如, 没(有) ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi; ikkinchisi, darajalarning o'zaro teng yoki notengligini ifodalovchi konstruksiyalar guruhi bo'lib, u ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi. Birinchisi, darajaning teng yoki notengligi *farqlash* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [跟....(不)一样], [...(和)...完全两样], [...就是不一样]; ikkinchisi, darajaning teng yoki notengligini *o'xshatish* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [A跟B....相同], [A跟B...相似], [A跟B....近似], [A跟B....类似], [A跟 B....差不多], [A(没)有B (那么/这么)+...].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. д-ри ... дисс., Тошкент, 1997, 189 бет.
- (2). Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс., Тошкент, 2019, 150-бет.
- (3). Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1967, 263-бет.
- (4). Очилов О.М. Хитой тилида қиёсий гапларнинг шакли ҳақида. Хитойшунослик факультетининг биринчи илмий-амалий конференцияси материаллари, Тошкент, 2015, 163–173-бетар.
- (5). 现代汉语八百词. 北京: 商务印书馆出版社, 1980. 760页.
- (6). 现代汉语模范字典. 北京: 中国社会科学出版社, 2000年. 1683页.
- (7). 新华词典. 北京: 商务印书馆, 2001年. 1412页.

**Ochilova Ozoda Baxtiyorovna (UrDU tayanch doktoranti: ozoda.ochilova.90@mail.ru)
OMON MATJONNING “NAJMIDDIN KUBRO” FOJIASIDA KUBRO FENOMENI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Omon Matjonning “Najmiddin Kubro” asarida Shayx Najmiddin Kubro fenomenining yaratilishi, o'ziga xosliklari haqida gap boradi. Omon Matjon tragediyada qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlash yo'lidan boradi. Bu, ayniqsa, bosh qahramon tasvirida yorqin ko'rinadi. Ishda asarning bir qancha o'rinlarida Shayx Najmiddin Kubroning qanchalik buyuk avliyo, donishmand-mutafakkir, ilohiy-ruhoniylar sifatlar egasi bo'lmasin, u o'zi yashagan davr,

jamiyat bilan hisoblashishga majbur bo'lganligi, zamon "o'yin"lari oldida ojiz qolganligi haqqoniy aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *Shayx Najmiddin Kubro, tragediya, avliyo, Omon Matjon, fenomen, realistik tasvir, tarixiylik, badiiy obraz.*

Очилова Озода Бахтияровна (докторант УрГУ)

ФЕНОМЕН КУБРО В ТРАГЕДИИ АМОНА МАТДЖОНА «НАЖМИДДИН КУБРО»

Аннотация. *В данной статье говорится о создании и особенностях феномена шейха Наджмуддина Кубро в произведении «Наджмиддин Кубро» поэта Амона Матджана. Амон Маджон идет по пути реалистического описания внешности героев и их действий в трагедии. Особенно это заметно в образе главного героя. В некоторых частях произведения правдиво отражено то, что, каким бы великим святым, мудрецом-мыслителем, божественно-духовными качествами ни был шейх Наджмуддин Кубро, он был вынужден считаться со временем и обществом, в котором жил, и был бессилен перед «играми» времени.*

Ключевые слова: *Шейх Наджмуддин Кубро, трагедия, святой, Амон Матжон, явление, реалистический образ, историчность, художественный образ.*

Ochilova Ozoda Bakhtiyorovna (a Doctoral Student of UrSU)

KUBRO PHENOMENON IN THE TRAGEDY "NAJMIDDIN KUBRO" BY AMON MATJON

Annotation. *This article talks about the creation and peculiarities of the phenomenon of Sheikh Najmuddin Kubro in the work "Najmiddin Kubro" by the poet Amon Matjan. Amon Matjon follows the path of realistic description of the appearance of the characters and their actions in the tragedy. This is especially evident in the image of the main character. In several parts of the work, no matter how great a saint, sage-thinker, theological-spiritual qualities Sheikh Najmuddin Kubra was, he was forced to reckon with the time he lived in, the society, and was powerless in front of the "games" of the time truthfully reflected.*

Key words: *Sheikh Najmuddin Kubro, tragedy, saint, Omon Matjon, phenomenon, realistic image, historicity, artistic image.*

Kirish. Barcha zamonlarda ham tarixiy mavzuga murojaat qilish, har bir davrning va har bir avlodning eng zarur ehtiyoji sanalgan. Chunki xalq tarixini chuqur o'rganish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, xalqni milliy an'analarga hurmat va ehtirom, ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyatni buyuk istiqbolga eltuvchi omillardan biridir. Yurtimiz istiqbolga erishgandan keyingi yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda tasvirlanayotgan davr voqeliklarini ifodalashda tarixiy haqiqatga mumkin qadar tobora ko'proq darajada yaqinlashishga harakatlar seziladi. Shuningdek, tarixiy qahramon obrazini gavdalantirishda ham qanchalik yuksak shaxsiyat bo'lmasin, ortiqcha ideallashtirib yubormasdan, uni ham Oллоh yaratgan ojiz banda ekanligini real tasvirlash xususiyatlari teranroq ko'rinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotshunos A. Alimbekov "Tarixiy siymolarga bir inson sifatida qarash, ularning ko'ngil evrilishlarini berishga harakat qilish" [1;3-b.] bugungi tarixiy asarlarga xos jihat ekanligini qayd qiladi. Bu sifatlar dramatik turdagi asarlarga ham xos bo'lib, mustaqillik yillarida yaratilgan qator asarlarda tarixiy shaxslar tasvirida real haqiqatga tayanish, qahramonni butun murakkabliklari bilan badiiy aks ettirish kuzatilmoqda. Zero, tarixiy fakt-hujjatlarni chuqur o'rganib, tahlil qilgan muallif oldida o'sha o'tmishni va undagi tarixiy shaxslarni to'laqonli badiiy aks ettirish vazifasi turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, "Tarixiy asar yaratishda o'ziga xos badiiy shartlilik talablari mavjud. Ijodkor tarixiy faktni aynan ko'chirib emas, unga badiiy to'qima obrazlar qo'shib, voqelikni xayolan to'liq tasavvur etib, tarixiy voqelikni badiiy haqiqatga aylantirishda bir qancha mezonlarga tayanishi lozim. Masalan, o'tmishni tasvirlash uchun, tabiiy ravishda, o'sha davr leksikasini asarda qo'llashi, tarixiy milliy koloritni asarning ruhiga singdirib yuborishi lozim bo'ladi. Qolaversa, tarixiy asar fonida zamonaviy kun tartibdagi muhim ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy g'oyalarga ham jiddiy e'tibor berilishi lozim" [5, 32-b.]. Xuddi shunday jihatlarni Omon Matjonning tarixiy mavzuda yozilgan asarlarida ham kuzatamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoir Omon Matjonning "Najmiddin Kubro" asarida Shayx Najmiddin Kubro hayotining o'z yurti – Xorazmda kechgan so'nggi davrlari qalamga olinadi. Bu davrda Xorazmda Alouddin Tekashning o'g'li Qutbiddin Muhammad hukmronlik qilgan. Shu davr voqeligini, o'sha tarixiy jarayonni shoir dramatik janr imkoniyatlari darajasida badiiy aks ettiradi. Tarixiy fojiada Omon Matjon Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf allomasi, ma'naviy-ruhiy, jismoniy qudrat egasi, eng muhimi, yurt qahramoni, milliy vatanparvar sifatidagi adabiy-tarixiy obrazini yaratishga harakat qiladi. Unda buyuk ilm sohibining tabiat va inson, tiriklik va o'lim, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari asosida tarixiy jarayonning asosiy ikki nuqtasi – davr va inson munosabati yotadi. Bu munosabatda qahramon xarakteridagi shoir-

lik donishmandlikda, donishmandlik valiylikda, valiylik barkamollikda, barkamollik esa mutasavvuflikda namoyon bo‘lib, mukammal bir siymoni gavdalandiradi. Bunda, tabiiyki, qahramon yashagan davr, shart-sharoit, umuman, real voqelik adabiy xarakter shakllanishidagi asosiy zamin va omildir. Obyektiv tarixiy faktga aylangan bu voqelik “o‘tmishning individual va umumiy tomonlarini, kishilar kayfiyati, axloqi, madaniyat darajasi, psixologiyasi va dunyoqarashini umumlashtirish uchun ham xizmat qiladi” [3;15-b.].

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, Najmiddin Kubro haqida yozilgan qator tarixiy manbalar va kubroshunos olimlarning tadqiqotlarida uning ilohiy karomat sohibi, jismoniy, ruhiy, ma‘naviy qudrat egasi bo‘lganligi ko‘p bora qayd etiladi. Jumladan, A.Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” asarida Najmiddin Kubroning avliyoligi, karomatlari haqida bir qancha rivoyatlar keltiriladi. A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul futuvvat” asarida ham Shayxning kuniyat (“kuniyat” – arablarda hurmat yuzasidan beriladigan laqab)lari sanalib, ta‘lim olgan pir-u ustozlari, muridlari haqida ma‘lumotlar keltiriladi va bular ishonchli manbalar sifatida ahamiyatlidir. Tasavvufshunos olim N.Komilov Najmiddin Kubro haqida juda ko‘plab manbalarni o‘rganadi va ularga tayanib yozgan “Najmiddin Kubro” risolasida [2;31-b.] ulug‘ mutasavvuf donishmandning sarguzashtlarga, turli rivoyatlarga to‘la hayoti, uning avlodlarga qoldirgan boy irfoniy-tasavvufiy hamda adabiy merosi haqida qiziqarli ma‘lumotlar beradi. Ma‘lumki, Omon Matjon ham mumtoz adabiyot, Najmiddin Kubro hayoti va Kubraviya ta‘limoti, shuningdek, Xorazm tarixi xususida yetarli bilimlarga ega bo‘lgan nuktadon shoir. Omon Matjonning barcha tarixiy mavzudagi asarlari bunday deyishimizga yetarli asos bo‘la oladi. Omon Matjon “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasini yaratishda ulug‘ alloma haqida yozilgan tarixiy manbalarga, tasavvufiy asarlarga (kubraviya ta‘limoti qonun-qoidalariga), Kubro haqidagi rivoyatlarga va avliyoning o‘z asarlariga tayangan va bu asarni o‘qish davomida yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif har bir detalga, obrazlarning xatti-harakatlariga, ularning ruhiy kechinmalari va o‘y-xayollarigacha o‘sha davr ruhini mahorat bilan singdiradi. Tragediyada Najmiddin Kubro o‘zining zamon zayli, hayot mazmuni va inson qadri xususidagi dunyoviy va ilohiy-falsafiy qarashlarini uyg‘unlashtira olgan komil inson obrazida gavdalanadi.

Shuningdek, “Shayx Najmiddin Kubro” tragediyasida Shayx obrazining badiiy talqini orqali shoir allomaning jismoniy va ma‘rifiy qudratini uyg‘un tarzda tasvirlashga erisha olgan. Besh qismdan iborat bu tarixiy fojiada 75 yoshlardagi Shayx Najmiddin Kubro, Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkan xotun, Xorazmshohning o‘g‘illari: sarkarda Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O‘zloq shoh (taxt vorisi), Rukniddin Gursanji, Xumor tegin (Turkan xotunning ukasi) kabi tarixiy obrazlar ishtirok etadi. Fojining remarkasida o‘n beshdan ortiq obrazlar beriladi va voqealar, asosan, Shayx Najmiddin Kubro xonaqohi va Xorazmshoh saroyida bo‘lib o‘tadi.

Asarning dastlabki pardasida Abdul Jalil bilan Jaloliddin Manguberding jiyani Oychechak suhbatida Najmiddin Kubroning bashoratli avliyo ekanligi, juda sergak va ziyrakligi, zohirlikni ayon qiluvchi pir bo‘lganligi badiiy lavhalarda tasvirlanadi. Abdul Jalil Oychechakka “Pirim Gurganjday ulug‘ shaharda o‘zga bir begona qadamlar ovozi eshitganlarini aytdilarkim, goh chini, goh kinoyasini anglab bo‘lmas” [4;7-b.], deydi. Hali Chingizxon xavfidan bexabar Xorazmshoh kayf-u safo ichida, Turkon xotun esa o‘z urug‘-aymog‘ini boyitib, nasf o‘pqonida “huzurlanib” yashab yurgan paytida Shayxning bu balo-ofatni oldindan sezgani belgisi edi. Shayx “begona qadamlar” deganida mo‘g‘ullarning o‘z ona yurti – Xorazmga bostirib kelishlarini favqulodda ziyraklik bilan bashorat qiladi. Shu o‘rinda, Omon Matjon Najmiddin Kubro portretining muhim qirrasini: nurli qiyofasini, beqiyos ichki ruhiy qudrati va ilohiy siymoligini zikri samo paytida muridlar bilan savol-javob jarayonida, ma‘naviy va jismoniy yuksakligini esa bevosita konfliktlar jarayonida real tasvirlaydi. Ma‘lumki, tarixiy asarda ijodkor shaxsning ijodiy izlanishlari, badiiy va ilmiy mahsuloti u haqdagi asarlar uchun zarur materiallardan biridir.

Omon Matjon tragediyada qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlash yo‘lidan boradi. Bu, ayniqsa, bosh qahramon tasvirida yorqin ko‘rinadi. Asarning bir qancha o‘rinlarida Shayx Najmiddin Kubroning qanchalik buyuk avliyo, donishmand-mutafakkir, ilohiy-ruhoniylar sifatlar egasi bo‘lmasin, u o‘zi yashagan davr, jamiyat bilan hisoblashishga majbur bo‘lganligi, zamon “o‘yin”lari oldida o‘z qolganligi haqqoniy aks ettiriladi. Tragediyaning birinchi pardasida Xorazmshohlar saroyidagi muhitdan, otasining o‘zligidan qiynalgan sarkarda Jaloliddin so‘zsiz, jimgina Shayxning oldiga kelib o‘tiradi. Shunda Shayx Najmiddin Kubro unga: “Seni ovutmoqqa, dalda bermoqqa so‘zim qolmadi. Qaytaga nima boradadir seningmi ko‘maging menga asqoturday ko‘rinadi. Tavba qil-u senga xalal berayotganlardan uzlatga chekin desam, behad ko‘p jonlarning jon ilinji senda! Dunyo havasidan kech desam, anga na tobning, na havasing bor! Bardosh, matonat tilay desam, baaynih Ko‘hi Qofsan! Mening esa kuch-quvvatim hovuchdagi suvday, har gal barmoqlarim orasidan tushib ketib izza qilmoqda...” [4;1-b.], deydi. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda muallif ijobiy qahramonlar hayotidagi eng ziddiyatli, keskin jihatlarni va bunday vaziyatlardagi

chorasizlik holatini nihoyatda ta'sirli va tabiiy tasvirlyaydi. Najmiddin Kubro dunyoviy va diniy bilimlarni yuksak darajada egallagan, ilohiy sezgi sohibi bo'lgan buyuk avliyo sanalsa ham, davr dardlaridan, jamiyat va xalq hayotidan uzilib ketolmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon tragediyadagi har bir tarixiy obrazni qunt bilan o'rganadi, qahramonlar xarakteridagi o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Tarixiy shaxslar obrazini to'laqonli gavdalantrishda badiiy to'qima qahramonlar xarakterlari bilan chambarchas bog'lagan holda aks ettiradi. Shuningdek, obrazlar harakat qilayotgan XIII asrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi, ruhi va xalq hayotining tub mohiyati ham haqqoniy kartinalarda yoritiladi. Shayx Najmiddin Kubro obrazi ijtimoiy muhit va tarixiy voqealar bilan birgalikda bog'lab ko'rsatiladi. Shayxning ijtimoiy, ruhoni, insoniy siy mosi bir xilda voqealar fonida baravar namoyon bo'ladi. Omon Matjon tragediyada Xorazmshoh, Turkan xotun, Jaloliddin, O'zloq shoh kabi qator tarixiy va Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak, maxfiylar kabi to'qima obrazlar vositasida Shayx Najmiddin Kubroning turli vaziyatlardagi jismoniy, ruhiy, ma'naviy qiyofasini juda hayotiy va ta'sirli yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Алимбеков А. Тарих жозибаси. “Моҳият”, 2005, 30 декабрь.
- (2). Комилов Н. Нажмиддин Кубро. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т., 1995, 31-бет.
- (3). Мирвалиев С. Тарихий роман табиатига доир. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 1971, №1, 15-бет.
- (4). Омон Матжон. Дийдор азиз. “Noshir”, Тошкент, 2011, 87-бет.
- (5). Қўчқорова М. Ўзим ўз қалбимнинг бўлсам Колумби. “Шарқ юлдузи”, 2013, 1-сон.

Turdiyeva Hulkar (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti; E-pochta: turdiyeva@navoiy-uni.uz, hulkar.kamilovna@gmail.com; ORCID ID: 0000-0002-0435-8689)
ABDULLA QODIRIY KECHASIDA SO'ZLANGAN NUTQ

Annotatsiya. O'zbek adabiyotshunosi, jadidshunos olim va tarjimon Sherali Turdiyev XX asr avvalidan mustaqillik yillarigacha va uning davomidagi adabiy jarayon, ma'rifatparvarlar faoliyatlari, taqdir-lari, qatag'on qurbonlari qismatining ochilmagan sahifalarini arxiv materiallarini chuqur o'rgangan holda ochib berdi. O'zbek xalqining qardosh xalqlar bilan bo'lgan adabiy aloqalariga salmoqli hissa qo'shdi, tarjima asarlari bilan ko'plab nodir manbalarni o'zbek o'quvchilariga taqdim qildi. Mazkur maqolada 2004-yil Sherali Turdiyev tomonidan yozilgan “Abdulla Qodiriy kechasida so'zlangan nutq” xotiralari yo-ritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, o'zbek adabiyoti tarixi, Sherali Turdiyev arxivi.

РЕЧЬ НА ВЕЧЕРЕ, ПОСВЯЩЕННОМ ТВОРЧЕСТВУ АБДУЛЛЫ КОДИРИЙ

Аннотация. Шерали Турдиев, узбекский литературовед, историк и переводчик, на протяжении своей жизни провел множество исследований. Он раскрыл нераскрытые страницы литературного процесса, деятельности просветителей, судеб и участь жертв репрессий, глубоко изучив архивные материалы за период с начала XX века до начала XXI века. Он внес значительный вклад в литературные связи узбекского народа с другими народами. Своими переводами он подарил узбекским читателям множество бесценных источников. Благодаря статье “Речь на митинге, посвященном Абдулле Кадири”, написанной Шерали Турдиевым в 2004 году, мы можем получить информацию о творчестве Абдуллы Кадири и отношении к нему.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, Абдулла Каххор, история узбекской литературы, архив Шерали Турдиева.

SPEECH AT THE EVENING DEDICATED TO THE WORK OF ABDULLA KODIRIY

Annotation. Sherali Turdiev, Uzbek literary scholar, historian and translator did a lot of investigations throughout his life. He revealed unopened pages of the literary process, the activities of enlighteners, the fates, and the fate of the victims of repression, with a deep study of archival materials over a period from beginning of XX century until the beginning of XXI century. He made a significant contribution to the literary relations of the Uzbek people with other nations. By his translations, he presented many priceless sources to Uzbek readers. Through the article “Speech at the meeting dedicated for Abdullah Kadiri” written by Sherali Turdiev in 2004, we can get information about Abdulla Kadiri's works and attitudes towards him.

Keywords: Abdullah Kadiri, Abdullah Qahhor, history of Uzbek literature, Sherali Turdiev archive.

Kirish. Olim Sherali Turdiyev umrining so'nggi pallasigacha o'zbek adabiyoti darg'alari va ularning asarlari tadqiqiga alohida mehr berib, betinim mehnat va izlanishda bo'ldi. A.Navoiy, So'fizoda, Mahmud-

